Robotlar belgilangan marshrut bo‘ylab muntazam harakat qilib, hududni kuzatib boradi, ularga o‘rnatilgan yuqori sifatli kameralar orqali obyektlar onlayn-rejimida nazorat qilinadi hamda robotlar sun’iy intellekt (AI) yordamida odamlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni tanib oladi.

Qo‘riqlanayotgan obyektda xavfli holatlar (yondirish, buzib kirish yoki shubhali shaxslarni aniqlash) aniqlanganida darhol xavfsizlik xodimlariga signal yuboradi hamda zaruriy hollarda robot orqali ovozli aloqa tashkil qilinishi mumkin.

Harakatlanuvchi robotlar asosan g‘ildirakli, kvadrokopter yoki uchuvchi dronlar bo‘lib, katta hududlarda patrullik xizmatini olib borishda keng foydalanib kelinmoqda.

Qo‘riqlash faoliyatiga avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish orqali inson faktori tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar minimallashtirildi, uzoq muddatda ishchi kuchi xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy tejamkorlikni ta’minlashga erishildi.

Bugungi kunda, AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy va BAA kabi davlatlarda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarda robotlashtirilgan xavfsizlik tizimlari keng tarqalgan.

Obyektlar xavfsizlik tizimining yana bir muhim elementlaridan biri – obyektlarning kirish yo‘laklarida avtomatik to‘siq va blokiratorlarni tashkil etish hisoblanadi. Bunda avtomatik tarzda ishlaydigan shlagbaum, yo‘lto‘siqlari, mashinalarni ostki qismini tekshirishga mo‘ljallangan zamonaviy qurilmalardan foydalanib kelinmoqda.

Qo‘riqlash xizmatini samarali tashkil etish maqsadida transport vositalari va xodimlarning harakatini **“GPS”** va **“GLONASS”** tizimlari orqali real vaqtda kuzatilib va nazorat qilib borilmoqda.

Obyektlarni qo‘riqlashda zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish obyektlar xavfsizligini ta’minlashda inson omilini kamayishiga, tahdidlar va xavf-xatarlarga bartaraf eta oladigan mukammal tizimni shakllantirishga hamda davlat budjeti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mablag‘larini tejalishiga xizmat qiladi.

Xitoyning Beyxan universiteti tadqiqotchilari shaklini o‘zgartira oladigan va haqiqiy okean aholisi kabi dengiz tubi bo‘ylab harakatlana oladigan suv osti robotini yaratishdi[3]. Tajribalar davomida robot Mariana botig‘ida **10 666 m** chuqurlikka muvaffaqiyatli yetib bordi va ekstremal sharoitlarga aql bovar qilmaydigan darajada moslashuvchanlik va chidamlilikni namoyish yetdi.

Ko‘pgina chuqur dengiz transport vositalari nozik ekotizimlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ulkan tuzilmalardir. Yangi robot dengiz tubi bo‘ylab emaklab yuradi, suzadi va hatto sirpanadi, qanotlarini orqaga tortadi va yoya oladi.

Sinovlar davomida robot nafaqat manevr qilish qobiliyatini namoyish etdi, balki Janubiy Xitoy dengizi tubidan **3 400 m** chuqurlikdagi tirik namunalarni yig‘ishga ham yordam berdi. Kelgusida bu texnologiyalar yordami suv omborlari, yirik daryolar ustidan o‘tgan strategik ahamiyatga ega ko‘priklar va yirik suv inshootlarini onlayn-rejimida kuzatib borish imkoniyatini yuzaga keldi.

Hozirgi kunda turli mintaqaviy mojarolarda sun’iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi vositalar keng qo‘llanmoqda. Shundan kelib chiqib, 2025-yil 21-fevral kuni o‘tkazilgan harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan **qo‘shinlarda dronlar va ularga qarshi kurashish, sun’iy intellekt bilan ishlaydigan kibertuzilmalar, robotlashgan texnikalarni qo‘llash** va havo hujumidan mudofaa bo‘yicha yangi bo‘linmalarni tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi[4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, obyektlarni qo‘riqlash tizimida zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, bunda video kuzatuv, biometrik identifikatsiya, perimetr nazorati, avtomatlashtirilgan signalizatsiya va monitoring markazlari kabi innovatsion texnologiyalarning birlashtirilishi obyekt xavfsizligini yuqori darajada ta’minlash, inson omili ta’sirini kamaytirish va sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olish imkonini beradi.

Shu sababli, so‘nggi vaqtlarda yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlar va tahdidlardan kelib chiqib, obyektlarni, ayniqsa strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, qo‘riqlashda zamonaviy texnik vositalardan samarali va keng foydalanish bugungi kun talabiga aylangan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются меры по усилению безопасности и охраны объектов в Узбекистане с применением современных технологий. Основное внимание уделено внедрению автоматизированных систем управления, искусственного интеллекта, видеонаблюдения, биометрических технологий, дронов и роботов.

Ключевые слова: Система безопасности, роботизированные системы, киберугрозы, искусственный разум, охрана объектов, дроны, техническая охрана, автоматические барьеры, база данных, автоматический сигнал.

Abstract. This article examines measures to strengthen the security and protection of facilities in Uzbekistan using modern technologies. Special attention was paid to the implementation of automated control systems, artificial intelligence, video surveillance, biometric technologies, drones, and robots.

Keywords: Security system, robotic systems, cyber threats, artificial intelligence, object protection, drones, technical protection, automatic barriers, database, automatic signal.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хавфсизлик ва мудофаани мустаҳкамлаш масалалари муҳокама қилинди. https://president.uz
2. PostgreSQL: The World’s Most Advanced Open Source Relational Database. https://www.postgresql.org/
3. Мир Робототехники, https://roboticsworld.ru/
4. Ўзбекистонда сунъий интеллект билан ишлайдиган кибертузилма ва дронлар ҳамда уларга қарши кураш бўйича янги бўлинмалар тузилади. https://www.gazeta.uz

ISSN 3030-3230

BUYUK BRITANIYADA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA USULLARI

NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi boshlig‘ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, falsafa doktori (PhD), professor

Annotatsiya. **Ushbu maqolada Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari va usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buyuk Britaniyada qo‘llanilayotgan zamonaviy kriminologiya nazariyalari, jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy va institutsional choralar hamda amaliyotdagi samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatchilarni qayta ijtimoiylashtirish va jabrlanuvchilarni himoya qilish kabi sohalardagi zamonaviy dasturlar ham o‘rganiladi. Maqsad — jinoyatchilikka qarshi kurashishda Buyuk Britaniya tajribasi asosida boshqa davlatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan modelni aniqlash va umumlashtirishdir.**

Kalit so‘zlar: Buyuk Britaniya, jinoyatchilik, huquqni muhofaza qilish, profilaktika, jazo mexanizmi, kriminologiya nazariyalari, ijtimoiy tuzilma, Restorative justice, jamoat xavfsizligi, reabilitatsiya.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda jamiyatdagi barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamoatchilik, siyosiy institutlar, ta’lim va tarbiya tizimlari oldida turgan muhim vazifadir.

Xususan, rivojlangan davlatlar, jumladan Buyuk Britaniya ushbu sohada samarali nazariy va amaliy mexanizmlarni shakllantirib, jinoyatchilikni oldini olish, nazorat qilish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib bormoqda. Buyuk Britaniyaning bu boradagi tajribasi – uning huquqiy an’analari, demokratik institutlari, jamoatchilik nazorati va ilmiy asoslangan yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar ham Buyuk Britaniyada xavfsizlik darajasining yuqoriligini tasdiqlaydi. Masalan, 2024 yilgi “Global Peace Index” (Global tinchlik indeksi) ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu davlat “jamoat xavfsizligi”, “siyosiy barqarorlik” va “harbiylashtirish darajasi” kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahondagi eng xavfsiz mamlakatlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu esa, albatta, Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning ilmiy asoslangan mexanizmlari mavjudligidan dalolat beradi.

Jamiyat taraqqiyoti va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda jinoyatchilikka qarshi kurashish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har qanday davlat va jamiyatning barqarorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish darajasi ushbu masalaga qanchalik e’tibor berilishiga bog‘liqdir. Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali choralar ko‘rish nafaqat huquq-tartibot organlarining vazifasi, balki butun jamiyatning umumiy vazifasi hamdir.

Shu o‘rinda, rivojlangan davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirayotgan islohotlarini tahlil qilish va ularning mamlakat taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tajribalardan foydalanib har bir rivojlanayotgan davlatning huquqiy tizimini mustahkamlash, xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bunday tadqiqotlar milliy va xalqaro miqyosda samarali jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Avstraliyaning “**Institute for Economics & Peace**” (IEP) nodavlat tashkiloti tomonidan tayyorlangan **“Global Peace Index”** hisobotiga ko‘ra[1], **Buyuk Britaniya** davlati 2024 yilda 163 ta davlatlar orasida ***“Safety & Security domain”*** *(jamoat xavfsizligi va jinoyatchilik darajasi),* ***“Ongoing Conflict domain”*** (davom *etayotgan mojarolar va siyosiy beqarorlik)* va ***“Militarisation domain”*** *(harbiylashtirish darajasi)* kabi yo‘nalishlarda jahondagi eng

xavfsiz davlatlardan biri sifatida e'tirof etilgan[2]. Xususan:

*birinchidan, "**Safety & Security domain"** (jamoat xavfsizligi va jinoyatchilik darajasi)* yo'nalishi – mamlakat ichida tinchlikni ta'minlash darajasini, fuqarolar xavfsizligini shuningdek, jinoyatchilik holatlarini baholashga qaratilgan bo'lib, o'zida quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Bularga:

- *zo'ravon jinoyatlar darajasi* – davlatdagi umumiy jinoyatchilik, ayniqsa, zo'ravonlik bilan sodir etiladigan jinoyatlar soni;
- *jamoat xavfsizligi darajasi* – aholining politsiya va xavfsizlik xizmatlariga bo'lgan ishonchi;
- *terrorchilik tahdidlari* – mamlakat ichida terrorchilik harakatlari va ularning oqibatlari;
- *siyosiy beqarorlik* – davlatdagi siyosiy notinchlik va norozilik namoyishlari darajasi;
- *qochqinlar va ichki migratsiya* – mojarolar tufayli o'z uyini tark etgan odamlar soni.

*ikkinchidan, "**Ongoing Conflict domain"** (davom etayotgan mojarolar va siyosiy beqarorlik)* yo'nalishi – mamlakatning ichki va tashqi mojarolarda ishtirok etishi va siyosiy barqarorlik darajasini baholashga qaratilgan bo'lib, o'zida quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Bularga:

- *ichki va tashqi qurolli mojarolar* – davlatning ichki urushlar va mojarolarga jalb etilishi;
- *xorijdagi harbiy operatsiyalarda ishtirok etish* – davlatning xalqaro nizolardagi ishtiroki va urushlarga aralashuvi;
- *ichki siyosiy zo'ravonlik darajasi* – davlat ichidagi siyosiy zo'ravonlik, yetakchilarga qarshi fitnalar va mojarolari;
- *qurolli guruhlar faoliyati* – mamlakat ichidagi terroristik va qurolli guruhlar faoliyatining darajasidir.

*uchinchidan, **"Militarisation domain"** (harbiylashtirish darajasi)* yo'nalishi – davlatning harbiy xarajatlari va qo'shinlar sonini baholashga qaratilgan bo'lib, o'zida quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Bularga:

- *harbiy xarajatlar* – davlat budjeti qancha qismi harbiy xarajatlarga sarflanishi;
- *qurol-yarog' importi va eksporti* – davlatning qurol-yarog' savdosidagi ishtiroki;
- *faol xizmatdagi harbiylar soni* – harbiy xizmatdagi askarlar soni va ularning umumiy aholi soniga nisbati;
- *yadro va og'ir qurollarning mavjudligi* – mamlakatning yadro quroli va strategik qurollarga egaligi;
- *BMT tinchlikparvar kuchlarini moliyalashtirish* – mamlakatning xalqaro tinchlikni ta'minlashga qo'shayotgan hissasi kabilar kiritilgandir.

Shu o'rinda, 2024 yilgi **"Global Peace Index"** ma'lumotlariga ko'ra, eng xavfsiz davlatlardan biri sifatida e'tirof etilgan Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, har qanday muammo yuzasidan olinadigan ma'lumot Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda *" ... ilmiy yondashuvlar* [3] *asosida o'rganishlar o'tkazishni talab etadi"[4].*

Bugungi kunda, **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmi turli ilmiy nazariyalarga asoslangan holda shakllantirilgan bo'lib, jinoyatchilikning sabablarini tahlil qilish, uning oldini olish va samarali nazorat qilishni ta'minlashga qaratilgandir. Bu yondashuvlar jinoyatning paydo bo'lish omillarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashishda qo'llayotgan ilmiy nazariyalari jinoyatchilikning turli jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin. Bularga:

birinchi yo'nalish, *jinoyatchilikning **sabablarini aniqlash va tahlil qilish bilan bog'liq ilmiy yondashuv bo'lib,*** **mazkur jarayonda jinoyatchilikning** sabablarini tushunish va tahlil qilish uchun **Buyuk Britaniyada** *ijtimoiy, iqtisodiy* va *psixologik omillar* chuqur o'rganiladi. Shuningdek, jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishda turli ijtimoiy nazariyalardan foydalaniladi. Bu nazariyalar jinoyatning jamiyatdagi ildizlarini aniqlashga yordam beradi va uning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida jinoyatchilikning sabablarini tushuntiruvchi asosiy nazariyalar kengroq yoritilgan. Xususan:

a) Social Structure Theory *(ijtimoiy **tuzilma nazariyasi)*** **– mazkur nazariyaga ko'ra** jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar jinoyatchilikning kelib chiqishiga ta'sir qiladi[5]. Kambag'allik, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik shaxsda jinoyatga moyillikni oshiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi. Ushbu nazariyaning ahamiyati shundaki, jamiyatdagi normalar va

ISSN 3030-3230

qoidalar noaniq bo‘lgan hollarda yoki ular buzilganda jinoyatchilikning ko‘payishi *(Émile Durkheim “Anomie Theory”),* shuningdek, jamiyatdagi iqtisodiy muvaffaqiyat standartlari va ularga erishishdagi cheklovlar jinoyatga olib kelishi mumkinligi, shu bilan birga kambag‘allik va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi jinoyatchilikni oshirishga xizmat qilishiga alohida urg‘u beradi *(Robert Merton “Strain Theory”)*.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda **Buyuk Britaniyada mazkur nazariya asosida *“Ijtimoiy** siyosat va ijtimoiy farovonlik”, “Kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikka qarshi choralari”* va *“Tibbiy va ta’lim tizimida tenglikni ta’minlash orqali jinoyatga moyillikni kamaytirish”* kabi davlat dasturlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan;

b) Subcultural Theory *(submadaniyat nazariyasi)* – mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyatchilik ayrim ijtimoiy guruhlarning madaniy normalari va qadriyatlari bilan bog‘liq. Jinoyatchi shaxslar ko‘pincha o‘zlarining shaxsiy muhitida hukm suradigan an’anaviy normalarga tayanib harakat qiladilar[6]. Ushbu nazariyaning ahamiyati shundaki, bugungi kunda kambag‘al oilalardan chiqqan yoshlar an’anaviy jamiyat normalariga moslasha olmaganliklari sababli, o‘zlarining alternativ submadaniyatini yaratishadi natijada ularda jinoyat sodir etishga moyillik kuchayadi. Shuningdek, jinoiy faoliyatning ijtimoiy tuzilmalar va imkoniyatlarga bog‘liq holda jinoyat─kambag‘al oilalarda o‘sayotgan yoshlar orasida hukm suradigan qadriyatlarga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda **Buyuk Britaniyada** mazkur nazariya asosida *“Kambag‘al va muhtoj yoshlar uchun ta’lim va kasbiy o‘quv dasturlari”* va *“Jinoyatga moyil yoshlar uchun reabilitatsiya va tarbiyaviy ishlar dasturlari”* qabul qilinib amaliyotga joriy etilgan;

v) Social Bond Theory *(ijtimoiy aloqalar nazariyasi)* – mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyatchilik insonning jamiyat bilan aloqalari zaiflashganida yoki butunlay uzilganda paydo bo‘ladi[7]. Insonlar jinoyat sodir etmasliklari uchun jamiyat bilan kuchli aloqalarga ega bo‘lishi lozim. Ushbu nazariyaning ahamiyati shundaki, jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish muhimdir. Aks holda yoshlar orasida jinoyatchilik yuqori bo‘ladi. Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, oila, ta’lim va ish bilan bandlikni ta’minlash jinoyatchilikni kamaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Bugungi kunda, **Buyuk Britaniyada mazkur nazariya asosida *“Ta’lim** va bolalarni tarbiyalash tizimini yaxshilash”, “Qiyin ahvoldagi yoshlarni ijtimoiy jamoaga qo‘shish”* va *“Politsiya va jamoatchilik hamkorligi orqali nazoratni kuchaytirish”* kabi davlat dasturlari qabul qilingan[8];

***ikkinchi yo‘nalish,** jinoyatchilikni **oldini olish strategiyasi bilan bog‘liq ilmiy yondashuv bo‘lib,* bunda jinoyatchilikni** oldini olishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish orqali jinoyatchi shaxslarning jinoiy harakatlarini cheklash, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining imkoniyatlarini kamaytirish va jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning fikrlash va dunyo qarashini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu strategiyalar shaxsning jinoyat sodir etishining ehtimolini pasaytirish orqali xavfsizlikni oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikni oldini olishda “***Rational Choice Theory”*** [9] ***(ratsional tanlov nazariyasi)*** va ***“Routine Activity Theory”** (ruhiy oddiy faoliyat nazariyasi)* **kabi ilmiy nazariy yondashuvlardan keng foydalanilmoqda.** Quyida biz mazkur nazariyalarni mazmunan kengroq yoritib o‘tamiz[10].

a) “Rational Choice Theory” *(ratsional tanlov nazariyasi)* – mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyatchi shaxslar o‘z harakatlarini manfaat va yo‘qotishlar nuqtai nazaridan baholab, ratsional qarorlar qabul qiladi[11]. Jinoyat sodir etishdan oldin shaxs uning ehtimoliy foydasi va tavakkalchilik darajasini hisobga oladi. Agar jinoyatning foydasi yuqori va tavakkalchilik past bo‘lsa, uni sodir etish ehtimoli ortishi mumkin. Bundan tashqari, Gary Becker, Derek Cornish va Ronald Clarke kabi olimlar o‘z ilmiy qarashlari orqali jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning hatti-harakatlarini quyidagi bosqichlarga ajratishgan. Bular:

- ✓ *jinoyatchilar o‘zlarini ratsional shaxslar sifatida tutadilar va xavf-xatarni minimallashtirishga harakat qilishi[12];*
- ✓ *jinoyatchilikni kamaytirish uchun jazo muqarrarligi, xavfning yuqoriligi va qiyinchilik darajasini ortib borishi;*
- ✓ *shaxsda jinoyat sodir etish imkoniyatlari cheklansa, jinoyatchilar o‘z niyatlaridan voz kechish ehtimolining yuqoriligi.*

Bugungi kunda **Buyuk Britaniyada “Rational Choice Theory”** nazariyasi asosida

jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra:

- *jazo muqarrarligini oshirish* – jinoyatchilar uchun jazoning muqarrarligi va og‘irligini kuchaytirish orqali shaxsda jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish maqsad qilib qo‘yilgan;
- *xavfni oshirish* – politsiya patrullik yo‘nalishlarini ko‘paytirish, videokuzatuv tizimlarini keng joriy etish orqali jinoyatchilar uchun tavakkalchilik darajasini oshirish ko‘zda tutiladi;
- *himoya vositalarini kuchaytirish* – xavfsizlik signalizatsiyalari, mustahkam eshik va qulflar, avtomobillar uchun qo‘shimcha himoya tizimlarini o‘rnatish orqali jinoyat imkoniyatlarini kamaytirishga e’tibor qaratish.

Bu choralar jinoyatchi shaxslarni o‘z xatti-harakatlarini qayta baholashga majbur qilish va jinoyatchilik darajasini pasaytirishga qaratilgan.

b) “Routine Activity Theory” *(ruting faoliyat nazariyasi)* – mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyat sodir etilishi uchun uchta asosiy omil bir vaqtda mavjud bo‘lishi lozim[13]. Bularga:

❖ himoyasiz maqsadli obyekt *(jabrlanuvchi yoki mulk);*

❖ muhofazaning yo‘qligi *(politsiya, qo‘riqchilar yoki jamoatchilik nazoratining sustligi);*

❖ jinoyat sodir etishga moyil shaxslar.

Ushbu omillar birgalikda jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyatchilikni kamaytirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

➢ *mamlakatda muhofazani kuchaytirish* – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini samarali tashkil etish;

➢ *mamlakatda obyektlar himoyasini kuchaytirish* – mulk va shaxslarning xavfsizligini ta’minlash;

➢ *jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning jinoyat sodir etish imkoniyatlarini cheklash* –shaxsda jinoyat sodir etishga moyillikni kamaytirish bo‘yicha ijtimoiy va huquqiy choralarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda **Buyuk Britaniyada mazkur nazariya asosida videokuzatuv moslamalarining o‘rnatilganligi *(ko‘cha*** *va jamoat joylarida video kuzatuv kameralarining o‘rnatilganligi jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qilmoqda),* politsiya **tomonidan patrullik xizmatlari tizimli tashkillashtirilganligi *(politsiyaning*** *muntazam nazorati jinoyatchilik xavfini pasaytirmoqda)* va himoya **mexanizmlarini kuchaytirilganligi *(uy-joylarning*** *mustahkamligi, mulkni qo‘riqlash pultlarga ulanganligi va transport vositalarining xavfsizlik choralari tizimli amalga oshirilayotganligi)* o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

v) Crime Prevention Through Environmental Design *(urbanistika **va muhit orqali jinoyatning oldini olish)*** **– mazkur nazariyaga ko‘ra,** shaharsozlik va arxitektura orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin[14]. Ochiq va yorug‘ joylar, yaxshi dizayn qilingan jamoat hududlari, nazorat va himoya tizimlarini kuchaytirish jinoyatchilikning oldini oladi.

Bugungi kunda “**Crime Prevention Through Environmental Design”** nomli nazariyadan **Buyuk Britaniyada shahar muhitini yaxshilash** *(yaxshi yoritilgan ko‘chalar, ochiq hududlar va shaffof jamoat joylarini yaxshilashda),* jamoat **nazoratini kuchaytirish** *(kuzatuv va hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishda),* kuchaytirilgan **jamoat xavfsizligini** *(parking joylarini to‘g‘ri rejalashtirish, xavfsiz kirish-chiqish yo‘laklarini tashkil qilish)* ta’minlashda keng foydalanib kelinmoqda.

Mazkur islohotlar esa o‘z navbatida **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikni oldini olish strategiyalari jinoyatchilarning imkoniyatlarini cheklash va jamoat xavfsizligini oshirishga yo‘naltirilgandir;

uchinchi yo‘nalish, *jabrlanuvchilarni himoya qilish va jinoyat oqibatlarini yumshatish **bilan bog‘liq ilmiy yondashuv bo‘lib,*** **mazkur yondashuv o‘zida *“Restorative Justice Theory”* (tiklovchi adolat nazariyasi)ni qamrab olgan.** Ushbu nazariyaga ko‘ra, jinoyat faqat huquqiy normalarning buzilishi emas, balki shaxslarga va jamoaga yetkazilgan zarar sifatida qaraladi[15]. Shu sababli, tiklovchi adolatning asosiy maqsadi jabrlanuvchi, jinoyatchi va jamoat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta tiklash, adolatni ta’minlash va jinoyat oqibatlarini yumshatishdan iboratdir.

Bugungi kunda **Buyuk Britaniyada** tiklovchi adolat nazariyasi asosida jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash va jinoyat oqibatlarini yumshatish uchun quyidagi dasturlar amalga oshirilmoqda. Bularga:

a) *jabrlanuvchilarga **psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatish dasturi*** **– mazkur dasturga ko‘ra, jabrlanuvchilarga** jinoyat oqibatlarini

ISSN 3030-3230

yengishda yordam berish maqsadida *"Victim Support"* kabi tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ushbu tashkilotlar jabrlanuvchilarga bepul maslahatlar, huquqiy ko‘mak va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etadi;

b) ***jabrlanuvchi va jinoyatchi o‘rtasida muloqot dasturi (Restorative Justice Conferences)*** **– mazkur dasturga ko‘ra, Buyuk Britaniyada** jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasida ixtiyoriy ravishda muloqot tashkil etiladi. Bu jarayonda jinoyatchi o‘z qilmishining oqibatlarini anglaydi va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash choralarini muhokama qiladi. Bunday uchrashuvlar jabrlanuvchilarga ruhiy yengillik berib, jinoyatchilarga esa o‘z xatolarini tan olish imkoniyatini taqdim etadi;

v) ***jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish dasturi*** **– mazkur dasturga jabrlanuvchilarning** ijtimoiy hayotga qayta moslashishi, o‘zlaridagi ruhiy stressni yengishlari uchun maxsus reabilitatsiya olishlari shuningdek, jabrlanuvchilarga ishga joylashish, huquqiy yordam olish va ruhiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini beradi;

g) *jinoyatchilar* ***uchun tiklovchi adolat dasturi*** **– mazkur dastur jinoyatchilar** uchun jazoni yengillashtirish yoki ularni qayta ijtimoiylashtirish maqsadida jamoat ishlariga jalb qilish, zararni qoplash majburiyati yuklash va qayta tarbiya dasturlarini joriy etish kabi choralar qo‘llaniladi.

Umuman olganda, tiklovchi adolat nazariyasi jabrlanuvchilarni himoya qilish va jinoyat oqibatlarini yumshatishda samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi;

to‘rtinchi yo‘nalish, *jinoyatga moyil shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish* ***bilan bog‘liq ilmiy yondashuv bo‘lib,*** **bunda jinoyatga** moyil shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish masalasi jinoyat, psixologiya, sotsiologiya va ijtimoiy ish sohalarida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon shaxslarning jamiyatga moslashishini qayta tiklash, ularni qonuniy va ijtimoiy maqbul normalarga muvofiq hayot kechirishga tayyorlashdan iboratdir.

Ilmiy jihatdan bu jarayon ikki asosiy nazariya— "**Social Learning Theory**" ***(ijtimoiy o‘rganish nazariyasi)*** [16] va "**Reintegrative Shaming Theory**" ***(reintegratsiya nazariyasi)*** asosida tushuntiriladi[17].

a) "**Social Learning Theory**" ***(ijtimoiy o‘rganish nazariyasi)*** **– mazkur nazariyaga ko‘ra,** insonlar o‘z xatti-harakatlarini **atrof-muhitdan, oila, do‘stlar, jamiyat va ommaviy axborot vositalari ta’sirida boshqaradi.** Jinoyatga moyil shaxslar ko‘pincha bolalikda yoki o‘smirlik davrida nohaqona xatti-harakatlarni ko‘rish yoki o‘rganish orqali ushbu modelni o‘zlashtiradi. Shuningdek, jinoyatga moyil shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish usullari yoritiladi. Bularga:

- ***pozitiv rol modellarini yaratish,*** **ya’ni jamiyatdagi** muvaffaqiyatli va qonuniy hayot tarzini targ‘ib qilish;
- ***kognitiv-xulq terapiya metodlarini yaratish,*** **ya’ni** jinoiy tafakkurni o‘zgartirish va konstruktiv muomala ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ***mashg‘ulotlar va treninglarni yaratish, ya’ni*** **munosib** ijtimoiy va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Mazkur nazariya Buyuk Britaniyada jinoyatga moyil yoshlar uchun amaliy dasturlarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi;

b) "Reintegrative Shaming Theory" ***(reintegratsiya nazariyasi)*** **–** mazkur nazariyaga ko‘ra, jinoyatga moyil shaxslarni jazolashning ikki xil turi mavjud:

- ***stigmatiziruvchi (kechirilmas) jazo*** – jinoyat sodir etgan shaxsni butunlay jamiyatdan chetlatish. Bu usul shaxsning yanada jinoiy muhitga qaytishiga olib keladi.
- ***reintegrativ sharmandalik*** – jinoyatni qoralash, biroq jinoyatchini emas. Bu usul jinoyatchiga aybi uchun javobgarlikni his qilishga va o‘z xatti-harakatini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Bu nazariya nafaqat **Buyuk Britaniyada** balki Avstraliya va Kanada davlatlarida ham turli qayta ijtimoiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llanib, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish va ularni jamiyatga qayta jalb etishga yo‘naltirilgan.

Ma’lumot uchun, so‘nggi yillarda **Buyuk Britaniyada** jinoyatga moyil yoshlar va mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish uchun quyidagi mexanizmlar amalga oshirilmoqda[18]. Bularga:

- *maxsus ta’lim dasturlari* – yoshlar va sobiq mahkumlar uchun maxsus kurslar tashkil etilib, ularning bilim va malakalari oshiriladi;
- *kasbga o‘qitish (Vocational Training)* – jinoyatga moyil yoshlarga turli kasblar bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatlari taqdim etiladi;
- *psixologik reabilitatsiya* – maxsus maslahat markazlari va psixologik yordam dasturlari orqali shaxsiy muammolarni hal qilish va stressni bartaraf etishga yordam beriladi.

Bundan tashqari, **AQSH** va **Yevropa davlatlarida** jinoyatga moyil yoshlar va mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish uchun quyidagi mexanizmlar amalga oshirilmoqda. Bularga:

- *"Restorative Justice" dasturlari* – jabrlanuvchi va jinoyatchini uchrashtirish, muzokara orqali muammoni hal etish, shu orqali jinoyatchining o'z xatosi ustida ishlashini ta'minlash.
- *"Second Chance" dasturlari* – qayta jinoyatchilikni kamaytirish uchun ishga joylashtirish va ta'lim imkoniyatlarini yaratish.
- *"Cognitive Behavioral Therapy" (CBT) metodi* – shaxsda jinoyatga moyil fikrlashni o'zgartirish va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etish.

Yuqorida ilgari surilgan fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda Buyuk Britaniyada *jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi* jinoyatlarning sabablarini aniqlash, ularning oldini olish, jazoning muqarrarligini ta'minlash, jabrlanuvchilarni himoya qilish va jinoyatchilarni qayta ijtimoiylashtirish kabi keng qamrovli yondashuvlarga tayanadi. Ushbu nazariy asoslar jinoyatchilikka qarshi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida biz **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikka qarshi kurashishning nazariy asoslarini tahlil qildik. Endilikda esa mazkur jarayonning asosiy yo'nalishlari va usullarini ilmiy asoslangan tarzda batafsil yoritamiz.

Xususan, mazkur davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari:

"crime prevention" *(jinoyatlarning oldini olish);*

"crime control" *(jinoyatchilikni nazorat qilish va jinoyatchilarga qarshi kurashish);*

"improving punishment mechanisms" *(jazo mexanizmlarini takomillashtirish)ga* qaratilgandir.

Bu yo'nalishlar davlat *siyosati, huquqiy mexanizmlar* va *profilaktika ishlari* bilan bog'liqdir.

"Crime prevention" *(jinoyatlarning oldini olish)* – bu jamiyat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarga olib keluvchi omillarni kamaytirish va huquqiy-ijtimoiy tizimlar orqali jinoyatchilik darajasini pasaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuidir[19]. Shuningdek, **Buyuk Britaniyada** mazkur jarayon davlat siyosati darajasida turli sohalarda amalga oshiriladi va u *huquqiy, ijtimoiy* hamda *iqtisodiy* mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Jinoyatchilikka qarshi profilaktika strategiyalari mamlakatda *jinoyatlarning sabablarini aniqlash, huquqbuzarlikka moyil shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish* va *fuqarolarni jamoat tartibini saqlashga jalb qilish* kabi usullarga asoslanadi:

a) **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida amaldagi huquqiy normalar muntazam ravishda *Crime and Disorder Act (1998)* [20], *Police and Criminal Evidence Act (1984)* [21], *Serious Crime Act (2007)* [22], *Cybercrime Act (2015)* [22] kabi qonunlar asosida takomillashtiriladi, qayta ko'rib chiqiladi va zarurat tug'ilganda yangilanadi;

b) **Buyuk Britaniyada** jamoatchilikning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ishtiroki yuqori darajada qo'llab-quvvatlanadi. Bu borada asosiy o'rin *"Neighborhood Watch"* dasturiga tegishli bo'lib[23], u mahallalarda fuqarolarning xavfsizlikni ta'minlashdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, *"Community Policing"* [24] tamoyili doirasida politsiya mahalliy jamoalar bilan yaqin hamkorlik o'rnatadi va bu jarayon *"Safer Neighbourhoods Teams"* (SNTs) orqali amalga oshiriladi[25]. Bundan tashqari, mamlakatda jinoyatchilikni kamaytirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan *"Closed Circuit Television"* (CCTV) tizimi keng joriy etilgan bo'lib[26], kameralari o'rnatilgan hududlarda jinoyatchilik miqdori 20-30% ga kamayishiga erishilgan;

v) Buyuk Britaniyada ishsizlikni kamaytirish va bandlikni rag'batlantirish maqsadida *"Work and Health Programme"*[27] hamda *"Kickstart Scheme"* kabi dasturlar joriy etilgan bo'lib[28], ushbu tashabbuslar mehnat bozoridagi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik darajasini pasaytirish maqsadida *"Apprenticeship Programme"* [29]. va *"Youth Contract"* kabi dasturlar amalga oshirilgan bo'lib [30], ular yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynagan. Bundan tashqari, jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga samarali qayta integratsiya qilish maqsadida *"Offender Rehabilitation Act"* (2014) qabul qilingan bo'lib[31], ushbu qonun jazoni o'tab chiqqan shaxslar uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali ularning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan.

"Crime control" *(jinoyatchilikni nazorat qilish va jinoyatchilarga qarshi kurashish)* – **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikni nazorat qilish

ISSN 3030-3230

va unga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli strategiya amalga oshiriladi. Ushbu strategiya bir nechta muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bular:

a) *“Community Policing”* (jamoat politsiyasi) – **Buyuk Britaniyada** politsiya va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan strategik yondashuv hisoblanadi. Ushbu model jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, profilaktik tadbirlar hamda mahalliy aholi bilan doimiy muloqot asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, mamlakatda *“Safer Neighbourhoods Teams”* (SNTs) tizimi joriy etilgan bo‘lib[32], u mahalliy politsiya xodimlari va jamoatchilikni qo‘llab-quvvatlovchi ofitserlardan *(Police Community Support Officers – PCSOs)* iborat maxsus guruhlar orqali faoliyat yuritadi. Ushbu guruhlar mahalliy jamoa bilan yaqin hamkorlik o‘rnatib, xavfsizlik tahdidlarini bartaraf etish va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. Bunday yondashuv jinoyatchilikni profilaktika qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, jamoat tartibini saqlash va aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi;

b) ***jinoyatchilarni aniqlash va jazolash*** **– Buyuk Britaniyada jinoyatchilarni identifikatsiya qilish va adolatli sud jarayonlarini ta’minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalar hamda ilg‘or kriminalistik usullar keng qo‘llaniladi. Shuningdek, jinoyatlarni tahlil qilish va qonuniy javobgarlikka tortish jarayonlarida *“Closed-Circuit Television” (CCTV)* tizimi muhim ahamiyatga ega bo‘lib[33], ushbu texnologiya jamoat joylarida jinoyatchilikning oldini olish hamda qonuniy dalillarni yig‘ish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, *biometrik ma’lumotlar* – DNK tahlili, barmoq izlari va sud ekspertizasi kabi ilg‘or metodlar jinoyatchilarni aniqlash va ularning jinoiy faoliyatini tasdiqlashda muhim o‘rin tutadi. Buyuk Britaniyaning sud tizimi esa qonuniy jarayonlarning adolatli va shaffof o‘tishini ta’minlash orqali jazoning muqarrarligini kafolatlaydi. Ushbu jarayon qonun ustuvorligi va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.**

v) ***“Office for National Statistics”*** [34] ***(ONS)*** (jinoyat **statistikasini tahlil qilish) – Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka** qarshi kurashishda statistik tahlil muhim rol o‘ynaydi. Xususan mazkur davlatda **“*Office for National Statistics” *(ONS)*** muntazam ravishda jinoyatchilik bo‘yicha hisobotlar tayyorlaydi. Ushbu ma’lumotlar asosida xavfli hududlar aniqlanib, ularga nisbatan maxsus choralar ko‘riladi. *Masalan,* ***“hotspot policing”*** *strategiyasi orqali jinoyatchilik ko‘p uchraydigan joylarda politsiya patrullari ko‘paytiriladi;*

g) ***jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish*** **– Buyuk Britaniyada jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish maqsadida bir nechta tizimli dasturlar amalga oshiriladi. Xususan, 2014-yilda qabul qilingan *“Offender Rehabilitation Act”* mazkur jarayonni qonunchilik asosida tartibga solib[35], jazoni o‘tab chiqqan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qonunga muvofiq, qamoqdan ozod qilingan shaxslar uchun qo‘shimcha reabilitatsiya dasturlari va probatsiya nazorati joriy etilgan bo‘lib, bu ularning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. *Rehabilitation and resettlement programmes (reabilitatsiya va jamiyatga qayta moslashtirish dasturlari)* mahkumlarga ish topish, kasbiy malaka oshirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi[36].**

Shuningdek, *“Probation Service” (probatsiya xizmati)* orqali jinoyatchilarga ta’lim olish[37], mehnat bozoriga kirish va jamiyatdagi ijtimoiy normalarga moslashishda yordam ko‘rsatiladi. Bunday yondashuv jinoyatchilarni qayta jinoyat sodir etishining oldini olish va ularning jamiyatda ijobiy faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratilgan.

“Improving punishment mechanisms”[38] *(jazo mexanizmlarini takomillashtirish)* – **Buyuk Britaniyada** jazo mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida bir qator strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ushbu islohotlar: *a) qonunchilikni takomillashtirish, b) jamoatchilik nazorati va shaffoflikni oshirish, v) jazoni o‘tash muassasalarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, g) korrupsiyaga qarshi kurashish* hamda *d) jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish* kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Jazo tizimini takomillashtirishga qaratilgan

mazkur islohotlar jinoyatchilikning oldini olish, adolatli jinoiy odil sudlov tizimini ta'minlash hamda jamiyatda qonuniylik va huquqiy ustuvorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Buyuk Britaniyada bu jarayon zamonaviy huquqiy normalar, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va sud-huquq tizimini samarali isloh qilish asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, jazo mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilik darajasini kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida baholanadi.

Yuqorida biz **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikka qarshi kurashishning ilmiy nazariyasi va uning asosiy yo'nalishlarini batafsil tahlil qildik. Endi esa, ushbu davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashishda qo'llaniladigan amaliy usullarning ilmiy asoslari va samaradorligi tahlil etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xususan, bugungi kunda Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida bir qator samarali usullar (strategiyalar) dan foydalaniladi. Shuningdek, ushbu usullar zamonaviy *kriminologiya, huquqshunoslik, jamoat xavfsizligi, psixologiya* va *sotsiologiya fanlarining* nazariy hamda amaliy yondashuvlariga asoslanadi. Bularga:

birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish usullar (strategiyalari) va ularning elementlariga:

a) *qonunchilik va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati* – politsiya, sud va prokuratura tizimlari jinoyatlarga qarshi kurashda mukammal mexanizmlar asosida ishlaydi. Shuningdek, **Buyuk Britaniyaning** "*Criminal Justice System" (CJS) (jinoiy odil sudlov tizimi)* jinoyatlarning oldini olish, taftish qilish va jazo choralarini belgilashga yo'naltirilgan[38];

b) *qat'iy jinoiy jazo siyosati* – jinoyatlarga qarshi qat'iy jinoiy sanksiyalar joriy qilingan. Masalan, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya va inson savdosi kabi og'ir jinoyatlar bo'yicha keskin jazolar mavjudligi;

v) *jinoyatchilikka qarshi jamoaviy kurash* – mahalliy jamoalar va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Masalan, *Community Safety Partnerships (CSPs)* jinoyatchilikni kamaytirish uchun mahalliy organlar va jamoat a'zolarining birgalikda ish olib borishini ta'minlaydi;

ikkinchidan, jinoyatchilikni oldini olish va profilaktika dasturlari:

a) *early intervention (erta profilaktika)* – yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida maktablarda maxsus ta'lim dasturlari tashkil etiladi. **Buyuk Britaniyada** *"Youth Offending Teams" (YOTs)* yoshlarning huquqbuzarliklarini kamaytirishga qaratilgan[39];

b) *raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish* – **Buyuk Britaniya** politsiyasi **"Predictive Policing"** usulidan foydalanib, sun'iy intellekt yordamida jinoyatlarni prognoz qilish va ularni oldini olish choralarini ko'radi;

v) *jamoat xavfsizligini ta'minlash va "Closed-Circuit Television" (CCTV) tizimi* – mamlakatda jinoyatchilikni kamaytirish uchun kuzatuv kameralari keng tarqalgan. **Buyuk Britaniya** Yevropada eng ko'p videokuzatuvga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi;

uchinchidan, jinoyatchilarni qayta ijtimoiylashtirish va reabilitatsiya qilish:

a) probatsiya xizmati va qayta ijtimoiylashtirish – qamoqdan chiqqan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish va ularning jinoiy faoliyatga qaytishini oldini olish maqsadida *National Probation Service (NPS)* faoliyati yo'lga qo'yilgan;

b) terapevtik va psixologik reabilitatsiya – og'ir jinoyat sodir etgan shaxslar uchun maxsus reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Masalan, zo'ravonlikka moyil shaxslar uchun *Cognitive Behavioural Therapy (CBT)* asosida maxsus kurslar tashkil etiladi;

to'rtinchidan, xalqaro hamkorlik va transmilliy jinoyatlarga qarshi chora-tadbirlar:

a) *Interpol va Yevropol bilan hamkorlik* – xalqaro terrorizm, narkotrafik va odam savdosi kabi jinoyatlarga qarshi transchegaraviy hamkorlik olib boriladi;

b) "National Cyber Security Centre" (NCSC) *(kiber jinoyatlarga qarshi kurash)* – mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlash va kiberjinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan.

beshinchidan, statistik tahlil va natijalar – jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va siyosatlar samaradorligini baholashda statistik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlar va mavjud ma'lumotlar jinoyat darajasini pasaytirishda turli strategiyalarning ta'sirini ko'rsatib beradi. Xususan:

a) *jinoyatchilikning kamayishiga doir empirik dalillar* – 2022 yilda Buyuk Britaniyada jinoyatchilik darajasi **5% ga pasaygani** qayd etilgan. Bu holat jinoyatga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosati, huquq-tartibot organlarining samaradorligi, jamiyatda jinoyatning oldini olish bo'yicha choralar

ISSN 3030-3230

hamda jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish mexanizmlarining muvaffaqiyatli joriy etilganini ko‘rsatadi;

b) ***Restorative Justice (RJ) dasturlarining samaradorligi*** – jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish va ularning qayta jinoyatga qo‘l urmasligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “**Restorative Justice” (RJ)** dasturlari muhim ahamiyatga ega. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur dasturlar jinoyatchilarning **70% holatda qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga yordam bergan.**

Bu esa RJ modelining jinoyatga qarshi kurashishdagi samarali usullardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Usul: Tadqiqot ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va mutaxassislar qarashlariga tayanilgan holda olib borilgan. Buyuk Britaniyaning huquqiy bazasi, statistik ma’lumotlari hamda xalqaro hisobotlar (masalan, Global Peace Index) asos qilib olingan.

Natijalar: Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning bir nechta asosiy yo‘nalishlari aniqlangan:

birinchi yo‘nalish, jinoyatlarning oldini olish (crime prevention);

ikkinchi yo‘nalish, jinoyatchilikni nazorat qilish (crime control);

uchinchi yo‘nalish, jazo mexanizmlarini takomillashtirish;

to‘rtinchi yo‘nalish, jinoyat sodir etgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish.

Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy kriminologiya nazariyalari — ijtimoiy tuzilma, submadaniyat, ijtimoiy bog‘liqlik nazariyalari va boshqalar bilan bog‘langan holda ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, “Restorative justice” kabi zamonaviy yondashuvlar va “CCTV”, “Predictive policing” kabi texnologiyalar orqali samarali natijalarga erishilgan.

Muhokama: Maqolada keltirilgan tahlillar Buyuk Britaniyadagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks yondashuvning samaradorligini namoyon etadi. Ilmiy nazariyalar va amaliyot uyg‘unligi, profilaktika dasturlari, jazoni yengillashtirish va jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajriba boshqa davlatlar uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or model sifatida baholanadi.

Buyuk Britaniyadagi jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi ilmiy nazariyalar, zamonaviy texnologiyalar va qonunchilik asosida yuritilmoqda. Maqolada mazkur tizimning ustuvor jihatlari yoritilgan va uning xalqaro miqyosda ahamiyati tahlil qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, **Buyuk Britaniyada** jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida kompleks yondashuv qo‘llaniladi. Bu yondashuv *ilmiy nazariy qarashlar, huquqiy mexanizmlar, profilaktik dasturlar, texnologiyalardan foydalanish* va *xalqaro hamkorlikka asoslangan.* Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish uchun qonunchilik, jamoatchilik va hukumat organlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В статье анализируются основные направления и методы борьбы с преступностью в Великобритании, а также современные теории криминологии, правовые и институциональные меры борьбы с преступностью, эффективные подходы, применяемые на практике. Также изучаются современные программы в таких областях, как ресоциализация правонарушителей и защита жертв. Цель состоит в том, чтобы выявить и обобщить модель, основанную на опыте Великобритании в борьбе с преступностью, которая может быть полезна другим странам.

Ключевые слова: Великобритания, преступность, правоохранительная деятельность, профилактика, механизм наказания, криминологические теории, социальная структура, восстановительное правосудие, общественная безопасность, реабилитация.

Annatation. This article analyses the main directions and methods of fighting crime in Great Britain. The study analyses modern theories of criminology, legal and institutional measures to combat crime and effective approaches in practice in Great Britain. Contemporary programs in areas such as offender re-socialization and victim protection are also explored. The aim is to identify and generalize a model based on the Great Britain’s experience of crime-fighting that may be useful to other countries.

Key words: Great Britain, criminality, law enforcement, prevention, punishment mechanism, criminological theories, social structure, Restorative justice, public safety, rehabilitation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adam Smith (1723–1790) рационал танлов ғояларининг илк асосчиларидан бири ҳисобланади. Унинг “The Wealth of Nations” (Миллатлар бойлиги, 1776) асарида одамлар ўз манфаатларини максимал даражада ошириш учун оқилона қарор қабул қилишини тушунтиради.
2. Мазкур “Routine Activity Theory” жиноятшунослик (криминология) соҳасидаги назария бўлиб, 1979 йилда Лоуренс Коэн (Lawrence Cohen) ва Маркус Фелсон (Marcus Felson) томонидан ишлаб чиқилган.
3. Мазкур назария Gary Becker “Economics of Crime” ва Derek Cornish & Ronald Clarke “Rational Choice Theory” каби олимларнинг ғоялари асосида шаклларнитирлган.
4. Изоҳ: ратсионал шахслар деганда, ўз қарорларини ва хатти-ҳаракатларини онгли равишда, мантиқ ва ақлий таҳлил асосида қабул қиладиган шахслар тушунилади. Улар маълумотларни таҳлил қилади, эҳтимолий вариантларни солиштиради ва ўз манфаатларини энг юқори даражада таъминлашга ҳаракат қилади.
5. Мазкур “Routine Activity Theory” номли назария Lawrence Cohen ва Marcus Felson каби олимларнинг илмий қарашлари асосида шакллантирилган.
6. Мазкур “Crime Prevention Through Environmental Design” назарияси Oscar Newman ва C. Ray Jeffery каби олимларнинг илмий ғоялари асосида шакллантирилгандир.
7. Howard Zehr ўзининг “Changing Lenses: A New Focus for Crime and Justice” (1985) номли асарида; Nils Christie ўзининг “Conflicts as Property” (1977) номли асарида; John Braithwaite ўзининг “Crime, Shame and Reintegration” (1989) асарларида “Тикловчи адолат назарияси”ни тарғиб қилган.
8. Бандура А. XX асрда психология соҳасидаги энг нуфузли олимлардан бири бўлиб, унинг ижтимоий ўрганиш назарияси жиноятшунослик, таълим ва клиник психология соҳаларида кенг қўлланилган. У ўз фаолияти давомида инсон хулқ-атворини шакллантиришда ижтимоий муҳит ва ўрганиш жараёни муҳим роль ўйнашини илмий асослаб берди. 1977 йилда А.Бандура томонидан “Ижтимоий ўрганиш назарияси” ишлаб чиқилган.
9. Брайтвейт Ж. Австралиялик ҳуқуқшунос ва социолог бўлиб, у жиноятга мойил шахсларни қайта ижтимоийлаштириш ва жиноятчиликни камайтириш бўйича муҳим тадқиқотлар олиб борган. Унинг реинтеграция назарияси (Reintegrative Shaming Theory,1989) жиноятчиларни жазолашнинг ижтимоий таъсирини тушунтириб беради ва уларни жамиятга қайта мослаштириш усулларини таклиф қилади.
10. Gill, M., & Spriggs, A. (2005). Assessing the Impact of CCTV on Crime Prevention. Home Office Research Study; Home Office (2021). Crime Reduction Toolkit. London: UK Government; Crawford, A. (2009). Crime Prevention Policies in Britain. Oxford University Press; Tilley, N. (2013). Modern Approaches to Crime Prevention. Routledge;
11. UK Parliament (2015). Cybercrime and Security Laws. Parliamentary Review.
12. Crime and Disorder Act (1998): мазкур қонун маҳаллий ҳокимиятларга жиноятчиликни камайтириш мақсадида қатор ваколатлар тақдим этган. Шунингдек, ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш чоралари ҳам ушбу қонун орқали мустаҳкамланган.
13. Police and Criminal Evidence Act (1984): тергов жараёнида полициянинг ваколатларини тартибга солувчи асосий қонунлардан бири ҳисобланади. Бу қонун полицияга қонуний текширув, ҳибсга олиш ва суриштирув жараёнларини олиб боришда ҳуқуқий асос яратади.
14. Serious Crime Act (2007): жиноят ташкилотлари ва хавфли жиноятчиларга қарши курашиш учун махсус санкция ва ваколатларни белгилайди.
15. Cybercrime Act (2015): қонунининг асосий мақсади киберҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, интернет ва ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларнинг олдини олиш, шунингдек, киберхавфсизликни таъминлашдан иборат.
16. Neighborhood Watch (Қўшнилар назорати): Бу дастур 1982 йилда ташкил этилган бўлиб, Англия ва Уэльс бўйлаб 2,3 миллиондан ортиқ хонадонларни қамраб олган. Унинг мақсади қўшнилар ўртасида ҳамкорликни кучайтириш ва жиноятчиликка қарши курашишдир.

ISSN 3030-3230

17. Community Policing (Жамоатчилик полицияси): Бу тамойил полиция ва маҳаллий жамоалар ўртасида яқин ҳамкорликни назарда тутади. Буюк Британияда бу тизим Safer Neighbourhoods Teams (SNTs) орқали амалга оширилади.

18. “Safer Neighbourhoods Teams” (SNTs):Буюк Британия полициясидаги маҳаллий жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган махсус гуруҳлардир. Улар полиция ходимлари ва полиция жамоатчилик қўллаб-қувватловчи офицерларидан (PCSO) иборат бўлиб, муайян жамоа ёки ҳудудда фаолият юритади. Бу тизим 2004 йилда Метрополитен полицияси томонидан жорий этилган бўлиб, полиция ва шерик ташкилотлар маҳаллий жамоалар билан ҳамкорликда ишлаб, анти-ижтимоий хатти-ҳаракатлар, граффити, тартибсизлик ёки бошқа ҳаёт сифатига таъсир этувчи масалаларни ҳал қилишга қаратилган. SNTлар маҳаллий жамоалар билан яқиндан ҳамкорлик қилиб, хавфсизликни таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашишда муҳим роль ўйнайди.

19. Closed Circuit Television (CCTV): Буюк Британияда CCTV тизими кенг жорий этилган бўлиб, жамоат жойларида хавфсизликни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. камералари ўрнатилган ҳудудларда жиноятчилик миқдори 20-30% га камайгани ҳақида аниқ маълумотлар топилмади. Шунингдек, CCTVнинг жиноятчиликка таъсири бўйича натижалар турлича бўлиб, баъзи тадқиқотлар унинг самарадорлигини кўрсатса, бошқалари таъсирини камроқ деб баҳолайди.

20. “Work and Health Programme” ўзоқ ишсиз бўлган ва соғлиқ муаммолари туфайли иш топишда қийналаётган шахсларга кўмаклашувчи // Parliament Publications

21. “Kickstart Scheme” COVID-19 пандемия даврида 16-24 ёшдаги ёшларни иш билан таъминлашга қаратилган дастур. // Parliament Publications

22. “Apprenticeship Programme” ёшлар ва катталар учун касбий тайёргарлик ва иш жойида амалий тажриба орттиришга йўналтирилган дастур // CEDEFOP – European Centre for the Development of Vocational Training

23. “Youth Contract” 16-17 ёшдаги ишсиз ёшларни таълим ва ишга жалб қилишга мўлжалланган дастур // GOV.UK Official Website

24. “Offender Rehabilitation Act” (2014) жиноят содир этган шахсларни жамиятга қайта интеграция қилишга қаратилган қонун // Wikipedia – Transforming Rehabilitation.

25. https://www.walthamforest.gov.uk/neighbourhoods/crime-and-community-safety/safer-neighbourhood-teams

26. https://studentshare.org/law/2049529-cctv

27. https://www.gov.uk/government/organisations/office-for-national-statistics

28. https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2014/11/contents

29. Rehabilitation and Resettlement Programmes – Буюк Британияда реабилитация ва қайта жойлаштириш дастурлари жиноий одил судлов тизимининг муҳим қисмларидан бири бўлиб, улар жиноятчиларнинг қайта жиноят содир этишини камайтириш ва уларни жамиятга қайта интеграция қилишга қаратилган.

30. https://www.theguardian.com/society/2025/mar/18/probation-service-problems-in-england-and-wales-leaving-public-at-risk-watchdog-finds

31. https://ivypanda.com/essays/englands-punishment-and-sentencing/

32. https://customwritings.co/the-criminal-justice-system-in-the-united-kingdom/

33. https://www.gov.uk/youth-offending-team

34. https://privacyinternational.org/learn/predictive-policing

35. https://en.wikipedia.org/wiki/Closed-circuit_television

36. https://www.nationalprobationservice.co.uk/

37. https://www.cognitive-behavioural-therapy.co.uk/cbt-therapy-london

38. https://en.wikipedia.org/wiki/National_Cyber_Security_Centre_(United_Kingdom)

39. https://www.gov.uk/government/collections/restorative-justice-action-plan

NIZOLI VA O‘Z-O‘ZIDAN HAQIQIY BO‘LMAGAN BITIMLARNING HUQUQIY OQIBATLARI

Ruziyev Rustam Djabbarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy - huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. **Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlar to‘g‘risidagi normalari, shuningdek ularni amaliyotda qo‘llash yuzasidan O‘zbekiston Respubdlikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlari tahlili asosida nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlarning huquqiy oqibatlariga oid masalalar ko‘rib chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: Haqiqiy bo‘lmagan bitim, nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar, bitim mazmunining noqonunuiyligi, bitim subyektning layoqatsizligi, bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari, shartnomani bekor qilish asoslari, huquqiy oqibatlar, qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik bitimlari.

Yuridik fakt sifatiga ega bo‘lmagan va qonunchilikda nazarda tutilgan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydigan hamda buning uchun unga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan har qanday bitim tuzilganidan e’tiboran haqiqiy emas hisoblanadi.

Haqiqiy bo‘lmagan bitimlarga oid normalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (bundan buyon matnda “O‘R FK”) 9-bobi 113-128-moddalarida [1] bayon etilgan bo‘lib, 113-moddada ular ikki turga: nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlarga tasniflanadi. Bunday bitimlar qonun hamda ahloq talablariga muvofiq tuzilmaydi, ijrosi va himoyasi ta’minlanmaydi [2]. Bu degani, yuridik fakt sifatida majburiyatni vujudga keltiruvchi bitimda uchta muhim mezonga: birinchidan, qonun; ikkinchidan, huquq-tartibot; uchinchidan, axloq qoidalariga tayanilmaydi. Ushbu mezonlardan birortasining mavjud bo‘lmasligi yoki haqiqiylik shartlaridan birining buzilishi bitimning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi. Xususan, bitim mazmunining noqonuniyligi; bitim subyektlari layoqatsizligi; erk-iroda va uni izhor etishning nomuvofiqligi; bitim shakliga rioya qilinmaganligi [3] shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunining 47-moddasiga muvofiq bitimlar haqiqiy emasligini tartibga soluvchi qonunchilikning to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishi O‘zR FK, O‘zR IPK va O‘zR “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni normalari bilan ta’minlanadi. Chunonchi, O‘R FKning bitimlarning haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi 9-bobida belgilangan umumiy qoidalari bir, ikki va ko‘p taraflama bitimlarga nisbatan tatbiq etilasada, bir taraflama bitimlarni bekor qilish shartlari bevosita aynan shu turkumdagi bitimlarga oid qoidalar (masalan, ishonchnoma va vasiyatnomani bekor qilish O‘zR FK 141, 142, 1127-moddalari) bilan tartibga solinadi [4].

Qayd etish lozimki, bitimni haqiqiy emas deb topish tushunchasi shartnomani bekor qilishdan farq qiladi. Bu tafovutlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-bitimlarni haqiqiy emas deb topishga FK 115-126-moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha yo‘l qo‘yilsa, shartnomani bekor qilish asoslari esa FK 382-383-moddalarida nazarda tutiladi;

-bitimning haqiqiy emasligiga uning g‘ayriqonuniyligi, bekor qilinishiga esa shartnomani bekor qilishga olib keladigan holatlarning yuzaga kelishi asos bo‘ladi, bunda uning qonuniyligi nizolashilmaydi;

-haqiqiy bo‘lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlarga oqibatlarga olib keladi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shartnomani bekor qilish esa, u amalda bo‘lgan vaqtdagi o‘zaro huquq va majburiyatlarga daxl qilmasdan faqat kelgusidagi huquq va majburiyatlarga ta’sir etadi;

- bitim uning amal qilish muddati tugaganidan keyin ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lsa, shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi talab esa faqat shartnomaning amal qilishi davomidagina qo‘yiladi.

O‘R FK 113-moddasi 1-qismiga muvofiq bitim FKda belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra sud haqiqiy emas deb topganligi sababli yoki

ISSN 3030-3230

bunday deb topilishidan qat'i nazar, u o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaganligi sababli haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bitimning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligi deganda, bitim ko‘rinishida amalga oshirilgan harakat qonunga nomuvofiqligi sababli uning ishtirokchilari istagan huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirmasligi anglashiladi. O‘R FK o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da'vo berishni ta'qiqlamaydi, ya'ni manfaatdor tarafning sudga murojaat qilish imkoniyati cheklanmaydi. Fikrimizcha, nizoli bo‘lgan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab faqat O‘R FKda ko‘rsatilgan shaxslar tomonidangina taqdim etilishi mumkin. Biroq, sudda da'vogar nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da'vo taqdim etish huquqiga ega emasligi aniqlansa, da'voni qanoatlantirish masalasi rad etilmasligi kerak.

Fikrimizcha, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talabni bunday bitim huquq va manfaatlariga ta'sir qiluvchi har qanday manfaatdor shaxs taqdim etishi mumkin. Shu bilan birga, sud o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini o‘z tashabbusi bilan ham qo‘llashga haqli, deb o‘ylaymiz. Zero, O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabr 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunuchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida"gi qarorining 8-bandida belgilanishicha, agar da'vo arizasida o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan bo‘lsa, biroq uning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligini da'vogar bunday bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi talabni asoslashda keltirgan bo‘lsa, sudlar faqatgina bunday bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida qaror mavjud emasligiga asoslanib da'voni qanoatlantirishni rad etishga haqli emaslar, balki qarorning asoslantiruvchi qismida da'vogarning vajlariga baho berishlari lozim. Agar sud muhokamasi paytida javobgar o‘z e'tirozlarida bitimning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligiga asoslanayotgan bo‘lsa, sudlar javobgarning e'tirozlariga baho berishlari va ular asosli bo‘lgan taqdirda, nizoning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan bitimning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligidan kelib chiqib, ish bo‘yicha qaror qabul qilishlari lozim [5].

Ta'kidlash joizki, haqiqiy bo‘lmagan bitim tuzilmagan bitimdan farqlanadi. Ya'ni, agar bitim qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muhim va zarur shartlarga (masalan, kelishuv qonunda belgilangan muhim shartlarga muvofiq bo‘lmasa, oferent tomonidan aksept qabul qilinmasdan kelishuv shakllantirilgan bo‘lsa va hokazo) rioya qilinmay tuzilgan bo‘lsa , bunday bitim tuzilmagan deb hisoblanadi. Modomiki, bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida talab bildirilgan bo‘lib, u FKning qoidalariga ko‘ra tuzilmagan deb hisoblansa, bunday talabni qanoatlantirish rad etiladi [6].

O‘zR FK 109-moddasida bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarning bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko‘rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qilishi belgilanganmuvofiq qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollardan tashqari bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

O‘zR "Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi 670-I-son 1998 yil 29 avgustdagi qonuni 11-moddasiga ko‘ra, xo‘jalik shartnomasi bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan yozma shaklda tuziladi [7]. Demak, ushbu normadan anglashiladiki, agar xo‘jalik shartnomasi yozma shakliga amal qilinmagan bo‘lsa, bitim tuzilmagan hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu masalada O‘zR FK 109-moddasi 1-qismi bilan O‘zR "Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi qonunining 11-moddasi o‘rtasida tafovut mavjud. O‘zR FK 109, 111, 107-moddalari talablaridan kelib chiqib, bitim notarial tasdiqlanmagan yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan hollarda ham sud tomonidan bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zR FK 115-moddasiga asosan bitimning qonunda belgilangan shakliga rioya etmaslik qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan holdagina uning haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi.

Bu o‘rinda, "bitim haqiqiy emasligi" bilan "shartnoma tuzilmaganligi" tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Bunga misol tariqasida, O‘zR Budjet kodeksi 122-moddasining uchinchi qismida belgilangan tartibni ko‘rsatish mumkin. Ya'ni, ushbu qoidada budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarga nisbatan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berganlik uchun haq undirish to‘g‘risidagi da'volar ko‘rilayotganda shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilmaganligi shartnomaning o‘z-o‘zidan haqiqiy emasligi emas,

balki shartnoma tuzilmaganligi hisoblanishi qayd etiladi [8]. Buni sud amaliyoti, shuningdek O‘zR Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi 6-sonli qarori 11-bandi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari ham bilan tasdiqlaydi.

O‘zR FKning 112-moddasiga muvofiq notarial tartibda tasdiqlash talab etiladigan bitimni bir taraf to‘liq yoki qisman bajarib, ikkinchi taraf uni notarial tartibda tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, bitimni notarial tartibda tasdiqlagan tarafning da’vosiga ko‘ra sud uni haqiqiy deb topishi mumkin. Bunday holatda bitimni keyinchalik notarial tartibda tasdiqlash talab etilmaydi. Qonunda boshqacha holat ko‘zda tutilgan bo‘lmasa, notarial tartibda tasdiqlash talab etiladigan bitimlarni haqiqiy deb topishda uning tuzilganligi, hech bo‘lmaganda, bir taraf tomonidan ushbu talab to‘liq yoki qisman bajarilganligi holati yozma dalillar bilan tasdiqlanishi kerak.

O‘z navbatida, O‘zR FK 111-moddasiga asosan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etiladigan bitim belgilangan shaklda tuzilganidan keyin taraflardan biri uni ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortgan taqdirda, O‘zR FK 112-moddasining uchinchi qismiga muvofiq boshqa tarafning talabiga ko‘ra bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi sud tomonidan qaror chiqariladi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ayni paytda, bitimning bir yoki bir necha shartlari qonun talablariga zid bo‘lsa, sud tomonidan bitim mazmuni ushbu talablarga muvofiq emasligi sababli o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanishi ham mumkin.

Qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emas (O‘zR FKning 116-moddasi). Bitimni haqiqiy emas deb topish uchun shaxsning qasddan harakat qilganligi asos bo‘ladi. Bunda nafaqat bevosita, balki bilvosita g‘araz ham ko‘zda tutiladi (ya’ni shaxs tegishli oqibatlarni istagan holda va bunday oqibatlarga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan holda) [9]. Chunki bunday bitimlar huquq-tartibot asoslari, jumladan, konstitutsiyaviy tuzum, davlatning mudofaa, xavfsizlik va iqtisodiy tizimi, shuningdek fuqaro va shaxsning huquqlari hamda erkinliklarini muhofazalovchi huquq normalari talablarini buzadi. Qayd etish mumkinki, sud tomonidan bunday toifa bitimlar qatorida bitimdagi imzoning qalbakiligi tufayli uni haqiqiy emas deb topish ham O‘zR FKning 116-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zR FK 122-moddasiga asosan jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan yanglishish ta’sirida tuzilgan bitim yanglishish ta’sirida harakat qilgan tarafning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Odatda, yanglishish ta’siri ostida tuzilgan bitim deganda, taraflarning haqiqiy istagini ifoda etmagan, uni tuzish paytida taraflar ko‘zlagan huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lmagan bitim anglashiladi. Misol uchun, qonun normalarini noto‘g‘ri sharhlash, bitim va undan kelib chiquvchi huquq hamda majburiyatlarning asl huquqiy oqibatlari to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur hosil qilish kabi holatlar shular jumlasidandir.

Kezi kelganda aytish kerakki, qonunni bilmaslik bitimni ushbu asos bilan haqiqiy emas deb topishga asos bo‘la olmaydi. Yanglishish ta’sirida bitim imzolagan tarafdan yanglishish muhim ahamiyatga egaligini va bitim predmeti yoki mohiyatiga ta’sir etishini isbotlab berishi talab qilinadi. Yanglishish taraflarning qasddan qilingan harakatlari natijasi bo‘la olmaydi. Chunki yanglishish tufayli tuzilgan bitim aldash orqali tuzilgan bitimdan farq qiladi. Zero, boshqa tarafning aybi ehtiyotsizlik sababli sodir bo‘lganidagina bitim yanglishish ta’sirida tuzilgan hisoblanadi.

O‘zR FK 123-moddasiga ko‘ra aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta’sirida tuzilgan bitim, shuningdek fuqaro og‘ir holatlar yuz berishi tufayli o‘zi uchun o‘ta noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo‘lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib qolgan bitim (asoratli bitim) jabrlanuvchining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Aldash deganda, boshqa shaxsga yolg‘on ma’lumotlar taqdim etish, shuningdek bitimni tuzishga ta’sir etuvchi faktlar haqida sukut saqlash yo‘li bilan qasddan chalg‘itish tushuniladi. Aldash bitim elementlariga nisbatan ham, uni doirasidan tashqaridagi holatlarga ham, shu jumladan, bitimni tuzish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarga ham taalluqli bo‘lishi mumkin. Aldash, bir tarafning boshqa tarafni bitim tuzishga undash vositasi bo‘lgandagina yuridik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Zo‘rlik deganda esa, bitim ishtirokchisi bo‘lgan fuqaroga yoxud yuridik shaxs organi va uning vakillariga bevosita jismoniy ta’sir qilish tushunilsa, qo‘rqitishda, bitimni tuzishga majburlash maqsadida jismoniy zo‘rlik qilish, ruhan azob berish, ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma’lumotlarni tarqatish, moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish

ISSN 3030-3230

yoki boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari bilan shaxsning xohish-irodasiga ruhiy ta’sir ko‘rsatish anglashiladi [10]. Zo‘rlik ishtirokchining mol-mulkini yo‘q qilish yoki unga shikast yetkazish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Sud amaliyotida zo‘rlik va qo‘rqitish sababli bitimni haqiqiy emas deb topishda ularning jiddiyligi va haqqoniyligi, shuningdek asoratli bitim masalasiga alohida e’tibor berilishi talab qilinadi.

Bundan tashqari O‘zR FK 124-moddasida qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik bitimlari ham nazarda tutiladiki, bunga ko‘ra qalbaki bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim hisoblansa, ko‘zbo‘yamachilik bitimi nizoli bitim deb qaraladi.

Qalbaki bitimda taraflar maqsadi fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishni ko‘zlamaydi. Ko‘zbo‘yamachilikda esa taraflar maqsadi boshqa bitim bilan yashiriladi. Shu sababli ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish O‘zR FK 114-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Bunday holda taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitim sud tomonidan aniqlashtirilishi va aynan ana shu bitimga oid qoidalar tatbiq etilishi lozim.

O‘zR FKning 125-moddasi mazmuniga e’tibor berilsa, yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimning haqiqiy emasligining ikkita asosi mavjudligiga guvoh bo‘lamiz: birinchisi, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida belgilangan faoliyati maqsadlariga zid ravishda tuzilgan bitimlar va ikkinchisi, tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitimlar. Shuning uchun ustav maqsadlariga zid ravishda tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topishda uning yuridik shaxs, xususan tijoratchi tashkilotning ustav maqsadlariga muvofiq kelish-kelmasligi masalasini ko‘rib chiqish zarur. Bu o‘rinda, O‘zR “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi 2021 yil 14 iyuldagi O‘RQ-701-sonli qonuni bilan tasdiqlangan litsenziyani olish talab etiladigan faoliyat turlarining ro‘yxati asos bo‘ladi. Shu sababli, agar bitim litsenziyani olish talab etiladigan faoliyat doirasida, ammo litsenziya mavjud bo‘lmagan holda (litsenziya umuman olinmagan, litsenziyaning amal qilishi to‘xtatilgan yoki tugatilgan, litsenziya bekor qilingan) tuzilgan bo‘lsa, bitim bunday asos bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O‘zR FKning 126-moddasida shaxsning bitim tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta’sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo‘yilganiga nisbatan yoinki bitim tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko‘rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo‘yilgan bo‘lsa va bitimni tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo‘lsalar, bitimdagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo‘lganligi isbotlangan hollardagina bitim cheklash belgilanishidan manfaatdor bo‘lgan shaxsning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi haqidagi norma nazarda tutilgan. Ushbu normaning muhim jihati shundaki, bunday asos bilan bitim kimning manfaati cheklangan bo‘lsa, faqat o‘shaning da’vosi bo‘yicha bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ta’kidlash kerakki, bitimni haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llashda taraflar bitim tuzishdan oldingi holatga keltirilishlari shart. Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash to‘g‘risidagi nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talablar birga yoki alohida da’vo kiritish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Nizoli bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini uni haqiqiy emas deb topish haqida sudning hal qiluv qarori mavjud bo‘lgandagina qo‘llash mumkin.

O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emasligi oqibatlari da’vogarning o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabi qanoatlantirilganidan keyin ham, bunday qaror mavjud bo‘lmaganda ham qo‘llanilishi mumkin. O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini sud o‘z tashabbusi bilan qo‘llashi mumkin bo‘lsa, nizoli bitimlarga nisbatan sudga bunday huquq berilmagan.

O‘zR FK 114-moddasining ikkinchi qismiga asosan bitim haqiqiy bo‘lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo‘yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha qaytarib berish mumkin bo‘lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘lashi shart. Bunda mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat yoxud olingan narsaning o‘rnini to‘ldirish miqdori o‘xshash vaziyatlar uchun olinadigan bahodan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini faqat da’vogarga nisbatan qo‘llash so‘ralgan bo‘lsa, O‘zR FK 114-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq sud

o‘z tashabbusi bilan bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini boshqa tarafga nisbatan ham qo‘llashi lozim.

Ta’kidlash muhimki, bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari tuzilmagan shartnomaga nisbatan qo‘llanilmaydi. Madomiki, bitim tuzilmagan yoki sud tomonidan tuzilmagan deb topilgan hollarda hamda ushbu bitimga muvofiq xatti-harakatlar amalga oshirilgan bo‘lsa, tuzilmagan bitim bo‘yicha majburiyatni bajargan shaxs O‘zR FK 1023-moddasiga muvofiq asossiz orttirilgan mol-mulkni yoki to‘langan pul mablag‘larini qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash xususida so‘z borganda, O‘zR IPK 149-moddasi ikkinchi qismining 7-bandiga muvofiq ushbu haqidagi talab da’vo arizasida va sud qarorida har bir tarafga nisbatan aynan qaysi oqibatlar qo‘llanilishi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Ta’kidlash muhimki, bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarining har ikkala tarafga nisbatan qo‘llanilishi, fikrimizcha, adolatli bo‘ladi va O‘zR FK 114-moddasi ikkinchi qismining mazmun-mohiyatiga muvofiq keladi. Bitimning haqiqiy emasligi oqibatlari tuzilmagan shartnomaga nisbatan qo‘llanmaydi. Biroq, shartnoma tuzilmagan deb topilgan yoki bunday shartnoma yuzasidan ma’lum xatti-harakatlar (mol-mulk topshirilgan yoki to‘lov to‘langan) amalga oshirilgan bo‘lsa, bunda tuzilmagan shartnoma bo‘yicha majburiyatni bajargan shaxs O‘zR FKning 1023-moddasiga muvofiq asossiz orttirilgan mol-mulkni yoki to‘langan pul mablag‘larini qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Bunda O‘zR FKning 114-moddasida belgilangan restitutsiya ko‘rinishidagi bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarining ushbu Kodeksning 123-moddasi ikkinchi qismida belgilangan oqibatlardan farq qilishini inobatga olish kerak. Agar bitim O‘zR FK 123-moddasiga asosan haqiqiy emas deb topilsa, ikkinchi taraf jabrlanuvchiga uning bitim bo‘yicha bajargan hamma narsasini (asli holicha yoki pul ko‘rinishida) qaytarib berishi, jabrlanuvchi esa ikkinchi tarafdan olingan mol-mulk yoki uning qiymatini davlat daromadiga o‘tkazishi lozim. Har ikkala holatda ham bitimning haqiqiy emasligini isbotlash majburiyati da’vogar zimmasida yuklatiladi.

Bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabga, qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, umumiy da’vo muddati qo‘llaniladi hamda da’vo muddati faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo‘llaniladi. Bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabni qanoatlantirish haqidagi hal qiluv qarori yuzasidan ijro varaqasi berilmasa-da, lekin haqiqiy bo‘lmagan bitimning oqibatlarini qo‘llash haqidagi hal qiluv qarori yuzasidan berilishi shart [11].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bitimning haqiqiy emasligidan kelib chiqadigan oqibatlar qatorida, birinchidan, bitimning o‘zgartirilishi yoki butunlay bekor bo‘lishi; ikkinchidan, bitim shartlari bo‘yicha qarzlar yoki majburiyatlar o‘zgarsa yoki bekor qilinsa, taraflar o‘rtasidagi moliyaviy-huquqiy munosabatlarning o‘zgarishi yoxud bekor qilinishi; uchinchidan, bitim hiyla yoki aldov yo‘li bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, jabrlanuvchiga zararning to‘lab berilishi kabilarni e’tirof etish lozim.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы касательно правовых последствий оспоримых и ничтожных сделок на основе анализа норм о сделках Гражданского кодекса Республики Узбекистан и соответствующих постановлений Верховного суда Республики Узбекистан по применению их на практике.

Ключевые слова: Недействительная сделка, оспоримые и ничтожные сделки, незаконность содержания сделки, неправоспособность субъекта сделки, основы признания сделки недействительной, основы прекращения договора, правовые последствия, мнимые (ничтожные) и притворные сделки.

Annotation. The article examines issues related to the legal consequences of voidable and voidable transactions based on the analysis of the provisions of the Civil Code and the relevant decisions of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan on their application in practice.

Key words: Invalid transaction, voidable and voidable transactions, illegality of the contents of the transaction, incapacity of the subject of the transaction, grounds for recognizing a transaction as invalid, basis for termination of contract, legal consequences, fictitious (void) and

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.:”Adolat”, 2021 y. – 576 b.
2. Qarang: Fuqarolik va oila huquqi. Darslik /R.J.Ro‘ziyev, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev. – T,
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010. -B. 317-318.
4. Qarang: “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida” O‘zR Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi 34-sonli qarori 7-8-bandlari; “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabr 269-son qarori 7-bandi.
5. Qarang: “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabr 269-son qarori 8-bandi.
6. Qarang: “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” O‘zR Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabr 269-son qarori 9-bandining ikkinchi xatboshisi. O‘zR Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi 6-sonli qarori tahririda.
7. QHMMB., 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son.
8. QHMMB., 26.02.2025 y., 03/25/1038/0188-son.
9. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010. -B. 323.
10. Yana qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010. -B. 336-338.
11. Qarang: O‘zR Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi 6-sonli qarori 31-bandi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – BARQAROR RIVOJLANISHNING MUSTAHKAM ASOSI

Nuridullayev Asliddin Ahrorovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari
kafedra boshlig‘i, y.f.n., dotsent

Annotatsiya. **Ushbu maqolada ekologik barqarorlik va atrof-muhit muhofazasi bugungi kundagi holati va mazkur yo‘nalish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning zarurati tahlil qilingan.**

Kalit so‘zlar: Modda, mintaqa, qonun, respublika, mulkdor va xo‘jalik yurituvchi subyekt, YUNESKO, yashil iqtisod.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va barqaror rivojlanish kafolatlarini belgilab bergan asosiy hujjat. 2023-yilda xalqimizning yuksak siyosiy-huquqiy ongi va tafakkuri natijasi o‘laroq qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mamlakatimizni kelajak istiqboli va kelgusi taraqqiyot vektori aniq belgilab berildi.

Barqaror rivojlanish masalasi faqatgina ijtimoiy, iqtisodiy yoki ekologik masala emas, bu davlatlarning to‘g‘ri rivojlanishi uchun muhim mo‘ljal bo‘lib, uning barcha komponentlarini rivojlantirish davlatning bir xilda taraqqiy etishi uchun xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizda davlatimiz ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari, fuqarolar va yuridik shaxslarning ekologik huquq va majburiyatlariga oid qoida-talablar ham mustahkamlangan.

Asosiy Qonunimizdagi [1] ekologik normalarni guruhlashtirishimiz mumkin. Xususan, uning muqaddimasida davlatchilik mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi sakkizta element ko‘rsatilgan bo‘lib, shundan beshinchi aynan ekologiya masalasi ekanligi bu ham ushbu masalaning ushbu Konstitutsiya qabul qilinayotgan vaqtdagi, ya’ni yaqin o‘tmishda naqadar dolzarb ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoatning rivojlanishi va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini keskin oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Mulkdor va xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda tadbirkorlar tomonidan aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini olib bormoqdalar. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 66-moddasida mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerakligi haqidagi qat’i konstitutsiyaviy norma mustahkamlangan.

Ushbu normaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, ikkinchidan, mulk egalarining har qanday ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida, “yashil iqtisodiyot” tizimini shakllantirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Umuman, muqaddimadagi bunday chaqiriq, da’vat ekologik muammolarni oldini olish, tabiiy resurslarning xilma-xilligini ta’minlash va atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash orqali hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi davlatning strategik maqsad va vazifalarini ifodalaydi. [2]

Xususan, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.

Ma’lumki, BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning 25-sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida [4] 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlaridan iborat dasturiy hujjat qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatni amalga oshirish bo‘yicha faol ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli qarori bilan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, barqaror rivojlanish kafolatlari Konstitutsiyada belgilangan. Xususan, Asosiy Qomusimizning 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshirishi,

ISSN 3030-3230

49-moddasida davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, 115-moddasida Vazirlar Mahkamasi hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘rishi belgilab qo‘yilgan. Guvohi bo‘lganimizdek, Bosh Qomusimizda barqaror rivojlanishning asosiy institutsional va huquqiy kafolatlari nazarda tutilgan. Shu bilan birga barqaror rivojlanishning asosiy omillari ekologik taraqqiyotni belgilab beriladi.

Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik tahdidlarning markazida albatta, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq murakkab vaziyat yotadi. Mintaqadagi ekologiya tizimini yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash, cho‘llanish jarayonlarini oldini olish va aholining ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishlariga moslashish kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarni tashkil etadi.

Konstitutsiyamizda davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida tabiiy resurslarning maqomi haqidagi normalar mustahkamlangan.[5]

Ma’lumki, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, Konstitutsiyamizning 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb mustahkamlandi va davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasi belgilab berildi.

O‘z navbatida, ushbu muhim konstitutsiyaviy normaning amalga oshirish mexanizmlari bevosita O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlarida belgilangan.

Asosiy qonunimizning 79-moddasi [6] birinchi qismida davlat yoshlarning boshqa huquqlari qatorida ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi belgilab qo‘yildi. Bu esa, o‘z navbatida, aholimizning eng faol qatlami hisoblangan yoshlarga nisbatan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ularning ekologik huquqlarini yana bir bor quvvatlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlarining huquqiy maqomiga alohida e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasi mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 115-moddasida hukumatimizning jamiyat va davlat hayoti uchun zarur bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlari qatorida quyidagi ekologiya sohasidagi vakolati mustahkamlangan: “Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi”.

Ushbu norma ekologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlari va davlat dasturlari qoida-talablarining ijrosini ta’minlash samaradorligini oshirishga, shuningdek, barqaror ekologik rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi xalqaro hujjatlarning zamonaviy tamoyil va talablarini amaliyotimizga qo‘llash mexanizmini rivojlanishini ta’minlaydi.

Mamlakatimiz davlat boshqaruvi tizimida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda muhim faoliyatni amalga oshiradi. Aynan

123-moddada viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining muhim vakolatlari qatorida ekologiya sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilangan: “Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish”.

Ushbu muhim norma atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashdek muhim vazifalarni mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklash orqali joylarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli a’zosi sifatida ekologiya sohasida o‘nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, bir qator muhim majburiyatlarni amalga oshirish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Ushbu majburiyatlar o‘z navbatida, fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta’minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan

salbiy oqibatlarni kamaytirish asosida iqlim o‘zgarishlarining ta’sirini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi nutqida “Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda. Bularning asoratlarini Markaziy Osiyoda o‘tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanmoqda”, deb e’tirof etdi.

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi muhim xalqaro konvensiya va kelishuvlarni ratifikatsiya qilib, bu borada keng ko‘lamli iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Parij bitimi doirasida mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishga erishishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy olib borish va 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirishga erishish lozim. O‘z navbatida “yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xabarlarini yaratishga ustuvorlik beriladi. Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy dastur asosida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish orqali iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarni kamaytirish va boshqalar.

Mamlakat rahbari tomonidan 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi[7] davlat siyosatining ekologik barqarorlikka erishish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik normativ-standartlar asosida modernizatsiya qilish tizimidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ekologik barqarorlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish barchamizning mas’uliyatimizdir. Bu borada davlat organlari, nohukumat tashkilotlar va har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Faqatgina birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz ekologik muvozanatni saqlab, kelajak avlodlarga sog‘lom va barqaror hayot uchun zamin yaratishimiz mumkin.

Аннотация. В данной статье анализируется современное состояние экологической устойчивости и охраны окружающей среды и необходимость конституционно-правовых отношений, связанных с этим направлением.

Ключевые слова: Статья, регион, закон, республика, собственно хозяйствующий субъект, ЮНЕСКО, зеленая экономика.

Annotation. This article analyzes the current state of environmental sustainability and environmental protection and the need for constitutional-legal relations related to this direction.

Key words: Article, region, law, republic, owner and business entity, UNESCO, green economy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi “Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 458-son Qarori // https://lex.uz/mact/-6162576
3. Alimardon F. “Barqaror ekologik rivojlanishning konstitutsiyaviy kafolatlari” // https://huquqburch.uz
4. UN summit “Make the sdgs a reality” https://sustainabledevelopment.un.org/post2015/summit
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-4574008
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-modda // https://lex.uz/docs/-6445145
7. Urunov B. “2025 yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” // https://uza.uz/oz/posts

ISSN 3030-3230

JINOYAT PROTSESSIDA TAFTISH TARTIBIDA ISH KO‘RISH

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada jinoyat protsessida taftish tartibida ish ko‘rishning protsessual tartibi asoslantirib berilgan. Amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida jinoyat protsessida taftish tartibida ish ko‘rishning protsessual tartibi huquqiy jihatdan takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: taftish tartibida, apellatsiya, odil sudlov, kassatsiya, yuqori instansiya sudi, shikoyat, protest, hukm, ajrim.

Odil sudlovni amalga oshirish natijasida sud tomonidan har bir jinoyat ishi yuzasidan qabul qilingan har qanday hukm, ajrim, qaror qonuniy, adolatli hamda asosli bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasiga [1] muvofiq, jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

Yuqori bosqich sudida ishlarni qayta ko‘rish - birinchi bosqich sudi qabul qilgan qarorlarni, uni qonuniy kuchga kirguniga qadar va kuchga kirgandan so‘ng tekshirib chiqish, sud tomonidan ishni hal etish chog‘ida yo‘l qo‘yilgan qonun buzish hollarini o‘z vaqtida va tez bartaraf qilish bilan ishning qonuniy, asosli va adolatli hal etilishiga xizmat qilishdan iborat.

Taftish instansiyasi sudi hukmlar va boshqa sud qarorlari apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilganidan so‘ng, shikoyat berish va protest kiritish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar murojaatlari asosida, mazkur qarorlarning qonuniyligi va asosliligini tekshiradi.

Sud qarorlarini qonuniyligi, asosliligi va adolatliligiga yuqori instansiya sudlarining e’tiborini oshirishga qaratilgan [2]. Demak, sud hukmi va qarorlari ustidan yuqori sudlar tomonidan nazoratning yuritilishi, eng avvalo, odil sudlovning samarasini ko‘tarishdan iboratdir [3].

Bunday holatda, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini to‘la ta’minlash, shu jumladan hukm (ajrim) yuzasidan yuqori instansiya sudining barcha bosqichlariga shikoyat keltira olish huquqini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish institutini yanada takomillashtirish nafaqat protsessual qonunchilik, balki fuqaro va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Statistik raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida 18 ming fuqarolar viloyat sudlari qabul qilgan qarorlardan norozi bo‘lib, Oliy sudga murojaat qilgan. 2022-yil davomida 22 ming nafardan ziyod fuqarolar bevosita viloyat va unga tenglashtirilgan sud¬lar tomonidan qabul qilingan qarorlardan norozi bo‘lib, Oliy sudga murojaat etgan. Shikoyatlarning asosiy qismi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning qarorlari yuzasidan bo‘lib, bunday fuqarolar 9802 nafarni tashkil qiladi [4].

Bundan ko‘rinib turibdiki, sudlarda ishning hajmi keskin ortganligi ishlarni qonunda belgilangan muddatda ko‘rib chiqish imkoniyatining yo‘qolishiga olib kelib, bu fuqarolarning o‘rinli e’tirozlari ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari uzil-kesil qaror qabul qilishda sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini uch bosqichli tizim vositasida tekshirish imkoniyatlari cheklanganligi sababi mazkur tizimni o‘rta bo‘g‘inning – viloyat sudlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilning 27-sentabrdagi “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-869-sonli qonuni [5] qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarini shikoyat (protest) asosida apellatsiya tartibida, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya tartibida, apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rilgan sud qarorlarini taftish tartibida qayta ko‘rishga, shuningdek yuqori sudlar tomonidan sud qarorlarini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rish uchun quyi instansiya sudlariga yuborish amaliyotini tugatishga doir protsessual normalarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar

kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi vertikal tartibda tuzilgan bo‘lib, quyi sudlar yuqori instansiya sudlariga bo‘ysunadi. Shuning uchun quyi sudlarni tashkiliy, boshqaruv va boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishida yuqori sudlarning ta’siridan xoli bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Yuqori instansiya sudi tomonidan esa ishni qayta ko‘rish jarayonida asosan shikoyat qilingan sud qaroriga huquqiy baho beriladi [6].

Sud qarorlarini qayta ko‘rishda viloyat sudlarining hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, fuqarolarning shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga va noroziliklarning oldini olishga, shuningdek ortiqcha sarsongarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadi ko‘zlandi.

M.Ch.Azberganova fikricha, bu yangi kiritilgan o‘zgarish avvalgi tartibdan farqli o‘laroq quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato yoxud kamchiliklarni bartaraf etish va adolatni tiklash bilan jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz [7].

X.Kayumov yozishicha, protsessual qonunchilikka kiritilgan mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalar, fuqarolarning odil sudlovga erishish samaradorligini yanada oshirish, jinoyat uchun hukm qilingan shaxslarga hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqini to‘la ta’minlashga xizmat qiladi [8].

Kiritilgan eng asosiy o‘zgarishlardan biri – taftish instansiyasi hisoblanib, ushbu instansiya sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan va qonuniy kuchga kirgan hukmlarini apellatsiya va kassatsiya tartibida berilgan shikoyat va kiritilgan protest bo‘yicha ishlarni qayta ko‘rib chiqadi [9].

Shunday qilib, ishlarni ko‘rishda o‘rta bo‘g‘in sudlari, viloyat va ularga tenglashtirilgan sudlar imkoniyatlaridan to‘laqonli va samarali foydalanish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, sudlarda sud hukm, ajrim, qarori ustidan shikoyat qilishning yangi tartibi – ishlarni taftish tartibida ko‘rib chiqish instituti joriy etildi [10].

Taftish instansiyasi milliy qonunchilikka yangi joriy etilayotgan bo‘lsada, ayrim rivojlangan davlat qonunchiligida o‘z ifodasini topgan va amaliyotida qo‘llanilmoqda [11].

Shaxs tomonidan sudning hukmi ustidan shikoyat keltira olish huquqi ma’lum muddat bilan chegaralanmaydi. Ya’ni shaxs, sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar apellatsiya tartibida, hukm qonuniy kuchga kirgach esa kassatsiya tartibida, o‘z navbatida kassatsiya yoki apellatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha taftish tartibida shikoyat keltirishi mumkin.

Endilikda taftish tartibidagi shikoyat Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, viloyatlar va Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari, harbiy sud tomonidan, ularning taftish tartibida qabul qilgan sud qarorlaridan norozi bo‘lib keltirilgan shikoyatlar esa, Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida taftish tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud qarorlari ustidan manfaatdor shaxslarning murojaatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki Bosh prokuror tomonidan taftish tartibida protest kiritilishi mumkin va taftish tartibidagi ushbu protest Oliy sudning rayosatida takroran taftish tartibida qayta ko‘rib chiqiladi [12].

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda sud ishni taftish tartibida ko‘rish chog‘ida quyi instansiya sudlari tomonidan moddiy huquq normalari to‘g‘ri qo‘llanilgan va protsessual qonun talablariga rioya etilganini ish materiallari bo‘yicha tekshirishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yilning 25-iyundagi “**Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini taftish tartibida ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida**”gi 18-sonli qarori [13] da ko‘rsatilishicha, taftish instansiyasi sudi JPKning 482-moddasiga muvofiq ishlarni taftish tartibida ko‘rishda taftish shikoyati (xususiy shikoyati), protesti (xususiy protesti) bo‘yicha ishning haqiqiy holatlari to‘liq aniqlanganligini va Jinoyat kodeksi normalari to‘g‘ri qo‘llanilganligini, ish yuritishni amalga oshirish chog‘ida JPK normalariga rioya etilgan-etilmaganligini, birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va tegishli taftish instansiyasi sudi hukmining, ajrimining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ishda mavjud bo‘lgan hamda taftish instansiyasi sudi tomonidan qo‘shimcha ravishda tekshirilgan dalillar bo‘yicha tekshiradi.

Taftish instansiyasi sudida jinoyat ishi JPKning 521^{16}, 521^{21}-moddalari [14] ga asosan ko‘rilishi belgilab qo‘yilgan. Sud majlisi raislik qiluvchining sud majlisini ochishi, ko‘riladigan ishni e’lon qilishi, sud majlisiga kelgan ishtirokchilarning kelgan-kelmaganligini aniqlash, shundan keyin ishga kirishish yoki kirishmaslik to‘g‘risidagi

ISSN 3030-3230

masalani hal qilish bilan boshlanadi. Raislik qiluvchi sud tarkibini, sud majlisida hozir bo‘lgan ishtirokchilarning familiyalarini e’lon qiladi. Rad qilish asoslari bor yoki yo‘qligini aniqlaydi va bu haqda qaror qabul qiladi. Raislik qiluvchi sud majlisi ishtirokchilarining haq-huquqlarini tushuntiradi. Sud majlisi ishtirokchilarining iltimoslari bor-yo‘qligini so‘raydi. Bildirilgan iltimoslar bo‘yicha sud ajrim chiqaradi. Agar iltimoslarni qanoatlantirish zarur bo‘lsa, sud majlisi keyinga qoldirilishi mumkin. Shu bilan sud majlisining tayyorgarlik qismiga yakun yasaladi.

G.S.Dovudova yozishicha, taftish instansiya sudi quyi sudlarning qonuniy kuchga kirgan qarorlarini yuqori instansiya sudi sifatida tekshiradi [15]. F.F.Muxiddinova qayd etishicha, yuqori sud instansiyalari roli sezilarli darajada oshdi [16].

Yuqori sud quyi sudning chiqargan hukmidagi xulosalari sud majlisida o‘z tasdig‘ini topgan dalillar bilan asoslangan deyish uchun jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar sinchkovlik bilan to‘la, har tomonlama, xolisona tekshirilgan bo‘lishi kerak.

Jinoyat-protsessual qonuni normalarining hukm bekor qilinishiga sabab bo‘ladigan darajada jiddiy buzilishi tushunchasi JPKning 488-moddasida [17] ifodalangan.

Bunday talabga nafaqat JPKning 488-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatib o‘tilgan qonun buzilishlari aniqlanganda, balki o‘sha moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, ya’ni, jinoyat-protsessual qonun normalarining boshqacha tarzda buzilishi ayblanuvchi, sudlanuvchi va protsess boshqa ishtirokchilarini qonunda belgilangan huquqlaridan mahrum qilgan yoki bu huquqlarni cheklangan yoxud sudga ish holatlarini har tomonlama, to‘la va xolisona aniqlashda boshqacha tarzda xalal bergan, hamda qonuniy va asosli hukm chiqarishga ta’sir etgan yoki ta’sir etishi mumkin bo‘lgan holda ham (ayb e’lon qilinmaganligi, sudlanuvchiga ayblov xulosasi nusxasining berilmaganligi, qonunga ko‘ra o‘tkazilishi shart bo‘lgan ekspertiza o‘tkazilmaganligi, sudlanuvchiga oxirgi so‘z berilmaganligi va boshqalar) rioya etilishi lozim.

Shuni nazarda tutish lozimki, jinoyat-protsessual qonuni normalari jiddiy buzilganligining aniqlanishi taftish instansiyasi sudini protestda keltirilgan boshqa vajlar (ayblovning isbotlanganligi, kvalifikatsiyaning to‘g‘riligi, jazoning adolatliligi to‘g‘risida va h.k.) ni ham mazmunan ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha ajrimda tegishli xulosa chiqarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Yana bir gap, qonunchilikda belgilangan taftish tartibida ishni ko‘rish doirasini yanada kengaytirib, taftish instansiyasida ishlarni ko‘rishda quyi instansiya sudlari tomonidan moddiy huquq normalari to‘g‘ri qo‘llanilgani va protsessual qonun talablariga rioya etilganini ish materiallari va yangi aniqlangan dalillar bo‘yicha tekshirishning aniq tartibi belgilansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, taftish tartibida ish yuritish alohida, mutlaq bosqich bo‘lmasdan, balki jinoyat protsessining mustaqil bosqichi hisoblanadi. Mazkur bosqichda protsess ishtirokchilari yoki qonuniy kuchga kirgan sud qarori u yoki bu darajada daxldor bo‘lgan shaxslarning protesti yoki shikoyati asosida tegishli mansabdor shaxslar tomonidan ushbu hujjatning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi tekshiriladi. Uning natijasida tegishlicha taftish tartibida berilgan shikoyat rad etilishi yoki ish qo‘zg‘atilib taftish instansiyasi sudiga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi.

Аннотация. В статье обоснован процессуальный порядок рассмотрения дел в ревизионном порядке в уголовном процессе. На основе научного анализа действующего законодательства мнений и суждений исследователей разработаны выводы и предложения по правовому совершенствованию процессуального порядка рассмотрения дел в ревизионном порядке в уголовном процессе.

Ключевые слова: в порядке ревизии, апелляция, правосудие, кассация, вышестоящий суд, жалоба, протест, решение, постановление.

Annotation. The article substantiates the procedural order for reviewing cases in the supervisory review procedure in criminal proceedings. Based on a scientific analysis of the current legislation, opinions and judgments of researchers, conclusions and proposals have been developed for the legal improvement of the procedural order for reviewing cases in criminal proceedings.

Key words: in the order of revision, appeal, justice, cassation, higher court, complaint, protest, decision, resolution.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)
2. Сабиров Э.К. Судлар фаолияти очиқлигини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси автореферати. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси, 2021. – Б. 17.
3. Мухитдинов Ф.М. Жиноят-процессуал шакл: назарий ва методологик муаммолар. // юридик фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси И.М.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. – 2005 й. – Б. 345.
4. Исломов Б.Ж. Судьянинг онгида адолат, тилида ҳақиқат, дилида поклик ҳукмрон бўлиши керак. Тошкент: “Халқ сўзи” газетаси, № 26 (8369). 2023 йил, 8 февраль.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йилнинг 27 сентябрдаги “Суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш институти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-869-сонли қонуни. // қонун ҳужжатлари маълумотлар базаси. (www.lex.uz).
6. Арипов Д.Ў. Суд ҳокимияти мустақиллигини ташкилий-ҳуқуқий такомиллаштиришнинг замонавий тенденциялари. // Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) диссертацияси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Бош Прокуратураси Академияси. – 2022 й. – Б. 296.
7. Азберганова М.Ч. Одил судлов тизимидаги ислоҳотлар инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш. Eurasian journal of law, finance and applied sciences. Innovative Academy Research Support Center. – Volume 3 Issue 12, December 2023. – P. 215. www.in-academy.uz
8. Каюмов Х. Биринчи инстанция судининг ҳукм (ажрим)лари юзасидан юқори инстанция судининг барча босқичларга шикоят келтира олиш ҳуқуқини таъминлаш борасидаги ислоҳотларнинг ўзига хос хусусиятлари. // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn jurnal. – Toshkent: Jild: 04 Nashr: 03 / mart – 2024. – Б. 25.
9. Байсариев Ш. Суд босқичларидаги ўзгариш ва янгиланишлар ортиқча оворагарчиликнинг олдини олади. // Одил судлов. Ўзбекистон Республикаси Олий суди. Илмий-амалий, ҳуқуқий журнал. – Тошкент, 2024 й. - № 2. – Б. 40-41.
10. Жўраев И.Б. Жиноят ишларини юритишда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш кафолатлари // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations фанлараро илмий журнал. (Scientific Journal Impact Factor). – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. № 6. – Б. 105.; Таирова Г.М. Адолат призмаси остида жиноят-процессуал қонунчилигининг таҳлили. // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations фанлараро илмий журнал. (Scientific Journal Impact Factor). – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. № 2. – Б. 10.; Довудова Д.С. Жиноят процессининг суд муҳокамасида прокурор иштирокининг назарий ва амалий масалалари. // Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси, 2023. – Б. 156. Мазкур диссертациянинг хорижий тажрибага оид параграфида фикр юритилган.
11. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2024 y. – B. 93.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2024 йилнинг 25 июндаги “Судлар томонидан жиноят ишларини тафтиш тартибида кўриб чиқишнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 18-сонли қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлар базаси. (www.lex.uz).
13. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)
14. Довудова Д.С. Жиноят процессининг суд муҳокамасида прокурор иштирокининг назарий ва амалий масалалари. // Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси, 2023. – Б. 134.
15. Мухитдинова Ф.Ф. Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятининг қарор топиши ва ривожланиши. // юридик фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент: ТДЮИ. – 2011 й. – Б. 35.
16. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

ISSN 3030-3230

KONSTITUSIYA DOIRASIDA XAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARI O‘RTASIDAGI MUVOZANAT

G‘iyosov Bahriddin,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlari va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanat, xavfsizlik bilan bog‘liq jihatlar va ularning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Birlashgan Millatlar tashkiloti, Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, respublika, rezolutsiya, qadr-qimmat, milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, davlat xavfsizligi, Prezident.

Har qanday huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri inson huquqlari va milliy xavfsizlikni ta’minlashdir. Ular o‘rtasidagi muvozanatni topish jamiyat barqarorligini saqlash va taraqqiyotga erishishning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu tamoyillar huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, davlat va jamiyat uchun ulkan ahamiyatga egadir. Qolaversa, Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilish va milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida muvozanatni saqlashga asoslangan huquqiy hujjat bo‘lib, ushbu qonun davlatning fuqarolarga nisbatan majburiyatlarini va shu bilan birga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va mas’uliyatlarini belgilab beradi.

Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida har bir inson jamiyat oldida burchli bo‘lib, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkinligi ko‘rsatilgan.[1] Demak, inson yer yuzining qaysi nuqtasida bo‘lmasin jamiyatda o‘rnatilgan tartib qoidalarga, shuningdek tegishli hudud yurisdiksiyasini o‘z ichiga oluvchi mamlakat qonunchiligiga taalluqli bo‘lgan ijtimoiy normalarga muvofiq harakat qilishi lozim. Har bir inson o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta’minlashga, axloq, jamoat tartibi, umumfarovonlikning odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi mumkinligini[2] esa, ushbu normaning uzviy davomi sifatida keltirish o‘rinlidir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslangan holda o‘z tashqi siyosatini yuritishi[3] Konstitutsiya darajasida belgilangan. Ya’ni, qonunchiligimiz talabiga ko‘ra, inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.[4]

Ammo, bu O‘zbekiston Respublikasida inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi uchun legal to‘siqlar mavjud degan fikrdan yoriq bo‘lish lozim. Konstitutsiyaining 13-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi bilan birga, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.[5]

Umuman olganda, har bir davlatda xavfsizlik va inson qadr-qimmati o‘rratasidagi muvozanatni ta’minlash uchun bir qator Konstitutsiyaviy mexanizmlar ko‘prik vazifasini o‘taydi. Jumladan,–

Qonun ustuvorligi – inson huquqlarini cheklashga qaratilgan har qanday chora-tadbirlar qonunchilikka muvofiq bo‘lishi shart. Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida milliy xavfsizlik va inson huquqlari o‘rtasidagi manfaatlar muvozanati inobatga olinadi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi – Sudlar inson huquqlarini himoya qilish va davlatning xavfsizlik siyosatini nazorat qilishda asosiy o‘rin tutadi. Ular qonun ustuvorligini ta’minlab, jamiyat xavfsizligi uchun yetarli asos yaratadi. Adolatli sud jarayonlari orqali esa, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari himoya qilinadi, qonunbuzarlik holatlari bo‘yicha aybdorlarga nisbatan jazo choralari qo‘llaniladi, davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z vakolatlaridan chetga chiqmasligini nazorat qilinadi.

Jamoatchilik nazorati va shaffoflik – Konstitutsiyada jamiyat va fuqarolarning davlat organlari ustidan nazoratini ta’minlashga doir me’yorlar belgilangan. Zotan, davlat organlari faoliyatini qonuniylikka rioya qilgan holda tashkil etish, korruptsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va

ularning xavfsizligini ta’minlash, xavfsizlik tadbirlarining samaradorligini oshirish jamoatchilik nazoratining asosiy maqsadlaridir. Shaffoflik esa, davlat organlari va muassasalarining faoliyati ochiq bo‘lishini, aholi uchun tushunarli va hisobot berishga tayyor ekanligini bildiradi. Bu jamoatchilikka davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan xavfsizlik choralarini baholash imkoniyatini yaratadi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolar xavfsizligini ta’minlash borasida inson huquqlariga ehtiromni quyidagi konstitutsiyaviy normalarda ham ko‘rish mumkin:

1. Insonning sha’ni va qadr-qimmati va shaxsiy daxlsizlik huquqi (26, 27-moddalar);
2. E’tiqod va fikr erkinligi (33-modda);
3. Turli ko‘rinishdagi mulkchilik shakllarini himoya qilish huquqi (30, 41, 47, 53-moddalar).

Shu bilan birga, Konstitutsiyamizning bir qator o‘rinlarida ayrim Oliy vakillik va ma’muriy ijro organlariga tegishli bo‘lgan vakolatlar doirasida inson qadrini etirof etish bilan birga, davlat hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida ham tashabbus ko‘rsatish vazifasi ko‘zga tashlanadi. Masalan, mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o‘rganish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma qarori bilan parlament tekshiruvi o‘tkazilishi mumkin.[6]

Bu yo‘nalishda asosiy figura sifatida Prezidentlik institutini e’tirof etish joiz bo‘lib, milliy qonunchiligimizga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bir vaqtning o‘zida davlat rahbari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi Raisi lavozimlarini bajaradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi. Alohida hollarda esa, (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi.[7]

Davlatimizda Markaziy ijro organi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu yo‘nalishda barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘radi.[8]

Chunonchi, davlatimiz globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitda joriy harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligidan kelib chiqqan holda zaruriy huquqiy normalarini jamiyat hayotiga kiritgan. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida bu boradagi kontseptual masalalar ilgari surilgan bo‘lib, Doktrinani ro‘yobga chiqarish O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi mustahkamlab qo‘yilgan.[9] O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ham mazkur norma bilan uzviy aloqador bo‘lib, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini tegishli davlat organlariga yuklaydi. Unga ko‘ra, har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish zarurligi jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sirasiga kiradi.[10]

Bu bilan terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, kiberxavfsizlik, davlat chegaralarni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash kabi jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi salbiy omillardan kelib chiqqan chiqib, davlat noqonuniy mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarni, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishini oldini olish maqsadida bu huquq va erkinliklarni

ISSN 3030-3230

ma’lum darajada cheklaydi.[11]

Jumladan, Bosh qomusimizga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, O‘zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati ham taqiqlanadi.[12]

Shunday qilib, muvaffaqiyatli konstitutsiyaviy-huquqiy tizim inson huquqlari va davlat xavfsizligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qodirdir. Bu esa, O‘zbekistonning barqaror va rivojlangan davlatga aylanishiga asos bo‘lish bilan birga, quyidagi mulohazalarni yuritish imkonini beradi:

– jamiyat hayotidagi muhim qonunlarni yanada mustahkamlash orqali inson huquqlarini himoya qilish va xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim;

– xavfsizlik siyosatida inson huquqlariga rioya qilishga oid jamoatchilik nazoratini kuchaytirib borish jamiyat manfaatlarini ko‘zlab harakatlanuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ustuvor yo‘nalishidir;

– xalqaro standartlarga muvofiq kiberxavfsizlik bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni joriy etish faqat tadbirkorlik uchun emas, balki har bir fuqaro uchun xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va jamiyatning barqaror rivoji uchun zarur shart hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xavfsizlik va inson huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy huquqiy asosdir. Zero, mamlakatda inson manfaatalari va qadr-qimmati himoya qilinar ekan, xavfsizlik chora-tadbirlari ham adolatli, qonuniy va albatta shaffof bo‘lishi kerak.

Аннотация. В этой статье анализируется баланс между правами человека и безопасностью, аспекты, связанные с безопасностью, и их правовая база.

Ключевые слова: Организация Объединенных Наций, Всеобщая декларация Прав Человека, республика, резолюция, достоинство, национальная безопасность, общественная безопасность, государственная безопасность, Президент.

Annotation. This article analyzes the balance between human rights and security, aspects related to security and their legal framework.

Key words: United Nations, Universal Declaration of human rights, republic, resolution, dignity, national safety, public safety, state safety, President.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 29-modda. 1-qism // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
2. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 29-modda. 2-qism // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 17-modda // https://lex.uz/docs/6445145
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 21-modda. 1 va 2-qismlar // https://lex.uz/docs/6445145
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 13-modda. // https://lex.uz/docs/6445145
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 103-modda. // https://lex.uz/docs/6445145
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIX bob. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti. 109-modda. 1-band // https://lex.uz/docs/6445145
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XX bob. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 115-modda 2-band // https://lex.uz/docs/6445145
9. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-458-son Qonuni.
4-band // https://lex.uz/docs/3495885
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. 3-band // https://lex.uz/uz/docs/5749291
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. VIII bob. Siyosiy huquqlar. 38-modda; VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar. 33-modda. // https://lex.uz/docs/6445145
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIII bob. Fuqarolik jamiyati institutlari. 71-modda. // https://lex.uz/docs/6445145

XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN, SHAHAR KENGASHLARI DEPUTATLARI MAQOMINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI

Sayfiddinov Aqliddin Anvarjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari maqomi tushunchasi, ularning mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va ahamiyati nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy kengash deputatlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ham taqdim etiladi. Maqola mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini chuqurroq anglash va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: deputat, suverenitet, siyosiy huquqlar, mahalliy davlat hokimiyati, huquqiy maqom.

Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning chuqurlashuvi, davlat boshqaruvida xalq ishtirokining kengayishida mahalliy vakillik organlari faoliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari nafaqat mahalliy darajada qarorlar qabul qilish jarayonining asosiy ishtirokchilari, balki fuqarolar bilan hokimiyat o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi bo‘g‘in hamdir. Bu vakillik organlarining samarali faoliyat yuritishi bevosita deputatlar maqomining qonuniy asoslariga, ularning huquq va majburiyatlarining aniq belgilanishiga bog‘liqdir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari maqomining nazariy-huquqiy jihatlarini o‘rganish, ularning vakolatlari samaradorligini tahlil qilish va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimida tutgan o‘rnini aniqlashtirish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Zero, hozirgi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sharoitida mahalliy vakillik organlari deputatlarining huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

“Maqom» so‘zi asli arabcha so‘z bo‘lib, ko‘p ma’nolarni, shu jumladan o‘rin, daraja, martaba, manzilgoh kabi tushunchalarni ifodalaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari maqomi tushunchasi xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlarining o‘rnini, darajasini, martabasini bildiruvchi tushunchadir. Har bir davlatda har bir shaxs muayyan huquqiy maqomga ega bo‘ladi va bu maqom, avvalambor, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan belgilanadi. Shaxs o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra fuqaro, chet ellik yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lishi mumkin. Shaxs o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra turli hajmdagi siyosiy, shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga ega bo‘ladi. Shaxsiy huquqlar barcha insonlarga tegishli hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari maqomi tushunchasi esa, deputatlarning huquqlarini, majburiyatlarini hamda deputatlik faoliyatining asosiy kafolatlari bilan belgilanadi. Deputatlarining huquqiy maqomi deganda tor ma’noda qonun hujjatlarida mustahkamlangan huquq va majburiyatlar yig‘indisi tushuniladi.

Deputatlarning huquqiy maqomi davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining huquqiy holati bo‘lib, u deputatlik mandatining siyosiy-huquqiy tabiati, uning yuzaga kelishi, to‘xtatilishi, amalda bo‘lish muddati, deputatlar vakolati, ular faoliyatining kafolatlanganligi, shuningdek deputatlarning hisobdorligi, nazorat qilinishi va javobgarligi bilan bog‘langan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinadigan huquqiy normalar majmui bilan aniqlanadi [1].

Mahalliy Kengashlar faoliyati davlatchiligimiz tarixida alohida o‘rin egallagan bo‘lib, bir necha ming yillikka borib taqaladi. Xususan, Amir Temur davrida markazda va joylarda xon boshchiligida dargoh va devonlardan iborat davlat boshqaruvi apparati tuzilgan. Shu bilan birga, muhim davlat masalalari kengashda hal etilib, dargohda vaqti-vaqti bilan kengaytirilgan tartibda majlislar o‘tkazib turilgan. Kengashlarda amirning qarindoshlari, oliy din vakillari, bosh amir, beklar-begi, amirlar, mingboshilar,

ISSN 3030-3230

yuzboshilar, oliy mansabdor shaxslar, vazirlar devonbegi va boshqalar ishtirok etgan. Majlis bayoni maxsus kotib tomonidan daftarga tushirib borilgan. Aftidan, keyingi majlislarda ana shu bayon asosida ilgari qabul qilingan qarorlar, turli choralar natijalari tekshirilgan. Dargoh, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini Oliy Devon nazorat qilgan [2]. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mahalliy kengash deputati o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda, avvalambor, uning huquqiy maqomini belgilash va mazkur holatni qonunchilikda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olim A.Maxmudovning fikricha, deputatlarni xalqning ishonchli vakili sifatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini, eng avvalo, xalq nomidan uning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi organ sifatida e’tirof etish mumkin. O‘z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, deputatlar esa, o‘z faoliyatini amalga oshirishda asosiy e’tiborni ushbu ishonchni oqlashga qaratishlari lozim [3] deb ta’kidlab o‘tgan. Shu o‘rinda “vakil” so‘ziga to‘xtalib o‘tsak. Vakil arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganda ishonchli, vakolatli shaxs degan ma’nolarni anglatadi. Vakil – biror kishi, muassasa, tashkilot nomidan ish ko‘rishga vakolatli bo‘lgan uning manfaatlarini ko‘zlovchi va himoya qiluvchi shaxs [4] ma’nosini anglatadi. Huquqshunos olima G.Ismailovaning fikriga ko‘ra, xalq deputatlari Kengashlari, avvalo, haqiqiy xalq vakillik organi bo‘lishi, deputatlikka davlat va jamiyat sir-asrorlarini biladigan, xalqning g‘am - tashvishini tushunadigan va unga ko‘mak bera oladigan kishilar saylanishini nazarda tutuvchi tartib-qoidalar ham shu zarurat talabidir [5] deb ta’kidlab o‘tgan. Biz yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda, deputatlar xalq va davlat manfaatlarini ko‘zlab, o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar degan xulosa kelamiz.

Xalqaro miqyosda ham turli xil olimlar mahalliy vakillik organlarining deputatlarining maqomi to‘g‘risida turli xil fikr ilgari surishgan. Jumladan, Fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo: “Xalq suverenitetini taqsimlab deputatga in’om etib bo‘lmaydi, unga faqat hokimiyat vakolatlarini berish mumkin”, deydi. J.J.Russoning o‘zi shunday xulosa qilgan: “Xalq deputatlari xalqning bevosita vakili bo‘la olmaydilar, ular faqat undan vakolat olgan kishilardir” [6]. Bundan ko‘rinib turibdiki, xalq deputatlarga hokimiyat vakolatlarini in’om etadi, deputatlar esa qonun qabul qilish orqali xalqning umumiy irodasiga muvofiq harakat qiladilar. Bu fikrdan deputatning huquqiy maqomini belgilovchi muhim prinsip - ya’ni imperativ mandat prinsipi kelib chiqadi. Unga ko‘ra, saylovchilar o‘z deputatlariga bajarilishi shart bo‘lgan topshiriqlar bera oladilar, ishonchni oqlamagan deputatni muddatidan oldin vazifasidan chaqirib olishlari mumkin.

Irlandiyalik davlat arbobi hamda faylasuf Edmund Byork (1729-1797) o‘z qarashlarida deputatlarning “ishonchlilik” nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, mahalliy vakillik deputatlari mustaqil qaror qabul qiluvchi sifatida harakat qilishlari kerak, ular o‘z saylovchilarining manfaatlariga mos keladigan qarorlarni qabul qilishlari kerak, deb hisoblaydi. Ishonchlilik nazariyasida mahalliy vakillik organlari deputatlari faoliyatida, birinchi navbatda o‘z saylovchilarini ishonchini oqlash nazariyasi yotadi.

Rossiya Federatsiyasining huquqshunos olimlaridan Vdrin I.V., Kokotov A.N. deputat tushunchasiga u mahalliy davlat hokimiyati organida aholi manfaatlarini himoya qilishga vakolatli saylangan shaxs ekanligini aytishgan. Deputat quyidagi xususiyatlarga ega: u saylangan shaxs; u tegishli hudud aholisining manfaatlarini ifodalaydi; u aholiga tegishli vakillik organini ifodalaydi [7] deb ta’rif berishgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, deputat saylangan shaxs bo‘lib, u xalqning vakilidir hamda fuqarolar o‘z siyosiy huquqlarini bilvosita amalga oshirish usulidir. Shuningdek, u barcha jarayonlarda o‘z saylovchilarining huquq va manfaatlarini doim birinchi darajada himoya qilishi lozimdir.

Sobiq totalitar tuzumga qadar O‘zbekistonda barcha muhim qarorlar bevosita aholi yoki uning vakillari Kengashi bilan kelishilgan shaklda amalga oshirilgan. Sohibqiron Amir Temur davrida ham har ishni Kengashgan holda hal etganligini o‘z tuzuklarida yozgan [8]. Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karim «Sho‘ro» surasi 38 oyatida keltirilishicha, “U (imonli kishi)larning ishlari o‘zaro maslahat (bilan) bo‘lur” [9] degan oyat nozil qilinganligi, mahalliy vakillik organlarining muqaddas islom dinidagi asosi hisoblanadi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng vakillik organlarini tashkil etishda biz ulkan tarixiy tajribamizdan foydalangan holda yaratishga harakat qilmoqdamiz.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, deputat tushunchasi hamda mazkur tushunchaning nazariy asoslari, deputatning maqomi haqidagi qarashlar uzoq o‘tmishga borib taqaladi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan 913-XII-sonli “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan 706-II-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy vakillik organlari faoliyatini rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ldi.

Yuqoridagilardan, ya’ni xalqaro va milliy tajribani umumlashtirgan holatda quyidagilarni taklif qilamiz.

1. Ta’kidlash joizki, “Xalq deputatlari viloyat,tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida deputat institutiga uning barcha tavsifiy xususiyatlarini o‘zida qamrab olgan qat’iy ta’rif berilmagan. Shu jihatdan olganda, bizning fikrimizcha, mazkur qonunning birinchi moddasida deputat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish lozim, ya’ni, “Xalq deputatlari viloyat,tuman va shahar Kengashiga saylangan va “O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi”ga muvofiq, hududiy, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan ro‘yxatga olingan, tegishli xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan hamda faoliyati davomida butun xalq manfaatlarini himoya qiluvchi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deputat hisoblanadi”.

2. Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatining qanday mandat asosida faoliyat olib borishi masalasini ham qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish lozim. Bunda deputatlik mandatini “aralash mandat” sifatida belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, amaldagi qonunchilikda ham imperativ mandatning, ham erkin mandatning asoslari mavjud. Xususan, “Xalq deputatlari viloyat,tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida, deputatlarning saylovchilar oldida axborot berib turishi bevosita erkin mandatni ifodalasa, ushbu moddaning o‘zida, saylovchilarning ishonchini oqlay olmagan deputat qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin, deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa imperativ mandatning ko‘rinishini ifodalaydi.

3. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunda, mahalliy Kengash deputatlari aynan qanday prinsiplar asosida faoliyat olib borishi belgilanmagan. Shu sababli, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga mahalliy kengash deputati faoliyatining prinsiplari sifatida qonuniylik, kollegiallik, mustaqillik, oshkoralik, saylovchilarning manfaatlarini ifodalash prinsiplarini belgilash lozim. Mazkur prinsiplar orqali deputatlar o‘z faoliyat yo‘nalishlari va maqsadlarini aniq belgilab oladi.

Xulosa qilib aytganda, Xalq deputatlari viloyat,tuman va shahar Kengashi deputatining maqomining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning huquq va vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlash mahalliy demokratiya institutlarini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayonda ilg‘or xorijiy tajribani milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda implementatsiya qilish, qonunchilik bazasini muntazam ravishda takomillashtirib borish va deputatlarning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kompleks amalga oshirish talab etiladi.

Аннотация. В данной статье теоретико-правовой анализируется понятие статуса депутатов народных депутатов областных, районных и городских Кенгашей, их роль и значение в системе местной государственной власти. Также представлены рекомендации по совершенствованию деятельности депутатов местных Кенгашей. Статья охватывает научные и практические подходы, направленные на глубокое понимание деятельности органов местной власти и повышение их эффективности.

Ключевые слова: депутат, суверенитет, политические права, местная государственная власть, правовой статус.

ISSN 3030-3230

Annotation. This article provides a theoretical and legal analysis of the concept of the status of people's deputies of regional, district, and city councils, as well as their role and significance in the local government system. Additionally, recommendations for improving the activities of local council deputies are presented. The article encompasses scientific and practical approaches aimed at a deeper understanding of local government operations and enhancing their effectiveness.

Key words: deputy, sovereignty, political rights, local government authority, legal status.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон юридик энцеклопедияси. Маъсул муҳаррир Н.Тойчиев //- Тошкент: 2010.- 704 б.
2. Одилкориев Х. Т., Азизов Н. П .Давлат ва хукук тарихи.- Т.; 2013.- Б.160-163.
3. Махмудов А.А. Ўзбекистон Республикасида маҳаллий вакиллик органларининг назорат фаолиятини такомиллаштириш: Юрид. фан. ... фал. докт. дисс. автореф. – Тошкент: 2019.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 1 –j. A-D / Tahrir hay’ati: T. Mirzayev (rahbar) va boshq; O‘ZR FA Til va adabiyot instituti.- T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –B.436.
5. Исмаилова Г.С. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либераллаштиришнинг давлат-ҳуқуқий йўналишлари. Юридик фанлари доктори ... дисс. автореф. – Т., 2016. – 71 б.
6. Руссо Ж.Ж. Трактаты. Москва: Наука, 1969. – С. 222.// Трактаты - Руссо Ж.-Ж. - 1969
7. Выдрин И.В., Кокотов А.Н. Муниципальное право России. С. 150—151. 187
8. Темур тузуклари. - Т .Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991.- 15 б.
9. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муллифи Абдулазиз Мансур. - Т.: «Тошкент ислом университети нашриёти» 2001. - 483 б. 42-»Шўро сураси. 38-оят.

INTERNETDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN QABUL QILINISHINING ZARURATI

Ilxombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Konstitutsiyaviy huquq” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. **Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda katta o‘rin egallagan Internetdan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjati qabul qilinishining zarurati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, maqola davomida milliy qonunchiligimiz chuqur ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qonunchiligimiz bilan bir qatorda MDH mamlakatlarining Internetdan foydalanish borasidagi qonunchiligi va ularning bu boradagi tajribasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ilmiy maqolada tadqiq qilingan masalaga nisbatan milliy olimlarimizning fikr va mulohazalari keng o‘rin olgan. Ushbu maqolada Internetdan foydalanishga doir bo‘lgan milliy va MDH davlatlari qonunchiligi chuqur tahlil etilganligi ushbu sohaga qiziqishi bo‘lgan o‘quvchiga ancha manfaatli bo‘ladi.**

Kalit so‘zlar: Internet, axborot, qonun, milliy qonunchilik, normativ-huquqiy hujjat, axborot jamiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, MDH, qonun loyihasi, Internet makoni, qonun hujjatlari, Internet tarmog‘i.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyos. Aynan mana shu axborot texnologiyalarining asosiy faoliyat turi axborot tarqatish hisoblanadi. Hozirda axborot butun insoniyat taraqqiyotiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Shuning uchun ham hozirda dunyoda kechayotgan axborot globallashuvi davrida har qanday davlatning qudrati uning nechog‘li axborotga ega ekanligi hamda mazkur tizimni qay tarzda yo‘lga qo‘yganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, axborot keng omma ruhiyati va ong-tafakkurini yo‘naltiruvchi, shakllantiruvchi kuch sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Ayni shu nuqtai nazardan mamlakatimizda har kimning fikrlash va so‘z erkinligi, axborotni olish, izlash va tarqatish huquqlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligi qonun hujjatlari bilan ta’minlangan. Bosh qomusimizning 33, 34, 81 va 82-moddalarida ham ommaviy axborot vositalarining erkinligi, aholining o‘z fikr va mulohazalarini erkin ifodalash huquqi, har qanday ko‘rinishdagi senzuraning taqiqlanganligi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Jamiyat va davlat hayotining barcha jabhasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, axborot sohasini isloh etish, so‘z erkinligini ta’minlash hamda axborot olish erkinligini kafolatlash davlatimiz oldidagi demokratik jarayonlarning tezlashishi va fuqarolik jamiyatining rivoji uchun qo‘yilgan muhim qadamlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Aholiga keng elektron davlat xizmatlari taqdim qilinishi, telekommunikatsiya infratuzilmasining takomillashtirilishi, Internetning fuqarolar kundalik turmushining hamma jabhasiga keng tatbiq etilishi jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish hamda erkinlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning davlat organlariga murojaatlarini ko‘rib chiqishning samarali tizimini yaratish davlat axborot siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan. Axborotlashtirish sohasidagi erishilgan natijalar, elektron kommunikatsiyaning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi nufuzli xalqaro tashkilotlarning reytinglarida yaqqol o‘z ifodasini topib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtimiz har qanday sohada jahon maydonlariga jadallik bilan yuz tutmoqda. Ushbu jarayonlar bevosita amaldagi qonun hujjatlarining ham takomillashtirilishini va ularni davr talabiga moslashtirilishini taqozo etmoqda.

Shu o‘rinda maqolamizda tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz Internet tarmog‘i va unga aloqador axborot almashinuvi masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan qonun qabul qilinishining ahamiyatini tahlil qilamiz. Zero, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar olimlari va ulardagi huquqiy institutlar vakillari Internet tarmog‘i dunyo miqyosida xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga ta’sir etib

ISSN 3030-3230

kelayotganligi, bu tarmoq hamda uning huquqiy tartibga solinishi qanchalik muhim masala ekanligini alohida ta'kidlaydilar [1].

Internet va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni ma'lum darajada tartibga soladigan mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash muhim o'ringa ega. Mazkur masalani tadqiq qilgan milliy olimlarimizdan professor I.Rustambekov Internetga oid normativ-huquqiy hujjatlarni quyidagicha tavsiflagan.

1. Internetga doir keng qamrovli (kodekslashtirilgan) qonunchilik jahonning biron-bir mamlakatida mavjud emas. Mavjud normativ (qonun osti) hujjatlar bilan tarmoq faoliyatining alohida jihatlari tartibga solinadi.

2. Internet borasidagi munosabatlarga tadbiq etish mumkin bo'lgan normalar tarqoq holatda bo'lib, ularga boshqa huquq sohalarining qonun hujjatlarida duch kelish mumkin. Birinchi navbatda ular intellektual mulk va sanoat mulki to'g'risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan.

3. Internet borasidagi munosabatlarni xalqaro (davlatlararo) miqyosda tartibga solish deyarli mavjud emas. Yuqorida keltirilgan misol u tez orada, hech bo'lmasa ikki taraflama asosda talab etilishini tasdiqlaydi [2].

Milliy qonunchiligimizni tadqiq qilish orqali biz Internetdan foydalanishni tartibga solish muammolari birorta qonun hujjatlari bilan o'z yechimini topmaganini ko'rishimiz mumkin. Internet masalasi qonunchiligimiz uchun yangi sohalardan biri va aynan shu sababli ushbu yo'nalishni to'liq tartibga soluvchi qonun mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy qonunchiligimizda amalda mavjud bo'lgan qonun normalari Internet makonidan foydalanishda kelib chiqadigan munosabatlarni u yoki bu jihatdan tartibga soladi. Shuning uchun ham mavjud milliy qonunchilik ushbu sohani tartibga solishda ayni bir qonun normasiga emas, balki bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Internet makonining normativ-huquqiy bazasini tahlil qilish jarayoni sohada mavjud bo'lgan normativ bazani tizimlashtirish zarurati borligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib Internet tushunchasi O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida juda tarqoq va sayoz holda o'z aksini topgan. Amaldagi qonun hujjatlari Internet makonini kompleks ravishda qamrab olmaydi va keng miqyosda tartibga solmaydi. Bundan ko'rish mumkinki, Internet makonini tartibga solishning asosiy masalalarini qamrab oladigan normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

Mavjud qonunlarda Internet tarmog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan munosabatlar, axborot olish va tarqatish bilan bog'liq jihatlar ayrim qonunlarda o'z aksini topgan hamda ushbu normalar yetarlicha Internet bilan bog'liq masalalarni qamrab olmaydi.

Bizning qonunchiligimiz uchun tadqiq etilayotgan masala nisbatan yangi soha bo'lgani uchun uni G'arb davlatlari qonunchiliklari bilan bevosita solishtirish nazarimizda u qadar to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ham ushbu soha qardosh davlatlarda qanday aks etgani e'tiborga loyiq. O'zbekiston qonunchiligi ko'proq qo'shni davlatlar qonunchiliklaridan andoza oladi. Sababi yaqin mentalitet, bir necha yil bir tuzum ostida yashaganlik va boshqalar bunga asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH davlatlarida Internetni tartibga solishning bir necha yondashuvlari ishlab chiqilgan. Ushbu masalaga Armaniston, Qirg'iziston va Moldova kabi davlatlar nisbatan liberal munosabatda yondashadilar. Armanistonda axborot resurslariga kirishni cheklashni tartibga soluvchi maxsus huquqiy normalar mavjud emas. Kirishni cheklash sud qarori asosida amalga oshirilishi mumkin. Buning asosi kontentning noqonuniyligi to'g'risidagi sud qarori bo'lishi mumkin. Qirg'izistonda Internet saytlari ommaviy axborot vositalari emas. Ekstremistik axborot materiallarini bloklashga nisbatan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Qirg'iziston MDH davlatlarining "Internet tarmog'ini tartibga solish asoslari to'g'risida"gi [3] namunaviy qonuniga qo'shilgan. Shuningdek, 2021-yil 23-avgustda Prezident S.Japarov "Ishonchsiz (yolg'on) axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi [4] qonunni imzolagan. Unda Internet foydalanuvchilarini deanonimlashtirish, shuningdek, agar u yerda yolg'on ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lsa, sud qarorisiz saytlarni bloklash ko'zda tutilgan. Xususan, qonunning 5-bandida aytilishicha, Internet-provayder, sayt yoki sahifa egasi yolg'on ma'lumotlarga kirishni cheklaydi yoki taqiqlaydi. Shuningdek, Internet-provayderlar umumiy foydalanish nuqtalari egalari "o'z obunachilarini aniqlashlari (ya'ni identifikatsiyalashlari) talab qilinadi. Moldovada qonunchiligiga to'xtalganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu davlat qonunchiligi Yevropa qonunchiligiga anchayin muvofiqlashtirilgan.

Moldovaning amaldagi “Matbuot to‘g‘risida”gi [5] qonuni onlayn OAV, bloglar va an’anaviy media saytlar faoliyatini tartibga solmaydi. Yana bir e’tiborli jihati shundaki Moldovada boshqa MDH davlatlaridan farqli ravishda “Axborot to‘g‘risida” maxsus qonun yo‘q.

MDH mamlakatlarida Internetning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish bizga quyidagilarni ko‘rsatdi. MDH mamlakatlari qonun hujjatlarining tahlili ular Internet-siyosatni rivojlantirish jarayonining turli bosqichlarida turgani, ammo barcha mamlakatlar uchun umumiy jihatlar borligini ko‘rsatadi [6]. Shundan kelib chiqib, vaziyatni kuyidagicha tavsiflash mumkin:

1. MDH mamlakatlarida “Internet to‘g‘risida” keng ko‘lamli qonun mavjud emas.

2. MDHning bir qator mamlakatlarida “Internet” so‘zi qonun hujjatlarida xatto tilga olinmagan. Qoida tariqasida, Internetni tartibga solish masalalari konsepsiyalar, strategiyalar, hukumat qarorlari va turli nizomlarda ko‘rib chiqiladi.

3. Qonun hujjatlarining yo‘qligi turli oqibatlarga olib keladi:

a) ayrim mamlakatlarda bunday qonun hujjatlarining yo‘qligi Internet hukumat aralashuvisiz rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ammo bu holda hukumat istalgan vaqtda Internet ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishga harakat qilishi mumkin;

b) boshqa mamlakatlarda Internetni tartibga soladigan qonun hujjatlarining yo‘qligi hukumat harakatlari uchun erkinlik beradi, ya’ni nimani ruxsat etish va nimani taqiqlashni amaldorlar o‘zboshimchalik bilan hal qiladilar.

4. Internet hukumat tomonidan me’yordan ortiq tartibga solinadigan mamlakatlar ham yo‘q emas va ularda bo‘lg‘usi islohotning maqsadi tarmoqni mazkur cheklashlardan ozod qilishdan iborat.

5. “Tartibga soluvchi” qonun ayrim mamlakatlarga Internetdan foydalanish sohasida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi.

6. Barcha mamlakatlarda Internet “taqdiri” unga bevosita tegishli bo‘lmagan qoidalarga ko‘p jihatdan bog‘liq.

7. Internet-bozorni rivojlantirishning eng ta’sirchan vositasi uning o‘zini o‘zi tartibga solishidir. Tarmoqda munosabatlarni tartibga solishning mazkur usuli Internet hamjamiyatning barcha a’zolarini qanoatlantiradigan qoidalarni belgilash va davlat aralashuvini oqilona darajada cheklash imkonini beradi [7].

O‘rganishlarimiz davomida ko‘plab mamlakatlarda Internetni tartibga solish masalalari konsepsiyalar, strategiyalar, hukumat qarorlari va turli nizomlarda keltirib o‘tilganligini ko‘rish mumkin. Ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yo‘qligi esa turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, Professor I.Rustambekov o‘z tadqiqot ishida Internetni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yo‘qligi quyidagi oqibatlarga olib kelishini asoslab bergan:

birinchidan, ayrim mamlakatlarda bunday qonun hujjatlarining yo‘qligi Internet hokimiyat organlari aralashuvisiz rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi;

ikkinchidan, ba’zi mamlakatlarda Internetni tartibga soladigan qonun hujjatlarining yo‘qligi hokimiyat organlari harakatlari uchun erkinlik beradi, ya’ni nimani ruxsat etish va nimani taqiqlashni amaldorlar o‘zboshimchalik bilan hal qiladilar;

uchinchidan, ayrim mamlakatlarda Internet hukumat tomonidan me’yordan ortiq tartibga solinadi. Internet sohasida qonun hujjatlarini yanada uyg‘unlashtirishning maqsadi mazkur cheklashlarni olib tashlashdir. “Tartibga soluvchi” qonun ayrim mamlakatlarga Internetdan foydalanish sohasida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, Internetni rivojlantirishning eng ta’sirchan vositasi uning o‘zini o‘zi tartibga solishidir. Tarmoqda munosabatlarni tartibga solishning mazkur usuli Internet hamjamiyatning barcha a’zolarini qanoatlantiradigan qoidalarni belgilash va davlat aralashuvini oqilona darajada cheklash imkonini beradi [8].

Milliy qonunchiligimiz tahlili bizda Internet tarmog‘ini kompleks tartibda qamrab oluvchi maxsus qonun yo‘qligini ko‘rsatdi. Fikrimizcha ana shunday qonun qabul qilinishi Internet makonini tartibga solish hamda foydalanish imkoniyatlarini, shuningdek axborot olish va tarqatish sohasining rivojiga katta hissa qo‘shishini aytib o‘tish joiz.

Bizning fikrimizcha agar qonun loyihasi ishlab chiqilsa ushbu loyihada quyidagi normalar o‘z ifodasini topishi kerak.

1) Umumiy qoidalar, ya’ni qonunning amal qilish doirasi, foydalaniladigan asosiy atamalar aks etishi lozim. Bunda Internetni tartibga solish jarayonlarining subyektlari ko‘rsatilgan bo‘lishi, barcha tomonlar, xususan davlatlar, foydalanuvchilar, Internet xizmatlari operatorlari

ISSN 3030-3230

ishtirok etishi lozimligi aks etishi kerak.

2) Internet bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish prinsiplari o‘z ifodasini topishi kerak. Bunda asosiy jarayonlar va Internetni tartibga solishga qo‘yiladigan talablar belgilangan bo‘lishi, davlatning Internetni rivojlantirish, undan ochiq va cheklovlarsiz foydalanishni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlari belgilanishi lozim.

3) Internet makonini tartibga solish jarayonida barcha ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek Internetni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari Internetni tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlik prinsiplari va yo‘nalishlarining belgilanishi esa Internet bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarga xos muammolarni hal etadi.

4) Nizolarni hal etish va mazkur qonun normalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari aks etishi lozim.

O‘zbekistan Respublikasida shu kabi qonun normasining qabul qilinishi bir qator ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Xususan, Internetni boshqarish sohasida asosiy manfaatdor tomonlar, ya’ni davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining sherikligi qonun yo‘li bilan mustahkamlanadi. Davlatning Internetni rivojlantirish va undan foydalanishni ta’minlash borasidagi majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatda o‘z aksini topadi. Internetni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek asosiy manfaatdor tomonlar, ya’ni davlat, biznes hamda fuqarolik jamiyatining vakolatlari qonun bilan mustahkamlanib qo‘yiladi. Eng asosiysi esa ushbu qonun normalarining har qanday shaklda buzilishi javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi o‘z aksini topadi.

Tadqiq qilinayotgan ushbu sohani qonun yo‘li bilan tartibga solish tizimi haqida to‘xtalganda, Professor I.Rustambekovning qarashlari diqqatga sazovor. Xususan, olim o‘z tadqiqot ishida Internetni tartibga soluvchi qonun hujjatlari yo‘qligining oqibatlariga to‘xtalib, mazkur muammoni yechishning to‘rt yo‘li amalda mavjudligiga e’tiborni qaratadi. Bular:

a) qonun yo‘li bilan tartibga solishdan voz kechish va o‘zini o‘zi tartibga solishga umid qilish. Hozirgi vaqtda bu yo‘ldan borishning iloji bo‘lmasa kerak, chunki amaldagi normativ hujjatlar “tarmoqdagi” munosabatlarga o‘xshashlik bo‘yicha bo‘lsa ham tatbiq etiladi;

b) ko‘rib chiqilayotgan munosabatlarni alohida (maxsus) huquqiy tartibga solish. Bu yo‘l samarali bo‘lmasa kerak, chunki amaldagi (masalan, intellektual mulkni muhofaza qilish sohasidagi) qonun hujjatlarining ko‘p sonli normalarini takrorlash zarurati bilan bog‘liq;

v) amaldagi qonun hujjatlarini o‘zgartirish va “tarmoqdagi” ijtimoiy munosabatlar xususiyatini hisobga olgan holda yangi normativ hujjatlar qabul qilish. Umuman olganda, bu yo‘ldan borish mumkin, ammo u qonun hujjatlari tegishli normalarining tarqoqligiga olib kelishi mumkin;

g) ko‘rib chiqilayotgan munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslarini mustahkamlaydigan “hadli” normativ hujjat (qonun) qabul qilish va so‘ng “v” bandini hayotga tatbiq etish [9].

Keltirilgan fikrlar bugungi kunda milliy qonunchiligimizda Internet makonni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan qonun hujjatini qabul qilish borasidagi huquqiy tahlil edi. Bizning fikrimizcha esa Internet munosabatlarini kompleks qamrab oluvchi yaxlit bir qonun qabul qilinishi va qonunchiligimizdan kelib chiqqan holda ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi kerak.

Internet to‘g‘risidagi qonun o‘zida turli huquq sohalariga oid normalarni jamlashi kerak. Bizning fikrimizcha ushbu qonun quyidagilarni belgilaydigan qoidalarni o‘z ichiga olishi lozim:

1) Internet tarmog‘iga oid jahon hamjamiyati tomonidan umume’tirof etilgan hujjatlarda aks etgan prinsiplarni;

2) Internet tarmog‘iga oid davlat siyosati asoslarini va milliy qonun hujjatlarining tuzilmasini;

3) Internet tarmog‘ida vujudga keladigan munosabatlarga qonun hujjatlarini qo‘llash prinsiplarini;

4) Internet tarmog‘ida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning ayrim fundamental prinsiplarini;

5) Internet tarmog‘i bilan bog‘liq muhokama etilishi hamda aniqlik kiritilishi lozim bo‘lgan boshqa masalalarni.

Fikrimizni davom ettirgan holda, Internetni kompleks qamrab oluvchi hujjat, ya’ni Internetdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi xuddi shu masalalarni o‘zida mujassam etgan boshqa bir normativ hujjatlar ham qabul qilinishi zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi natijasida Internet tarmog‘idagi vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ hujjatlar tizimi paydo bo‘ladi. Ushbu tizimning asosini maxsus (Internetdan

foydalanish to‘g‘risida) qonun tashkil qilsa, xuddi shu munosabatlarni tartibga solishda qo‘shimcha ravishda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Aynan shunday tizim Internet makonini kompleks tarzda qamrab oladi va axborot olish hamda tarqatishda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Milliy qonunchiligimizning tahlili shuni ko‘rsatdiki, Internetdan axborot olish va tarqatish borasida vujudga keladigan munosabatlarni to‘liq tartibga soluvchi aniq bir normativ hujjat yo‘q. Bu boradagi munosabatlar, ayniqsa, Internet tarmog‘ida yuzaga keluvchi munosabatlar doirasiga qo‘llash mumkin bo‘lgan normalar turli qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Ushbu munosabatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra ko‘pgina huquq sohalari bilan uzviy aloqaga kirishadi. Biroq, Internet tarmog‘ida vujudga keladigan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari sabab, mavjud huquq sohalarining hech biri ularni to‘laligicha tartibga sola olmaydi. Shuning uchun ham mazkur munosabatlar alohida, keng ko‘lamli huquq sohasi yordamida tartibga solinishi lozim. Buning sababi esa Internetda vujudga keladigan munosabatlar boshqa bir huquq sohalari, xususan, konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, mehnat, soliq, axborot, mualliflik huquqi va hokazolar bilan tartibga solinadigan turli xil masalalarga oid hisoblanadi.

Axborot asrida yashar ekanmiz, texnika, texnologiya, axborot-kommunikatsiya kundan kunga rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda va o‘z-o‘zidan ushbu sohalarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarning ham takomillashtirilishi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Xuddi shuningdek Internet dunyosi va uning huquqiy tartibga solinishi doimiy ravishda rivojlanib, o‘zgarib bormoqda. Ushbu jarayon esa bevosita mazkur sohadagi xalqaro talablarga mos ravishda milliy qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirib zamon talabiga moslashtirishni talab qiladi.

Qayd etilganidek, Internet makonini tartibga solish va unda axborot almashinuvida yuzaga keladigan munosabatlarda xalqaro tajribani o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Internet sohasini tartibga solish hamda uni rivojlantirish uchun ushbu sohani qamrab oluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilish va ularni O‘zbekistan Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi Internet tarmog‘ini hamda Internetda axborot olish va tarqatishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Shu kabi huquqiy hujjatlar Internet makonida mavjud bo‘lgan muammolarga o‘z yechimini topishda amaliy yordam berishi kerak.

Mazkur xalqaro hujjatlarda:

- Internet makonida vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar boshqa bir davlatlarning qonun hujjatlarida har xil talqin qilinishining oldini olish uchun belgilab qo‘yilishi;
- davlatlar yurisdiksiyasi, shuningdek provayderlarning javobgarligi kabi muhim masalalar hal etilishi;
- Internet tarmog‘ida huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi xalqaro darajada kurashish;
- tarmoq xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari belgilanishi lozim;
- Internetdan erkin foydalanish hamda Internet tapmog‘i xizmatlari operatorlarining faoliyatini asossiz ravishda cheklashga, shu jumladan axborot resurslaridan foydalanish jarayonida diskriminatsion tartibini o‘rnatishga yo‘l qo‘ymaslik shartlari;
- xalqaro axborot ayirboshlashdan foydalanish tartibi;
- Internetda xizmatlar erkin bozorini rivojlantirish shartlari, monopoliyalashuv va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yilmasligi belgilanishi lozim.

Internet makonida foydalanishda vujudga keladigan munosabatlar, ayniqsa axborot olish va tarqatishdagi mavjud hamda o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan masalalar xalqaro tajribani inobatga olgan holda qabul qilinadigan Internet to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinishi lozim.

Ushbu qonun qabul qilinishi natijasida Internet tarmog‘idan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, qaysi vaqtdan boshlab bunday majburiyatlar bajarilgan deb hisoblanishini belgilash va ular bajarilganini hujjatlar bilan tasdiqlash masalalari o‘z yechimini topadi.

Bizning fikrimizcha Internetdan foydalanish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinsa unda quyidagilar aks etishi lozim:

- Internet makonini tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlarning asosiy qoidalari;
- ushbu qonun qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan asosiy qoidalarni takrorlamasligi;
- Internet makonini tartibga solish sohasida mavjud va yaratiladigan qonun hujjatlarini yanada yaxshi qo‘llash uchun ularga aniqlik kiritishi;

ISSN 3030-3230

- ko‘rsatilgan qonunlar keng ko‘lamli, ya’ni turli huquq sohalarining normalaridan iborat bo‘lishi;

- qonun hujjatlari tuzilmasini o‘z ichiga olishi;

- Internet tarmog‘iga oid davlat siyosati asoslarini belgilaydigan qoidalarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirda milliy qonunchiligimizda Internetni kompleks tarzda qamrab olgan holda uni tartibga soluvchi yaxlit qonun mavjud emas. Mazkur qonunning qabul qilinishi esa sohada ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Biz ushbu qonun qabul qilinishining zaruratini yuqorida ko‘rib chiqdik. Zero, maqsadimiz ham Internet makonidan axborot olish va tarqatishdagi dolzarb masala bo‘lgan muammolarni tahlil qilishdir. Ushbu tahlil davomida axborot olish va tarqatishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni qonunchilik tomonidan tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugungi axborot asrida ushbu masalalarni qonun yo‘li bilan tartibga solish muhim vazifa sanaladi. Shuning uchun ham o‘ylaymizki, tez fursatlarda Internet makonini huquqiy jihatdan to‘liq tartibga solish maqsadida ushbu sohada yangi qonun qabul qilinishi mavjud kamchiliklarni to‘liq bartaraf etadi.

Аннотация. Эта научная статья посвящена необходимости принятия закона, направленного на регулирование использования интернета, который сегодня занимает большое место в нашей общественной жизни. В частности, в ходе статьи было тщательно научно проанализировано наше национальное законодательство. Также, в дополнение к нашему национальному законодательству, освещается законодательство стран СНГ об использовании Интернета и их опыт в этом отношении. Мнения наших отечественных ученых широко распространены в отношении вопроса, изучаемого в научной статье. Читателю, интересующемуся этой областью, будет гораздо интереснее, если в данной статье будет проведен глубокий анализ национального законодательства и законодательства стран СНГ, касающегося использования интернета.

Ключевые слова: Интернет, информация, закон, национальное законодательство, нормативно-правовой акт, информационное общество, информационно-коммуникационные технологии, СНГ, законопроект, интернет-пространство, законодательство, сеть Интернет.

Annotation. This scientific article discusses the need for the adoption of a legislative document aimed at regulating the use of the Internet, which today occupies a large place in our social life. In particular, during the article, our national legislation was thoroughly scientifically analyzed. Also, in addition to our national legislation, the legislation of the CIS countries on the use of the Internet and their experience in this regard are highlighted. The opinions and opinions of our national scientists are widely held in relation to the issue studied in the scientific article. In this article, a thorough analysis of the legislation of the national and CIS countries related to the use of the Internet will be much more beneficial to the reader who is interested in this area.

Key words: Internet, Information, Law, national legislation, regulatory legal act, Information Society, information and Communication Technology, CIS, bill, Internet space, legislation, Internet network.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. William Dutton. Internet Freedom: Law and Regulation. - Washington, 2011
2. Рустамбеков И. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш муаммолари. Монография. Тошкент - 2017 // Электрон манба: https://drive.google.com/file/d/1JJi62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFK_yEjUD/view
3. Модельный Закон. Об основах регулирования Интернета // Электрон манба: https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=62111

4. Закон Кыргызской Республики от 23 августа 2021 года № 101 “О защите от недостоверной (ложной) информации” // Электрон манба: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34943115&pos=5;-106#pos=5;-106

5. Закон О печати Республике Молдова // Электрон манба: https://lege.md/ru/act/o_pechati

6. Анализ законодательств по правовому регулированию Интернет стран СНГ (2007 год) // Электрон манба: https://medialaw.asia/document/-2463

7. Анализ законодательств по правовому регулированию Интернет стран СНГ (2007 год) // Электрон манба: https://medialaw.asia/document/-2463

8. Рустамбеков И. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш муаммолари. Монография. Тошкент - 2017 // Электрон манба: https://drive.google.com/file/d/1JJi62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFK_yEjUD/view

9. Рустамбеков И. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш муаммолари. Монография. Тошкент - 2017 // Электрон манба: https://drive.google.com/file/d/1JJi62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFK_yEjUD/view

10. Jasurbek, I. L. H. O. M. B. E. K. O. V. (2022). DEVELOPMENT TENDENCIES OF THE RIGHT TO RECEIVE INFORMATION IN THE VIRTUAL SPACE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 17-22.

11. Ilkhombekov, J. (2022). THE ROLE AND ROLE OF THE MEDIA IN THE INFORMATION DISTRIBUTION PROCESS. Академические исследования в современной науке, 1(17), 80-84.

12. Илхомбеков, Ж. И. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЛАРИДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ ЭРКИНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Scientific progress, 3(4), 1068-1074.

13. ИЛХОМБЕКОВ, Ж. (2022). АХБОРОТ ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ, ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТИ ВА КАФОЛАТЛАРИ. ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ, 2(6), 49-53.

14. Jasurbek, I. (2024). Comparative Legal Analysis of Reforms Conducted for the Development of the Information Sector in the New Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(1), 72-81.

15. Jasurbek, I. (2024, February). INTERNET ACTIVITY COORDINATION ORGANIZATIONS. In E Conference World (No. 4, pp. 158-166).

ISSN 3030-3230

PRELIMINARY ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF RETURNED CRIMINAL ASSETS AND THE ROLE OF CIVIL SOCIETY IN THESE PROCESSES

Zokirov Botirjon,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotation. The article reflects the issues of returning illegally exported criminal assets to the country, the work done on them, the transparency of these processes, the role of civil society, and recommendations aimed at improving the efficiency of the industry in the future.

Key words: criminal asset, restitution, division of confiscated assets, Swiss experience, transparency and accountability, beneficiary, civil society.

On 5 February 2025, Switzerland and Uzbekistan signed the «Agreement on the Sharing of Confiscated Assets», according to which 182 million US dollars will be returned to Uzbekistan from the settlements of assets obtained by corrupt means by Gulnara Karimova, the daughter of the former president of the country Islam Karimov, and confiscated by the Swiss justice system in a money laundering case (1). This is already the second tranche returned to Uzbekistan in the same case. The first, in the amount of 131 million dollars, was already returned in 2022 in accordance with the agreement signed by the two parties (2,) and transferred to the management of the UN Trust Fund for the Implementation of Sustainable Development Programs in Uzbekistan.

In total, 800 Swiss francs (which is equal to 910 million dollars at the current exchange rate) have been frozen in Switzerland in the Gulnara Karimova case, of which approximately 340 million have been confiscated so far. But these 800 million are not the entire amount seized in the case of Gulnara Karimova's assets. At least another 300 million dollars have been frozen in banks in Ireland, Belgium and Luxembourg under a lawsuit brought by the US Department of Justice in 2015 (3). According to the same lawsuit, Gulnara Karimova's illegal assets were also received in bank accounts in other countries, at least $100 million in Latvia, $275 million in Hong Kong and $97 million in the UK. All of these assets, in relation to which the US Department of Justice brought claims, have not yet been confiscated, since the case is not yet completed.

Confiscation and restitution of assets stolen through corruption and money laundering is one of the areas of the fight against corruption, and a separate section of the International Convention against Corruption is devoted to this problem. The task in this regard is to identify, confiscate and return such assets to their country of origin, but this must be done in such a way that these assets do not fall back into corruption, but serve the population of their country of origin, since it is precisely this population that is the main victim of corruption. International civil society has long sought to ensure that the return of stolen assets takes place properly, so that this process achieves its goals and meets the requirements of transparency and accountability. These civil society efforts, supported by leading democratic governments, have achieved some success when the Global Forum on Asset Recovery (GFAR), held in December 2017 with representatives from 25 jurisdictions, adopted 10 principles for asset restitution (4). I would highlight the following as key principles:

Principle 4: Transparency and Accountability. This states that countries, both those returning and those receiving assets, shall ensure transparency and accountability in the return and disposal of assets. Information on the transfer and disposal of recovered assets shall be publicly available and accessible in both the transferring and receiving countries. The diversion of assets for any kind of illegal and unaccountable fees and payments shall not be allowed.

Principle 5: Beneficiaries. Where possible and without harming the direct victims of corruption, stolen assets seized from corrupt officials should benefit the people of countries affected by corruption.

Principle 6: Strengthening the fight against corruption and development issues. Where possible, consideration should also be given to the use of confiscated proceeds to promoting actions

that are consistent with the principles of the United Nations Convention against Corruption to combat corruption, repair the damage caused by corruption and achieve development goals.

Principle 9: No Benefit to Offenders. All steps should be taken to ensure that the return of confiscated assets does not benefit those who participated in the offences that led to and continue to lead to corruption.

Principle 10: Involvement of Non-Governmental Stakeholders. To the extent appropriate and permitted by law, individuals and groups outside the public sector, such as civil society, non-governmental community organizations, should be encouraged to participate in the asset recovery process, including by helping to identify ways in which the harm caused by corruption to society can be repaired, by contributing to asset recovery decisions, and by promoting transparency and accountability in the transfer and disposal of assets. The key question in this regard is how these principles are put into practice, in this case with regard to the confiscation and return of assets that were obtained by the daughter of the former Uzbek president, Gulnara Karimova, through the extortion of multimillion-dollar bribes from international telecommunications companies (5) that provided mobile Internet services in Uzbekistan. In total, these assets are estimated at approximately US$1.2 billion. All of them were transferred out of Uzbekistan through money laundering channels and placed in bank accounts in various countries, mainly in Switzerland. So far, approximately US$340 million has been confiscated in Switzerland, of which US$313 million is in the process of being repatriated.

Switzerland was one of the most active participants in the above-mentioned Global Forum on Asset Forfeiture and Recovery and expressed its support for the principles adopted there. However, despite being practically ahead of other countries in following these principles (6), the manner in which the process of returning stolen assets from Switzerland to Nigeria in 2005 (first tranche of $700 million) and Kazakhstan in 2012 (second tranche of $48 million) was carried out (7), has been criticized by civil society. In both cases, criticism was primarily directed at the activities of the World Bank, which Switzerland commissioned to administer the process of repatriation and distribution of returned assets to the two countries.

It should be acknowledged that the repatriation of the first tranche of 115 million dollars, returned by Switzerland to Kazakhstan in 2007 and confiscated under the so-called Kazakhgate, in which the then President of Kazakhstan Nursultan Nazarbayev was involved, was quite successful and evoked positive responses from civil society. The scheme for returning that tranche was developed by the World Bank. According to this scheme, the Bota Fund was created, and two non-governmental non-profit organizations, Save the Children and IREX, received the right to manage it following a tender. The only drawback of that process of repatriation of assets was the high, approximately 20 percent, share of administrative and operational expenses, for which these two organizations, as well as the World Bank, received compensation (8). However, the remaining funds were spent on projects related to the problems of the poor part of the country's population and especially children from poor families. Equally important, these projects were entrusted to local non-governmental organizations.

The source of the second tranche of 48 million dollars was the sum confiscated in Switzerland in the corruption case of one of the oligarchs of Kazakhstan, whose name was not disclosed in accordance with an out-of-court agreement between the two parties, Switzerland and the owner of the assets, who agreed to their confiscation on the condition of non-disclosure of his name. However, there are certain grounds to suspect that one of the members of the Nazarbayev clan was involved in this case. And this time the World Bank, or rather one of its trusts, again took on the task of administering and distributing assets on the ground on behalf of the Swiss authorities. At the same time, both parties, Switzerland and the World Bank, for some reason refused the scheme according to which the process of transferring the first tranche took place. Most likely, this was done due to the refusal of the government of Kazakhstan to create an organization similar to the Bota Fund. Switzerland and the World Bank accepted this refusal, and as a result, the Bank found no other solution than to entrust the process of distributing the returned funds to a GONGO controlled by Dariga Nazarbayeva. And this organization distributed the funds among organizations associated with it, which were in fact controlled by the authorities (9). As a result, a kind of conflict of interest arose: the funds were given under the control of a family, itself involved in corruption, which led to the seizure of the said assets. And this fact was in blatant contradiction with Principle 9 adopted by the Global Forum on Asset Recovery,

ISSN 3030-3230

which does not allow the transfer of returned assets under the control of those whose corrupt activities led to their seizure and confiscation.

After Christian Lasslett and Tom Mayne conducted an investigation into how the World Bank administered the return of the second tranche to Kazakhstan and published the results, the Swiss authorities apparently considered these data shocking and damaging to Switzerland's reputation as a country that had participated in the development and adoption of the above-mentioned 10 GFAR principles and was supposed to set an example of how these principles should be followed in practice.

As a result, when considering how to repatriate Gulnara Karimova's assets to Uzbekistan , the Swiss authorities decided not to trust the administration of these assets to the World Bank any longer, but to entrust this mission to another organization. This time, the choice was made in favor of a UN organization. In making this decision, the Swiss authorities tried to better comply with the ten GFAR principles, especially on three points:

(a) ensuring transparency and accountability in the use of funds;

(b) the provision of these funds for the needs of the country's population, and finally,

(c) the inclusion of civil society in the process of observation, monitoring and consultation on issues of administration of the repatriation process and disposal of assets.

UNDP, in turn, proposed to direct funds to address the issues within the framework of the UN Vision 2020 program, which, in turn, is part of the UN Sustainable Development Program, which is quite broad in scope and unites and coordinates the work of various UN agencies and organizations. For these purposes, the 5 Fund «Vision of Uzbekistan 2030» was created, also called the «Ishonch» Fund (ishonch is translated from Uzbek as trust).

As noted above, the first tranche was returned to the management of the Fund «Vision of Uzbekistan 2030» (or the «Ishonch» Fund) in the amount of 131 million US dollars. As of today, only 68 million of this amount have been used, and this is for the implementation of two projects:

1) «Reducing maternal and infant mortality» (with a budget of 43.5 million dollars).

2) «Development of education using ICT» (23.5 million dollars).

The fate of the remaining 63 million is still unknown. At least, there is no information on this matter on the Ishonch website. Only insider information has been received that a project on hygiene issues in schools is being considered. Apparently, it will be published soon.

As for the reporting, two reports have been posted on the Ishonch website, for 2022 and 2023. Again, according to insiders, a draft report for 2024 is already being considered. So, most likely, it will soon be published on the same website.

The reason for this publication was the announcement that Switzerland is transferring the next tranche of Gulnara Karimova's confiscated assets in the amount of 182 million. This announcement raises the question of whether this decision is hasty, given that, firstly, there is still no comprehensive analysis of how the first tranche of 131 million dollars was distributed and administered. As noted above, so far there are only annual reports and only for a portion of the amount that was repatriated by Switzerland to Uzbekistan. In principle, there should be no objections to the return to Uzbekistan of all of Gulnara Karimova's assets remaining in Switzerland. But in my opinion, before returning the second and subsequent tranches, it is necessary to analyze how the 131 million that were sent to Uzbekistan under the management of the local UN office were used, and especially to what extent the process of their use complies with the GFAR principles.

Given the need for such an analysis and the fact that it has not yet been carried out by the Swiss side (at least, it has not been offered to the general public), I have made my own attempt at a preliminary analysis based on the data published by the Ishonch Foundation, as well as on the very limited information that I managed to obtain from three insiders.

What interested me most was to what extent the administration of the returned 131 million dollars complies with the principles of transparency and accountability, and to what extent the civil society of Uzbekistan was included in the process of this administration. I will try to note both the positive aspects and those aspects that raised questions and even bewilderment in me.

First of all, I would like to note the following positive aspects:

1. A positive fact is that the returned assets, at least some of them in the amount of 68 million dollars, are currently directed to projects to solve specific social problems of the country. The subject matter and goals of the first two projects, which are currently in the process of implementation, do not raise any questions or objections for me. It is very

good that these assets are not lost somewhere in the corridors of government institutions, but serve the population of Uzbekistan.

2. Another positive fact is that the public is informed, through the website of the Ishonch Foundation, about the content and preliminary results of the projects being implemented and their total budgets. That is, the principle of transparency is certainly being implemented, although far from fully, which will be discussed below.

3. Finally, an absolutely positive step that should only be welcomed was the creation of the Civil Society Supervisory Board, which included representatives of non-governmental organizations (the list of this board is provided in the appendix).

What aspects of the administration of the returned assets raise questions?

1. First of all, the fact that the implementation of the projects was distributed without any open tender between the UN agencies themselves - the United Nations Development Programme (UNDP), the World Health Organization (WHO), the United Nations International Children's Emergency Fund (UNICEF), the United Nations Population Fund (UNFPA), and the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO).

Without a doubt, their staff was selected according to high professional standards. The question is different – that they were given funding without any competition with other organizations that may also have highly professional staff, but at the same time offer their services at a much lower cost. In this plan, already at the initial stage of asset administration, this entire program of repatriation of assets became a step back compared to the program that was implemented when the first tranche was returned from Switzerland to Kazakhstan. Then, as noted above, the World Bank did not distribute the assets received under its management among its own programs, but immediately held a tender, which was won by two international non-governmental organizations, Save the Children and IREX.

2. Apparently, tenders for projects were still held, but only for the purchase by the specified agencies of goods and services from local and possibly foreign suppliers. That is, the tender distribution of resources was carried out only at its second level of project implementation.

However, the reports for 2022 and 2023 posted on the Ishonch Foundation website do not disclose data on suppliers, nor do they contain any information on how the tenders were conducted, so that experts, activists and anyone else could form their own opinion on how fair the decisions were based on the results of these tenders.

The members of the Civil Society Supervisory Board (CSSB), judging by insider information, were provided with this information, and they had the opportunity to express their opinion. However, this information remained inaccessible to the general public, which seriously undermines the principle of transparency in the distribution of returned assets.

3. Also of concern is the paucity of information available to the public about the activities of the Civil Society Supervisory Board, about what issues were discussed at the meetings of the board, what decisions were made. The board does not even have its own website where it could post information about its activities. This does not require significant funds and time, given the availability of quite cheap options for creating websites. At the very least, it was possible to create a group on Facebook or Telegram for free. It is strange that almost no one has shown initiative in this direction, neither the Board itself, nor the Secretariat of the Fund.

The only exceptions are perhaps a few posts on Facebook, which were posted on their personal pages by the Chairperson of the Council, Sayora Khodjaeva, and a member of the Council, Kamol Aliyeva, but this information is also mostly either a retelling of information already available on the website of the Ishonch Foundation, or short reports on visits to project sites.

There is published information that only at the suggestion of the Supervisory Board was a separate website of the Ishonch Foundation created, albeit with significant delays, which now functions in the Uzbek and English languages. But this site is quite poor in content. Apart from descriptions of projects and annual reports, there is almost nothing there. There is no information about the activities of the Supervisory Board or even its composition.

As a result of the limited information available to the general public, the effect of feedback to the society as a whole, as well as the educational effect for civil society, turned out to be much lower than if the work on ensuring transparency had been carried out differently. For example, civil society, by familiarizing itself with the data on tenders, could have learned to monitor and evaluate such projects, and compare this with how public procurement is carried out in the country. As a result, the goal stated in the document

ISSN 3030-3230

adopted by the Ishon Foundation, namely: «To promote broader involvement of civil society in the activities of the Foundation» (10), was not achieved to the proper extent.

4. In terms of accountability, it is difficult to say anything yet due to the lack of information on the results of independent monitoring of project implementation. Judging by the available information, the Supervisory Board has managed in some cases to express its critical comments on projects and their planned expenditures, as a result of which the Secretariat of the Fund, as well as the agencies responsible for the projects, have nevertheless made certain adjustments to their decisions and budgets. But such cases are still few and, as already noted, information on such successful cases is not yet available to the general public.

Based on the above, I would like to take the liberty of offering some recommendations that would improve the work of the Ishonch Fund and the Supervisory Board, bringing its activities into greater compliance with the GFAR principles. These are preliminary recommendations for now, based on the information that concerns only the first tranche of $131 million and has been available to me so far. At the same time, the following is taken into account:

• that the distribution of this tranche among projects has not yet been completed;

• those projects that have been started have not yet been completed,

• the 2024 report on two projects that are currently being implemented has not yet been published.

Taking all this into account, I would nevertheless take the liberty of proposing the following recommendations:

1. Before transferring the next tranche of $182 million, it is necessary to first analyze the results of using the first tranche, giving experts, activists and the public as a whole the opportunity to evaluate these results and express their opinion. This analysis should identify what works well and what does not work so well in terms of the ten GFAR principles, and for what reasons, as well as identify the measures that need to be taken to eliminate the identified problems. I think this recommendation is completely obvious and does not require special justification.

2. Enrich the information on the Ishonch Foundation website about the progress of projects by including current reports, minutes of the Secretariat and Supervisory Board meetings, as well as detailed tender materials. All this should be available to the public.

3. The Supervisory Board of Civil Society should create its own website, which it would administer independently, without the need to obtain permission from the Secretariat of the Fund. Post sufficiently detailed information on the activities of the Board on this website.

4. Some members of the Supervisory Board complained that, due to the heavy workload of their main work, they do not always find enough time to familiarize themselves with all the documents that the Secretariat of the Fund provided them with for consultation and assessment, especially those documents related to the tenders being held. In order to save the Board members' time, as well as to help them understand issues that they do not understand very well, such as issues of holding tenders and preventing corruption, specific issues related to the topics of projects, provide the Board with the opportunity and the appropriate resources to create an auxiliary board of experts. This would help provide the Board with advisory assistance in analyzing and assessing materials that require the necessary qualifications, and improve the efficiency and professional level of its work. This expert council must be fully accountable to the Supervisory Board.

5. Finally, it is important to note that Switzerland's commitment to confiscate and repatriate the assets of foreign politically exposed persons (PEPs)17 includes, among other things, the use of the returned funds to promote the rule of law and justice in their country of origin.

However, the Ishonch Foundation's materials do not provide any information on how this commitment is being implemented in practice. Obviously, the fulfillment of this commitment was not within its competence at all and was not provided for in the agreement signed between Switzerland and Uzbekistan in August 2022 on the transfer of returned assets to the management of the UN Trust Fund.18 In my opinion, this commitment could have been implemented at the stage of this agreement, but there is not a word about it there. This means that this agreement did not provide for the obligation of the Uzbek side to take steps to establish the rule of law and to adopt anti-corruption reforms in the country as a measure to guarantee, at a minimum, the prevention of repeated theft of assets.

As a result, a dual situation has developed:

On the one hand, the UN program, for the implementation of which the returned assets were directed, is aimed at satisfying certain social needs of the population of Uzbekistan, which, in itself, cannot but be approved;

On the other hand, this program in its current form does not encourage the authorities of Uzbekistan to take steps towards establishing the rule of law. This is precisely why the results of the work done and still planned under this program can hardly be called «sustainable». These results will be so only if the appropriate institutional conditions are established to ensure the development of the country without the tutelage of the UN. And for this, first of all, it is necessary to establish the rule of law and take anti-corruption measures, a goal that this program does not even pursue.

It is precisely because of this duality of the situation that the question arises whether the glass is half full or half empty, if we talk about the effect achieved by this program of repatriation of assets to Uzbekistan. The answer to this question can only be given by the people of this country, which is the main victim of state corruption.

Annotatsiya. Maqolada noqonuniy olib chiqilgan janoiy aktivlarni mamlakatga qaytarish masalalari, hozirga qadar ular bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ushbu jarayonlarning shaffofligi, fuqarolik jamiyatining o'rni, kelgusida soha samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: jinoiy aktiv, restitusiya, musodara qilingan aktivlarni bo'lish, Shveysariya tajribasi, shaffoflik va hisobdorlik, benefitsiari, fuqarolik jamiyati.

Аннотация. В статье отражены вопросы возврата незаконно вывезенных преступных активов в страну, проделанная по ним работа, прозрачность этих процессов, роль гражданского общества, рекомендации, направленные на повышение эффективности отрасли в будущем.

Ключевые слова: преступный актив, реституция, разделение конфискованных активов, швейцарский опыт, прозрачность и подотчетность, бенефициар, гражданское общество.

Literature used:

1. Information on the "Agreement regarding the sharing of forfeited assets" between the Swiss Federal Council and the Government of the Republic of Uzbekistan. Press-release, 06.02.2025, Confédération Suisse;

2. Restitution of illicit assets: Switzerland and Uzbekistan sign agreement, Press releases, 16.08.2022, Confédération Suisse;

3. Только в одной Ирландии было заморожено $285 миллионов/ Department of Justice Case 1:15-cv-05063 Document 1, Filed on 06/29/2015;

4. Global Forum for Asset Recovery Communique, Washington D.C., December 4-6, 2017;

5. Miranda Patrucic. How The President's Daughter Controlled The Telecom Industry, Organized Crime and Corruption Reporting Project, March 22, 2015;

6. François Membrez and Matthieu Hösli. How To Return Stolen Assets: The Swiss policy pathway, Centre for Civil and Political Rights, 202;

7. Asset Recovery in Cases of Foreign Politically Exposed Persons (PEPs), Swiss Federal Department of Foreign Affairs;

8. The BOTA Foundation: Final Summative Report, Submitted February 12, 2015. IREX and Save the Children, Note on World Bank FIF Fees and Charges. October 20, 2023. The World Bank;

9. Kristian Lasslett and Thomas Mayne. A Case of Irresponsible Asset Return? The Swiss-Kazakhstan $48.8 million. Quinn Mary University of London, Ulster University, 2018;

10. Civil Society Advisory Council – Terms of Reference Uzbekistan Vision 2030 Fund. Adopted by the Management Committee on 7 February 2023.

ISSN 3030-3230

SUN'IY INTELLEKTNING HUQUQIY TAHLILI: KONSEPTUAL ASOSLAR, HUQUQIY MAQOM VA JAVOBGARLIK MASALALARI

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tushunchasi, uning huquqiy maqomini belgilash masalalari, ijtimoiy xavflilik va javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellektni huquqning subyekti, predmeti yoki kvazi-subyekti sifatida belgilash, javobgarlik masalalari haqida olimlarning qarashlari, fikr va mulohazalari tahlil qilinib guruhlashtiriladi. Jinoiy-huquqiy munosabatlarga sun'iy intellektni kiritish masalalari haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, subyekt, kvazi-subyekt, jinoyat predmeti, kiberjinoyat, dipfeyk, sun'iy intellektning javobgarligi.

Kirish \ Introduction

Ilm-fan taraqqiyoti, globallashuv, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashgani sayin, ularning bilvosita yoki bevosita ta'sirida yangi-yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Ular o'z navbatida huquqiy jihatdan tartibga solinmasa, umume'tirof etilgan huquqlarga putur yetadi. Hozirda eng katta rezonans hosil qilgan ixtiro bu – sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI). Bugungi kunda, SI kirib bormayotgan soha, tarmoq qolmayapti. Bu esa uni tartibga solishning dolzarbligini anglatadi. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar, qarashlar, SIning falsafiy, texnik va huquqiy tabiati, jumladan, ijtimoiy xavfliligi, javobgarlik va tartibga solish masalalari jiddiy muammoga aylanmoqda.

Material va metodlar \ Materials and methods

Mazkur ilmiy maqolada analiz, sintez va deduksiya metodlaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, falsafiy-huquqiy, siyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalaniladi. Mavzu yuzasidan milliy va xorijlik olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Muhokama va natijalar \ Discussion and results

Dastavval SI o'zi nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, professorlar S.Rassel va P.Norvig SI doirasida tadqiqot o'tkazar ekanlar, unga quyidagicha ta'rif beradilar, "Sun'iy intellekt – bu inson tomonidan bajarilganda, aqliy (intellektual) deb hisoblanuvchi vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega raqamli tizimdir"[1]. Professor L.Floridi fikricha, SI – bu nafaqat texnologik, jumladan, axloqiy masala hamdir[2]. Yuridik fanlar doktori, professor S. Bozarov o'zining sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlikka bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi tadqiqotida, "Sun'iy intellekt – bu inson tomonidan bajariladigan vazifalarga o'xshash muammo va vazifalarni bajarish bilan shug'ullanadigan kibernetika va informatika fanining alohida yo'nalishi bo'lib hisoblanadi"[3;15-bet] buni yakdil va aniq ta'rif emasligini aytib, SIga o'zining mualliflik ta'rifini beradi. Olimning fikricha, "SI atrofdagi jarayonlarni va atrof muhitni (vaziyatni), munosabatlarni idrok etish (tan olish, tahlil qilish va baholash) va modellashtirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va amalga oshirish, o'z xatti-harakatlari va tajribasini tahlil qilish va tushunishdan iborat kognitiv dasturga ega sun'iy axborot-kommunikatsiya (elektron, virtual, elektron-mexanik, bioelektron-mexanik yoki gibrid) tizimidir"[3; 229-bet]. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, SI har tomonlama tadqiq etish dolzarbdir. Olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, SI quyidagicha ta'rif beramiz, sun'iy intellekt – bu aqliy (intellektual) xulq-atvorni namoyon qilishga (modellashtirishga) qaratilgan turli xil texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqil, kognitiv dasturga ega raqamli tizimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 17-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 358-son qaroriga muvofiq, 2030-yilga qadar SI asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish, SI asosida ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari ulushini 10 foizga va SI ustida tadqiqot olib borishga mo'ljallangan ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish, shuningdek Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government

AI Readiness Index) O‘zbekistonni birinchi 50 ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu vazifalar ijrosi davlatimiz yaqin kelajagida SIning o‘rnini barcha sohalarga qisman yoki to‘liq namoyon bo‘lishini taqozo etadi. Jumladan, bugungi kunda SIni mudofaa va xavfsizlik, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, fan, ta’lim, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, iqtisodiyot, moliya, bank, transport kabi bir qator sohalarda ko‘rishimiz mumkin. Professor Djek M.Balkin o‘z tadqiqotida, SI – bu nafaqat texnologik, u huquqiy chaqiriq hamdir deydi, SI va shu kabi mustaqil tizimlarning zarari uchun javobgarlik rejimini ishlab chiqishimiz kerakligini ta’kidlaydi[4]. Yuridik fanlar doktori, professor A. Otajonov bugungi kunda SIni tartibga solish dolzarbligiga to‘xtalar ekan, quyidagi savol va mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi: “sun’iy intellekt inson omilisiz mustaqil qarorlar qabul qila oladimi? Sun’iy intellekt tomonidan sodir etilgan qonunga xilof qilmishlar va ularning oqibatlari uchun kim javobgar bo‘lishi kerak? Sun’iy intellekt qilmishlari tufayli jinoiy oqibat ro‘y berganda, uning o‘zini jinoyat subyekti sifatida jazolash kerakmi yoki u faqat jinoyat predmeti yoki vositasi maqomida qoladimi? Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtirolarga nisbatan mualliflik huquqi kimga tegishli bo‘ladi? Albatta, bunday savollarni davom ettirish mumkin. Shu sababli ham, dastavval sun’iy intellektning ijtimoiy xavfli xususiyatlarini baholab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi”[5; 56-bet]. Shubhasiz professorning bu fikr va mulohazalari dolzarbdir. Sababi bugungi kunda aynan shu savollarning javobiga qarab, biz SIni tartibga solish, umume’tirof etilgan huquqiy jihatdan muhofaza qilingan obyektlarni himoya qilishimiz mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda, dunyo olimlari SIni huquq subyekti, huquq predmeti sifatida qarash masalasida bahs-munozaraga kirishmoqdalar. Jumladan, bir guruh olimlar, xususan N.Nevyans[6], R.Kalo[7], L.B.Solum[8], G.Toybner[9], I.L.Chestnov[10] kabi bir qator olimlar sun’iy intellektni huquq subyekti sifatida, J.M.Balkin[11], I.N.Tarasov[12], I.L.Chestnov [13], Ye.V.Ryabseva[14], kabi bir guruh olimlar SIni huquqning kvazi-subyekti sifatida,

B. Mittelstad[15], L. Floridi[16], V.O. Kalyatin[17] kabi olimlar esa SIni huquq predmeti sifatida e’tirof etish masalasida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Hozirda SI har tomondan o‘rganilmoqda, olimlar o‘z qarashlarini asoslash uchun yetarlicha argumentlar keltirmoqda. Bizning fikrimizcha, SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etishimiz uchun, SI turli fan prizmalari, xususan aniq fanlar bilan bir qatorda gumanitar fanlar predmeti sifatida tahlil qilinishi lozim. Uning vazifa va funksiyalari, imkoniyatlarini to‘liq o‘rganmay, tahlil etmay unga subyekt maqomini berib bo‘lmaydi. Professor N.Bostromning ta’kidlashicha, 2040-yilga kelib sun’iy intellekt va insonning fikrlash jarayonlaridagi o‘xshashlik taxminan 50 foizga teng bo‘ladi, 2075-yilda esa, ularning fikrlash jarayonlarini ajratib bo‘lmaydi, o‘xshashlik 95 foizga yetadi[18; 187-bet]. Bugungi kundagi texnologik inqilob, mazkur jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Ya’ni olimlar tomonidan keltirilgan vaqt ko‘rsatkichlari oldinga tomon siljimoqda. Bu borada professor N.Bostrom va A. Sandberglarning yangi tadqiqotlarida ham ta’kidlangan[19]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, texnologik taraqqiyot, SIning rivojlanishini bugungi kunda dunyo davlatlarining o‘zaro raqobatlashuviga bog‘liqdir, raqobatning keskinlashuvi yuqorida keltirilgan prognozlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Mazkur jarayon SI va shu kabi mustaqil ishlovchi jismlarning huquqiy maqomini belgilashimiz, ularni tartibga solishimiz muhimligini anglatadi.

Olim va mutaxassislarning tadqiqotlarini tahlil qilar ekanmiz, tadqiqotimizda SIni uchta katta guruhga bo‘lganmiz. Ular maxsus, universal va mashinaviy[20; 377–378-betlar]. Yuqoridagi har bir olimning fikrida jon bor. Sababi SIning mazkur uch guruhi, uni huquq predmeti, huquqning kvazi-subyekti va hattoki huquq subyekti sifatida e’tirof etishimiz mumkinligini ko‘rsatadi. Albatta, buning har biri chuqur nazariy, amaliy tahlil va tadqiqotlarni talab etadi. Jinoyat huquqi doktrinasiga muvofiq, har bir ijtimoiy xavfli qilmish o‘zida jinoiy-huquqiy obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonni namoyon etishi kerak, bir elementning mavjud emasligi, umum qabul qilingan qoidalarga muvofiq, qilmishni jinoyat ekanini istisno qiladi. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent M. Usmonaliyev jinoyat subyektiga ta’rif berarkan, “ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxsdir”[21; 187–189-betlar]. Mazkur ta’riflar fundamental jinoyat huquqi doktrinasi va umum qabul qilingan huquqiy normalarga muvofiq berilgan ta’rif hisoblanadi. SI jinoyat predmeti sifatida ko‘rish kerakligi, mazkur norma va ta’riflarning mohiyatidan kelib chiqadi. SIni kvazi-subyekt sifatida e’tirof etish masalasiga

ISSN 3030-3230

to‘xtalishdan avval, kvazi-subyekt o‘zi nima ekanligiga to‘xtalsak, kvazi so‘zi lotin tilida “quasi”, qo‘shma so‘zlar bo‘lagi hisoblanib, o‘zidan kelgan so‘zning ma’nosiga go‘yoki, deyarli, taxminan, soxta kabi ma’nolarni bildirishga xizmat qiladi. Dastlab kvazi so‘zi qadimgi Rim huquq va falsafasida qo‘llanilgan. Kvazi tushunchasi huquqda shartnomalarga nisbatan qo‘llanilgan, ya’ni bunday holatga formal tartibda shartnoma bo‘lmasa-da, faktik (haqiqiy) holatga qarab majburiyatning vujudga kelishida namoyon bo‘lgan[22]. Professor L.Floridining fikricha, kvazi-subyektlar – to‘laqonli axloqiy va huquqiy subyektlik maqomiga ega bo‘lmasalar-da, alohida axloqiy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini talab qiluvchi gibrid agentlar hisoblanadi, chunki ular keltirgan zarar, har doim ham ularning ishlab chiqaruvchilari (ta’sis etuvchilari) xatti-harakatiga bog‘liq bo‘lmaydi[23]. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent V.O.Kalyatin SI kvazi-subyekt sifatida e’tirof etish masalasida to‘xtalib, SIni huquqbuzarliklarda shaxs yoki tashkilot orqali ishtirok etishini aytgan va aynan shu SI kvazi-subyekt deya e’tirof etilishiga sabab sifatida ko‘rsatgan [24]. Demak, kvazi-subyektlar tomonidan keltirilgan zarar ularning ishlab chiqaruvchisi (ta’sis etuvchilari)ning zimmasida bo‘ladi. Biroq, universal turdagi SIlar ishlab chiqarilishiga erishilsa, professor N.Bostromning prognozlariga ko‘ra o‘xshashlik darajasi keskin oshishi, SIning o‘z ustida ishlab insonga taqlid qila olish, o‘zi to‘liq mustaqil harakat qilish kabi xususiyatlar vujudga kelsa, uning ishlab chiqaruvchisi (ta’sis etuvchilari)ning javobgarlik masalasi ayblash uchun asoslar, jinoyat tarkibini aniqlashda va isbot qilish bir qancha munozarali vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Endi eng munozarali holat SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish masalasidir. SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish mumkinligiga asos sifatida unga berilgan ta’riflar, hamda mazkur qarashlarni ilgari suruvchi olimlar tadqiqotlarini tahlil qilib quyidagi belgilarni aytishimiz mumkin:

1. Mustaqil qarorlar qabul qilish;
2. Insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish;
3. Real hayotga ta’sir o‘tkazish;
4. Mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish kabi xususiyatlarga ega.

Mazkur xususiyatlar SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish imkonini beradi. Sababi unda mustaqillik va o‘z xatti-harakatini intellektual jihatdan mustaqil sodir etish xususiyatlari mavjud. Ayni shu xususiyatlar tufayli, SI bilan sodir bo‘lgan bir qancha hozirgacha ochiq qolayotgan keyslar [5; 57–58-betlar] yuzaga kelmoqda. Mazkur xususiyatlar ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik masalasini so‘roq ostiga qo‘ymoqda. Bizning fikrimizcha, bunday misollar yaqin o‘tmishda ko‘paygani va yaqin kelajakda bunday shiddatli rivojlanishda yanada ko‘payishi aniq. Biz mazkur salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni (harakatsizlik) avvaldan bashorat qilish yo‘li bilan umume’tirof etilgan obyektlarni muhofaza qilish choralarini ko‘rishimiz kerak.

Yuqorida sun’iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish masalasi bo‘yicha asoslar keltirdik. Biroq uni subyekt sifatida e’tirof etilmasligiga ham asoslar mavjud:

1. Irodaviylik va anglab yetish xususiyati to‘liq mavjud emasligi;
2. Inson tomonidan yaratilganligi, uning boshqaruvi hozirda nisbatan inson qo‘lidaligi;
3. Tartibga solish, javobgarlik, shuningdek jazo tayinlash masalasi;
4. Subyekt deb e’tirof etilganda, ishlab chiqaruvchi (ta’sis etuvchilari)ning javobgarlikdan qochishi.

Mazkur asosiy omillar bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda sun’iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etishga erta. Biroq tartibga solish uning ishlab chiqaruvchisi javobgarligi masalasini belgilab ketishimiz muhim. Shu masala yuzasidan avvalgi maqolamizda SI jinoiy-huquqiy jihatdan tartibga solish uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX[1] bobi, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga hamda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi XI bobi, Transportdagi, yo‘l xo‘jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlikka qo‘shimcha, yangi ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyatni qo‘shish kerakligi, shuningdek Jinoyat kodeksining 56-moddasi, ya’ni jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarga qo‘shimcha p) sun’iy intellekt texnologiyalaridan g‘arazli niyatlarda, jinoyat quroli sifatida foydalangan holda, degan bandni kiritish orqali biz hozirgi kunda ko‘payib borayotgan sun’iy intellekt orqali sodir etilayotgan qilmishlar va ularni oldini olishga xizmat qilishga qaratilgan normalarni kiritish haqida fikr-mulohazalar yuritib takliflar qilganmiz[20;

380–381-betlar]. Yuridik fanlar doktori, professor A. Otajonov “Jinoyat kodeksining 56-moddasini «sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish»ni jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutish hamda sun’iy intellekt tizimlaridan g‘arazli va boshqa past niyatlarda qasddan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va foydalanganlik uchun quyidagi mazmundagi norma bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq”[5; 67-bet]ligini aytib, Jinoyat kodeksiga 278^{10}-modda. G‘arazli yoki boshqa past niyatlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish”[5; 67-bet] normasini kiritish kerakligi haqida fikrlarni ilgari surdi. Albatta, taklif dolzarb, biroq taklif etilayotgan normadagi “boshqa past niyatlar” jumlasiga qonunchiligimizda aniq ta’rif berilmagan. Professor jinoyat subyektiv tomoni motivining “past niyat” tushunchasi jinoyat tarkibining o‘ziga xos mazmunidan kelib chiqadi hamda u jinoyat tarkibining zaruriy belgisiga kiritilgan bo‘lsa, faqat aybdorning qasdi past niyatlarda sodir etilgan taqdirdagina kelib chiqishini ilgari surib, jinoyatning xususiyatiga qarab past niyatlar ham o‘zgarishini aytib, masalan bolani almashtirib qo‘yish (JK 124-moddasi) yoki farzandlikka olish sirini oshkor qilish (JK 125-moddasi 2-qismi “b” bandi) jinoyatlaridagi past niyatlar tushunchasi, aybdorning bola qarindoshlaridan, boladan yoki farzandlikka olgan shaxslardan o‘ch olish, ularni ko‘rolmaslik, zarar yetkazishni xohlash kabi alohida axloqsizligidan dalolat beruvchi xulq-atvori tushunilishi kerakligini ta’kidlaydi[25]. Yuridik fanlar doktori, dotsent M.Najimovning fikricha, bugungi kunda “past niyatlar” tushunchasi JKning ayrim jinoyat tarkiblarida mavjud. “Past niyatlar” atamasi jinoyat qonunchiligida ancha keng qo‘llanilishi, modda tarkibining konstruktiv tuzilishiga subyektiv tomonning belgisi sifatida qo‘shilganligini, ko‘p hollarda u g‘arazli niyatlar bilan birga, ya’ni g‘arazli va boshqa past niyatlar sifatida kelishini ta’kidlaydi va xulosa qilib g‘arazli niyat shak-shubhasiz, past niyatlardan biri hisoblanadi, lekin, qonun chiqaruvchi nazdida, boshqa past niyatlar ham mavjud. Binobarin, past bo‘lmagan motivlar ham ko‘zda tutilgan[26; 75-bet], deya ta’kidlaydi. Past niyatlar tushunchasi bizning nazarimizda juda keng va primitivdir. Qonunchilikda unga aniq ta’rif keltirilmagani olim tomonidan berilayotgan normaning javobgarlikka tortishda subyektiv tomon zaruriy belgisini belgilash ko‘lamini kengaytirib yuboradi. Tadqiqotchi U.Zakirova, past niyatlar yuridik atama hisoblanmaydi, ma’no va mazmun jihatdan past niyatlar nomoddiy ko‘rinishga ega[27] deydi, shu fikrga qo‘shilgan holda, Jinoyat kodeksidan past niyatlar jumlasini olib tashlash tarafdorimiz. Shu sababli, biz taklif etgan normada aynan sun’iy intellektni g‘arazli niyatda, ya’ni “sodir qilingan jinoyatdan moddiy yoki boshqacha mulkiy yo‘sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutulishga intilishda ifodalangan niyat”[30]da yoki qonun bilan qo‘riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo‘luvchi holatlarda ishlab chiqaruvchi va undan shunday niyatda foydalanuvchi shaxslarga nisbatan javobgarlikni belgilash lozimligini keltirib o‘tdik.

Hozirda SIni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan muhokama qilinmoqda[31]. Qonun loyihasiga ko‘ra, sun’iy intellektdan foydalanib, shaxsga doir ma’lumotlarga noqonuniy ishlov bergan va tarqatgan shaxslarga nisbatan tegishincha ma’muriy jazo qo‘llanilishi keltirilgan. Biroq bu norma bir qator savollarni yuzaga keltiradi, bugungi kunda asosan, ko‘p tarqalgan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining kiber makondagi ko‘rinishi sifatida qaralayotgan DipFeyk, fishing kabi xatti-harakatlar, asosan, vizual jihatdan soxtalashtirishga qaratiladi, ya’ni SI orqali shaxslarning kibermakondagi ovoz, rasm, videolari huquqbuzar uchun istalgan ko‘rinish va ovozga o‘zgartirib beradi. Deepfake (dipfeyk) so‘zi etimologik jihatdan, deep learning – “chuqur o‘rganish” va fake – “qalbaki, soxta” so‘zlaridan kelib chiqqan[28]. Dastlabki SI orqali yaratilgan dipfeyk 2017-yilda Reddit platformasida aniqlangan, unda mashhur xonandalarning yuzini pornografik video rolikka soxtalashtirish yo‘li orqali qo‘yilib tarqatilgan[29]. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot”[32] deya belgilangan. Shaxsning ijtimoiy tarmoqqa qo‘ygan rasmi, videolari, undagi ovoz yozuvlari shaxsga doir ma’lumotlar sarasiga kiradimi? Ko‘rib chiqilayotgan norma jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra yuritiladigan ishlar toifasiga kiritilgan hisoblansa, huquqbuzarlar umuman xabari yo‘q yoki mashhur shaxslarning ovozlaridan foydalanib mazkur huquqbuzarlikni

ISSN 3030-3230

sodir etsa qanday javobgarlikka tortiladi? Bu kabi savollar ko‘p.

Xulosa \ Conclusion

Shu sababli biz SI tartibga solishimiz uchun dastlab yuqorida keltirilgan takliflarimizni qonunchiligimizga kiritish masalasini ko‘rishimiz lozim. Bu orqali biz SI ishlab chiqaruvchi va ulardan foydalanuvchilarga majburiyat yuklaymiz. Ya’ni SIni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etishda g‘arazli yoki qonun bilan qo‘riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo‘luvchi harakatlarni sodir etishda ishlab chiqaruvchi va undan foydalanuvchi shaxslarni tartibga solish, mazkur tartibning buzilishi esa javobgarlikka sabab bo‘lishini keltirib o‘tmoqdamiz. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator normalari, shuningdek Jinoyat kodeksining shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash kabi vazifalarini har tomonlama, jumladan kibermakonda ham ta’minlashdir.

Аннотация. В данной статье анализируются понятие искусственного интеллекта, вопросы определения его правового статуса, степень его общественной опасности, а также проблемы ответственности. Рассматриваются и классифицируются мнения и научные подходы к определению искусственного интеллекта в качестве субъекта, объекта или квази-субъекта права, а также к вопросам его ответственности. Обсуждаются перспективы и правовые аспекты включения искусственного интеллекта в уголовно-правовые отношения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, субъект, квази-субъект, объект преступления, киберпреступление, дипфейк, ответственность искусственного интеллекта.

Abstract. This article analyzes the concept of artificial intelligence, its legal status, its potential social danger, and issues of liability. The views, opinions, and scholarly perspectives on defining artificial intelligence as a subject, object, or quasi-subject of law, as well as on questions of liability, are examined and categorized. The paper also explores considerations related to the integration of artificial intelligence into criminal law relations.

Key words: artificial intelligence, subject, quasi-subject, object of crime, cybercrime, deepfake, liability of artificial intelligence.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рассел, Стюарт, Норвиг, Питер. Искусственный интеллект: современный подход, 2-е изд.: Пер. с англ. — М.:ООО «И.Д. Вильямс», 2016. 1408 с.: ил. - Парал. тит. англ. ISBN 978-5-8459-1968-7 (рус.).
2. Floridi L. The Philosophy of Information. Oxford: Oxford University Press, 2011. 384 p.
3. Бозаров С.С. Сунъий интеллект доирасида ҳуқуқий жавобгарлик. Диссертация. ТДЮУ ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.07/30.12.2019.Yu.2201 рақамли илмий кенгаш томонидан ҳимоядан ўтган. Тошкент – 2023 й. 242 бет.
4. Jack M. Balkin, The Path of Robotics Law, Calif. L. Rev. (2015), https://ssrn.com/abstract=2931339.
5. ОТАЖОНОВ А.А. Сунъий интеллект: жиноий жавобгарлик ва қонунчиликни тартибга солиш истиқболлари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2024), Б. 54-69. https://orcid.org/0000-0003-3812-5696.
6. Nevejans, N. Traité de droit et d’éthique de la robotique civile. Bordeaux : LEH Éditions, 2017. — 320 p.
7. Calo, R. (2017). «Artificial Intelligence Policy: A Primer and Roadmap» University of California, Davis Law Review, 51, 399–435.
8. Solum, L. B. (1992). «Legal Personhood for Artificial Intelligences» North Carolina Law Review, 70(4), 1231–1287.

9. Teubner, G. (2018). «Digital Personhood? The Status of Autonomous Software Agents in Private Law» Journal of Law and Society, 45(1), 7–30.
10. Честнов, И. Л. (2020). «Искусственный интеллект как субъект права: миф или реальность?» Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения, 3, 87–95.
11. Jack M. Balkin (2015). The Path of Robotics Law. California Law Review, 6, 45–60. https://doi.org/10.2139/ssrn.2931339
12. Спицин И. Н., Тарасов И. Н. Использование искусственного интеллекта при отправлении правосудия: теоретические аспекты правовой регламентации (постановка проблемы) // Актуальные проблемы российского права. — 2020. — Т. 15. — № 8. — С. 96—107. — DOI: 10.17803/1994-1471.2020.117.8.096-107.
13. Честнов, И. Л. (2021). Квазисубъектность искусственного интеллекта в праве: миф или реальность? Журнал российского права, № 5.
14. Рябцева Е. В. Проблема использования искусственного интеллекта в уголовном правосудии // Уголовно-процессуальные и криминалистические меры противодействия преступности. 2023. Т. 17. № 1. С. 73–80. DOI: 10.17150/2500-1442.2023.17(1).73-80
15. Brent Mittelstadt. Principles alone cannot guarantee ethical AI. https://www.researchgate.net/publication/337015694_Principles_alone_cannot_guarantee_ethical_AI
16. Floridi, Luciano (2008). Artificial intelligence's new frontier: Artificial companions and the fourth revolution. Metaphilosophy 39 (4-5):651-655.
17. Калятин В. О. Определение субъекта прав на результаты интеллектуальной деятельности, созданные с использованием искусственного интеллекта. Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2022. – Т. 15, № 4. – С. 24–50.
18. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. — Oxford: Oxford Univ. Press, 2014. – 390 p. 187-бет.
19. Sandberg A. Space Races: Settling the Universe Fast. Technical Report-2018. – University of Oxford, 2018. – URL: https://www.fhi.ox.ac.uk/wp-content/uploads/space-races-settling.pdf.
20. Abbosov M.M. Jinoyat qonunchiligida sun'iy intellekt tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari 5-jild, 4-son (Aprel, 2025). - 502 bet. 375 – 382-betlar. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N58
21. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлари учун дарслик. —Т., «Янги аср авлоди», 2005, 662 бет. 187 – 189-бетлар.
22. Black's Law Dictionary. Quasi-subject // Black's Law Dictionary. 11th ed. St. Paul, MN: Thomson Reuters, 2019.
23. Floridi, L. (2019). Translating Principles into Practices of Digital Ethics: Five Risks of Being Ethical. Philosophy & Technology, 32(2), 185–193. https://doi.org/10.1007/s13347-019-00354-x
24. Калятин В. О. Искусственный интеллект: от объекта к субъекту права? // Закон. — 2022. — № 2. — С. 122–130.
25. Отажонов А.А. Шахсга қарши жиноятлар: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – Б.151.
26. Нажимов М.Ш. Ўзбекистон Республикаси Жиноят қонунчилигида болани алмаштириб қўйиш ҳамда фарзандликка олиш сирини ошкор қилиш жинояти учун жавобгарликни такомиллаштириш // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences // Volume 4, Issue 4, April 2024 ISSN 2181-2853. 71 – 80 p.
27. Закирова У. Значение преступного мотива и цели при квалификации деяния. // Review of law sciences. – 2018.– №2. // www.cyberleninka.ru/article/n/znachenie-prestupnogo-motiva-i-tseli-pri-kvalifikatsii-deyaniya
28. Goodfellow I. et al. Generative adversarial nets //Advances in neural information processing systems. – 2014. – Т. 27.
29. Воронин И.А., Гавра Д.П. Дипфейки: современное понимание, подходы к определению, характеристики, проблемы и перспективы. https://cyberleninka.ru/article/n/dipfeyki-sovremennoe-ponimanie-podhody-k-opredeleniyu-harakteristiki-problemy-i-perspektivy
30. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. https://lex.uz/docs/111453.
31. https://t.me/qonunchilikpalatasi/27402
32. https://lex.uz/docs/4396419.

ISSN 3030-3230

ODAM O‘G‘IRLASH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASH VA OLDINI OLISH

Ortiqov Abror Nemat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada respublikamizda shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning statistik holati, shaxs erkinligini, daxlsizligini hamda manfaatlarini himoya qilish yuzasidan jinoyatchilikka qarshi kurashda amalga oshirilgan ishlar, qonunchilik hujjatlari qisqacha tahlil qilinib, xotin-qizlarning huquq va erkinliklar ta’minlanishi, jamiyatdagi teng huquqlilik, ayollarga nisbatan tazyiqlar mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan, soha mutaxassislari uchun jinoyatlarni jilovlash, kriminogen omillarga izchil ta’sir ko‘rsatish yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilgan, jinoyatlarni oldini olishga doir yangicha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Aynan odam o‘g‘irlashning sabab va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish va qay darajada muvaffaqiyatli kechishini tahlil qilish masalalari o‘rganilgan.**

Kalit so‘zlar: shaxs ozodligi, zo‘ravonlik, qiz o‘g‘irlash, profilaktika, ilmiy diagnoz, zo‘ravonlik qurbonlari, jinoyatlarni oldini olish.

Hozirgi globallashuv sharoitida qonunchiligimizning eng muhim belgilari inson, uning hayoti, huquq va erkinligi, qadr-qimmati, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ozod va obod adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog‘liq o‘zgarishlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimlar o‘rtasida hozirgi kunga qadar jinoyatlarning sabablari, unga qarshi kurash yuzasidan aniq, yakdil fikr shakllanmagan. Yurtimizda esa so‘nggi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev **“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”** degan oliyjanob g‘oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishni muhim vazifa sifatida belgilab berdi [1]. Ammo shaxs ozodligi va erkinligining noqonuniy cheklanishi kabi jinoiy harakatlar bugungi islohotlarimizga raxna solmasdan qolmaydi. Odam savdosi, odam o‘g‘irlash va boshqa zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etish sabab va shart-sharoitlarini o‘rganish va tahlil qilish orqali ushbu jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish mumkin. Zero, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini ishlab chiqishda aynan jinoyatchilik sabab va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bunday kurashning qay darajada muvaffaqiyatli kechishini belgilab beradi. Zotan, professor Q.R.Abdurasulova ta’kidlab o‘tganidek, **“Kriminologiyada sababiyat - eng murakkab muammolardan biridir. Shu sababli unga izchil va mufassal yondashish zarur”[2].**

Umuman jinoyatchilik va xususan shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarining sabab va shart-sharoitlarini shartli ravishda ikkiga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1) jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu jinoyat sodir etilishiga turtki bo‘lgan obyektiv sabab va shart-sharoitlar (qonunchilikdagi kamchiliklar, muayyan ijtimoiy munosabatni muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklar, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy-huquqiy vaziyat); 2) aynan jinoyatchi shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv omillar (jinoyatchi shaxsining ruhiy - psixologik omillari bilan belgilanadi, masalan, mo‘may daromad orttirish va sh.k.).

Bu borada S.S.Niyozova ham og‘ir tajovuzkor-zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etish shart-sharoitlariga, uni amalga oshiruvchi aybdorning shaxsi va ruhiyatiga ta’sir etish omillariga ko‘ra obyektiv va subyektiv jihatdan tavsiflash mumkinligini ta’kidlab o‘tgan [3]. Jinoyatchi shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv omillar yuzasidan professor M.X.Rustambayev “agressivlik shaxsning tug‘ma genetik sifati sifatida, nizoli vaziyatda, uning huquqqa xilof zo‘rlik vositalaridan foydalanishga qaror qilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi:”[4], deb yozadi.

Hozirgi vaqtda urf-odat sifatida ba’zi bir hududlarda uylanish va uni majburiy nikohga kiritish maqsadida qiz o‘g‘irlash holatlari kuzatilmoqda, misol tariqasida, Qoraqalpog‘istonning Qonliko‘l tumanida 30 yoshli erkak 24 yoshli qizni unga uylanish maqsadida o‘g‘irlab ketganligi va IIV Tergov departamenti ushbu holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 136-moddasi (ayolni erga


tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish) bilan ish qo‘zg‘atilganini ma’lum qilgan [5]. Yana bir holatda 2024-yil 23-sentabr kuni Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida 8-sinf o‘quvchisi bo‘lgan qiz bir guruh shaxslar tomonidan o‘g‘irlab ketilgan va zo‘rlangan. Qizning yaqinlariga ko‘ra, u o‘g‘irlab ketilgan. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, qarindoshlari qiz yo‘qolgani haqida ariza yozishgan. Jabrlanuvchi oradan 13 kun o‘tib, 6-oktabr kuni badanida zo‘ravonlik izlari bilan topilgan [6]. Bunday jinoiy zo‘ravonliklar jamiyatning manaviy-axloqiy holatiga ham ma’lum bir miqdorda zarar yetkazishi mumkin.

Hududlar kesimida ham, ushbu diagrammada ayollarga nisbatan, jinoyat qonunchiligimizning 136-moddasi buzilishini ko‘rishimiz mumkin.

Majburiy nikoh va ayollarga nisbatan tajovuzlarning ro‘y berishi shaxs ozodligining cheklanishi va ayollarni ularning xohish-irodasiga zid ravishda buzuqlik qilish yoki nikohga kirish maqsadida jinoyatga qo‘l urishlarida ifodalanadi.

2023-yilning 12 oyi davomida respublikamizda 17 ta Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish jinoyatlari qayd etilgan.

Shundan Toshkent viloyatida 2 tasi, Buxoro viloyatida 2 tasi, Qashqadaryo viloyatida 2 tasi, Farg‘ona viloyatida 1 tasi, Andijon viloyatida 2



1-rasm. 2023-yilning 12 oyi davomida respublikamizda 17 ta ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish jinoyatlari tahlili

tasi, Jizzax viloyatida 1 tasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 7 tasi sodir etilgan [7]. (1-rasm)


Shuningdek, jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlarini yana shartli ravishda umumiy va maxsusga bo‘lib o‘rganish ham maqsadga muvofiq. Jinoyatchilikning umumiy sabablariga aksariyat jinoyatlarni sodir etilishiga imkon bergan sabablar va unga yo‘l qo‘ygan shart- sharoitlarni kiritishimiz mumkin. Bular jumlasiga xususan, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy sabablarni keltirish mumkin. Masalan, iqtisodiy foyda olish yoki ishsizlik aksariyat jinoyatlarning sodir etilish sabablaridan hisoblanadi. Jinoyatchilikning maxsus sabablariga esa, aynan muayyan toifa jinoyatlarga xos bo‘lgan sabablarni kiritishimiz mumkin bo‘lib, jumladan shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlarning maxsus sabablari sirasiga ularning muayyan hududlarda odat va an’analar bilan bog‘lanib ketishi kabilarni kiritish mumkin.

2022-2024-yillarda Shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlarining Respublikamizda sodir etilishi miqdoriy tahliliy holati (jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan) [8]. (2-rasm)

Yuqoridagi statistik tahlildan nazar qilinsa Shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlar so‘ngi yillarda ham soni va salmog‘i jihatdan o‘sib borayotganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq inson ozodligiga tajovuz qilish, ya’ni uni erkin harakatlanish va o‘zining bo‘lib turish joyini tanlash imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog‘liq harakatlar nafaqat 137-modda (“Odam o‘g‘irlash”) bo‘yicha, balki 135-modda (“Odam savdosi”), 138-modda (“Zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish”), 234-modda (“Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish”), 245-modda (“Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish”) va boshqa normalar bo‘yicha ham kvalifikasiya qilinishi mumkin.

Aholi o‘rtasida huquqiy ong va saviyaning yetishmasligi ham ba’zida shu jinoyatni sodir etishga turtki bo‘lmoqda. Odamlarning huquqiy ongini yuksaltirishga erishish orqali ham ijobiy natijalarga erishish mumkin. Xususan, huquqning o‘rgatilishi, huquqiy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi odamlar orasida birovning huquqini buzmaslik, uni hurmat qilish g‘oyalari singdirilishiga olib keladi. Agar odamlar ongi hayotga, sog‘liqqa, sha’n va qadr-qimmatga, ozodlikka, jinsiy daxlsizlikka qarshi mo‘tadil qarashga loqayd bo‘lsa, bu jinoyatlar kamayishini orzu qilmasak ham bo‘ladi. Fuqarolar eng ko‘p tarqalgan jinoyatlar haqida bilib, ularga

ISSN 3030-3230



2-rasm. 2022-2024 yillarda Shaxs ozodligiga qarshi jinoyatlarning Respublikada sodir etilishi miqdori tahlili

qarshi kurash masalalarini yechishning qonuniy yo‘llarini topishda davlatga yordam bersalar, ularga qarshi birgalikda, bahamjihat kurash olib borsalargina yaxshi natijaga erishish mumkin. Eng muhim vazifa - sodir etilgan jinoyatni o‘z vaqtida aniqlash va jinoyatchiga qonunda belgilangan jazoni tayinlashdir, shundagina javobgarlikning muqarrarligi prinsipining ahamiyati oshadi va xalq orasida hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi, degan ijobiy fikr shakllanadi. Jinoyatchilarda ham ozodlikdan mahrum bo‘lgandan ko‘ra, mehnat bilan pul topishga intilish kuchayadi.

Shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish va samaradorligini oshirish, ayniqsa hududlar kesimida, ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu borada amalga oshiriladigan choralar tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1. Jinoyat sodir etish ehtimolini maksimal kamaytirish.

- Jinoyatchilik ko‘paygan hududlarda muhitni yaxshilash: Tunda yoritish uskunalar, kameralar bilan jihozlash, jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soni va sifatini yaxshilash orqali – jinoyatning ma’lum miqdorda sodir etilish ehtimolini kamaytirish, ularning aholi bilan yaqin aloqada bo‘lishi, tezkor javob berish tizimlarini kuchaytirish zarur, bu esa tezda jinoyatlarni aniqlash va oldini olish imkonini yaratadi.

2. Jinoyatchilikka qarshi profilaktika choralar ko‘rish.

- Huquqiy madaniyatni oshirish: Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularni jinoyatlarning oqibatlari haqida xabardor qilish. Bu orqali odamlar jinoyatga qarshi salbiy munosabatni rivojlantiradilar. Mahalliy hududlarda huquqiy targ‘ibot o‘tkazib, zo‘ravonlik va boshqa jinoyatlar yuzasidan tezkor xabar berish kerakligini aholiga o‘rgatish va tushuntirish ishlari tashkil etilish.
- O‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan hududlarni tahlil qilish: Har bir hududda jinoyatchilik turini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Misol uchun, shahar markazlarida va qishloqlarda jinoyat turli xil bo‘lishi mumkin, shuning uchun profilaktika choralari ham turlicha bo‘lishi kerak.

3. Erkinlik va shaxs ozodligini hurmatni qilishni ta’minlash.

- Huquqni muhofaza qilish organlariga yuqoridagi erkinlik va shaxs ozodligiga hurmat ruhini singdirish: Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan fuqarolarga nisbatan huquqiy ta’minotni to‘g‘ri amalga oshirish. Shaxsiy erkinlik va ozodlikni cheklashda faqat qonuniy asoslar bo‘lishi, bu jarayonlarning adolatli va shaffof bo‘lishi kerakligi.
- Jinoyatlarni oldini olishda, shaxsning erkinligini cheklovchi choralarni faqat ehtiyotkorlik bilan qo‘llanilishi kerakligi, agar shaxsga nisbatan nohaq qilinsa, bu jamiyatdagi ishonchni kamaytirishi mumkin.

4. Jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilik va aholining ishtirokini oshirish.

- Mahalliy hududlarda jamoatchilik nazorati: Aholining xavfsizlikni ta’minlashdagi roli juda katta. Mahalliy fuqarolar jamoalari, ko‘ngilli xavfsizlik guruhlari, mahalla xodimlari ham jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol qatnashishlari kerak.
- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish: Mahalliy hududlarda aholining xavfsizligini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlarni qo‘llab-

quvvatlash va jinoyatlarni tezda aniqlash uchun texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir.

So‘ngi besh yillikda respublikamizda shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashda ko‘plab amaliy ishlar boshlanib, davom ettirilmoqda. Eng avvalo Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz keng jamoatchilik va rivojlangan qonunchilik normalari asosida qayta ishlab chiqildi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2019), “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2020), “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2023), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentabrda “Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 565-sonli qarori kabi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida asosida: zo‘rovonlikdan himoya qilish, odam savdosiga chek qo‘yish, xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, OAV gender muammolarning keng yoritilishini ta’minlash [9] kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 14 ta namunali tumanlararo markazlar hamda zo‘ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan **1146 qisqa raqamli “Call-centr”[10]** tashkil etilib, hozirgi kunda zo‘ravonlik jabrdiydalarga ko‘maklashib kelmoqda. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha 14 ta **“Hudud metodikasi”** yaratiladi. 2022–2025-yillarda O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasida [11] quyidagilar:

– Jamoat xavfsizligini ta’minlash, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha 14 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish,

– Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini **“ilmiy diagnoz”** asosida aniqlash va **“ilmiy diagnoz xulosasi”** bilan **“E-jamoat xavfsizligi”** axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy qilish belgilab berildi.

Xulosa o‘rnida aytganda, shaxs erkinligiga qarshi kurashda qonunchilik normalarga ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritish lozim: Odam o‘g‘irlash jinoyatlari bilan o‘z maqsadlariga erisha olmagan jinoyatchilar jabrlanuvchini odam savdosi qurboniga aylantirishlari mumkinligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasida sanksiyasini og‘irlashtirish va ushbu moddaning **ikkinchi qismiga “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu kodeksning 136-137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilsa”, “Homilador ayolga nisbatan sodir etilsa”** sifatida yangi normalarni kiritilishi hamda jinoiy jazolarni og‘irlashtirilishi, Jinoyat kodeksi 135-modda **uchinchi qismiga “Tijorat uchun jinsiy ekspluatatsiya va fohishalikka majburlash”** sifatida yangi norma kiritilishi, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Respublikamizda shaxs ozodligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish, tahlil qilish va aniqlashda huquq-tartibot organlari xodimlariga yaqindan yordamlashib kelayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalari, markazlari va alohida ishchi guruhlar faoliyat yuritib kelmoqda. Shunday ilmiy-amaliy tadqiqot va ta’lim maskanlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti hisoblanib, respublikamizdagi kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan quyi bo‘g‘in sanalgan mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, sodir etilayotgan har bir jinoyatning sabablarini aniqlash, **“ilmiy diagnoz”** qo‘yish orqali jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini prognozlash, mahalla jinoyatchiligini barvaqt oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, aholining huquqiy savodxonligini mustahkamlash yo‘nalishida soha vakillaridan iborat professor-o‘qituvchilar ishtirokida tizimli ishlar olib borilmoqda, shuni alohida ta’kidlash joizki, kelgusi davrda ham yuqoridagi qonunchilik normalarini mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurashish orqali shaxs huquq va erkinliklarini ta’minlash Yangi O‘zbekistonning bosh maqsadlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В данной статье представлена информатсия о статистическом состоянии преступлений против свободы личности и свободомыслия в нашей республике, о работе, проводимой в борьбе с преступностью по защите свободы личности, неприкосновенности и интересов, краткий анализ законодательных документов, обеспечении прав и свобод женщин, равноправии в обществе, наличии ограничения в отношении женщин, предложения и комментарии по пресечению преступлений для специалистов в области, были разработаны новые подходы к предупреждению преступности. Были изучены вопросы устранения причины и условий, которые позволяют это сделать, а также анализа того, насколько похищение является успешным.

Ключевые слова: свобода личности, насилие, профилактика, научный диагноз, жертвы насилия, предотвращение преступлений.

Abstract. This article provides information on the statistical status of crimes against individual freedom and free thought in our republic, on the work carried out in the fight against crime to protect individual freedom, inviolability and interests, a brief analysis of legislative documents, ensuring women's rights and freedoms, equality in society, restrictions on women, suggestions and comments on New approaches to crime prevention have been developed for specialists in the field. The issues of eliminating the cause and conditions that allow this to be done, as well as analyzing how successful the abduction is, were studied.

Key words: person freedom, violence, girl abduction, prevention, scientific diagnosis, victims of violence, crime prevention.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2018.-B.7.
2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik / Mas'ul muxarrir: prof. M.H.Rustambayev. - Toshkent: TDYuI, 2007. - B. 37.
3. Niyozova S.S. Shaxsning zo'rlik jinoyati qurboniga aylanishining ijtimoiy-ruxiy tavsifi // TDYuI Axborotnomasi. - Toshkent, 2010. - №3 - B. 87.
4. Рустамбаев М.Х. Ответственность за преступления против здоровья по законадательству Республики Узбекистан. - Нукус: Каракалпакистан, 1992 - С.273.
5. https://daryo.uz/2020/10/30/qoraqalpogistonlik-erkak-24-yoshli-qizga-uylanish-uchun-uni-olib-qochdi.
6. https://kun.uz/news/2024/11/13/samarqandda-maktab-oquvchisi-bir-guruh-shaxslar-tomonidan-ogirlab-ketilib-zorlandi
7. O'z.Res. IIV Huquqiy statistika va tezkor hisob ma'lumotlar boshqarmasi ma'lumotlar bazasi.
8. O'z.Res. IIV Huquqiy statistika va tezkor hisob ma'lumotlar boshqarmasi ma'lumotlar bazasi.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.-B.245.
10. https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=59372
11. https://uzreport.news/society/jinoyatchilikka-qarshi-kurashish-bo-yicha-14-ta-hudud-metodikasi-yaratiladi

ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA DALILLARNI QAYD ETISH

Nuraliyev Murod Ma'rufovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ishni sudga qadar yuritishda dalillarni qayd etishning protsessual tartibi asoslantirib berilgan. Amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida ishni sudga qadar yuritishda dalillarni qayd etishning protsessual tartibiga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: dalillarni qayd etish, jinoyat protsessi, ma'lumotlar, dalillarni shakl va usuli, raqamli axborot.

Jinoyat-protsessual qonunchiligi normalariga qat'iy amal qilgan holda dalillarni to'plash, tekshirish, baholash va ularni belgilangan talablar asosida protsessual qayd etish orqali jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo tayinlash hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs hukm qilinmasligi va javobgarlikka tortilmasligi uchun aybdorlarni fosh etish, qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 90-moddasi[1]da, ma'lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanish mumkin. Bayonnomalar yuritish uchun mas'uliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnomalarga: tergov yoki sud harakatining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar, bu shaxslarga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani; tergov yoki sud harakatining o'tkazilish joyi va vaqti, shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy obyektlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo'lgan belgilari; tergov harakatlari yoki sud muhokamasi ishtirokchilari tasdiqlashni so'ragan faktlar; ularning yuz berayotgan hodisa sabablari xususidagi ko'rsatuvlari, tushuntirishlari, mulohazalari; ular tomonidan berilgan iltimosnomalar, shikoyatlar, rad etishlar; tergov harakatini olib borish yoki sud muhokamasi jarayonidagi tartibbuzarlik hollari, shuningdek bu tartibbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun ko'rilgan chora-tadbirlar kiritilishi belgilab qo'yilgan.

Bizning fikrimizcha, dalillarni qayd etish deganda ularni mustahkamlash, ya'ni qonunda ko'rsatilgan tartibda ish bo'yicha bu kabi harakatdan keyin ularni dalil deb e'tirof etish uchun aniq ma'lumotlarni aks ettirish tushuniladi.

Boshqa bir adabiyotlarda, protsessual qayd etishni ko'p hollarda "dalillarni mustahkamlash" tarzida ifodalagan. Bunda dalillarni mustahkamlash "tergovchi tomonidan aniqlangan faktik ma'lumotlarni protsessual hujjatlarda aks ettirish", "to'plangan dalillarni hujjatlashtirish va protsessual tasdiqlash" kabi shakllarda talqin qilinadi.[2] Kriminalistik adabiyotlarda qayd etish obyekti sifatida asosan qayd etishning usuli, vositasi va moddiy vujudga kelishiga urg'u beriladi.[3]

N.N.Lisov yozishicha, dalili yoma'lumotlarning qayd etish tushunchasi asosini quyidagi muhim belgilar tashkil etadi: qayd etishning bevosita vazifasi (turli manbalarda mavjud dalili yma'lumotlarning saqlanishi); qayd etishning predmeti (voqea-hodisa haqidagi ma'lumotlar: narsalar, harakatsiz obyekt va subyektlarning sur'atlari, jinoiy faoliyat rivojlanish jarayoni dinamikasi, harakatlar va boshqalar); qayd etish usullari (jinoyatlarni aniqlash va ochish faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar tomonidan qo'llaniladigan taktik usul va ilmiy-texnikaviy vositalari); qayd etishning yakuniy maqsadi (ish hujjatlarini ko'rib chiqish va hal etish uchun zarur bo'lgan protsessual qayd etilgan faktik ma'lumotlarni olish).[4]

N.Egorov va boshqalarni ta'kidlashicha, dalillarni qayd etishning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) moddiy ifodalovchisida mavjud dalili yma'lumotlarni sharhlash va isbotlash vositasiga o'tkazish; b) isbotlash jarayonida bir necha marotaba foydalanish maqsadida dalili y ma'lumotlarni saqlanishini ta'minlash; v) qayd etilgan dalili y ma'lumotlarning saqlanishi natijasida ularning ishga taalluqli bo'lganlarini to'plab borish va isbotlashni to'liq amalga oshirishida foydalanish; g) isbotlashni amalga oshiruvchi subyektga qonuniy tartibga solingan va isbotlash predmeti nuqtai nazaridan kelib tushgan

ISSN 3030-3230

ma’lumotlar to‘liq rasmiylashtirilmasdan, balki ishga taalluqli bo‘lgan holatlargina saralab olinib, isbotlash jarayonida foydalanishi; d) isbotlovchi ma’lumotlar nafaqat qayd etiladi, balki ma’lumot olishning yo‘llari, usul va vositalari ham uning ishga taalluqliligining zaruriy sharti sifatida qayd etiladi.[5]

Qayd etish lozimki, isbotlash davrida daliliy ma’lumotlarning taalluqliligi va maqbulligi birlamchi xarakterga ega bo‘ladi. Protsessual nuqtai nazardan daliliy ma’lumotlarni qayd etish o‘z navbatida isbotlash subyekti faoliyatini tasdiqlaydi. Isbotlash subyekti faoliyatining tasdig‘i deganda ma’lumotlarning daliliy kuchga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida qonunda belgilangan tartibda ularni qayd etilishi nazarda tutiladi.

Dalillarni qayd etish ish bo‘yicha ma’lum bir faktlarni tasdiqlash bilan birga faktik ma’lumotlarni qayd etish maqsadi ham ko‘zlanadi. Protsessual jihatdan qaraganda, dalillarni qayd etish protsessual shaklda tasdiqlanishi va qayd qilinishi natijasida kelib chiqqan holda rasmiy jihatdan to‘g‘ri ekanligini e’tirof etish lozim.[6]

Bu o‘rinda shu narsa ayon bo‘ladiki, daliliy ma’lumotlar qonunda belgilangan tartibda va usulda qayd etilishi bilan qonuniy shaklga ega bo‘ladi. “Daliliy ma’lumotlarni qayd etish” tushunchasi, protsessual jihatdan farqli o‘laroq, kriminalistik jihatdan kengroq mazmunga ega. Bunda asosan daliliy ma’lumotlarni qayd etish bilan bog‘liq harakatlar va ushbu harakatlarni amalga oshirish vositalariga tayaniladi.

Shu o‘rinda A.R.Belkinning quyidagi fikrini ham keltirib o‘tish mumkin: “Dalillarni qayd etish tushunchasining mazmunan tahlili jinoyat ishlarini yuritish jarayonida ushbu tushunchaning quyidagi ko‘rinishda tavsiflanishini taqozo etadi: dalillarni qayd etish - bu jinoyat ishlarini to‘g‘ri hal etish uchun haqiqiy ma’lumotlarni qonunda belgilangan shakllar, shartlar, usullar va vositalar yordamida aniqlash hamda mustahkamlash bilan bog‘liq harakatlar majmuidir.[7]

Bizningcha, yuqoridagi fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin: 1) dalillarni qayd etish ham fikrlash bilan bajariladigan, ham tom ma’nodagi jismoniy harakatlar majmuidir; 2) qayd etishning obyekti barcha haqiqiy ma’lumotlar emas, balki isbotlashni amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan amaldagi JPKning 85-moddasida ko‘rsatilgan tartibda ini qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida to‘plangan ma’lumotlardir; 3) ushbu faoliyat qayd etish obyektini protsessual shaklda aks ettirishga yo‘naltirilgan, tegishli talablarga javob berishi bilan birga protsessual qonun talablariga rioya qilingan faoliyatdir; 4) dalillarni qayd etishda nafaqat ma’lumotlarni protsessual shaklga keltirgan holda qayd etish, balki ushbu dalillarni aniqlanishi, olinishi, qayd etilishi va saqlanishi bilan bog‘liq jarayonlar ham ko‘rsatgan holda aks ettirish lozim.

Yuqorida ko‘rsatganlardan dalillarni qayd etishning obyekti quyidagicha bo‘lishi haqida xulosa qilish mumkin: a) haqiqiy ma’lumotlarning aynan o‘zi; b) ularni aniqlash va qayd etish bilan bog‘liq maqsad va usullar; v) haqiqiy ma’lumotlarni aniqlash hamda qayd etish usul va vositalari.

Bundan tashqari, dalillarni protsessual shakllarda qayd etish, o‘z navbatida, qayd etishning subyektlariga ham yo‘l-yo‘riq talab qilishini qayd etish lozim.

Daliliy axborot, ularni olish va qayd etish bilan bog‘liq ma’lumotlar - bu isbotlash jarayonidagi qayd etishning asosiy obyektidir. Isbotlash jarayonida asosiy ma’lumotlar bilan bir qatorda ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlardan ham foydalaniladi.

Mazkur qo‘shimcha ma’lumotlarga: 1) surishtiruv organlari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan, shuningdek, tergovchining tashkiliy-texnik va izlash faoliyati bilan bog‘liq harakatlari yoki mutaxassis bilan maslahatlashuvi natijasidagi taxminiy ma’lumotlar[8]; 2) kriminalistik tadqiq etish, qiyoslash va tekshirish uchun taqqoslash hamda izlash faoliyatiga xizmat qiladigan yordamchi ma’lumotlar.[9]

Bugungi kunda daliliy ma’lumotlarni kuyidagi shakllarda qayd etish amaliyotda keng qo‘llanilib kelinmoqda: 1) og‘zaki (verbal) shaklda; 2) grafik shaklda; 3) ko‘rgazmali shaklda; 4) yaqqol ko‘rish shaklda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan og‘zaki (verbal), grafikli, ko‘rgazmali va yaqqol ko‘rish shakllarni turli o‘zaro uyg‘un birikmalari ham bo‘lishi mumkin. Misol uchun, og‘zaki va grafikli, yaqqol ko‘rish va og‘zaki kabilar. Shu bilan birga, dalillarni qayd etishda o‘lchash, tavsiflash, modellashtirish, kuzatish, qiyoslash, eksperiment, fizikaviy, kimyoviy va kriminalistik usullardan foydalanib kelinmoqda.[10]

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan metodlarni amalga oshirishga quyidagilar ko‘rsatish mumkin a) verbal shaklda qayd etish - bayonnoma tuzish, tovushni (ovozni) yozib olish; b) grafik shaklda qayd etish - grafik shaklda aks ettirish (sxematik

va masshtabli chizmalar, tasvir, xomaki chizmalar, rasmlar, shuningdek, chizilgan suratlar); v) ko‘rgazmali shaklda qayd etish - narsalarni tabiiy holdagi ko‘rinishida olinishi (qoliplar tayyorlash, nushalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash); g) yaqqol obrazli shaklda qayd etish - videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish.[11]

Ayrim hollarda qayd etishning texnik shakl va usullaridan foydalangan holda kompleks tarzda yondashish ham mumkin[12]. Misol uchun, bayonnoma tuzish, videotasvir yoki fotosuratga tushirish, nusxa olish va boshqalar. Har qanday qayd etish shakllaridan foydalanishda, uning uslub va texnik usullarini qo‘llash uchun protsessual talablar qo‘yilgan, chunki gap aynan protsessual isbotlash haqida ketmoqda.

Jinoyat-protsessual huquqida dalillarni qayd etish shakllarining uch turi mavjud: bayonnoma tuzish, ashyoviy dalillarni ishga qo‘shib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilish, boshqa hujjatlarni ishga qo‘shib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilish. Ushbu shakllarga nisbatan asosiy va ko‘pincha, ixtiyoriy va majburiy qayd etish usullari mavjud.[13] Dalillarni qayd etishning asosiy usuli sifatida bayonnoma tuzish, yordamchi usullari sifatida esa videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash va izlardan nusxalar olish tushuniladi. Bunday bo‘linish bayonnoma tuzishdan tashqari boshqa qayd etish shakllarining natijalari dalil manbalarining qiymatiga ega bo‘lmasligidan kelib chiqqan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida dalil vositalari sifatida ilmiy-texnika vositalaridan foydalanish emas, balki guvohning ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ko‘zdan kechirish bayonnomalari va boshqa yozma hujjatlar hamda ayblanuvchining shaxsiy tushuntirishlaridan foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan, lekin ilmiy-texnika vositalari (videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash va izlardan nusxalar olish)dan foydalanish taqiqlanmagan. Bu masala bo‘yicha keng munozaralar bunday qarashlarning nomutanosibligini ko‘rsatib, qonunda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish masalasini kun tartibiga qo‘ydi va ushbu kamchiliklar amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida bartaraf etildi. Lekin JPKning 87-moddasi birinchi qismida dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish yo‘li bilan to‘planishi, shuningdek, mazkur kodeksning 91-moddasining birinchi qismida dalillarni qayd etish uchun bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan xolos.

Nazarimizda, protsessual dalillarni qayd etish usullarini asosiy va qo‘shimcha usullarga emas, balki majburiy (qonundagi qat’iy tartibga muvofiq) va majburiy bo‘lmagan (ixtiyoriy), ya’ni qayd etishni amalga oshiruvchi subyektning ixtiyori bilan qo‘llaniladigan usullarga taqsimlash maqsadga muvofiq. Xususan, dalillarni qayd etishning majburiy usullariga bayonnomada qayd etishni kiritib o‘tish mumkin; dalillarni qayd etishning majburiy bo‘lmagan usullariga audio-videoyozuv vositalar yordamida qayd etish, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa qayd etish usullarini kiritish maqsadga muvofiq.

JPKning 91-moddasi to‘rtinchi qismida o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tarzidagi tintuv, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti tarzidagi protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Nega aynan o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha videoyozuv vositalaridan foydalanish shartli belgilab qo‘yilgan xolos?

JPKning 951-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan dalillarning maqbul emas deb topilishiga asos bo‘ladigan holatlarning kelib chiqishini oldini olish, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash hamda isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishini ta’minlash maqsadida ayrim tergov va protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi yuzasidan majburiy qoida kiritilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, dalillarni qayd etishning texnik vositalarini tavsiflab, ularni kuyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: 1) og‘zaki ma’lumotlarni qayd etish vositalari (bayonnomalarni tuzish vositasi, ovoz yozish qurilmalari); 2) modellar yaratish vositalari - rejalar, chizmalar, rasmlar, sxemalar; 3) moddiy modellarni yaratish vositalari (qoliplar miqdori, foto va kino qurilmalar, video yozuvchi vositalar, sintetik portret tayyorlash uchun rasmlar to‘plami va h. k.).[14]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, dalillarni qayd etishning eng ko‘p qo‘llaniladigan verbal shaklining keng tarqalganligini bir necha sabablari mavjud. Jumladan:

1) bu qonun chiqaruvchining talabi sifatida tergov va boshqa bir necha protsessual harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi;

2) verbal qayd etishning keng tarqalganligi verbal ta’rifning kiritilishi mumkin bo‘lgan qayd

ISSN 3030-3230

etish obyektlarining xilma-xilligi bilan bog‘liq. Bular:

a) arizalar, ko‘rsatmalar va shikoyatlar; b) harakat va jarayonlar; v) moddiy shakllar, ularning sifati, holati va tuzilishi - odamlar, murdalar, hayvonlar, narsalar, hujjatlar, tevarak-atrof, transport vositalari va boshqalar.[15] Ushbu dalillarni qayd etish shakli tarixiy jihatdan eng qadimiy va nisbatan soddaligi bois umumruxsat berilgan shakl hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek ushbu shaklni amalga oshirishning texnik usuli bu bayonnoma tuzish va ovoz yozishda ifodalandi.

Dalillarni qayd etish amaldagi JPKda ko‘rsatilgan talablar asosida bajarilmasa dalil nomaqbul deb topiladi. Bizning jamiyatimizda insonning qadr-qimmati, uning qonuniy huquq va manfaatlari eng yuqori o‘rinda turadi. JPKning 17-moddasida[16] inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog‘lig‘ini xavf ostida qo‘yadigan, asossiz ravishda o‘nta jismoniy va ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish taqiqlanishi ta’kidlangan. Isbotlash jarayonining maqsadi haqiqatni aniqlash bo‘lgani tufayli, unga erishishda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari muhofazasiga katta e’tibor berish lozim. Dalillar nafaqat tegishli protsessual bo‘lmagan manbalardan olinganida, balki fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari jiddiy ravishda buzilgan hollarda ham nomaqbul deb topiladi.[17]

Shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish bilan bog‘liq bo‘lmagan dalillarni mustahkamlash nuqsonlari hamda haqiqiy ma’lumotlar noqonuniyligiga nisbatan boshqacha yondashuv zarur.[18] Axborotlarni olish va ularni qayd etish qoidalari dalillar ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan, shuning uchun ham ularni baholash ushbu umumiy vazifani hal qilishning tarkibiy qismidir.[19] Agar yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishlarini boshqa protsessual harakatlar o‘tkazish orqali bartaraf etish mumkin bo‘lsa, ular jiddiy emas deb hisoblanishi, ya’ni har tomonlama, to‘la va xolisona tergov qilishga ta’sir etmagan deb e’tirof etilishi, ushbu dalillar esa kelgusida tekshirilishi va baholanishi mumkin. Ko‘pincha bu amaliyot qonunda belgilangan dalillarni qayd etishning protsessual shakliga tegishlidir. Masalan, guvoh so‘roq qilish bayonnomasiga tergovchining aybi bilan imzo chekmagan bo‘lsa, tergovda bergan ko‘rsatuvlarining to‘g‘ri yozilganligini sudda tasdiqlashi, xolis esa ko‘zdan kechirish o‘tkazilganda ishdagi o‘z ishtirokini tergov harakatini o‘tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarni so‘roq qilish orqali tasdiqlanishi mumkin. Mazkur amaliyot dalillarni mustahkamlashda protsessual shaklga rioya etmaslik yoki ularni mensimaslik deb baholanishi kerak emas. Protsessual shaklga rioya etmaslik oqibatlari xususida qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, bunday hollarda prokuror JPKning 385-moddasi talablariga binoan qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun ishni o‘z ko‘rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 95-moddasi uchinchi qismida dalillarning maqbulligi sharti sifatida protsessual shaklga, ya’ni JPKning 92-94-moddalariga rioya etish ko‘rsatilgan.[20] Shuning uchun protsessual qaror va bayonnomalar morfologik, stilistik va qonun tili jihatidan aniq, ravshan yozilgan, tegishli hujjatda bayon etilgan bo‘lishi kerak. Ular huquqiy me’yorlarni qo‘llashning shaxsiy-huquqiy hujjatlari bo‘lgani uchun hamma vaqt qonuniy, asoslangan, sabablari ko‘rsatilgan, ishonchli, mantiqiy, savodli va madaniyatli, shuningdek yaxlit holda yuqori saviyada qayd etilgan bo‘lishi shart.

Dastlabki tergov protsessual hujjatlariga qo‘yiladigan talablar nafaqat bunday hujjatlarning tasdiqlovchi, rasmiy tomoniga, balki ularning mazmuniga (protsessual harakatning o‘zini haqiqatda bajarish shart- sharoitlari va tartibiga) xam bir xilda taalluqlidir. Bunday talablarga protsessual hujjatning qonuniyligi, asoslanganligi, o‘z vaqtidaligi, har tomonlamaligi, to‘liqligi va aniqligi hamda ularni tuzishning yuqori saviyadaligi va hujjat sifatida qayd etishning savodliligi kiradi. Ushbu talablarga protsessual harakatlar ham, protsessual hujjatlar ham javob berishi kerak. Biroq ayrim talablar o‘z yo‘nalishiga qarab jinoyat-protsessual hujjatning mazmuni yoki shakli uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. [21]

Dalillarni to‘plashda ularning protsessual jihatdan to‘g‘ri qayd etilishi isbotlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ish uchun ahamiyatli bo‘lgan haqiqiy ma’lumotlarni har bir dalil turining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda qayd etish jinoyat-protsessual qonunida faqatgina so‘roq qilish tergov harakatida tartibga solingan xolos, xususan, qayd etish natijalari mujassamlashtirilgan protsessual shakl, barcha rekvizitlar, ketma-ketlik, qayd etish natijalarini ishga qo‘shish usullari, ularni tasdiqlash usullari, ulardan isbotlash jarayonida foydalanish tartibi nazarda tutilgan.

Dalillarni qayd etishning bu kabi qoidalari joriy etilishi ish hujjatlarida dalillarning aniq

aks etishi, ishonchli dalillar olinishi va dalillarni qayd etishning yagona yondashuviga erishish hamda olingan ma'lumotlarni saqlash sharoitlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu kabi qoidalar, avvalambor, shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi. Dalillarni to'plash jarayonida qonunni buzilishi esa olingan ma'lumotlarning yuridik kuchi yo'qolishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, dalillarni qayd etish – jinoyat-protsessual faoliyat jarayonida protsessual va tergov harakatlari o'tkazish natijasida ish uchun ahamiyatli bo'lgan biror-bir hodisa to'g'risidagi muayyan ma'lumotlarni hamda shunday ma'lumotlarga ega narsa va hujjatlarni qonunda belgilangan tartibda to'plash, tekshirish, baholashga qaratilgan protsessual harakatlarni yozma va elektron hujjatlarda, shuningdek boshqa qayd etish vositalari yordamida aks ettirishdir.

Yuridik adabiyotlarda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalariga doir quyidagi asosli fikr mavjuddir, ya'ni "jinoyat hodisalarini o'z vaqtida ochish surishtiruv, tergov va prokuratura organlari faoliyatini darhol, izlar bosilmasdan turib, ya'ni "issiq izlar" asosida tashkil etishni talab qiladi.[22] Bu tergov qilish ishlarini aniq maqsadga yo'naltirish hamda faol ravishda olib borishga, sodir etilishi mumkin bo'lgan boshqa jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish vazifalarini bajarishga ko'maklashadi. Jinoyatlarni ochish jarayonining o'zi ish bo'yicha to'plangan dalillarni to'la-to'kis tahlil etishdan, isbotlash predmetiga daxldor holatlarni har tomonlama tekshirishdan, barcha aybdorlarni aniqlash va fosh etishdan iborat.

Bugungi kunga kelib zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatimizning har bir jabhasiga, xususan, sud-tergov organlari faoliyatiga kirib kelishi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jumladan, raqamli texnika vositalari yordamida tergov va protsessual harakatlarning foto va video tasvirga qayd etilishi, raqamli ma'lumot hamda hujjatlar aylanmasining keng joriy etilayotganligi va boshqalar.

Jinoyat ishlarini yuritish, tergov va protsessual harakatlarini amalga oshirishda raqamli ma'lumotlar va elektron dalillarni aniqlash, olish va qayd etish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq masalalar keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda.[23]

Sud-tergov organlariga qiyinchilik tug'dirayotgan asosiy masalalardan biri dalillarning yangi turi – "elektron dalillar" hamda ushbu elektron dalillarni aniqlash, ularni olish va qayd etish bilan bog'liq muammolarga duch kelinayotganligidir. Amaldagi qonun hujjatlarida "elektron dalillar" atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, mutaxassislar bunday dalillarni alohida dalil turi sifatida ajratib ko'rsatish va jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlash zarurligi yuzasidan ilmiy qarashlar mavjud.

B.A.Rajabov fikricha, "elektron axborot" yoki "elektron dalil" tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlarini keltirib, jinoyat-protsessual qonunchilikda "elektron jinoyat ishi", "elektron dalil", "raqamli axborot tashuvchisi", "elektron ma'lumot", "elektron axborotdan nusxa ko'chirish" va "elektron hujjat" kabi atamalarga aniqlik kiritilishi hamda mavjud bo'shliqlarning bartaraf etilishi dalillarni to'plash tartibini takomillashtirishga xizmat qiladi.[24]

R.I.Okonenko esa, "elektron ma'lumot", "elektron axborotdan nusxa ko'chirish», "elektron hujjat" va "elektron dalillar" bilan bog'liq boshqa tushunchalarni kirib kelishiga oid qarashlarini bayon etgan.[25]

P.S.Pastuxovning yozishicha, jinoyat-protsessual qonunchilikda dalillarning yangi turi (elektron dalillar) yoki yangi dalil manbalarini (raqamli axborot tashuvchi) kiritilishi shart emasligini, aksincha "ma'lumotlar" elektron ma'lumotlar shaklida bo'lishi mumkinligini ko'rsatuvchi an'anaviy dalillardan biri, ya'ni ashyoviy yoki hujjat shaklidagi dalillar sifatida qabul qilinishi mumkin. [26]

Ye.I.Galyapshna fikricha, binar shaklda keltirilgan raqamli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan fayllarni qidirish, aniqlash, olish, qayd etish, o'rganish va saqlashda Halqaro standartlashtirish tashkiloti (YUSE) tomonidan belgilangan tamoyillarga amal qilish zarur.[27]

Albatta, jinoyat protsessida elektron dalillarni joriy etish ushbu turdagi dalillarning mazmunini, shuningdek ularni aniqlash, olish, to'g'ri qayd etish va baholash bilan bog'liq faoliyatni to'liq tartibini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bizningcha, mazkur yo'nalishda tadqiqot o'tkazib o'zining takliflarini ilgari surgan olimlarning ilmiy qarashlari, amaliyotdagi mavjud muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JPKning 81-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish o'rinli bo'lardi:

"Buma'lumotlarguvohning,jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat

ISSN 3030-3230

materiallar, elektron ma’lumotlar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi’’.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, bunday ta’rifdagi norma tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov va sud muhokamasida dalil va dalil manbalari bilan ishlashda ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, ko‘pgina muammoli holatlarni hal etishga yordam beradi. Qolaversa, ularning o‘z vaqtida jinoyat-protsessual qonuniga joriy etilishi bevosita amaliyot hamda nazariya uchun katta foyda keltiradi.

Аннотация. В статье обоснован процессуальный порядок закрепления доказательств в досудебном производстве. На основе научного анализа действующего законодательства и мнений исследователей разработаны выводы и предложения о процессуальном порядке закрепления доказательств в досудебном производстве.

Ключевые слова: закрепления доказательств, уголовный процесс, сведения, форма и способ доказательств, цифровая информация.

Abstract. The article substantiates the procedural protocol for securing evidence in pre-trial proceedings. Based on a scientific analysis of current legislation and the opinions of researchers, conclusions and proposals have been developed regarding the procedural protocol for securing evidence in pre-trial proceedings.

Key words: consolidation of evidence, criminal proceedings, information, form and method of evidence, digital information.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

2. Савельева Н.В. Проблемы доказательств и доказывания в уголовном процессе: Учебние пособие / Н.В.Савельева. - Краснодар: КубГАУ, 2019. - С. 56; Колесов О.М. Письменные доказательства в уголовном процессе России: Автореф. канд. юрид. наук. - Нижний Новгород, 2006. - С. 12; Битокова М.Ж. Право собирания доказательств защитником и его осуществление в уголовном судопроизводстве: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2008. - С. 15; Белоусов Н.В. Предмет доказывания по делам о преступлениях, совершенных в соучастии: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Воронеж, 2003. - С. 22.

3. Попова Т.В. Криминалистические и процессуальные вопросы использования микроследов в доказывании: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Челябинск, 2005. - С. 15; Новик В.В. Криминалистическое обеспечение доказывания по уголовным делам: Проблемы теории и практики: Автореф. дис... д-ра. юр. наук. - М., 2009. - С. 28; Дементьев А.Ю. Криминалистическое прогнозирование в процессе собирания и фиксации доказательств по уголовному делу: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2003. - С. 16.

4. Лысов Н.Н. Фиксация доказательств в уголовном процессе. Ч. I: Методологические проблемы. - Н.Новгород: ЮИ МВД России, 1998. - С. 70.

5. Егоров Н.Н. Теоретические и прикладные проблемы учения о вещественных доказательствах: Автореф. дис... д-ра. юрид. наук. - Иркутск, 2005. - С. 16; Сморгунова М.Е. Теоретические основы и практика проверки досудебных доказательств в уголовном процессе: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Нижний Новгород, 2004. - С. 12.

6. Татаров Л.А. Методические и методологические проблемы доказывания обстоятельств преступления: Автореферат дисс... канд. юрид. наук. - Ростов-на-Дону, 2006. - С. 19.

7. Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. - М.: Норма, 2005. - С. 192.

8. Котухов М.П. Перевод результатов оперативно-розыскной деятельности в доказательства: Автореф. дне... канд. юрид. наук. - М., 2002. — С. 20.

9. Ялышев С.А. Криминалистическая регистрация: проблемы, тенденции, перспективы. - М., 1999. -С. 59.

10. Лопаткин Д.А. Вещественные доказательства: Процессуальные и криминалистические аспекты: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Краснодар, 2003. - С. 21.

11. Белкин Р.С. Криминалистика. 2001, [Электронный ресурс] URL: https://be5.biz/pravo/k023/ll.html; Винберг А.И. Криминалистика. Вып. 1. введение в криминалистику. - М., 1950. - С. 168.
12. Российский С.Б. Концептуальные основы формирования результатов «невербальных» следственных и судебных действий в доказывании по уголовному делу: Автореф. дис... д-ра. юрид. наук. - М., 2015. - С. 31.
13. Попова Н.А. Вещественные доказательства: Собирание, представление и использование их в доказывании: Автореферат дисс... канд. юрид. наук. - Саратов, 2007. - С. 14.
14. Миленин Ю.Н. Аудио - и видеодокументы как доказательства в уголовном процессе: Автореф. дис... кайд. юрид. наук. — М., 2009. — С. 24; Короткий С.А. Аудио — и видеозаписи как средства доказывания в гражданском процессе: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - М., 2010. - С. 18.
15. Веселова Ю.А. Протоколирование и дополнительные методы фиксации доказательств в уголовном процессе: Дис... канд. юрид. наук. - СПб, 2005. - С. 21;
16. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)
17. Лупинская П.А. Основания и порядок принятия решений о недопустимости доказательств // Российская юстиция, — 1994. - № 11. - С. 2-5; Лупинская П.А. Уголовно-процессуальное право Российской Федерации / отв. ред. 2-е изд., перераб. и доп. - М., 2011. - С. 32
18. Саидов Б.А. Ишни судга қадар юритишда шахснинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш: Монография. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. - Б. 34; Умарханов А.Ш. Одил судловга кўмаклашувчи шахслар хавфсизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий чоралари: Ўқув қўлланма. - Т., 2005. - Б.76; Булатов В.А. Обеспечение следователем прав и законных интересов и безопасности потерпевших и свидетелей: Автореф. дис... канд. юрид. наук. - Волгоград, 1999. - С. 22.
19. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ / М.Ю.Абдусаломов, Б.Т.Акрамходжаев, Х.Р.Алимов ва бошқ. - Т., 2001. - Б. 476-477.
20. Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси муаммолари: Ўқув қўлланма - Т., 2006. – Б. 98.
21. Рахмонқулов А.Х., Миразов Д.М. Дастлабки тергов: Дарслик (тўлдирилган ва ўзгартирилган иккинчи нашри). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. - Б. 150.
22. Петрухин И.Л. Теоретические основы реформы уголовного процесса в России. - М.: Проспект, 2008. Ч. 2. - С. 84.
23. Овсянников Д.В. Копирование электронной информации как средство уголовно-¬процессуального доказывания: Автореф дне... канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2015. - С. 16.
24. Ражабов Б.А. Жиноят процессида далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолаш: Монография. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. - Б. 246.
25. Окоменко Р.И. «Электронные доказательства» и проблемы обеспечения прав граждан на защиту тайны личной жизни в уголовном процессе: сравнительный анализ законодательства Соединенных Штатов Америки и Российской Федерации: Дне. ... канд. юрид. наук. - М., 2016. - С. 14-15; Калитин С.В. Доказательства электронные и цифровые. [Элекронный ресурс]. Режим доступа: https://e-koncept.ru/2014/54981 .htm
26. Пастухов П.С. О развитии уголовно-процессуального доказывания с использованием электронных доказательств // СПС «КонсультантПлюс», 2016. - С. 6.
27. Галяшина Е.И. Оценка достоверности цифровых фонограмм в уголовном процессе // Доказывание и принятие решений в современном уголовном судопроизводстве: материалы Междунар. науч.-практ. конференции, посвящ. памяти д-ра юрид. наук, проф. Полины Абрамовны Лупинской: сборник науч. трудов. - М.: Элит, 2011. - С. 140.

ISSN 3030-3230

FIRIBGARLIK JINOYATLARI NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Usmonov Bekzod Absalomovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada firibgarlik jinoyatining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar, jabrlanuvchilarning firibgarlar aldovlaridan qonuniy yo‘l bilan himoya qilish choralari va jazo turlari bo‘yicha ilmiy yondashuvlar keltirilgan va shu kabi jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Firibgarlik, firibgarlikning obyekti va predmeti, aldash, ishonchni suiiste’mol qilish.

O‘zbekiston mustaqil, suveren davlat sifatida shakllanib, rivojlanib borar ekan, bunda yuksak natijalarga erishishimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishining oldini olish kabi vazifalar bugungi kundagi davlat dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Konstitutsiyamizning 54-moddasiga muvofiq mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi faqat shu mulkning egasiga taalluqli. Shuning uchun mulkiy huquqni amalga oshirishga har qanday noqonuniy aralashish ushbu huquqning jiddiy buzilishiga sabab bo‘ladi va jinoiy javobgarlikni taqozo etadi.

Qabul qilingan qonunlar bilan firibgarlik jinoyatlari uchun jazoning sodir qilingan jinoyatga mutanosibligini ta’minlashga, bunday qilmishlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi oshirildi. Jumladan, firibgarlik jinoyatini sodir qilganlik uchun maksimal jazo muddati kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasiga muvofiq, Firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish uch yilgacha, ancha miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa uch yildan besh yilgacha, ko‘p miqdorda, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa besh yildan sakkiz yilgacha, juda ko‘p miqdorda, o‘ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [1] Jinoyatning bevosita obyekti — o‘zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Firibgarlikning predmeti mulkdan tashqari yuridik kategoriya sifatida o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquq, mulkka bo‘lgan alohida vakolatlar (masalan, aybdor uyda yashash huquqini qo‘lga kiritishi mumkin) hisoblanadi. Bu huquqlar turli xil hujjatlarda, masalan, vasiyatnoma, sug‘urta polisi, muayyan boyliklarni olish uchun ishonchnoma, turli xil qimmatli qog‘ozlarda mustahkamlangan bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiy huquqini egallashdan iborat. Ushbu jinoyatning o‘ziga xosligi shundaki, tashqi tarafdan mulkdor tomonidan mulkni «ixtiyoriy» ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o‘tkazish kuzatiladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o‘tkazish fikrini tug‘diradi. Shu usulda jabrlanuvchining ongi va ixtiyoriga ta’sir etish yoki uning ishonchini suiiste’mol qilish orqali firibgar mulkni o‘z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga o‘tkazish maqsadiga erishadi. Bu yerda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish talon-toroj qilishning zaruriy usuli sifatida gavdalanadi.

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o‘zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg‘itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko‘rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg‘on ma’lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Aldash birinchi navbatda shaxsning ongli ravishda o‘zgaga noto‘g‘ri ma’lumotlarni tarqatishida ifodalanadi. Aldash firibgarlik bilan talon-toroj qilish usuli sifatida aybdorning haqiqiy maqsadlariga (masalan, mulkni qaytarib bermaslik maqsadida qarzga olish); predmetga, uning narxi, miqdori va sifatiga (rangli metallardan foydalangan holda tilla buyumlar sifatida har xil narsalar ishlab chiqarish, to‘liq bo‘lmagan tovarni to‘liq narxida sotish) taalluqli bo‘lishi mumkin. Aldash, shuningdek, firibgarning shaxsi, uning mansabi

va ijtimoiy mavqei, kasbiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin (masalan, shaxs o‘zini soliq inspeksiyasi xodimi sifatida tanishtiradi va soliq to‘lovlari sifatida pul mablag‘larini oladi).

Aybdor firibgarlikni sodir etishda soxta hujjatlardan foydalansa, uning qilmishi firibgarlik tarkibi bilan qamrab olinadi va u JK 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) yoki 228-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. Biroq, firibgarlik harakatlarini sodir etish maqsadida aybdor shaxsning o‘zi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlasa, ularni qalbakilashtirsa, uning qilmishlari jinoyatlar jami bo‘yicha Jinoyat kodeksining 168 va 228-moddalari (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shunga e’tibor berish lozimki, agar soxta hujjat (kasallik varaqasi, haydovchilik guvohnomasi, ma’lumotnoma va hokazo) firibgar tomonidan tayyorlanmagan bo‘lib, u boshqa shaxs tomonidan tayyorlanib, ushbu shaxs hujjatdan talon-toroj qilishda foydalanishini bilgan bo‘lsa, unda bu shaxs nafaqat hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun, balki firibgarlik orqali talon-toroj qilishda yordamchi sifatida javobgarlikka tortiladi.

Firibgarlik harakatlarini sodir etishda aybdor o‘zini boshqa shaxs sifatida (davlat hokimiyat organi rasmiy vakili kiyimini kiyish yoki hokimiyat vakilining guvohnomasini qalbakilashtirish) namoyon qilish orqali o‘zganing mulkini qo‘lga kiritishi mumkin.

Ishonchni suiiste’mol qilish deganda aybdor shaxs tomonidan o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda o‘z foydasiga olish uchun o‘zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o‘rtasidagi alohida, o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o‘z foydasiga olish uchun foydalanishi tushunilishi lozim. Odatda, ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o‘rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin. Firibgar niyatiga erishish uchun xizmat, qarindoshchilik, do‘stlik munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Firibgarlik o‘zganing mulki qo‘lga kiritilgan va aybdorda o‘z ixtiyoriga ko‘ra talon-toroj qilingan mulkni tasarruf etish imkoniyati paydo bo‘lgan paytdan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Agar shaxs aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan aqli noraso shaxsning yoxud o‘ziga nisbatan sodir etilgan harakatlarning xususiyatini tushunmaydigan yosh bolaning mulkini qo‘lga kiritib olsa, aybdor firibgarlik uchun emas, balki o‘g‘rilik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Subyektiv tomondan firibgarlik to‘g‘ri qasddan g‘araz maqsadda sodir etiladi, g‘araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Oliy sud Plenumining «o‘zgalar mulkini o‘g‘irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida “aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib etish qobiliyatiga ega bo‘lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo‘lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o‘g‘irlash o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb tavsiflanishi kerak” [2]

Aybdor o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini chalg‘itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste’mol qilayotganligini anglab etadi va buning sodir etilishini xohlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi, g‘araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy alomati hisoblanadi, shu bilan birga, agar mulkni aldash yo‘li bilan g‘arazli maqsadlarsiz egallagan bo‘lsa (masalan, boshqa shaxsning nomidan oylik ish haqini unga berib qo‘yish maqsadida olish), qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi.

“Bu o‘rinda o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadi nafaqat mulkiy bitimlarni amalga oshirishdan oldin, balki ularni bajarish jarayonida ham paydo bo‘lishi mumkinligi e’tiborga olinishi lozim. Bayon qilinganlardan kelib chiqib, uzrli sabablarga ko‘ra qarzni o‘z vaqtida qaytarmagan va o‘zganing mulkini tekinga qo‘lga kiritish maqsadi bo‘lmagan shaxsning harakatini firibgarlik deb baholab bo‘lmaydi” [3].

Firibgarlik jinoyatining subyekti 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘la oladi. Sud-tergov amaliyotida firibgarlikni o‘g‘irlikdan farqlashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Firibgarlikni sodir etishda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish usuli bo‘lib xizmat qiladi, o‘g‘irlik sodir etishda aldashni qo‘llash o‘g‘irlanadigan narsani qo‘lga tushirishni yengillashtirish vositasi hisoblanadi. Firibgarlik sodir etilganda jabrlanuvchi shaxs mulkni yoki mulkiy huquqni firibgarga o‘z ixtiyori bilan topshiradi, o‘g‘irlikda esa aybdor shaxs uni mulk egasining yoki mulk kimning ixtiyorida turgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning ruxsatisiz yashirin ravishda talon-toroj qiladi. Faqat o‘zganing mulkigina o‘g‘irlik predmeti bo‘lishi mumkin, firibgarlik predmeti esa o‘zganing mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqi ham bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) ancha miqdorda;

ISSN 3030-3230

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) ko'p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

v) xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa.

Sharhlanayotgan moddaning 4-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) juda ko'p miqdorda;

b) o'ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 5-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, agar ayblanuvchi yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplagan taqdirda, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo'llanilmaydi. Jinoyat kodeksida moddiy zarar qancha miqdorda qoplanishi lozimligi ko'rsatilmagan, biroq mohiyatidan moddiy zarar to'la hajmda qoplanishi kelib chiqadi.

Keyingi paytlarda aholi o'rtasida turli firibgarlik holatlari ko'p uchramoqda. Bunday firibgarliklar nafaqat shaxs moddiy qimmatliklariga, balki fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda erkinliklarining poymol bo'lishiga olib kelmoqda.

Firibgarlikka qarshi kurashda barchamiz ega bo'lgan eng katta qurol bu bilimdir.

Har qanday jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali uslubi bu jinoyatning oldini olish hisoblanadi. Oxirgi yillarda firibgarlik jinoyatining ortib, turli ko'rinishga ega bo'layotganligi ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki firibgarlik jinoyatlarini sodir etish sabablarini aniqlab, unga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganib, jinoyatning oldini olishda ichki ishlar organlari bilan birga barcha jamoatchilik tashkilotlari ham birdek mas'uldir.

Har qanday jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali uslubi bu jinoyatning oldini olish hisoblanadi. Oxirgi yillarda firibgarlik jinoyatining ortib, turli ko'rinishga ega bo'layotganligi ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki firibgarlik jinoyatlarini sodir etish sabablarini aniqlab, unga imkon beragan shart-sharoitlarni o'rganib, jinoyatning oldini olishda Milliy gvardiya, Ichki ishlar organlari bilan birga barcha jamoatchilik tashkilotlari ham birdek mas'uldir.

Kelgusida ushbu turdagi jinoyatni oldini olish maqsadida barcha davlat organlari vakillari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig'ini va hududlardagi profilaktika inspektorlari tomonidan, ma'muriy hududda joylashgan korxona, tashkilot va muassasalar, ta'lim muassasalarida, aholi va keng jamoatchilik o'rtasida firibgarlik jinoyatlarining oldini olish bo'yicha targ'ibot – tashviqot ishlarni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Аннотация. В данной статье представлены научные подходы к факторам, обусловливающим возникновение преступления мошенничества, мерам правовой защиты потерпевших от обманов мошенников и видам наказаний, а также даны выводы и предложения по профилактике таких преступлений.

Ключевые слова: Мошенничество, объект и субъект мошенничества, обман, злоупотребление доверием.

Abstract. This article presents scientific approaches to the factors that cause the origin of the crime of fraud, legal protection measures of victims from fraudsters' deceptions and types of punishments, and gives conclusions and suggestions for the prevention of such crimes.

Key words: Fraud, object and subject of fraud, deception, abuse of trust.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси 168-моддаси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «ўқитувчи» НМИУ, 2007. – Б. 221.

3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. – Б. 119.

UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLAR FAOLIYATINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Jo‘rayev Abdurauf Aliyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada UUAlardan foydalanishni huquqiy tartibga solishga oid dolzarb masalalar ko‘rib chiqilgan. Xususan, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash, ma’lumotlar xavfsizligi, parvozlar xavfsizligini boshqarish kabi huquqiy jihatlar tahlil etilgan. Xalqaro tajriba, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Kanada, Xitoy kabi mamlakatlar qonunchiligi misolida UUA texnologiyalarini tartibga solishning huquqiy modellari va yondashuvlari o‘rganilgan. Muallif UUA texnologiyalarining xavfsiz va samarali qo‘llanilishini ta’minlash uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zaruratini asoslab bergan.**

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchadigan apparatlar (UUA), huquqiy tartibga solish, xalqaro tajriba, xavfsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligi, parvozlar reglamenti, normativ-huquqiy baza, aviatsiya qonunchiligi, UUA monitoringi.

So‘nggi yillarda uchuvchisiz uchadigan apparatlari (UUA) texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ularning turli sohalarda keng qo‘llanilishi hamda huquqiy muhokamalarga sabab bo‘lishi zamonaviy rivojlangan davlatlar uchun muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolik, harbiy va jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishlarida UUAlardan foydalanish davlatlar va jamiyatlar uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning rivojlanishi va amaliyotga joriy etilishi qator huquqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda boshqa tegishli huquqiy me’yorlarga rioya etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

UUAlari texnologiyalaridan foydalanish doirasining kengayishi fuqarolik sohasida qator yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, qishloq xo‘jaligida yer maydonlarini monitoring qilish, ekologik nazoratni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish, jamoat xavfsizligini ta’minlash kabi ko‘plab operatsiyalarda UUAlardan samarali foydalanilmoqda. Bundan tashqari, kuryerlik xizmatlari, havodan suratga olish, ekologik tadqiqotlar hamda baliqchilik faoliyatlarida ham UUAlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Biroq, bunday texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa jamoat xavfsizligi va shaxsiy huquqlarni himoya qilish masalalarida turli huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, UUAlari yordamida amalga oshirilayotgan monitoring jarayonlari va axborot to‘plash faoliyati xususiy shaxslarning huquq va erkinliklariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan qo‘llanilishi ham muayyan huquqiy reglamentatsiyani talab etadi. Shu bois, UUA texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning huquqiy maqomi va foydalanish shart-sharoitlarini aniq belgilash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada M. Finn UUAlarning ommaviy qo‘llanishi shaxsiy hayot daxlsizligiga jiddiy xavf tug‘dirayotganini ta’kidlab, har bir parvoz faoliyatini qat’iy tartibga solish zarurligini ko‘rsatadi [1]. Uning fikricha, aynan huquqiy nazoratning kuchsizligi jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirishi mumkin.

Aksincha, D. Bernstein UUA texnologiyalarini haddan ortiq tartibga solish innovatsion rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblaydi. Uningcha, ortiqcha cheklovlar sohadagi texnologik yutuqlarning sustlashuviga olib keladi va bu esa iqtisodiy raqobatbardoshlikni pasaytiradi [2].

X. Lee esa UUA xavfsizligini ta’minlashda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikni muhim omil sifatida ko‘radi [3]. Bu yondashuv texnologiyalarni xavfsiz va samarali

ISSN 3030-3230

integratsiya qilishga xizmat qilishi mumkin.

Bizningcha, Finnning shaxsiy hayotni himoya qilish haqidagi pozitsiyasi e'tiborga loyiq va dolzarb. Chunki aynan ushbu jihat hozirgi kunda asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, Bernsteinning "ortiqcha tartibga solish" haqidagi fikri har doim ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Aksincha, real xavfsizlik tahdidlari mavjud bo'lgan sharoitda normativ-huquqiy bazani kuchaytirish va faoliyatni qat'iy tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Lee tomonidan ilgari surilgan davlat-xususiy hamkorlik modeli esa bizning umumiy yondashuvimizga to'la mos tushadi va amaliyotda samarali natija berishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda UUAlari texnologiyalarining keng joriy etilishi bir qator muhim omillar bilan bog'liqdir. Jumladan, qonunchilikni takomillashtirish va liberallashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, UUA mahsulotlari, materiallar, komponentlar, texnologiyalar va xizmatlarni ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarning uyg'unligi texnologiyaning xavfsiz va samarali rivojlanishini ta'minlab, iqtisodiy hamda ilmiy sohalarda yangi imkoniyatlar ochilishiga zamin yaratmoqda[4].

Xususan, AQShda Federal Aviation Administration (FAA) tomonidan 14 CFR Part 107 qoidalari asosida kichik dronlardan tijorat maqsadida foydalanish tartibi belgilangan bo'lib, ularning parvozi, ro'yxatga olinishi va xavfsizlik choralariga oid normalar qat'iy tartibga solingan[5]. Yevropa Ittifoqida esa Yevropa Aviatsiya Xavfsizligi Agentligi (EASA) tomonidan 2021 yildan boshlab umumiy UUA reglamenti kuchga kirgan bo'lib, barcha a'zo davlatlar uchun yagona qoidalar ishlab chiqilgan[5].

Shuningdek, Rossiya va Belarus tajribalari ham ushbu sohaga oid normativ- huquqiy bazani liberallashtirish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yilganini ko'rsatadi[7].

Bundan tashqari, Rossiya federatsiyasi va Ukraina o'rtasidagi ziddiyat ushbu sohaning rivojlanishini kuchaytirdi. 2023 - yil 21 - iyunda **"*Rossiya Federatsiyasida 2030 - yilgacha va 2035 - yilgacha bo'lgan istiqbolda uchuvchisiz aviatsiyani rivojlantirish strategiyasi*"**[8] qabul qilinishi ushbu sohaning iqtisodiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanishini belgilab berdi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida jinoiy javobgarlik faqat noqonuniy parvoz sog'liqqa jiddiy zarar yetkazish va odamning o'limiga olib kelgan taqdirda ta'minlanadi. Boshqa barcha holatlarda faqat jarimalar shaklida ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, huquqiy tartibga solish jarayonini tahlil qilishda turli mamlakatlarda UUAlariga bo'lgan yondashuvlar va ularning robotlashtirish darajasi inobatga olingan. Xalqaro Robototexnika Federatsiyasining (IFR) 2022-yilgi hisobotiga ko'ra, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar sanoat robototexnikasi va UUA texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallamoqda[9]. Shuningdek, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya va Italiya kabi mamlakatlarda UUA texnologiyalari bo'yicha faoliyat yurituvchi yirik konsalting kompaniyalarning hisobotlari ushbu mamlakatlarning innovatsion salohiyati va tartibga solish mexanizmlarining nisbatan ilg'or ekanini ko'rsatadi[10].

Ushbu mamlakatlar qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, UUA texnologiyalarini huquqiy tartibga solishda shartli ravishda quyidagi model kuzatiladi. Avvalo, havo makonidan foydalanish bo'yicha asosiy normativ-huquqiy hujjat — ya'ni aviatsiya to'g'risidagi qonun, fuqaro aviatsiyasi qoidalari yoki aviatsiya reglamentlari — asosiy konseptual apparatni, UUAlarning tasnifi, ularning tayinlanishi va ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, UUAlarining parvoz rejalarini kelishish, ruxsatnomalar olish (masalan, parvozdan foydalanish sertifikati) kabi individual tartibotlar alohida normativ hujjatlar, xususan, aylanmalar, texnik reglamentlar yoki aviatsiya xavfsizligi standartlari orqali belgilanadi. Mazkur model ko'plab rivojlangan davlatlarda — jumladan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Yaponiya va Rossiya tajribasida keng qo'llaniladi.

Xorijiy davlatlar UUA sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarni faol ishlab chiqmoqdalar. Masalan, AQSh 2014 - 2038 - yillar uchun mudofaa vazirligining uchuvchisiz tizimlari uchun budjetni moliyalashtirish bo'yicha yo'l xaritasini tasdiqladi[11]. Unga ko'ra AQSh o'zining uchuvchisiz imkoniyatlari va tizimlarini

yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda, ular barcha jangovar sohalarni, shu jumladan kiber makonni qamrab oladi (**shu jumladan armiyada alohida jangovar bo‘linma tashkil etish doirasida**).

Asosan, yuqoridagi mamlakatlar UUAni ishga tushirish nuqtai nazaridan shunga o‘xshash qoidalarni nazarda tutadi (og‘irligi 150 gr dan ortiq bo‘lgan UUAni ro‘yxatdan o‘tkazish (hisobga olish) zarurati (Rossiyada bo‘lgani kabi); UUA parvozining balandligini cheklash; UUAni faqat ruxsat etilgan joylarda ishga tushirish imkoniyati va boshqalar[12].)

Qonunchilikdagi farqlarni tahlil qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, Kanada aviatsiya qoidalari, agar UUA ishlab chiqaruvchisi kerakli bayonotlarni bergan bo‘lsa va operator parvoz malakasini olgan bo‘lsa, odamlar ustidan parvoz qilishga imkon beradi. Xitoy hukumati uchish zonasini avtomatik ravishda cheklash, xususan, aeroportlar yaqinida uchishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun UUA dasturlash normasini qonuniylashtirishga harakat qilmoqda.

Davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan yondashuvlarga qarab, ularni **3 ta guruhga** bo‘lish mumkin:

1. Siyosati UUAdan erkin foydalanishga imkon beradigan davlatlar (Chexiya, Kanada, Marokash, Janubiy Afrika, Indoneziya, Fransiya, Italiya);

2. UUAni ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash va sertifikatlash sharti bilan foydalanishga ruxsat beruvchi davlatlar (Xitoy, AQSh, Singapur, Rossiya, Avstraliya, Avstriya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Tailand, Turkiya);

3. Qonunchiligi UUAni (Ozarbayjon, Armaniston, Vetnam, Peru, Misr, Eron, Suriya, Qirg‘iziston, Senegal) sotib olish, olib kirish va undan foydalanishni butunlay taqiqlovchi qoralash.

Rossiyada bir qator normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi: 2019 - yil sentyabr oyida davlat Dumasi UUAdan foydalanishni tartibga solishni takomillashtiradigan va ushbu masalada huquqni muhofaza qilish organlarining vakolatlarini aniqlashtiradigan qonun loyihasini qabul qildi va 2023 - yilda “Rossiya Federatsiyasida uchuvchisiz aviatsiyani 2030 - yilgacha va 2035 - yilgacha bo‘lgan istiqbolda rivojlantirish strategiyasi”[13].

Robotlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar qonunchiligini va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini qiyosiy tahlil qilib, mamlakatimizda uchuvchisiz uchish apparatlari sohasida asossiz qattiq cheklovlar mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Xususan, O‘zbekistonda 15.11.2022 - yildagi Vazirlar Mahkamasining №658-sonli “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni “tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [14] qarorida nafaqat UUAdan ruxsatsiz foydalanganlik uchun, balki uchuvchisiz uchish apparatlarini noqonuniy olib kirish, sotish, sotib olish, saqlash yoki ulardan foydalanganlik uchun ham qattiq jazo nazarda tutilgan, UUAdan foydalanishga faqat ayrim idoralarga ruxsat berilgan.

Amaldagi qat’iy cheklovlar O‘zbekiston Respublikasida UUAlari ko‘rinishidagi robotlashtirilgan tizimlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat UUA texnologiyalarining turli iqtisodiy tarmoqlarga joriy etilishini sekinlashtiradi va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Holbuki, dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida UUA texnologiyalari orqali yirik monitoring tizimlarini optimallashtirish, vaqt va resurslarni tejash, ba’zi hollarda esa aholining xavfsizligini ta’minlashda muhim natijalarga erishilmoqda.

UUA yordamida geoinformatsion monitoring, favqulodda vaziyatlarda tezkor javob choralari, transport va logistika tizimlarini avtomatlashtirish hamda xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha ilg‘or yechimlar joriy qilinmoqda. Bu esa ushbu texnologiyaning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tasdiqlaydi hamda ularni rivojlantirishga oid yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, uchuvchisiz uchadigan apparatlar texnologiyalarining jadal rivojlanishi fuqarolik va harbiy sohalarda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu jarayon bilan birga shaxsiy daxlsizlik, ma’lumotlar xavfsizligi va huquqiy tartibga solish kabi muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bu borada muvozanatli yondashuvni tanlab, qonunchilik asoslarini takomillashtirmoqda. O‘zbekistonda esa mavjud keskin cheklovlar innovatsion taraqqiyotga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun UUA texnologiyalarining salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun huquqiy asoslarni qayta ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va mavjud

ISSN 3030-3230

holatni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Yuqorida ko‘rsatilgan xorijiy davlatlar tajribasi asosida, O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlar (UUA) bo‘yicha maxsus qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Ushbu qonun UUAlarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish va rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy jihatlarni qamrab olishi lozim. Xususan, operatorlarni litsenziyalash, UUAlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va parvozga yaroqlilikni sertifikatlash, parvoz vaqti hamda hududlarini belgilash, majburiy sug‘urtalash, xavfsizlik funksiyalari (GPS, favqulodda o‘chirish tizimi, shoshilinch aloqaga mo‘ljallangan kontakt raqami) kabi masalalarni ham yuridik jihatdan tartibga solishi kerak.

2. O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz aviatsiya tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyani ishlab chiqish zarur. Ushbu konsepsiyada uchuvchisiz uchadigan apparatlar (UUA) sohasida davlat boshqaruvi vazifalari, milliy ustuvor yo‘nalishlar, shuningdek, texnologik, ilmiy-tadqiqot, kadrlar tayyorlash va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish masalalari kompleks tarzda yoritilishi kerak.

Konsepsiyada og‘irligi 500 grammgacha bo‘lgan UUA vositalaridan fuqarolik maqsadlarida litsenziyasiz foydalanish tartibini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, davlat chegaralarini himoya qilish, strategik va toifalangan obyektlar hududida UUA vositalarini qo‘llashga oid alohida, yopiq tartibdagi me’yorlar ishlab chiqilishi lozim.

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga uning dekriminallashtirilishi bo‘yicha 244^4-moddaga o‘zgartirishlar kiritsin, xususan, UUAni noqonuniy olib kirish, sotish, sotib olish, saqlash (faqat UUAdan noqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlikni o‘zgartirish kiritish).

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar kiritish, xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 116^4-moddasini quyidagi mazmunda to‘ldirish: “Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni ruxsatsiz olib kirish, sotish, olish va saqlash uchun eng kam ish haqining 20 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki uchuvchisiz uchadigan apparatni musodara qilib, 15 sutkagacha ma’muriy qamoqqa olish nazarda tutilsin. Qoidabuzarlik takroran sodir etilgan taqdirda, eng kam ish haqining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi”.

5. Dron operatorlari uchun odob-axloq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarorini qabul qilish.

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы правового регулирования эксплуатации БПЛА, в частности, обеспечение неприкосновенности частной жизни, безопасность данных и контроль за безопасностью полетов. Анализируется международный опыт, включая законодательные и нормативные подходы таких стран, как США, Европейский союз, Россия, Канада и Китай. Автор обосновывает необходимость совершенствования нормативно-правовой базы для безопасной и эффективной интеграции БПЛА в различные сферы общества.

Ключевые слова: Беспилотные летательные аппараты (БПЛА), правовое регулирование, международный опыт, безопасность, неприкосновенность частной жизни, регулирование полетов, нормативно-правовая база, авиационное право, мониторинг БПЛА.

Abstract. This article examines the pressing legal issues surrounding the regulation of UAV operations, particularly in relation to privacy protection, data security, and flight safety. It analyzes international experiences, focusing on the legal frameworks and regulatory approaches adopted by countries such as the United States, the European Union, Russia, Canada, and China. The study argues that the development of a comprehensive legal framework is essential to ensure the safe and effective integration of UAV technologies into various sectors of society.

Key words: Unmanned Aerial Vehicles (UAV), legal regulation, international experience, safety, privacy, flight regulation, legal framework, aviation law, UAV monitoring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Finn, M. (2020). Drones and Privacy: Regulating the Air. Oxford University Press. https://www.emerald.com/insight/content/doi/.

2. Bernstein, D. (2019). Innovation and Regulation in Drone Technology. Harvard Law Review. https://journals.library.columbia.edu/index.php/.

3. Lee, H. (2021). Public-Private Partnership in UAV Safety Management. Journal of Air Law and Commerce. https://scholar.smu.edu/jalc/.

4. OECD (2021). The Impact of Drones on Urban Life and Public Safety. https://www.oecd.org.

5. Federal Aviation Administration (FAA). Summary of Small Unmanned Aircraft Rule (Part 107). https://www.faa.gov/uas.

6. European Union Aviation Safety Agency (EASA). Drones - Regulatory Framework. https://www.easa.europa.eu.

7. Постановление Совета министров Республики Беларусь от 16 августа 2016 г. № 636 Кодекс Республики Беларусь «Об административных правонарушениях» от 6 января 2021 г. Воздушный кодекс РФ от 19.03.1997 N 60-ФЗ (с последней редакцией от 01.04.2020). Кодекс об административных правонарушениях (ст. 11.4). ПП РФ от 19.03.22.г. № 415 «О внесении изменений в ПП РФ от 25 мая 2019 года № 658»

8. Putin Orders Taking Measures to Integrate Drones Into Russia's Single Airspace – Kremlin. 14.06.2023. https://sputnikglobe.com/20230614/putin-orders-taking-measures-to-integrate-drones-into-russias-single-airspace---kremlin-1111144959.html.

9. International Federation of Robotics (IFR). (2022). World Robotics Report 2022. https://ifr.org.

10. McKinsey & Company (2022). Commercial Drones Are Here: The Future of Unmanned Aerial Systems. https://www.mckinsey.com.

11. DTIC ADA592015: Unmanned Systems Integrated Roadmap, FY2013-2038 by Defense Technical Information Center https://archive.org/details/DTIC_ADA592015.

12. Jamoat xavfsizligi universitetining "К вопросу развития системы применения беспилотных летательных аппаратов" nomli axborot-tahliliy ma'lumotnomasi 3-ilovasi. Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, Axborot-tahliliy xujjatlar to'plami №4.2. 2023-yil.

13. Russian Government Approves Strategy for Development of Unmanned Aircraft Until 2030, 28.06.2023. https://sputnikglobe.com/20230628/.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.11.2022 yildagi 658-son "O'zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/ru/docs/6284990.

ISSN 3030-3230

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA PROFAYLING TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TAHLILI

Ikanov Azamat Agzamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i,
yuridik fanlar boyicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Annotatsiya. **Mazkur maqola ALM-202310202738-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy grant loyihasi doirasida bajarilgan bo‘lib, unda jamoat xavfsizligini ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llashning nazariy va metodologik masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika, MDH hamda mamlakatimiz olimlarining ushbu sohadagi izlanishlari va qarashlariga alohida e’tibor qaratilgan.**

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligini ta’minlash, profayling, metod, metodologiya, noverbal va tezkor diagnostika, baholash va prognoz qilish, insonning emotsional holati, so‘rov.

Hozirda jamoat xavfsizligini ta’minlashni ilmiy faoliyatning alohida sohasi sifatida qayd etgan holda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, jamoat xavfsizligi muammolarini ilmiy yechimini topish alohida muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ko‘p marotaba ilmning ahamiyati haqida to‘xtalib “Bilim ko‘p bor aytganimdek, o‘tda yonmaydi, suvda cho‘kmaydi. Yakka-yu yagona najotimiz – ilm” – deb ta’kidlaganlar[1].

Shu bois, jamoat xavfsizligini ta’minlashda profayling texnologiyasi, uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash kabi zamonaviy yondashuvlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bu borada profayling texnologiyasining nazariy va metodologik ahamiyati ham muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, qonunga zid harakatlarning oldini olishda samarali vositalardan biri bu profayling (inglizcha “profile” – profil) hisoblanadi. Bu texnologiya – huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi bo‘lib, ya’ni noverbal va tezkor diagnostika asosida potensial xavfli shaxslarni aniqlash orqali profil yaratishdir.

Profaylingni yanada batafsilroq, insonning xatti-harakatini baholash va prognoz qilish texnologiyasi sifatida qarash mumkin. Bunda vegetativ asab tizimi faoliyati, emotsional holatlar, nutq xususiyatlari, noverbal ifodalar, tashqi ko‘rinish va boshqa informativ belgilar asos qilib olinadi.

Profaylingni ilmiy adabiyotlarda ko‘pincha metod, metodlar tizimi, texnologiya yoki ilmiy metodika deb atashadi. Bundan tashqari, profaylingga “psixologlar amaliy faoliyatining yangi yo‘nalishi” (A.Poteryaxin, 2017) va “shaxsning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari” (R.Ressler, 1992) kabi yondashuvlar ham kuzatiladi[2]. O‘z navbatida, K. va S. Dern, A. va U. Xorn hamda R. Kozislar profaylingni “murakkab va ilmiy asoslangan jinoiy amaliyot” deb hisoblashgan[3].

“Profayling” tushunchasining metodologik ildizlari G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika psixologik maktablariga borib taqaladi. U asosan neobixevioristik yondashuvga tayanadi (P. Ekman, O. Fray, D. Matsumoto, D. Morriss, R. Plutchik, J. Hesset, D. Efron, L. Laundes, V.F. Birkenbil, M. Nepp, D. Hall, K. Izard, F. Farelli, D. Brandsma, D. Navarro, M. Karlins va boshqalar). Rossiyalik psixologlar ham profaylingning amaliy xarakterologiyasi, insonning emotsional holatini baholash va jinoyatga aloqador shaxslarning xatti-harakatlarini aniqlash kabi yo‘nalishlariga katta hissa qo‘shgan (A.Ya. Brodetskiy, A.P. Egides, E.P. Ilyin, A.R. Luriya, V.V. Ponomarenko, P.V. Simonov, Yu.V. Shcherbatyx, V.M. Statniy, Ye.V. Spiritsa, A.M. Ivanova, A.A. Taganova va boshqalar). Mamlakatimizda profaylingni amaliy va nazariy jihatlari rivojlanishiga M.X. Rustambayev, M.S. Qodirov, B.N. Sirliyev, N.I. Xalilova, O.Q. Amirova, D.M. Mirazov, A.A. Ikanov, A.O. Baxriddinov va boshqalar hissa qo‘shgan.

Profaylingni dastlabki shakllanish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu texnologiya jinoyatlarga aloqador shaxslarni aniqlash usuli sifatida ilk bor 1970-yillarning oxirida Isroilning "El-Al" aviakompaniyasi tomonidan qo'llanilgan. Ushbu texnologiya yo'lovchi tashishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, parvoz oldidan tekshiruv jarayonida qo'llanilgan.

Asosan, bu oddiy savollarga yo'lovchilarning noodatiy reaktsiyalarini aniqlashga qaratilgan savollar majmuasidan iborat edi. Bu texnologiya bir nechta asosiy psixologik xatti-harakat stereotiplari (pattenlari)ga asoslangan.

Yuridik fanlari doktori, dotsent L.M. Isayeva xorijiy mamlakatlarda profayling texnologiyasini qo'llash tajribasini o'rganar ekan, Isroilda profayling konsepsiyasining asosida "har bir yo'lovchi terrorchi bo'lishi va har qanday buyum portlovchi qurilma yoki qurol bo'lishi mumkin" degan tamoyil yotganini ta'kidlaydi. Shu bois, mazkur texnologiya doirasida o'tkaziladigan barcha tadbirlar ushbu taxminni tasdiqlash yoki rad etishga qaratilgan. Bunda nafaqat uchib kelayotgan, balki uchib ketayotgan yo'lovchilar ham nazarda tutiladi. Boshqa shaxslar bu jarayonga jalb etilmaydi, shuning uchun so'rov parvozga ro'yxatdan o'tish vaqtida yoki undan keyin o'tkaziladi[4].

1984-yilda bu metodika ingliz tilidagi versiyada ICTS kompaniyasi tomonidan qayta ishlab chiqildi va ko'plab Yevropa mamlakatlari hamda AQSHda aviatsiya xavfsizlik xizmatlari tomonidan keng qo'llanila boshlandi.

Shu bilan birga, AQSHlik psixolog Pol Ekman tomonidan tashkil etilgan "Paul Ekman Group" kompaniyasi insonning emotsional holatini aniqlashga qaratilgan qator kompyuter dasturlarini ishlab chiqdi. Pol Ekman tomonidan yaratilgan maxsus dasturlar AQSH aeroportlarida va davlat xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi boshqa tuzilmalar tomonidan faol qo'llanila boshlandi. Profayling bo'yicha xodimlarni tayyorlashda Pol Ekman o'zi ishlab chiqqan "Yuz harakatlarini kodlash tizimi" (FACS – Facial Action Coding System) asosida simulyatorlardan foydalangan. Bu tizimda inson yuzidagi ifodalar, ya'ni kuzatuv obyektidan olinadigan ma'lumotlar batafsil keltirilgan.

So'rov ssenariysi (script) va mikroifodalar nazariyasining birlashuvi profaylingni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga bosqichma-bosqich integratsiya qilinishini ta'minladi.

Profaylingdagi asosiy ko'nikmalardan biri bu – noverbal signallarni aniqlash ko'nikmasidir. Noverbal kommunikatsiya, ya'ni tana tili, og'zaki nutq kabi axborot uzatish vositasi bo'lib, yuz ifodalari, imo-ishoralar, teginish, tana harakatlari, holatlar, tashqi ko'rinish detallari (kiyim-kechak, bezaklar, soch turmagi, tatuirovkalar) va ovozning ohangi, tembri va balandligi (lekin so'zlarning ma'nosi emas) orqali amalga oshiriladi. Shaxslararo muloqotda axborotning 60-65 foizi aynan noverbal xatti-harakatlar orqali uzatiladi.

Noverbal xatti-harakatlarning eng ifodali elementlari emblema deb ataladi (ular insonning asl ichki holatini to'g'ri aniqlash imkonini beradi). Insonlar ko'pincha noverbal kommunikatsiya vositalaridan foydalanganlarini anglamaydilar, shuning uchun tana tili ko'pincha so'zlardan ko'ra rostgo'yroq bo'ladi, chunki so'zlar ongli ravishda kerakli natijani olish uchun tanlanadi. Shu bois, odamlarni diqqat bilan kuzatish ularning noverbal emblemlarini samarali "o'qish" va tahlil qilishda asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqotchi J. Navarroning ta'kidlashicha, "insonlarni o'qishda faqat ko'rish emas, barcha besh sezgi organidan foydalanish zarur" [5].

Rossiyalik mashhur psixolog A.Ya. Brodetskiy, "Sukut alifbosi" asarida insonning asosiy ifodali harakatlarini tasvirlar ekan, Ch. Darvinga tayanadi. Ch. Darvin imo-ishoralar harakatlarining kelib chiqishi yoki rivojlanishini uchta aniqlangan prinsip asosida tushuntiradi:

1. Oddiy harakatlarning odatga aylanishi. Agar qandaydir his-tuyg'uni qondirish uchun foydali bo'lgan harakatlar tez-tez takrorlansa, ular shu qadar odat tusiga kiradiki, biz bu harakatlarni o'sha istak yoki his-tuyg'uni hatto eng yengil shaklda his qilganimizda ham bajaraveramiz, ularning foydali yoki foydasizligidan qat'i nazar.

2. Antiteza prinsipi. Qarama-qarshi impulslar ta'sirida ixtiyoriy ravishda qarama-qarshi harakatlarni bajarish odati butun hayotimiz tajribasi davomida mustahkam o'rnashib qoladi. Shuning uchun, agar biz biror ruhiy holatimizda ma'lum harakatlarni doimiy ravishda bajarsak, unda qarama-qarshi kayfiyat yuzaga kelganda, bizda bevosita kuchli ravishda aynan qarama-qarshi harakatlarni amalga oshirishga moyillik paydo bo'ladi, bu harakatlar foydali bo'ladimi yoki yo'qmi – muhim emas.

ISSN 3030-3230

3. Qo‘zg‘algan asab tizimining bevosita ta’siri. Qo‘zg‘algan asab tizimi tana ustidan ixtiyorsiz ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ch. Darvin ta’kidlashicha: “agar qandaydir harakatlar doimiy ravishda ma’lum ruhiy holatlar bilan birga yuzaga kelsa, biz ularni ifodali harakatlar sifatida darhol qabul qilamiz”.

Profayling tizimi yangi soha bo‘lganligi uchun uning bir necha bosqichlarga bo‘linishi yuzasidan ushbu yo‘nalishni o‘rganayotgan olimlar turli fikr-mulohaza yuritadilar. Jumladan, AQSh va Buyuk Britaniya mutaxassislari profayling texnologiyasini qo‘llashning kuzatish va so‘rov bosqichlariga bo‘lib, ularni alohida-alohida texnikasini o‘rganadilar.

Rossiyalik mutaxassislar profaylingni amalga oshirishni bir necha bosqichlarga bo‘lishni nazarda tutadilar. Lekin mazkur bosqichlar orasida ham yuqoridagi kuzatish va so‘rov bosqichlari o‘rin olgan. Jumladan, mazkur bosqichlar: dastlabki kuzatuv; shaxsiy va yuk hujjatlarini tekshirish; so‘rov; shubhali belgilar bo‘yicha savollar berish; boshqa organlar bilan hamkorlikda keyingi kuzatuvdan iborat[6].

Umuman olganda, profayling texnologiyasining ilmiy tadqiqotlari va nazariy asoslarini tahlil qilish, bir tomondan, keng ko‘lamli tadqiqotlar va amaliy qo‘llanilishni, shu bilan birga, ochiq manbalarda yoritilishi sust ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu holat, asosan, huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida xavfsizlik tizimlarida profayling texnologiyasining qo‘llanilishi bilan bog‘liq, bu esa maxfiylik va sir saqlash darajalarini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, ko‘plab nashrlar mohiyatini, metodologiyasini va batafsil izlanishlarni ochib bermaydi, aksariyat hollarda esa tavsifiy xarakterga ega.

Shu bilan birga, ingliz tilidagi resurslarda ba’zi bir foydali ilmiy-nazariy ma’lumotlar mavjud bo‘lib, bu ba’zi ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda profayling texnologiyasining rivojlanishi va qo‘llanilishini o‘rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlillarimizga ko‘ra, rus tilida so‘zlashuvchi mualliflar orasida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga eng ko‘p qiziqishni xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi olimlar ko‘rsatmoqda, bu esa huquqni muhofaza qilish organlarining profayling yo‘nalishiga bo‘lgan katta qiziqishining ko‘rsatkichidir.

O‘zbekistonda profayling sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning tarqoq ekanligiga qaramay, bu yerda bir o‘ziga xoslik seziladi, bu sohada huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mualliflar tomonidan ko‘proq qiziqish kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, ularning ushbu texnologiyani talqin qilishlarini va uning xavfsizlikni ta’minlash jarayonida qo‘llanilishi zarurligini ko‘rib chiqish qiziqarli bo‘ladi.

Xususan, M.S. Kodirov profayling sohasidagi o‘z tadqiqotlarida g‘arbiy tadqiqotchilardan tashqari, “7 radikal” nazariyasining yaratuvchisi V.V. Ponomarenkoni ham faol iqtibos qiladi, bu esa o‘z navbatida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida zarur bo‘lgan ushbu sohadagi o‘rganishlarning o‘zaro bog‘liqligiga ishora qiladi.

O‘z navbatida, D.A. O‘rmonov o‘z ishlarida profayling o‘z ichiga tezkor psixodiagnostikani, hissiyotlarni tahlil qilishni, manipulyativ usullarni, gipnotexnologiyani, leksikani, grafologiyani, yuz ifodasini tahlil qilishni, mushaklar faolligini tahlil qilishni va ijtimoiy psixologiyani o‘z ichiga olishini ta’kidlab, profaylingning fanlararo yo‘nalishiga hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida ushbu texnologiyalarni yanada o‘rganish va qo‘llash zarurligiga urg‘u bergan.

Profayling tizimining elementlariga o‘z ishlarida R. Tazetdinov ham to‘xtalib o‘tgan, u ushbu tizimni xizmat vazifalarini bajarish paytida huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan xodimlar va harbiy xizmatchilarni birlamchi aniqlash uchun ishlatishni taklif qilgan. Bundan tashqari, uning maxsus bo‘linmalarning xodimlarini aniq vazifalarni bajarishga tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli tezkor-psixologik tayyorgarlik bo‘yicha mualliflik kursida garovga olingan shaxsni jinoyatchidan ajratish orqali shaxs profaylingi elementlaridan foydalanilgan.

Shuningdek, R. Tazetdinov o‘zining “Maxsus bo‘linmalarning harbiy-psixologik tayyorgarligini takomillashtirish” nomli monografiyasida odamlar gavjum joylarda huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash uchun sun’iy intellektdan foydalangan holda profayling dasturini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlagan[7].

Yuqoridagiga o‘xshash muammolar muallifning “Suisidal terrorizmning kriminologik va profilaktik jihatlari” nomli dissertatsiya ishida ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda jamoat xavfsizligini ta’minlashda, xususan transport obyektida, ommaviy tadbirlarda, aholi gavjum joylarda suitsidal terrorchilik harakatlarini oldini olishda xudkush-terrorchini barvaqt aniqlash masalalari muhokama qilingan[8].

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llashning nazariy va metodologik asoslari shakllanish jarayoni davom etmoqda. Shu bois, ilmiy jamoatchilikda profaylingdan foydalanish masalasi, jamoat xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslari rivojlanishi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Аннотация. Данная статья выполнена в рамках практического грантового проекта №ALM-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности», в котором были изучены теоретические и методологические вопросы применения технологии профайлинга в обеспечении общественной безопасности. Также особое внимание уделено исследованиям и взглядам ученых Западной Европы и Северной Америки, СНГ и нашей страны в этой области.

Ключевые слова: Обеспечение общественной безопасности, профайлинг, метод, методология, невербальная и оперативная диагностика, оценка и прогнозирование, эмоциональное состояние человека, опрос.

Abstract. This article was written within the framework of the practical grant project No. ALM-202310202738 “Development of innovative profiling technology for use in public safety activities”, which studied the theoretical and methodological issues of using profiling technology in ensuring public safety. Special attention is also paid to the research and views of scientists from Western Europe and North America, the CIS and our country in this area.

Key words: Ensuring public safety, profiling, method, methodology, non-verbal and operational diagnostics, assessment and forecasting, human emotional state, survey.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev: Yakkayu yagona najotimiz – ilm. https://president.uz/uz/ lists/view/4659
2. Vetrova T.V., Statny V.M. Place of profiling in the System of human sciences. Types and industries of profiling (Место профайлинга в системе наук о человеке. Виды и отрасли профайлинга). // International journal of Professional Science, №12, 2019. P.13.
3. Dern, H., Dern, C., Horn, A., & Horn, U., 2009. The fire behind the smoke: A reply to Snook and colleagues // Criminal Justice and Behavior. - 2009. - № 36 (10). - P. 1085-1090.
4. Исаева Л.М. Профайлинг как современная технология предотвращения противоправных действий на транспорте // Профессионал №6, 2012. С.11.
5. Наварро Дж., Карлинс М. Я вижу, о чём вы думаете / D. Navarro, M. Karlins; пер. с англ. О.Г. Белошеев. – Минск: «Попурри», 2009. С.6.
6. Qodirov M.S. Bojxona xizmati xodimlarida profayling asosidagi kasbiy kompetensiyalar shakllanish xususiyatlari // O‘zbekiston milliy universiteti, ps.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – T.: 2022, 54-55 b.
7. Тазетдинов Р.Р., Бахриддинов А.О., Йўлдошев Ж.Н. Изучение теоритических основ применения технологии профайлинга в деятельности по обеспечению общественной безопасности // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi | 2024 №4 (63), С.174.
8. Ikanov A.A. Suisidal terrorizmning kriminologik va profilaktik jihatlari // O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, y.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – T.: 2023, 155 b.

ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARINI RIVOJLANISHI

Jo‘rayev Muhiddin Utkurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tadqiqotchisi
yuridik fanlar boyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Mazkur maqolada bugungi kunda jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni qonun bilan tartibga solinishi, jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual asoslarini rivojlantirish masalalari, qonun loyihalari va undagi tafovutlar hamda uning yechimlari to‘g‘risidagi masalalar bayon qilingan.**

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, qonun, loyiha, konsepsiya, tinchlik, osoyishtalik, milliy manfaatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev 2019-yilning 10-yanvar kuni Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-ichki ishlar bo‘limiga tashrif davomida “Tinchlik va sog‘likni ta’minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz” deb ta’kidlagan edilar.

Darhaqiqat tinchlik va osoyishtalikni ta’minlanishi ulkan maqsadlarni amalga oshirish uchun poydevor hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni qonun bilan tartibga solinishi jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual asoslarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Olimlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni qonunosti hujjatlari bilan tartibga solish amaliyotini bekor qilish taklif etilgan.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual va ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi xizmati xodimlarining fikrlarini o‘rganish uchun o‘tkazilgan anketa so‘rovlar natijalariga ko‘ra, respondentlarning 97 foizi mazkur taklifni qo‘llab-quvvatlashgan.

“Konstitutsiyamizda belgilangan jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilikni tizimlashtirish jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini oqilona yo‘lga qo‘yish uning nazariy va metodologik asoslari hamda mukammal mexanizmini ishlab chiqilishiga xizmat qiladi” [2].

“Shaxs xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlar va huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf qilish hamda oldini olish, fuqarolar va tadbirkorlar mulkini muhofaza qilish sohasidagi topshiriqlarni bajarishda shaxsning konstitutsion huquqlari va erkinliklariga rioya etish ustuvor vazifa hisoblanadi.” [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibiyatining jamoat xavfsizligini ta’minlashni bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar hamda ularning ushbu sohadagi vakolatlarini aniq belgilash to‘g‘risidagi topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan [4].

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Buyuk Britaniya, Avstraliya, Singapur, Yaponiya, Gonkong, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ukraina kabi 20 dan ortiq davlatlarning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi tajribalarini o‘rganish asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi (ID-98499) 2024-yil 17-mayda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun joylashtirilgan [5].

O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni loyihasini qabul qilish zarurati quyidagi omillar bilan asoslanadi:

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlashning yagona tizimi mavjud emasligi hamda davlat organlari va tashkilotlarining ushbu sohadagi hamkorligi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi jamoat xavfsizligini ta’minlashni bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar hamda ularning ushbu sohadagi vakolatlarini aniq belgilab berish zaruratini yuzaga keltirgan;

ikkinchidan, “jamoat xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligiga tahdidlar”, “jamoat xavfsizligiga tajovuzlar”, “jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari” kabi tushunchalarga izoh berilmaganligi sababli, ularni amalda qo‘llashda turli tushunmovchilik va talqinlar yuzaga kelayotganligi bois, ushbu tushunchalarga aniqlik kiritish, ularni amalga oshirishning huquqiy

mexanizmlarini mustahkamlab qo‘yish ehtiyoji paydo bo‘lgan;

uchinchidan, aholi gavjum bo‘ladigan joylarning turi, huquqiy shakli va ularga aholining tashrif buyurish darajasi turlichaligi hamda ushbu joylarda jamoat xavfsizligini ta’minlashda bir nechta davlat organlari va tashkilotlari ishtirok etishi bois, ular faoliyatini muvofiqlashtirish va rahbarlik rolini belgilash zarurati vujudga kelgan;

to‘rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar faol qatnashib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari belgilanmaganligi sababli, ushbu masalalarni qonunchilik hujjati darajasida mustahkamlash lozim [6].

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida ular yagona qonun sifatida tizimlashtirilgan.

Ushbu qonun loyihasi 6 ta bob va 43 ta moddadan iborat bo‘lib, unda:

– jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va asosiy prinsiplar belgilab berilgan;

– «jamoat xavfsizligi», «jamoat xavfsizligiga tahdidlar», «jamoat xavfsizligiga tajovuzlar», «jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari», «jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari», «jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar», «jamoat xavfsizligini ta’minlashga bevosita mas’ul bo‘lgan subyektlar», «jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar» hamda «qo‘riqlanishi shart bo‘lgan madaniyat, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi ob’ektlar» tushunchalariga ta’rif berilgan;

– jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi subyektlar ro‘yxati, ularning ushbu sohadagi vakolatlari hamda birgalikdagi faoliyati jarayonida hamkorlik mexanizmlari belgilab berilgan;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining ishtiroki yoritilgan;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda jismoniy va yuridik shaxslarning ishtiroki, ularning huquq va majburiyatlari, fuqarolarni jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilish bo‘yicha cheklovlar o‘rnatilgan;

– kuchaytirilgan qo‘riqlovga olinishi lozim bo‘lgan aholi gavjum bo‘ladigan obyektlarning ro‘yxati maxsus komissiya tomonidan shakllantirilishi va bunday obyektlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha talablar va ularda xizmat o‘tash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanishi belgilangan;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etiladigan kuch va vositalarga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirish va nazorat qilish masalalariga aniqlik kiritilgan;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi fuqarolar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy himoya qilish masalalari belgilab berilgan.

Endi O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni loyihasi normalarining mazmun-mohiyatini tizimli tahlil qilamiz.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish – ushbu qonunning maqsadi etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasida agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida jamoat xavfsizligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Shu soha ekspertlarining ta’kidlashicha, Rossiya Federatsiyasining “Xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni, Tojikiston Respublikasining “Xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni, Qozog‘iston Respublikasining “Qozog‘iston Respublikasining milliy xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni tahlil qilinganida xavfsizlikka quyidagicha ta’rif berilganligini ko‘rishimiz mumkin: xavfsizlik – xavfsizlik obyektlarining (shaxslar, jamiyat va davlat) hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi xavf va tahdidlardan himoya qilish holatidir. Hayotiy muhim manfaatlar – qanoatlantirish shaxs, jamiyat va davlatning izchil rivojlanishini, uning mavjudligi va salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ishonchli ta’minlaydigan ehtiyojlar yig‘indisi sifatida belgilanadi.Xavfsizlik obyektlari deb shaxs, jamiyat va davlat ularning hayotiy muhim manfaatlari ko‘rsatilgan.

Yana bir olim, “Xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining ta’minlaganligini hamda turli xavf va tahdidlardan harbiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalanganlik holatini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisadir”deb ko‘rsatadi [7].

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida milliy xavfsizlikka shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati deya ta’rif berilgan.

Olim M.I.Maxsadovning fikricha: ““Milliy xavfsizlik” tushunchasi o‘z ichiga tashqi siyosatda

ISSN 3030-3230

milliy manfaatlarni himoya qilish, texnogen va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotida shaxs kamoloti va jamiyatning barqaror rivoji singari bir qator sohalarni ham qamrab oladi” [8].

Shaxs, jamiyat va davlat milliy xavfsizlikning obyektlari hisoblanadi, jamoat xavfsizligi obyekti bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari.

Yuqoridagilarga asosan, jamoat xavfsizligi tushunchasini yanada boyitish, ta’rifda xavfsizlikning barcha jihatlarini qamrab olish maqsadida, qonun loyihasining 3-moddasida jamoat xavfsizligi tushunchasini quyidagicha bayon etish maqsadga muvofiq hisoblanadi: «jamoat xavfsizligi – jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlar, tahdidlar va tajovuzlardan himoyalanganlik holati» [9].

Fikrimizcha, ekspertlar tomonidan ilgari surilgan taklifda jamoat xavfsizligiga tahdidlar ularning sodir etilishi bosqichlaridan kelib chiqib «xavf-xatarlar», «tahdidlar» va «tajovuzlar»ga ajratilganligi jamoat xavfsizligi nazariyasi uchun muhim hisoblanadi.

Chuqur ishonch bilan ayta olamizki, ekspertlar tomonidan ilgari surilgan takliflar jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual asoslari rivojlanishiga, xususan, jamoat xavfsizligi tizimini takomillashtirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlarni tizimli rejalashtirishga, jamoat xavfsizligi tizimining nazariy asoslari shakllanishiga, ushbu sohadagi bilimlarni tizimlashtirishga, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar xodimlarida zarur ko‘nikmani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni loyihasining ishlab chiqilganligi O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual asoslarini rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tardi.

Аннотация. В данной статье изложены вопросы правового регулирования отношений в сфере общественной безопасности на сегодняшний день, развития концептуальных основ обеспечения общественной безопасности, законопроектов и их различий, а также их решений.

Ключевые слова: Обеспечение общественной безопасности, поддержание общественного порядка, закона, проекта, концепции, мира, спокойствия, национальные интересы.

Abstract. This article describes the current legal regulation of relations in the field of public safety, issues of developing the conceptual framework for ensuring public safety, draft laws and their differences, as well as their solutions.

Key words: Ensuring public safety, maintaining public order, law, project, concept, peace, tranquility, national interests.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi tizim: hamma xizmatlar bir joyda. https://pm.gov.uz/uz/lists/view/214
2. Xo‘jamberdiev F.K. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonun hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2022. –Maxsus son. – B. 107
3. Джураев Р.М. Реализация гарантий защиты конституционных прав и свобод человека при обеспечении общественной безопасности // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2021. – Maxsus son. – B. 6.
4. «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasiga tushuntirish xati // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/98499 (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 26.11.2024)
5. O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida» Qonuni loyihasi (ID-98499) // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/98499 (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 26.11.2024).
6. «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasiga tushuntirish xati // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/98499 (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 26.11.2024)
7. Djuraev R.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining shakllanishi // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2022. – Maxsus son. – B.23.
8. Maxsadov M.I. O‘zbekiston Respublikasida mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari tahlili // “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2023. – Maxsus son. – B.66.
9. «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi bo‘yicha takliflar // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/98499 (Elektron manbaga murojaat qilingan vaqt: 26.11.2024)

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sharofiddinov Baxodir Baxriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Markaziy devoni Jangovar qo‘llashni rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA yoki dronlar) ning rivojlanish tarixiy bosqichlari, ularning jamoat tartibini saqlashdagi ahamiyati va qo‘llanilish sohasi yoritilgan. Asosiy e’tibor zamonaviy xavfsizlik tizimlarida dronlardan foydalanish imkoniyatlariga, texnologik taraqqiyotlar va istiqbollarga qaratilgan. Maqolada real misollar asosida tahlil qilinib, amaliy qo‘llanma sifatida baholash mumkin bo‘lgan xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchish apparati, jamoat xavfsizligi, dronlar, nazorat, xavfsizlik texnologiyalari, huquqni muhofaza qilish, innovatsiyalar.

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot inson faoliyatining barcha sohalariga kirib keldi. Ayniqsa, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) - xalq tilida “dronlar” sifatida tanilgan qurilmalar, xavfsizlik va nazorat sohalarida muhim vositaga aylandi. Jamoat tartibini saqlashda ular real vaqt rejimida monitoring olib borish, jinoyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish imkonini beradi. Mazkur maqolada ushbu qurilmalar rivojlanishining asosiy bosqichlari va jamoat xavfsizligi sohasidagi o‘rni tahlil qilinadi.



1-rasm. *Real vaqt rejimida monitoring*

Bugungi kun texnologiyalari orasida eng katta ijtimoiy o‘zgarishlar yasagan vositalardan biri bu - uchuvchisiz uchish apparatlaridir [1]. Ular zamonaviy jamoat xavfsizligi tushunchasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Endi xavfsizlik - faqat patrul mashinasining signal chirog‘i yoki posbonlarning tungi navbatchiligi bilan emas, balki havoda jimjimador, biroq jiddiy ko‘zlar bilan harakat qilayotgan qurilma orqali nazorat qilinadi. Bu o‘zgarish nafaqat texnologik yutuq, balki ijtimoiy munosabatlar, shahar madaniyati va jamoat tartibini boshqarish tamoyillarini yangilashga olib keldi.

Jamoat tartibi - bu ko‘rinmas, ammo hayotni barqaror tutib turuvchi mexanizm. Dronlar esa bu ko‘rinmas tartibni ko‘rinadigan, real va aniq ma’lumotlar asosida nazorat qiluvchi vositaga aylandi. Biroq, bu jarayon oddiy bo‘lmadi. Unga olib kelgan yo‘l - texnik taraqqiyot, harbiy innovatsiyalar, iqtisodiy qulayliklar va ijtimoiy ehtiyojlarning kesishgan nuqtasidir.

Rivojlanish bosqichlari - urushlardan tinchlik tarafiga qarab

1. Harbiy tug‘ilish va tahliliy o‘sish

Uchuvchisiz apparatlar ilk bor 20-asr boshida harbiy maqsadlar uchun sinovdan o‘tkazilgan. Ularning maqsadi oddiy edi: inson hayotini xavfga qo‘ymay, razvedka va bombardimon ishlarini bajarish. 1960-1980-yillarda, ayniqsa Isroil, AQSh va SSSR tomonidan ishlab chiqilgan dronlar [2], o‘z davrining eng muhim strategik vositalaridan biriga aylandi. Ammo ularning qo‘llanish doirasi cheklangan, texnologiyasi oddiy va boshqaruvi faqat harbiy mutaxassislarga ishonib topshirilgan



2-rasm. *Sovuq urushning texnologik aksi*

ISSN 3030-3230

edi. Ushbu bosqichda dronlar odamlar orasiga kira olmadi - ular hali “mashinalar dunyosi”da yashar edi.

2. Sanoatlashtirish va ommaviylashuv

2000-yillarga kelib dronlar texnologiyasi oddiylashdi, narxi tushdi va texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengaydi. Bu davrda fuqarolik sektorida ularning imkoniyatlari kashf qilindi. Jurnalistlar notinch hududlarni suratga oldi, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari hosilni nazorat qila boshladi, turizm sohasi esa noyob rakurslardan foydalanishni o‘rgandi. Ammo bu davrning eng muhim bosqichi – jamoat xavfsizligida dronlar sinov tariqasida qo‘llanila boshlagani edi [3,5]. Endi shahar ko‘chalari faqat kamera bilan emas, balki uchuvchi qurilmalar orqali kuzatila boshladi. Bu texnologiyaning jamiyatga kirib borish yo‘li edi.

3. Aqlli nazorat bosqichi – bugunning dronlari

So‘nggi yillarda dronlar shunchaki uchuvchi qurilma emas, balki sun’iy intellektga ega, mustaqil qaror qabul qiluvchi, real vaqt rejimida ma’lumotni tahlil qiluvchi tizimlarga aylangan. Endi ular turli holatlarda odam harakatlarini aniqlaydi, yuzni tanib oladi, termal kamera orqali tunda ko‘ra oladi va eng muhimi - xavfni oldindan bashorat qilishi mumkin. Bu bosqichda jamoat xavfsizligi sohasidagi eng muhim masala - axborot oqimini boshqarish, ya’ni, dron yig‘gan ma’lumotlarni tezda tahlil qilish va to‘g‘ri qaror chiqarish bo‘ldi. Bu esa xavfsizlikni faqat kuzatish emas, balki boshqarishga aylantirdi.



3-rasm. *Dronlarning foydalanishga kiritilishi*

Dronlar jamoat tartibini qanday o‘zgartirdi? Eng avvalo, ular muqobil kuzatuv vositasi sifatida jamoaviy holatni tahlil qilishga imkon berdi. Masalan, katta ommaviy tadbirlar (sport musobaqalari, bayramlar, mitinglar) vaqtida yuqoridan olingan dron tasvirlari yordamida odamlar zichligi, harakat trayektoriyasi va potensial xavf zonalari aniqlandi. Dronlar doimiy kuzatuv orqali muqobil “raqamli qo‘riqlash” tizimini yaratdi.

Dronlar oddiy video yozuvdan tashqari audio, gaz sensori, harorat va havo bosimi, infraqizil nurlarni qabul qilish kabi xususiyatlarga ham ega [4]. Bu esa jamoat tartibini faqat nazorat qilish emas, balki faol ravishda xavfsizlik muhitini boshqarish imkonini beradi. Misol uchun, Turkiyada Istanbul shahridagi politsiya dronlari odam gavjum joylarda shubhali harakatlarni avtomatik aniqlash tizimiga ulangan.

Alohida ta’kidlash kerakki, pandemiya davrida ko‘plab davlatlarda (jumladan, Xitoy, Italiya, Hindiston) dronlar yordamida karantin qoidalari buzilishi aniqlangan va odamlar ovozli xabarlar orqali ogohlantirilgan. Bu, texnologiyaning jamiyatdagi tartibga ta’sirini amaliy misolda ko‘rsatdi.

Dronlar yordamida jamoat tartibini nazorat qilish jarayonida shubhasiz, samaradorlik oshmoqda. Ammo shu bilan birga, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma’lumotlar xavfsizligi va inson erkinligi masalalari ham kun tartibiga chiqmoqda. Bugungi dron – bu faqat kamera emas, balki jamiyatning axborot portretini yaratuvchi vosita. U nimani ko‘radi, nimani eshitadi, qanday qaror chiqaradi - bularning barchasi axloqiy me’yorlar bilan muvofiqlashtirilishi kerak.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda hali to‘liq qonunchilik bazasi shakllanmagan bo‘lsa-da, texnologiyaning rivoji bilan birga bu borada huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish zaruriyati ortmoqda.

Dronlar - texnik vosita sifatida tug‘ilgan bo‘lsa-da, bugun ular jamiyatni boshqarishning yangi fazasini boshlab berdi. Jamoat tartibini saqlash endilikda insonning faqat kuzatuvchanligiga emas, balki sun’iy intellektga, tahliliy algoritmlarga, harakat tezligiga tayanmoqda. Uchuvchisiz apparatlar bu borada insoniyat tarixidagi eng sezilarli qadam bo‘ldi. Ularning kelajagi - bu faqat texnologiya emas, balki tartib, xavfsizlik va ishonchli jamiyat modelining shakllanishidir.

Uchuvchisiz uchish apparatlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda samarali vositaga aylangan. Ularning rivojlanish tarixini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dronlar dastlab harbiy maqsadlarga xizmat qilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda fuqarolik sohasida, ayniqsa, jamoat tartibini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan dronlar

jinoyatchilikka qarshi kurashda, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlashda va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlarda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ularning kelajakdagi rivoji xavfsizlik tizimining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются исторические этапы развития беспилотных летательных аппаратов (БПЛА или дроны), их значение в поддержании общественного порядка и сферы их применения. Основное внимание уделено возможностям использования дронов в современных системах безопасности, технологическим разработкам и перспективам. В статье анализируются реальные примеры и приводятся выводы, которые можно оценить как практическое руководство.

Ключевые слова: беспилотный летательный аппарат, общественная безопасность, дроны, контроль, технологии безопасности, правоохранительные органы, инновации.

Annotation. this article covers the historical stages of the development of unmanned aerial vehicles (UUA or drones), their importance in maintaining public order and their area of application. The main focus is on the possibilities of using drones in modern security systems, technological advances and prospects. The article presents conclusions that can be analyzed on the basis of real examples and evaluated as a practical guide.

Key words: Unmanned Aerial Vehicle, public safety, drones, control, security technologies, law enforcement, innovation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Petersen, M.B. (2021). Drones and Public Safety: New Frontiers in Policing and Surveillance. Oxford University Press.
2. Singer, P.W. (2009). Wired for War: The Robotics Revolution and Conflict in the 21st Century. Penguin Press.
3. European Union Agency for Fundamental Rights (FRA). (2020). Facial recognition technology: Fundamental rights considerations in the context of law enforcement.
4. Abdurashidov, Sh.A. (2022). Texnologik innovatsiyalar va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati. Toshkent: Adolat nashriyoti.
5. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). (2023). Use of Drones in Policing: Global Practices and Ethics.

ISSN 3030-3230

OMMAVIY TADBIRLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Iminov Abdujabbor Abduraxmon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA yoki dronlar) ning rivojlanish tarixiy bosqichlari, ularning jamoat tartibini saqlashdagi ahamiyati va qo‘llanilish sohasi yoritilgan. Asosiy e’tibor zamonaviy xavfsizlik tizimlarida dronlardan foydalanish imkoniyatlariga, texnologik taraqqiyotlar va istiqbollarga qaratilgan. Maqolada real misollar asosida tahlil qilinib, amaliy qo‘llanma sifatida baholash mumkin bo‘lgan xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchish apparati, jamoat xavfsizligi, dronlar, nazorat, xavfsizlik texnologiyalari, huquqni muhofaza qilish, innovatsiyalar.

Zamonaviy yondashuvlarda ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash davomida fuqarolarning huquq va erkinliklarini asossiz cheklashni qoralab, tadbir tashkillashtirilishidan to uning yakunlanguniga qadar xizmat faoliyatlarini sergak va hushyor tashkillashtirishlarini, olomonning noroziligini keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar oldini olish choralarini ko‘rish bilan bog‘liq qarashlar ilgari suriladi.

Jumladan, “ommaviy tadbirlar vaqtida fuqarolarning ayrim huquq va erkinliklarini asossiz cheklash mumkin emas. Qolaversa, xalqaro kelishuvlarga ko‘ra, yig‘ilishlar, namoyishlar, manifestatsiyalar inson huquqlarining muhim jihatlari sifatida, demokratiyaning mantiqiy natijasi sifatida va kollektiv erkinlikni ifoda etish sifatida belgilangan” [1]. Darhaqiqat, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlashda asosiy e’tiborni inson huquqlarini cheklamagan holda choralarni kuchaytirishga qaratish lozim.

S.Kovalyov “ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash muammosi ommaviy tadbirlar paytida uning kuchayishi bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar bilan belgilanadi”[2] deya qayd etadi.

M.Rustambayevning fikrlariga ko‘ra, ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, undan olingan video tasvirlarni kuzatish, real vaqt rejimida tahlil qilish va ushbu tahlilga asosan xavfsizlikni ta’minlovchi bo‘linmalarni taktik harakatlarini boshqarish xavfsizlikni yuqori darajada ta’minlash va kuch-vositalarni tejashga yordam beradi. Shu bilan birga, “ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun tadbir o‘tkazish hududga kirish qismiga xizmat itlaridan foydalanish” lozim deb hisoblaydi.

R.Djurayev ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy jihatlariga e’tibor qaratib, ommaviy tadbirlar qatoriga yig‘ilish, namoyish, mitinglarni kiritishni ilgari suradi. Shuningdek qonunchilikda hozirgi kunda “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks” [3] ning 201-202-moddalarida va “Jinoyat kodeksi[4]”ning 217-moddasida yig‘ilish, namoyish, mitinglar, ko‘cha yurishlarini tashkil etish va o‘tkazish qoidalarini buzganlik uchun tegishli javobgarliklar mavjudligini, shunga qaramasdan qonunchilikda o‘zi yig‘ilish, namoyish, mitinglar, ko‘cha yurishlarini tashkil etish, o‘tkazish tartibi mavjud emasligini va ushbu tadbirlar ommaviy tadbirlar sarasiga kiritilmaganini ta’kidlaydi [5].

Professori R.Maxmudovning fikricha, ommaviy tadbirlar vaqtida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari olamon va ommaviy tadbirlar haqidagi quyidagi psixologik bilimlarga ega bo‘lishlari lozim:

– jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashga jalb etilgan xodimlarning tezkor vaziyatni doimiy ravishda kuzatishlari asosida shubha uyg‘otuvchi va tez jizzakilik holatiga tushuvchi shaxslarni aniqlash;

– jamoat tartibini buzishga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda uni bartaraf etish bo‘yicha ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta’sir o‘tkazish choralarini o‘z vaqtida ko‘rish;

– shubha uyg‘otuvchi va ekstaz[6] holatiga tushib qoluvchi shaxslarga psixologik ta’sir ko‘rsata olish;

– tezkor xodimlar tomonidan ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta’sir o‘tkazish maqsadida mish-mish gaplardan foydalanish;

– ommaviy tadbir ishtirokchilari orasidan shubha uyg‘otuvchi shaxslarni olib chiqib ketishda obro‘sizlantirish usulidan foydalanish [7].

Ayrim tadqiqotchilar “diniy marosimlarga qolgan ommaviy tadbirlarga nisbatan ko‘proq

tashrif buyuruvchilar bo‘lishi, shuning uchun xavfsizlikni ta’minlash uchun ommaviy tadbir o‘tkazishni rejalashtirish, olomonni boshqarish va uni tadbir mobaynida turli vositalar orqali kuzatish ishlarini olib borish lozim” [8] deya qayd etadi.

Boshqa bir olim “ommaviy tadbirni rejalashtirishda yong‘in hodisalari, olomonning xatti-harakatlari, xavfsizlik, to‘g‘ri evakuatsiya rejasi, turli taraflari o‘rtasidagi hamkorlik va transportni o‘zgartirish bo‘yicha favqulodda vaziyatlar rejasi tuzishga e’tibor berish lozim”[9] deya qayd etadi.

Olomonni boshqarish vaqtida esa olamon o‘rtasida xavfsizlikni buzilishiga, vaqtinchalik inshootlarga, ko‘priklarga, yo‘llardagi to‘siqlarga e’tibor qaratish lozim. Notekis tepalik, sirpanish yoki loyli yo‘llar ham piyodalar harakatining to‘g‘ri bo‘lishiga ta’sir qiladi. Ommaviy tadbirlarda yong‘in hodisalari, yong‘in o‘chirish mashinalarining yoki yong‘in o‘chirish vositalarining yo‘qligi, noqonuniy va xavfli elektr ulanishlari, yig‘ilish joyida elektr ta’minotining uzilishi, qisqa tutashuv va yong‘inlar, binoga kutilganidan ortiq odamlarning yig‘ilishi, to‘g‘ri aylanish hududining yo‘qligi, odamlarning chiqishi va kirishi o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, yo‘lda cheklangan yoki umuman mavjud bo‘lmagan kutish hududlari, yopiq chiqish yo‘llari, o‘tirish joylarini ajratishda olomonni tasniflashning yo‘qligi, transport vositalarining nazoratsiz va tartibsiz joylashuvi, turli yo‘nalishlardan o‘tkazilgan kesishmalar, tashkilot yoki dasturlar haqidagi jamoatga yetarlicha yoki umuman hech qanday ma’lumot berilmasligi, mashhur shaxslar yoki yuqori martabali shaxslarning harakatlanishi - bularning barchasi ommaviy tadbirlarda olamon xavfsizligini buzilishining asosiy sabablari hisoblanadi [10].

Ommaviy tadbirlar mobaynida olomonni turli usul va vositalar orqali kuzatish ishlarini olib borish lozim. Masalan, olamon umumiy to‘planib turadigan joylarda ya’ni oshxonada, hojatxonada, yuvinish joylarida navbat kutib turganlar bilan xavfsizlikni ta’minlovchi shaxslarning gaplashishi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz hodisalarni oldini olishga yordam beradi. Olamon xatti-harakatlarini video kuzatuv vositalari va ommaviy axborot vositalari orqali tahlil qilish ham xavfsizlikni ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi.

Ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash uchun kompleks yechim bo‘lgan model, taksanomiya va paradigmalardan foydalangan holda ta’minlash bo‘yicha qarashlar ham ko‘p uchraydi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, diniy ziyorat kabi ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlashda olomonni boshqarish uchun qo‘llaniladigan turli texnologiyalarni tasniflaydigan taksonomiya[11] dan foydalanish lozim. Bunda, taksonomiya olomonni boshqarish texnologiyalari, simsiz tizimlar, fazoviy hisoblash, katta ma’lumotlar tahlili, mobil ilovalar, olomon harakatlarini modellashtirish va simulyatsiya qilishni o‘z ichiga oladi [12].

Boshqa bir guruh olimlar turli ma’lumotlar manbalariga asoslangan olomon tahlili asosida o‘z taksanomiyalarini ishlab chiqib, ular uchta sinfni: 1) olomon ijtimoiy media tahlili; 2) olomon fazoviy-vaqt tahlili; va 3) olomon video tahlili qamrab oladi. Olomon fazoviy-vaqt tahlilida ma’lumotlar olomon oqimini ikki o‘lchovda tahlil qilish imkonini beradi: makon va vaqt. Katta ma’lumotlar tahlili yashirin va foydali ma’lumotlarni ajratishga imkon beradi. Olomon ijtimoiy media tahlilida olomonni tahlil qilish uchun geo-belgilangan ijtimoiy mikrobloglardan olingan ro‘yxatdan o‘tish ma’lumotlaridan foydalanadi. Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: kashfiyot, to‘plash, tayyorlash va tahlil qilish. Olomon video tahlili ikkita bo‘limni o‘z ichiga oladi. Ular ichida kichik bo‘limlar mavjud: piyodalar uchun ishonchli traektoriyalarni yaratish uchun olomonning video xatti-harakatlarini tahlil qilish (mikroskopik modellashtirish va makroskopik modellashtirish), shuningdek, olomonning video harakatlarini aniqlash (bir shaxsning harakatini aniqlash va guruh faoliyatini aniqlash), yakka yoki guruhli sport harakatlarini kuzatish, odamlarning harakatlarini tahlil qilish va video kuzatuvlar [13].

Saudiyalik olimlar olomonni boshqarish tahlilini, gavjum joylarni topishdan tortib, olomonni kuzatish va boshqarishgacha chuqur o‘rganib chiqishgan. Ular diqqatni yaxshi ishlab chiqilgan qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini talab qiladigan olomonni boshqarish tizimlariga va yig‘ilishlarning asosiy maqsadi ya’ni olomon xavfsizligini amalga oshirish uchun erta ogohlantirish qobiliyatiga ega bo‘lgan tizimlarga qaratiladi. Ular o‘zlarining taksonomiyalarini ikkita tarmoqqa bo‘lishdi: olomonni aniqlash, olomonni kuzatish va kuzatishlar tahlili. Oxirgi qism olomonni boshqarish va nazorat qilish bosqichini o‘z ichiga oladi, bu olomon qarorlarini qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichiga olib keladi. Ular olomonni boshqarish bosqichini monitoring va olomon qarorlarini qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichi o‘rtasidagi oraliq deb hisoblashdi [14].

Avstraliya olimlari ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash uchun eng samarali

ISSN 3030-3230

usul bu “Shveytsariya pishloq modeli”[15] deya qayd etadi. Bunda, model xavflarni boshqarish va xavfsizlik muhandisligida qo‘llaniladigan konseptsiya bo‘lib, mudofaaning bir nechta qatlamlari, baxtsiz hodisalar va xatolarning oldini olishga qanday yordam berishi mumkinligini tushuntirishga yordam beradi. Model xavfsizlik tizimidagi bo‘shliqlarni tizimning potensial zaif tomonlari va qatlamlarini nosozlikni oldini olish uchun o‘rnatiladigan turli xil himoya vositalari sifatida ko‘rsatadi. Ushbu metaforik tasvirda tizimning ishdan chiqishi va halokatlari faqat barcha qatlamlar bo‘ylab teshiklarning hosil bo‘lsa sodir bo‘ladi. Model xavfsizlikni muhofaza qilishning individual choralari hech qachon mukammal bo‘lmasligi va kamchiliklarga duchor bo‘lishi, shu bilan birga, har bir himoya qatlamining muvaffaqiyatsiz bo‘lish ehtimoli borligiga asoslanadi. Ammo bir nechta qatlamlarga ega bo‘lish orqali tanqidiy nosozliklar yuzaga kelish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ko‘p qatlamli xavfsizlikni himoya qilish mexanizmi, agar barcha individual qatlamlar ishlamay qolgan bo‘lsa, tizim ishlamay qolmasligini ta’minlaydi, bu bitta qatlamning ishdan chiqishi bilan solishtirganda ehtimoldan yiroq emas. Shu ma’noda, bu yerda olomon xavfsizligi tushunchasiga ham juda mos keladi [16]. Ularning fikricha ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash tadbirni rejalashtirishdan to tadbir yakunlangunga qadar bo‘lgan jarayonlarni tizimlashtirish va bir tizimda yuzaga kelgan kamchiliklarni ikkinchi yoki undan keying tizimning evaziga to‘ldirishga asoslanadi. Shuning uchun bu usul “Shvedsariya pishloq modeli” usuli deb nomlangan.

Xitoylik olimlar “ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun olomon xavfini kamaytirish, olomonni yig‘ilish xavfini kuzatish va baholash usullari tahlil qilib borish lozim” deb hisoblaydi. Buning uchun turli jamoat joylarida olomonni yig‘ish xavfini baholash uchun uchta asosiy tadqiqot paradigmasi[17] shakllantirilgan. Birinchi paradigma, asosan, sabab omillarini statistik tahlil qilish yoki vaziyatni tahlil qilish yo‘li bilan tashkil etilgan indeks[18] tizimiga asoslanadi. Ikkinchi paradigma olomonni yig‘ilish xavfini baholash uchun modellarni taklif qilishga qaratiladi. Modelning har bir qismi miqdoriy tavsiflanadi. Uchinchi paradigma uchun asosiy qadam olomonni yig‘ilish xavfini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar yoki parametrlarni topish, tiqilinch hodisalari yuzaga kelishidan ogohlantirish hisoblanadi[19]. Ushbu paradigmalar haqiqatdan ham ommaviy tadbirlarni xavfsiz o‘tkazish uchun asosiy hisoblanadi lekin, yetarli darajada xavfsizlikni ta’minlash uchun kompleks yechim bo‘la olmaydi.

Ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar o‘rtasida hamkorlikni, razvetkani va yagona rahbarlikdagi boshqaruvni tashkil etish orqali xavfsizlikni ta’minlashga oid qarashlar keng tarqalgan.

Rossiyalik olimlarning fikricha ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun politsiya xodimlari tadbir rejalashtira boshlangan vaqtdan boshlab tadbir tashkilotchilari bilan hamkorlikni olib borishlarini, tashkillashtiriladigan tadbirdan ko‘zlangan maqsadni, tadbir tashkillashtiriladigan hudud haqida ma’lumotlarni va ushbu tadbirda taxminan ishtirok etadiganlar sonini bilishlari lozim[20] deya qayd etadi. Shu bilan birga tadbirga qaysi tashkilotdan ko‘proq fuqarolar tashrif buyuradi, ushbu tashkilotlarning kasaba uyushmalari xodimlari bilan hamkorlik qilishni yo‘lga qo‘yish orqali xavfsizlikni ta’minlashga erishish kerak deb hisoblaydilar. Ommaviy tadbirlar vaqtida fuqarolarni huquq va erkinliklarini cheklash mumkin emasligini, bunga esa quyidagi ikki hujjatdagi tegishli bandlarni asos qilib ko‘rsatadilar:

1. Inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari faqat federal qonun bilan cheklanishi mumkin, bu esa faqat konstitutsion tuzumni, axloqni, salomatlikni, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, davlat xavfsizligini ta’minlash, mudofaa va davlat xavfsizligini himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi mumkin (RF Konstitutsiyasining 55-moddasining 3-qismi) [21].

2. “Har bir kishi tinch yig‘ilishlar va boshqa odamlar bilan birlashish erkinligiga ega, shu jumladan o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalarini tuzish va ularga qo‘shilish huquqi ham bor. Ushbu huquqlarni amalga oshirish hech qanday cheklovlarga ega emas, faqat qonun bilan belgilangan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi va jamoat tinchligini, tartibsizlik va jinoyatchilikni oldini olish, salomatlik va axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan hollarda” [22].

R. Spaaij va E. Zammit laresa ommaviy tadbirlar vaqtida hozirgi kunda terroristik harakatlar keskin ko‘payib borayotganligini ta’kidlab, buni oldini olish uchun tadbir tashkilotchilari keng qamrovli kuzatuv, kiberxavfsizlik, razvedka ma’lumotlarini yig‘ish va almashish, ishchi kuchini taqsimlash va Olimpiya o‘yinlari obyektlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha xavfsizlik kuchlarini,

shu jumladan harbiy qo‘shinlarni yuborish kabi istisno choralarni ko‘rish[23] ni ilgari suradi. Olim yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usuldan foydalanib xavfsizlikni ta’minlash Fransiya-2024 chempionatida har kuni taxminan 45 ming politsiya va xavfsizlik kuchlari, 20 ming xususiy xavfsizlik va 15 ming harbiy xizmatchilarni joylashtirishni rejalashtirganligini[24] aytib o‘tadi.

Yuqoridagi olimlarning qarashlariga asoslanib, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda jamoat xavfsizligi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy yondashuvlar bu borada tadbirlarning barcha bosqichlarida, ya’ni tashkillashtirilishdan to yakunlanishigacha xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar fuqarolarning huquqlarini asossiz ravishda cheklamasdan, xavfsizlikni kuchaytirishning yangi usullarini o‘z ichiga oladi.

Tadbirlarning xavfsizligini ta’minlashda texnologik yondashuvlarning roli katta bo‘lib, video kuzatuvlar, uchuvchisiz uchish apparatlari va real vaqt rejimida xavfsizlikni boshqarish kabi usullar qo‘llanilmoqda. Bular nafaqat xavfsizlikni yuqori darajada ta’minlashga yordam beradi, balki ko‘p sonli xavfsizlik kuchlarini tejash imkonini ham yaratadi.

Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlashda huquqiy jihatlar, ommaviy tadbirlarga oid qonunlarni aniq belgilash ham zarurdir. Bunga qo‘shimcha ravishda, olomonning harakatlarini psixologik tahlil qilish va shubha uyg‘otuvchi shaxslarni aniqlash kabi psixologik yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlashda kompleks yondashuv, hamkorlik va texnologik yechimlarning uyg‘unligi xavfsizlikni yuqori darajada saqlashga imkon yaratadi. Ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlashda barcha tashkilotlarning birgalikda harakat qilishi va rejalashtirishdagi puxta yondashuvlar jarayonning samaradorligini oshiradi.

Аннотация. Статья рассматривает современные подходы к обеспечению безопасности массовых мероприятий. Обсуждаются стратегии, направленные на обеспечение безопасности на всех этапах проведения мероприятий - от организации до завершения - без необоснованного ограничения прав и свобод граждан. Технологические решения, такие как беспилотные летательные аппараты, системы видеонаблюдения и методы анализа в реальном времени, играют ключевую роль в повышении безопасности. Также освещаются вопросы правовой основы, психологические подходы и таксономический анализ управления толпой. Комплексные решения, такие как «модель швейцарского сыра» и различные парадигмы, имеют важное значение для обеспечения безопасности. Статья подчеркивает необходимость сотрудничества между организациями, разведки и единого управления. В целом, гармоничное сочетание технологий, правового регулирования и психологических подходов считается ключевым для обеспечения безопасности массовых мероприятий.

Ключевые слова: массовые мероприятия, общественная безопасность, права граждан, технологические решения, управление толпой, видеонаблюдение, модель швейцарского сыра, таксономия, парадигма, сотрудничество, анализ в реальном времени

Abstract. The article examines modern approaches to ensuring the safety of public events. It discusses strategies aimed at providing security throughout all stages of event organization and execution, from planning to completion, without unjustly restricting citizens’ rights and freedoms. Technological solutions, such as unmanned aerial vehicles, video surveillance systems, and real-time analysis methods, play a crucial role in enhancing safety. Additionally, the article addresses legal frameworks, psychological approaches, and taxonomic analysis of crowd management. Comprehensive solutions, such as the «Swiss cheese model» and various paradigms, are of significant importance in ensuring safety. The article emphasizes the necessity of collaboration between organizations, intelligence, and unified management. Overall, the harmonious integration of technology, legal regulation, and psychological approaches is considered essential for ensuring the safety of public events.

Key words: public events, public safety, citizens’ rights, technological solutions, crowd management, video surveillance, Swiss cheese model, taxonomy, paradigm, collaboration, real-time analysis

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.М. Ковалёв. Действия сотрудников полиции по обеспечению общественного порядка и общественной безопасности при проведении массовых. https://cyberleninka.ru/article/
2. Ковалёв С.М. Особенности обеспечения безопасности граждан и общественного порядка при проведении публичных мероприятий. «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №1(17) 2018 Alley-science.ru.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 201-202-moddalari. https://lex.uz/acts/-97664
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 217-moddasi. https://lex.uz/mact/-111453
5. R.M.Djurayev. Ommaviy tadbirlar va ommaviy tartibsizliklar vaqtida jamoat xavsizligini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2022. 5-14-bet.
6. экстаз м книжн. ekstaz, jazava; o‘zini yo‘qotish darajasida zavqlanish (hayajonlanish). https://uz.wiktionary.org/ ekstaz nima degani?
7. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti., Mualliflar jamoasi., Jamoat xavfsizligi asoslari darsligi.Toshkent-2022. 381-382-bet.
8. A.K. Kanaujiya, V. Tivari. Crowd Management and Strategies for Security and Surveillance During the Large Mass Gathering Events: The Prayagraj Kumbh Mela 2019 Experience // https://doi.org/10.1007/s40009-022-01114-w.Natl. Acad. Sci. Lett. (May–June 2022) 45 (3): pag 263–273
9. Illiyas F.T., Mani S.K., Pradeepkumar A.P, Mohan K (2013) Human stampedes during religious festivals: a comparative review of mass gathering emergencies in India. Int J Disaster Risk Reduct 5:10–18. // https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2013.09.003
10. Rahane S.A. AI-Driven Crowd Surveillance for Real-Time Threat Detection in Urban Security. Volume 12 Issue 5 @ September - October 2024 IJIRMPS | ISSN: 2349-7300. Pag 456-461
11. Taksonomiya (yunoncha taxis - joylanish, qator va nomus-qonun)-sistematikaning organizmlarni tasnif qiladigan nazariy va amaliy bo‘limi. https://uz.wikipedia.org/.Taksonomiya nima?
12. E.A. Felemban, F.U. Rahman and others. //Digital Revolution for Hajj Crowd Management: A Technology Survey // https://ieeexplore.ieee.org/
13. Z. Ebrahimpour, W. Wan, O. Cervantes, T. Luo, H. Ullah (2019) Comparison of main approaches for extracting behavior features from crowd fow analysis. ISPRS Int J Geo-Inf 8(10):440
14. A.M. Al-Shaery, S.S. Alshehri, N.S. Farooqi, M.O. Khozium. (2020). In-depth survey to detect, monitor and manage crowd. IEEE Access 8:209008–209019
15. Research and Practice and a Roadmap for the Future the Swiss Cheese Model of Crowd Safety and the Need for a Vision Zero Target. Contemporary Challenges in Crowd Safet. https://www.researchgate.net/publication/371386212
16. Research and a Roadmap for the Future the Swiss Cheese Model of Crowd Safety and the Need for a Vision Zero Target. Contemporary Challenges in Crowd Safety https://www.researchgate.net/publication/371386212
17. Paradigma (grekcha — „namuna, andoza“) — ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot . https://www.google.com/ .Paradigma nima?
18. Indeks (Lotincha: index — ko‘rsatkich, ro‘yxat) — nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko‘rsatkichi va ro‘yxati hisoblanadi. https://uz.wikipedia.org/ . Indeks nima?
19. W. Weng, J. Wang, L. Shen, Y. Song., Review of analyses on crowd-gathering risk and its evaluation methods., 2022.10.004., https://www.sciencedirect.com/.
20. В.И. Косяченко, А.В. Жуланов, В.М. Таланов. // Действия сотрудников полиции по обеспечению общественного порядка И общественной безопасности при проведении массовых // https://cyberleninka.ru/article/n/ viewer
21. Конституция Российской Федерации. Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс». ч. 3 ст. 55 Конституции Российской Федерации
22. Европейская конвенция о защите прав человека и основных свобод. Доступ из справ.-правовой системы «Консультант Плюс» ст. 11 ст. 8
23. R. Spaaij, E. Zammit. Threat to the 2024 Paris Olympics: Learning from the Past to Understand the Present. 27 Jun 2024. https://icct.nl/publication/
24. J. Irish, J. Jabkhiro. France to boost Olympics security with foreign military, police support. March 29, 2024. 3:55 PM. https://www.reuters.com/

ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СРЕДИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ачилов Алишер Темирович,
доцент кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

Абдуганиев Улугбек Саидакбар угли ,
Старший преподаватель кафедры «Правоведения» Ташкентского государственного Аграрного университета

Аннотация. Статья посвящена анализу проблем, связанных с расследованием коррупционных преступлений среди военнослужащих Республики Узбекистан. В условиях современного общества коррупция остается одной из наиболее серьезных угроз для национальной безопасности, и ее распространение в вооруженных силах представляет особую опасность для обороноспособности страны. В работе рассматриваются основные формы и виды коррупционных преступлений, такие как получение взятки, злоупотребление властью, превышение или бездействие власти, хищение путем присвоения или растраты, которые наиболее часто встречаются в военной сфере. Работа направлена на расширение научного понимания проблем коррупции в военной сфере и выработку практических предложений для повышения эффективности расследований в данной области.

Ключевые слова: Коррупция, военнослужащие Республики Узбекистан, национальная безопасность и обороноспособность, борьба с коррупцией, противодействие коррупции, типология коррупционных преступлений, проблемы расследования коррупции, международный опыт и стандарты.

Актуальность темы борьбы с коррупцией среди военнослужащих Республики Узбекистан обусловлена ее прямым воздействием на национальную безопасность и обороноспособность страны. Коррупция в вооруженных силах может существенно подорвать доверие граждан к государственным институтам, ослабить боеспособность армии и привести к экономическим потерям.

Коррупционные преступления среди военнослужащих Узбекистана представляют собой разнообразные деяния, включая взяточничество, злоупотребление служебным положением и хищение материальных средств [1]. Эти преступления не только подрывают моральный дух вооруженных сил, но и создают угрозы для функционирования государственной системы. В этой связи расследование коррупционных преступлений в армии является не только задачей правоохранительных органов, но и важной частью общего процесса борьбы с коррупцией в стране.

Военная сфера, как одна из важнейших составляющих государственной системы, требует особого внимания к вопросам этики, честности и прозрачности, особенно в контексте современного состояния правопорядка в стране [2].

Целью настоящего исследования является анализ проблем, возникающих при расследовании коррупционных преступлений среди военнослужащих, а также выработка рекомендаций для совершенствования механизмов расследования таких деяний в Узбекистане. В рамках работы будут рассмотрены основные проблемы, с которыми сталкиваются следственные органы при расследовании коррупционных преступлений в вооруженных силах, а также предложены возможные пути их решения.

Объектом исследования является система борьбы с коррупцией среди военнослужащих Республики Узбекистан, а предметом — проблемы и механизмы расследования коррупционных преступлений. Методология

ISSN 3030-3230

исследования включает анализ действующего законодательства, судебной практики, а также сравнительный анализ с международным опытом в борьбе с коррупцией в вооруженных силах.

Таким образом, работа направлена на исследование актуальных вопросов в сфере борьбы с коррупцией в армии Узбекистана, с целью предложить рекомендации, способствующие улучшению расследования коррупционных преступлений среди военнослужащих и повышению эффективности антикоррупционной работы в Вооруженных Силах Республики Узбекистан.

Вопросы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан, в том числе в вооруженных силах, регулируются рядом нормативно-правовых актов, которые устанавливают ответственность за коррупционные деяния, а также определяют механизмы их расследования. Законодательство Узбекистана в области борьбы с коррупцией постоянно развивается, однако остаются вопросы, связанные с его применением в отношении военнослужащих и специфики расследования коррупционных преступлений в армии.

Основой для борьбы с коррупцией в Узбекистане является Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» [3], принят в 2017 году. Этот закон определяет коррупцию как любое использование служебного положения для личной выгоды и предусматривает меры по предупреждению и борьбе с такими деяниями. Закон устанавливает основные принципы антикоррупционной политики, а также задачи государственных органов по выявлению и пресечению коррупционных преступлений.

Важным документом является также Указ Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций [4]” от 27.11.2023 г. № УП-200, который направлен на создание условий для эффективного функционирования антикоррупционной системы и предполагает усиление контроля за действиями государственных служащих, включая военнослужащих.

Отдельное внимание стоит уделить Постановлению Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Положения о порядке прохождения военной службы гражданами Республики Узбекистан» [5], который регулирует статус военнослужащих, их права и обязанности, а также дисциплинарную ответственность. В случае совершения коррупционного преступления, военнослужащий подлежит не только уголовной, но и дисциплинарной ответственности, которая может включать лишение воинского звания, увольнение с военной службы и другие меры воздействия.

Важным инструментом в борьбе с коррупцией в армии является также служебная проверка, которая проводится в случае подозрения в совершении коррупционного преступления. Такие проверки направлены на выявление нарушений, связанных с нарушением закона и служебной дисциплины, и могут стать основанием для возбуждения уголовного дела.

Республика Узбекистан также активно внедряет международные стандарты в борьбе с коррупцией, о чем свидетельствует участие страны в международных инициативах, таких как **Конвенция ООН против коррупции [6]**. Несмотря на это, внедрение международных механизмов расследования коррупционных преступлений в вооруженных силах сталкивается с определенными трудностями, связанными с особенностями национальной правовой системы и внутренними барьерами.

Типология коррупционных преступлений среди военнослужащих

Коррупционные преступления среди военнослужащих имеют разнообразные формы и проявления, что делает их расследование сложным и многогранным процессом. Основными типами коррупционных деяний в военной сфере являются взяточничество, злоупотребление служебным положением и хищение государственных средств.

Получение взятки (210 ст УК РУз) является одной из наиболее распространенных форм коррупции в армии. Военнослужащие могут брать взятки за выполнение или невыполнение своих служебных обязанностей, за содействие в продвижении по службе, за незаконное использование военной техники или оружия, а также за решения по вопросам, связанным с распределением материальных ценностей или контрактами на поставки.

Злоупотребление властью, превышение

или бездействие власти (301 ст. УК РУз) включает в себя использование своего должностного положения для получения личной выгоды. В контексте армии это может проявляться в предоставлении необоснованных привилегий подчиненным [7], незаконных указаниях и распоряжениях, а также манипулировании личными данными для получения преимуществ в служебных вопросах.

Хищение путем присвоения или растраты (167 ст УК РУз), выделенных для нужд армии, также является важным видом коррупционных преступлений. Это может включать в себя кражу или нецелевое использование материальных ресурсов, выделенных для обеспечения армии, а также финансовых средств, предназначенных для выполнения различных государственных и оборонных программ.

Такие преступления не только подрывают моральный дух армии, но и создают угрозы для национальной безопасности, поскольку ведут к ослаблению обороноспособности страны.

Проблемы расследования коррупционных преступлений среди военнослужащих

Расследование коррупционных преступлений среди военнослужащих Республики Узбекистан сталкивается с рядом специфических проблем, которые затрудняют эффективность и объективность данного процесса.

1. Отсутствие независимости следствия. Одной из главных проблем является зависимость следственных органов от высшего командования и других государственных структур [8]. Военнослужащие находятся в подчинении своему начальству, и это часто приводит к конфликту интересов в процессе расследования. В условиях такого контроля над следственными процессами сложно гарантировать объективность и беспристрастность, что существенно снижает эффективность борьбы с коррупцией.

2. Сложности в сборе доказательств. Коррупционные преступления в армии часто происходят в условиях закрытости и ограниченной доступности информации. Множество преступлений может быть скрыто или замаскировано под официальной деятельностью, что затрудняет их выявление. Военнослужащие могут использовать служебные тайны для сокрытия своей деятельности, что создает дополнительные трудности при сборе доказательств. Также не всегда удается привлечь свидетелей, поскольку многие из них могут бояться последствий, включая увольнение или наказание.

3. Проблемы внутреннего контроля. Системы внутреннего контроля в армии, такие как сотрудники прокуратуры и службы безопасности, также имеют свои недостатки. Их деятельность может быть подвержена коррупционному влиянию, что снижает вероятность выявления нарушений. Внутренний контроль часто работает на поддержание статус-кво, что препятствует объективному и своевременному расследованию коррупционных деяний.

4. Препятствия со стороны командования и низкий уровень отчетности. Противодействие коррупции в армии также сталкивается с проблемой недостаточной отчетности и прозрачности. Военнослужащие, особенно высокопрофильные офицеры, могут влиять на расследования через неформальные каналы. Это ограничивает возможности объективной проверки фактов и оперативного принятия мер. Также в некоторых случаях наблюдается стремление скрывать или замалчивать случаи коррупции для сохранения репутации отдельных подразделений или командования [9].

Таким образом, расследование коррупционных преступлений среди военнослужащих Республики Узбекистан сталкивается с целым рядом системных и организационных проблем, которые требуют комплексных решений для повышения прозрачности и эффективности борьбы с коррупцией в вооруженных силах.

Предложения по улучшению расследования коррупционных преступлений среди военнослужащих

Для повышения эффективности расследования коррупционных преступлений среди военнослужащих в Республике Узбекистан необходимо принять ряд мер, направленных на укрепление независимости следствия, улучшение работы правоохранительных органов и совершенствование системы контроля внутри вооруженных сил.

Укрепление независимости следственных органов. Одним из ключевых шагов является создание более независимой

ISSN 3030-3230

и профессиональной системы расследования коррупционных преступлений [10]. Для этого необходимо разграничить функции командования и следственных органов, обеспечить подотчетность и независимость антикоррупционных структур, таких как специализированные подразделения внутри Генеральной прокуратуры и МВД. Это позволит исключить влияние руководства на ход расследования и повысить доверие к системе правосудия в армии.

Внедрение современных технологий в расследование коррупции. Для более эффективного расследования коррупционных преступлений необходимо внедрение современных технологий, таких как системы электронного мониторинга, аудита и обработки данных. Это позволит отслеживать финансовые потоки, анализировать контрактные и закупочные процессы в армии, выявлять подозрительные схемы и принимать своевременные меры по предотвращению коррупционных действий [11]. Использование таких технологий повысит прозрачность и эффективность работы следственных органов.

Укрепление внутреннего контроля и независимости службы безопасности. Для повышения прозрачности и своевременного выявления коррупционных преступлений в армии следует укрепить независимость служб безопасности. Необходимо разработать эффективные механизмы внутреннего контроля, а также создать независимые органы, которые будут проводить регулярные проверки на всех уровнях, от командования до рядового состава. Важно, чтобы данные органы не зависели от командования и имели полномочия для объективного расследования правонарушений.

Строгое применение законодательства и жесткие санкции. Необходимо обеспечить жесткое применение существующих норм законодательства, включая Уголовный кодекс. Важно, чтобы коррупционные преступления среди военнослужащих пресекались на самых ранних стадиях, а наказания за такие деяния были более строгими. Это поможет создать атмосферу нулевой терпимости к коррупции в армии и повысит дисциплину среди военнослужащих.

Коррупционные преступления среди военнослужащих представляют собой серьезную угрозу для безопасности и стабильности Республики Узбекистан, подрывая доверие к государственным институтам и ослабляя обороноспособность страны. Несмотря на наличие нормативно-правовой базы, регулирующей борьбу с коррупцией в армии, существует ряд значительных проблем, таких как недостаточная независимость следствия, трудности в сборе доказательств, а также недостаток квалифицированных кадров.

Для эффективного решения этих проблем необходимо комплексное совершенствование законодательных и институциональных механизмов. Внедрение более независимой системы расследования, повышение квалификации специалистов, использование современных технологий и усиление внутреннего контроля в армии являются ключевыми шагами на пути к улучшению борьбы с коррупцией в вооруженных силах.

Реализация предложенных мер поможет повысить эффективность расследований коррупционных преступлений среди военнослужащих и создаст условия для формирования более прозрачной и ответственной системы в сфере национальной безопасности. Тщательная борьба с коррупцией в армии будет способствовать не только улучшению внутренней дисциплины, но и укреплению доверия общества к органам власти и вооруженным силам, что является важным аспектом обеспечения устойчивого развития государства.

Annotatsiya. Maqola O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish bilan bog‘liq muammolar tahliliga bag‘ishlangan. Zamonaviy jamiyatda korrupsiya milliy xavfsizlikka eng jiddiy tahdidlardan biri bo‘lib qolmoqda va uning qurolli kuchlarda tarqalishi mamlakatning mudofaa qobiliyatiga alohida xavf tug‘diradi. Hujjatda poraxo‘rlik, hokimiyatni suiiste’mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi va harbiy sohada eng ko‘p uchraydigan moddiy resurslarni o‘zlashtirish kabi korrupsiya jinoyatlarining asosiy shakllari va turlari ko‘rib chiqilgan. Ish harbiy sohadagi korrupsiya muammolari to‘g‘risida ilmiy tushunchalarni kengaytirish va ushbu sohadagi tekshiruvlar samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, O‘zbekiston Respublikasining harbiy xizmatchilari, milliy xavfsizlik va mudofaa qobiliyati, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi jinoyatlar tipologiyasi, korrupsiyani tergov qilish muammolari, xalqaro tajriba va standartlar.

Annotation. The article is devoted to the analysis of problems related to the investigation of corruption crimes among the military personnel of the Republic of Uzbekistan. In modern society, corruption remains one of the most serious threats to national security, and its spread in the armed forces poses a particular danger to the country’s defense capability. The paper examines the main forms and types of corruption crimes, such as bribery, abuse of office and embezzlement of material resources, which are most common in the military sphere. The work is aimed at expanding the scientific understanding of the problems of corruption in the military sphere and developing practical proposals to improve the effectiveness of investigations in this area.

Key words: Corruption, military personnel of the Republic of Uzbekistan, national security and defense capability, anti-corruption, typology of corruption crimes, problems of corruption investigation, international experience and standards.

Использованная литература:

1. Уголовный кодекс Республики Узбекистан, https://www.lex.uz/docs/111457
2. Козлова, Н. В. «Проблемы коррупции в сфере обороны: анализ и пути решения». — Журнал правовых исследований, 2019, № 6. — С. 45–56
3. Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» от 03.01.2017 г., https://lex.uz/docs/3088013.
4. Указ Президента Республики Узбекистан « О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций» от 27.11.2023 г. № УП-200, https://lex.uz/ru/docs/6676587.
5. Постановлению Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Положения о порядке прохождения военной службы гражданами Республики Узбекистан» от 12.09.2019 г. № ПП-4447, https://lex.uz/docs/4513458
6. Конвенция ООН против коррупции (2005). – Нью-Йорк: ООН., https://lex.uz/docs/1461327
7. Шаршин, С. А. «Коррупционные преступления среди военнослужащих: правовые и организационные аспекты расследования». — Право и общество, 2018, № 2. — С. 102–115.
8. Маджидов, Т. М. «Коррупция в армии: теоретико-правовой анализ». – Юридическая мысль, 2020, № 3. — С. 35-47.
9. Ахмедов, Р. Ш. «Правовые основы борьбы с коррупцией в вооруженных силах Республики Узбекистан». – Сборник научных статей «Юридические исследования», 2017, № 4. — С. 60-70.
10. Ким, Е. А. «Международные стандарты борьбы с коррупцией в вооруженных силах». – Международное право и безопасность, 2019, № 7. — С. 21-33.
11. Рекомендации Совета Европы по борьбе с коррупцией в армии. (2017). – Брюссель: Совет Европы.

ISSN 3030-3230

FACTORS FOR DEVELOPING MILITARY LEXICAL COMPETENCE IN ENGLISH AMONG CADETS

Pulatova Zulfiya Abduazizovna ,
The university of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Department of languages studies
PhD, Doctor of philosophy
in pedagogical sciences

Annotatsiya. **Ushbu maqolada qo‘riqlash shartnomasining fuqarolik huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati, uni boshqa o‘xshash fuqarolik-huquqiy shartnomalardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va yoritib berilgan.**

Kalit so‘zlar: qo‘riqlash shartnomasi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, nomlangan shartnoma, nomlanmagan shartnoma, haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalar, omonat saqlash shartnomasi.

Introduction

In our country, the Law of the Republic of Uzbekistan “On Education” and the Decrees of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on “Measures to effectively organize the popularization of foreign languages” and “Measures to further improve the quality of foreign language teaching in educational institutions” are considered as some of the key factors in creating a comprehensive system for foreign language education and improving its quality. Last several years, a number of initiatives have been fulfilled to implement these decrees into practice.

Renovations in the political, economic and social spheres of the state require training professionals in various fields, including training personnel for the Military Services of Armed Forces in Uzbekistan. In the modern realities of creating a professional contract army of our country, teachers of military universities endure a huge obligation for the training and education of cadets prepared for service in National Guard. The primary purpose of military education today is to systematically develop the knowledge, skills, abilities, and competencies in cadets that are essential in the modern world, enabling them to perform their duties with high professional effectiveness.

Literature review

Mastering a foreign language plays a key role in establishing effective communication, implementing joint decisions and actions. Knowledge of a foreign language today is an important condition for achieving professional success in military affairs, as well as a criterion for a person’s education in modern society. [1]

Mazkur harbiy tibbiy komissiyalar tomonidan fuqarolarni harbiy xizmatga yaroqliligi sog‘ligi holatiga qo‘yilgan talablar bo‘yicha aniqlanadi.

Kasalliklar va jismoniy nuqsonlar jadvali tasdiqlangan bo‘lsa-da, jadval yo‘naltiruvchi chizma bo‘lib, u kasallik holatlarining barcha shakl va turlarini nazarda tutolmagan. Masalan, asab, qon aylanish tizimi kasalliklari, nafas, ovqat hazm qilish a’zolari, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davr va boshqa omillar ta’sirini hisobga olib bo‘lmaydi.

Kasalliklarni barcha ehtimoliy shakllarining to‘liq ro‘yxatini tuzish nafaqat imkonsiz, balki maqsadga ham muvofiq emas. Uzun ro‘yxat tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgan shaxsning harbiy xizmatga yaroqlilik toifasini baholashdagi yuzaki yondashuvga sharoit yaratishi va noto‘g‘ri ekspert xulosasining chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Bunda shifokor tibbiy tekshiruvlar natijalariga jiddiy yondashishi, barcha holatlarni hisobga olgan holda ularni chuqur tahlil qilish, har bir holatda tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgan shaxsning harbiy xizmatga yaroqlilik toifasini yakka tartibda, xolisona baholashga majbur hisoblanadi. Bu esa albatta shifokor kadr salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, harbiy-tibbiy komissiyalarni isloh qilishni avvalo, uni mutaxassislar bilan butlashdan boshlash va o‘z navbatida komissiyaning tashkiliy, moddiy-moliyaviy ta’minotni yechib borishdan izlash kerak. Masalan, tibbiy komissiya shifokor-mutaxassislar xonalari jihozlanishiga doir talablar mavjud bo‘lib, tibbiyot buyumlari, apparatlar va anjomlar yoki zaxirada turishi lozim bo‘lgan dori vositalari, shuningdek xo‘jalik mulklari ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lsa-da, vaziyat amalda talablarga mos kelmaydi [5].

Dori-darmon yetishmovchiligi, donorlik zaxirasining yaratilmaganligi, tibbiy texnika eskirganligi, mebel va boshqa jihozlar yetishmovchiligikabi xarakterli muammolarga to‘xtalib o‘tmasakda, ammo bu vositalarni shakllantirish borasidagi eskicha tartib-usullar hamon ustunlik qilayotgani tizimda tashabbus, yangilanishni so‘ndiradi.

Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilarni tibbiy-ijtimoiy himoyalash sohasidagi an’anaviy ta’minot tizimidagi kamchiliklar yoki muammolar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi yangi loyihalarni yaratish imkonini berishi mumkin.

Masalan, harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha autsorsing asosida tibbiy xizmatlarni, tibbiy sug‘urtani joriy qilishni taklif etamiz.

N.Normatovning qayd etishicha, xususiy tibbiy muassasalar soni 1,5 mingdan oshib, xususiy amaliyoti bilan shug‘ullanayotgan shifokorlar soni esa 2 ming atrofida ekanligi, o‘z navbatida davlat sog‘liqni saqlash tizimi bilan xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan tibbiy yordam sifati oshishiga xizmat qiladi, sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi [6].

Huquqshunos olim Sh.Yakubov qayd

ISSN 3030-3230

qilganidek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ham ijtimoiy sheriklikka kirishishi mumkin [7].

Biz yuqoridagi fikrlarga qo‘shilamiz. Sababi harbiy xizmatchilarga oziq-ovqat autsorsing xizmati kabi tibbiyot sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish imkoniyatlari bor.

Masalan, aslida olganda, ushbu yo‘nalishda 2020-yil karantin sharoitida dastlabki qadamlar qo‘yilgan. Jumladan, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiyasi hamda Davlat xavfsizlik xizmatining pandemiya sharoitida maxsus shifoxonalar hamda vaqtinchalik shifoxonalar faoliyatini tezkor tashkil etish maqsadida zarur bo‘lgan dori vositalari, dezinfeksiya buyumlari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar va sarflash materiallar, xo‘jalik va boshqa tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo‘yicha, shuningdek bemorlar va xodimlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tashish, chiqindilarni utilizatsiya qilish, laboratoriya va diagnostika xizmatlarini tashkil etishda autsorsing xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan, istisno tariqasida, tender (tanlov) o‘tkazmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishga rozilik berilgan [8].

Bevosita Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda autsorsing xizmatlari ko‘rsatish joriy qilinganligini inobatga olsak (tibbiyot muassasalarining funksiyalari, ayrim xizmatlari shartnoma asosida autsorserga o‘tkazilgan), O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari tarkibidagi vazirlik va idoralarda ham navbatdagi galda davlat-xususiy sheriklikni tibbiy ta’minot yo‘nalishida tashkil etilsa, uning ko‘pgina afzalliklari bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Аннотация. Данная статья посвящается научному изучению некоторых организационных, правовых проблем медицинского обеспечения в военной службе, в связи с чем разработаны предложения по улучшению качества медицинского обслуживания.

Ключевые слова: военнослужащий, социальная защита, медицинское обеспечение, медицинское страхование, аутсорсинг.

Annotation. This article is a devoted to the scientific study of some organizational, legal problems of medical support for military personnel, in connection with which is the proposals have been developed to improve the quality of their medical care.

Key words: serviceman, social protection, medical support, health insurance, outsourcing.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 120 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi PQ-4076-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018, 52-son, 994-modda.
3. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 9-son, 128-modda.
4. Антипьева Н.В. Социальное обеспечение военнослужащих: проблема правового регулирования: автореф...дисс. доктора юрид.наук. Санкт-Петербург. 2010. - С.11.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining 2019-yil 24-dekabrdagi 255-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida tibbiy-sanitariya vositalari ta’minotini tashkillashtirish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik yo‘riqnoma”.
6. N. Normatov va boshqalar. Yangi qonunlar mohiyati. Mas’ul muharrir Fayziyev Sh. – T.: Ilm-ziyo, 2009. – 156 b.
7. Yakubov Sh.U. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikligini rivojlantirish. T.: HTI axborotnomasi, 2018, 1-son. – B.15.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-avgustdagi “Koronavirus infektsiyasini yuqtirgan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 461-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY HIMOYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasi, huquqiy himoyaning harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatidagi ahamiyati va tutgan o‘rni, harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarni boshqa xizmat turlaridan farqli jihatlari, muhofazalangan mehnat sharoitlarida faoliyat yuritishlari va ularning huquqiy himoyasining tartibga solinishi va bu boradagi milliy qonunchilikni amaldagi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, mehnat, xizmat, majburiyat, qonun, xizmat turi, qurolli kuchlar, ijtimoiy ta’minot.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Eng bebaho oliy ne’mat — tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetaylik, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug‘ boylikni asrab-avaylaylik deb ta’kidlab o‘tdilar[5].

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunida ham Qurolli Kuchlarni tuzishdan asosiy maqsadi, uning tarkibi yanada kengroq, aniqroq bayon qilingan. Ushbu qonunda: “Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi” deb ko‘rsatilgan [1].

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilish va tinchligini ta’minlash har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Ushbu burchni O‘zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar o‘ziga sharaf deb bilib, ado etadilar.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo‘lagi bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘indir. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi.

Shunga ko‘ra, harbiy xizmatning asosini mustahkam intizom tashkil etib, har bir harbiy xizmatchi unvon hamda mansabidan, har qanday holatdan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida o‘rnatilgan tartib-qoidalar va harbiy nizomlarni so‘zsiz bajarishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Intizom nizomi loyihasida *Yuksak harbiy intizomga* ....komandirlarning (boshliqlarning) o‘z bo‘ysunuvchilarga shaxsiy namunaligi va kundalik talabchanligi va ularning ijrochiligini nazorat qilishi, harbiy xizmatchilarning huquqlari va sha’nini hurmat qilish, ular haqida doimiy qayg‘urish, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta’siri kabi omillarni to‘g‘ri uyg‘unlashtirish va o‘rnida qo‘llash *orqali erishiladi.*

Harbiy qismda (muassasada) yuksak harbiy intizomni saqlash maqsadida komandir (boshliq) quyidagilarga majburdir:

-huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkillashtirish, huquqbuzarliklarni oldini olish, harbiy xizmatni o‘tash uchun xavfsiz sharoitlarni ta’minlash, ko‘ngilsiz hodisalar va turli salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan ishlarni olib borish;

-harbiy xizmatchilarning shaxsiyati, sha’ni va g‘ururini hurmat qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida qayg‘urish komandir (boshliq)ning muhim majburiyatidir.

Har bir harbiy xizmatchi o‘zining huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga to‘la ishonishi, komandir (boshliq) tomonidan uning shaxsiy daxlsizligini ta’minlanishi, o‘z sha’ni va g‘ururining hurmat qilinishiga g‘amxo‘rlikni his qilishi kerak[6].

Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar amalga oshirilishi lozim:

1) harbiy huquqning mohiyati va harbiy huquqning asosiy institutlari – davlatning harbiy tashkiloti, harbiy xizmat, uning turlari, tamoyillari, harbiy xizmatni o‘tash, uning turlari,

ISSN 3030-3230

tamoyillari, harbiy huquqning mazmun-mohiyati haqida chuqur va tizimli bilim berish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganlaridek “Biz yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berishimiz kerak”. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi[3].

Ushbu qaror yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida qabul qilingan edi. Bizningcha, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik to‘g‘risida tarbiyalanishining harbiy xizmatchilar huquqiy himoyasinining huquqiy asoslarini takomillashtirishda o‘z o‘rni bor. Chunki, kelajakda bu yoshlar Milliy armiyamiz saflarini huquqiy ongi yuksak bo‘lgan, harbiy huquqni takomillashtirishga o‘z xissalarini qo‘shishadi.

2) harbiy xizmatchilarning huquqlari va ularning cheklanishi, majburiyatlari, huquqiy javobgarligi masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish.

Ushbu yo‘nalishda mavjud muommolarni o‘rganish bo‘yicha mansabdor shaxslar tomonidan yiliga bir marotaba huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy so‘rovnomalar o‘tkazilishi lozim. Chunki, zamon rivojlangani sayin harbiy xizmatchilarga jamiyatimizning turli sohalarida huquqiy himoya zarur bo‘ladi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari bo‘yicha tegishli qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilishi yoki o‘zgartirilishi lozim.

3) Harbiy xizmatchilarga harbiy qonunchilikda mavjud qonunlarni o‘rgatib borish.

Mazkur masala bo‘yicha harbiy xizmatchilarga qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash bo‘yicha harbiy boshqaruv organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, shaxsiy tarkibning huquqiy madaniyatni oshirish, harbiy xizmatchilarning o‘z xizmat vazifalariga to‘la amal qilishlarini, belgilangan huquqlarining amalda tadbiq etilishini ta’minlash lozim. Ofitserlar tarkibi uchun alohida, kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askarlar, serjantlar tarkibidagilar uchun alohida, muddatli harbiy xizmatchilar uchun alohida, ya’ni barcha toifadagi harbiy xizmatchilar minimum (lotinchadan – eng kam, eng oz) darajada bilishi shart bo‘lgan asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar ro‘yxati berilgan. Harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Mehnat kodekslarini va O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi» qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasini bilishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarini, Harbiy xizmatni o‘tash tartibini reglamentlashtiradigan me’yoriy-huquqiy dalolatnomalarni, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi surishtiruv organlarining Yo‘riqnomasini, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida davlat sirlarini himoya qilish bo‘yicha qo‘llanmani, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriining 1994-yil 29-martdagi «Harbiy xizmatchilar va yig‘inlarga chaqirilgan harbiy majburlarni davlat va majburiy sug‘urtalash» haqidagi buyrug‘ini, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining buyruqlari va direktivalarini, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi boshlig‘ining buyruqlari va direktivalarini, Harbiy okrug qo‘mondonlarining buyruqlari va direktivalarini, Mashg‘ulot va ishlar, qo‘shinlarning kundalik faoliyatida xavfsizlik talablarini bilishi shartligi belgilab qo‘yilgan[2].

Fikrimizcha, ushbu direktivada ofitserlar tarkibi bilishi kerak bo‘lgan qonunlar “Harbiy xizmatchi” maqomiga ega bo‘lgan barcha ofitserlarga o‘rgatilishi lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek “Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”.

4) davlatning harbiy faoliyatidagi xorijiy tajriba haqida ma’lumot berish, harbiy xizmatni tashkil etish, harbiy xizmatchilar faoliyatini huquqiy tartibga solish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Har yili 500 nafar mutaxassisni eng nufuzli xorijiy oliygoh va markazlarda o‘qitib kelamiz” deb ta’kidlab o‘tdilar. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish uchun 500 nafar mutaxassis ichida harbiy soha mutaxassislari ham bo‘lishi lozim. Chunki, rivojlangan xorij davlatlarining harbiy

xizmatchilarining huquqiy himoyasini oshirish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari, erishilgan ijobiy natijalarini milliy armiyamizga tadbiq etishimiz lozim. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”da ta’kidlaganidek “Bugun hech bir sohada ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llamasdan turib taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Bu esa, keng va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda”[4].

Ushbu yo‘nalish bo‘yicha xorijiy davlat vakili bo‘lgan Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsinger “Dunyo xaritasiga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh. Ushbu davlatning shimoliga to‘g‘ri keladigan ayrim hududlarda terrorchi kuchlar harakatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun O‘zbekiston Qurolli Kuchlari har doim terrorizmga qarshi kurashishga qobiliyatli bo‘lishi kerak. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun muhim”[7] deb ta’kidlab o‘tgan.

5) harbiy qonunchilikni rivojlantirish va davlatning harbiy tashkilotida qonun ustuvorligini mustahkamlashga ko‘maklashish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirish harbiy huquq tushunchasi va uning manbalarini o‘rganish va ochib berishdan boshlanadi. Keyinchalik uning takomillashishi quyidagi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Vatan himoyasining huquqiy asoslari, mudofaa va harbiy xavfsizlik, davlat harbiy tashkilotining huquqiy holati, uning kadrlar bilan ta’minlanishi, harbiy xizmat va harbiy xizmatchilar (harbiy burchni bajarish va kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirish, harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning maqomi, harbiy xizmatchilarni moddiy ta’minlash), qo‘shinlarda huquqni muhofaza qilish faoliyati, harbiy sudlar, harbiy prokuraturalarni tashkil etish va faoliyati, yuridik xizmat, harbiy muassasa va korxonalarning huquqiy holati, harbiy iqtisodiyotni boshqarish, intizom, qonuniylik va tartibni ta’minlash, xalqaro harbiy huquqning o‘rnak jihatlari va xorijiy davlatlarning harbiy huquqini qamrab oladi.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовая защита военнослужащих Национальной гвардии, значение и роль правовой защиты в служебной деятельности военнослужащих, отличия служебных обязанностей военнослужащих от других видов службы, функционирование в защищенных условиях труда и регулирование их правовой защиты, а также текущее состояние национального законодательства в этой области.

Ключевие слова: Национальная гвардия, служба общественной безопасности, военнослужащий, правовая защита, труд, служба обязанность, закон, вид службы, вооруженные силы, социальное обеспечение.

Annotation. This article analyzes the legal protection of National Guard servicemen, the importance and role of legal protection in the service activities of military personnel, the differences between the duties of military personnel from other types of service, functioning in protected working conditions and regulation of their legal protection, as well as the current state of national legislation in this area.

Key words: National Guard, ensuring public safety, military personnel, legal protection, labor, service obligation, law, type of Service, Armed Forces, Social Security.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: 2001.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2003-yil 31-maydagi direktivasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
4. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” – Toshkent – 2021 158-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
6. https://kun.uz/news/
7. Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsinger (https://xabar.uz/post/franciya-harbiy-attashesi-yaqin-kelajakda.

ISSN 3030-3230

QO‘RIQLASH SHARTNOMASINING FUQAROLIK HUQUQIY SHARTNOMALAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Umbetov Olim,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘riqlash shartnomasining fuqarolik huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati, uni boshqa o‘xshash fuqarolik-huquqiy shartnomalardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riqlash shartnomasi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, nomlangan shartnoma, nomlanmagan shartnoma, haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalar, omonat saqlash shartnomasi.

Har qanday shartnoma umumiy xususiyatlarining tarkibiy qismlaridan biri bu uning fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rnini belgilashdir. Buning ahamiyati shundaki, nafaqat tadqiq etilayotgan shartnomani o‘xshash bo‘lgan boshqa shartnomalardan ajratish imkonini beradi, balki mazkur shartnomaga shartnomalarning turli tasniflarini qo‘llash jarayonida uning muhim, ammo har doim ham aniq bo‘lmagan belgilari namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida shartnomalarni tizimlashtirish masalasi hanuz munozarali bo‘lib, uzoq tarixiy o‘tmishga ega bo‘lishiga qaramay hali ham aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Sovet davridagi va zamonaviy sivilistlar fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tizimlashtirish muammosi bilan shug‘ullanib kelishmoqda [1]. Shunga qaramay, olimlar tomonidan bugunga qadar shartnomalarni tizimlashtirishning yagona tasniflash mezoni ishlab chiqilmagan va shu sababli ham shartnomalarning asosiy, umume’tirof etilgan tasniflari asosida qo‘riqlash shartnomasini haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida shartnomalar tizimida o‘rnini belgilash maqsadga muvofiq.

Eng avvalo, qo‘riqlash shartnomasining “nomlangan shartnomalar” va “nomlanmagan shartnomalar” tasnifidagi o‘rnini aniqlash lozim bo‘ladi. Qo‘riqlash shartnomasi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan, biroq bu shartnoma O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga noma’lum. Huquqiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, qonun chiqaruvchi fuqarolik muomalasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha shartnomalarni Fuqarolik kodeksida nazarda tuta olmaydi. Chunki, “fuqarolik-huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi har qanday akt, shu jumladan kodeks kabi murakkab akt ham faqat o‘zi qabul qilingan paytdagi mavjud amaliyot ehtiyojlarinigina aks ettira oladi” [2]. Shu sababli ham, “nomlangan shartnomalar” ro‘yxati hayotda mavjud bo‘lgan barcha shartnomalarni hech qachon qamrab ololmaydi.

Nomlanmagan shartnomalar aksariyat boshqa huquqiy institutlar kabi rim xususiy huquqi tufayli paydo bo‘lgan. “Toza doska” (tabula rasa) tamoyili bo‘yicha shartnoma tuzish vazifasining yechimi sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan turli modellar to‘plamlari yaratilganligi hisoblanadi (shartnoma munosabatlarini umumiy tartibga solish qatorida). U ijtimoiy hayotda yuzaga kelayotgan shartnoma turlarining alohida o‘ziga xos xususiyatlarini kerakli normada huquqda aks etishini ta’minlashga imkon berdi [3].

D.D.Grimm ta’kidlaganidek, Rim xususiy huquqida mavjud bo‘lgan shartnomalarning bunday tasniflanishi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, chunki “shartnomaviy munosabatlarning turli tumanligi har bir shartnomaga alohida nom berishni aqlga sig‘dirmaydi va keraksizdir, faqat eng keng tarqalgan shartnomaviy munosabatlar maxsus iboralar bilan belgilanishi mumkin” [4]. G.F.Shershenevichning fikricha, “iqtisodiy munosabatlar murakkablashgani sari shartnomaviy munosabatlar soni ham ortib boradi” va har doim “nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan, garchi Qonunchilik hali ularga o‘z tizimida joy bermagan bo‘lsada, ammo allaqachon ma’lum bir turga aylanishga muvaffaq bo‘lgan bir qator shartnomalar mavjud” [5] U bunday shartnomalarning yuridik kuchi qonunda nazarda tutilgan shartnomalar kuchidan kam emasligini ta’kidlaydi. I.A.Pokrovskiy ham ushbu masalaga e’tibor qaratib, “rivojlanib borayotgan fuqarolik huquqi faqat ma’lum tipik shartnomalar tizimidan, qonunda tartibga solingan u yoki bu namunaga muvofiqligidan qati nazar, har qanday shartnomani umumiy tartibda tan olishga o‘tmoqda” [6]

RSFSRning 1922-yildagi Grajdanlik Kodeksida [7] nomlanmagan shartnomalar to‘g‘risida hech qanday qoida mavjud emas edi, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish munosabatlari pudrat va topshiriq shartnomalari bilan tartibga solingan [8]. Biroq nomlanmagan shartnomalar

qonuniy himoyaga ega bo‘lmagan. Biroq, bir qator huquqshunos olimlar nomlanmagan shartnomalarni himoya qilish zarurligini tan olishgan. Jumladan, I.B.Novitskiy “fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan shartnoma turlari tugal ro‘yxat deb hisoblanmaydi va taraflar fuqarolik huquqi tamoyillariga zid bo‘lmasa, qonunda nazarda tutilmagan har qanday shartnoma tuzishlari mumkin” [9], deb hisoblagan.

Xuddi shunday fikrni O.S.Ioffe ham ilgari surgan va unga ko‘ra, “bitimlar qonuniy xatti-harakatlarning bir turi bo‘lganligi sababli ham, ularni amalga oshirishga qonunda nazarda tutilgan hollarda ham, ushbu bitim qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan hollarda ham ruxsat beriladi, biroq u qonunchilikka mazmuniga ko‘ra ham, yo‘naltirilganligi bo‘yicha ham zid kelmasligi lozim” [10].

Keyinchalik, 1963-yil 23-martda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning Grajdanlik kodeksida nomlanmagan shartnomalar rasman tan olinadi. Xususan, mazkur Kodeksning 4-moddasida fuqarolik huquq va majburiyatlari qonunda nazarda tutilgan bitimlardan ham, qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa ham, unga zid bo‘lmagan bitimlardan kelib chiqishi nazarda tutilgan. Biroq, ushbu Kodeksda ham haq evaziga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar ochiq qolib ketdi [11].

Amaldagi O‘R FKda yuqoridagi qoidalar o‘z ifodasini topdi va uning 354-moddasi 2-qismiga muvofiq, taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin [12]. Bundan tashqari, O‘R FK 8-moddasi 1-qismi 1-bandida ham ushbu umumiy qoida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, fuqarolik huquq va majburiyatlari “qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, lekin unga zid bo‘lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan” [13] vujudga keladi.

Shunday qilib, fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga qonunda nazarda tutilmagan hamda qonunchilikka zid bo‘lmagan shartnomalarni tuzish huquqi mustahkamlandi. Ya’ni, X.R.Raxmonqulov ta’kidlaganidek, “Qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan, ammo unga zid bo‘lmagan shartnomalar va boshqa bitimlar tuzilishi mumkin. Tuziladigan shartnomalar va boshqa bitimlar fuqarolik-huquqiy muomalaning maqsadlari va mazmuniga muvofiq bo‘lgan hollarda bunga yo‘l qo‘yiladi” [14].

Shu asosda, Fuqarolik kodeksida nazarda tutilmagan shartnomalarning ayrim xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, M.I.Braginskiyning ta’kidlashicha, “Fuqarolik kodeksida emas, balki boshqa qonun yoki huquqiy aktda nomlangan shartnoma tuzishda yuzaga keladigan vaziyat” shubhasiz o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki “qonun chiqaruvchi agar tegishli masala Fuqarolik kodeksining birinchi qismida va qonunda (boshqa huquqiy aktda) hal qilinmagan bo‘lsa hamda boshqacha yechim topish imkoniyati to‘g‘risida hech qanday eslatma bo‘lmasa, har qanday qarorni ushbu turdagi shartnoma bilan bog‘liq aktga kiritishi mumkin” [15].

Ta’kidlash joizki, O‘R FKda nazarda tutilmagan shartnoma to‘g‘risidagi qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning qoidalari majburiyat huquqining umumiy qoidalariga zid bo‘lmasligi kerak. Shu sababli ham, O‘R FK va maxsus qonun hujjatlari o‘rtasida qo‘riqlash shartnomasiga bo‘yicha har qanday ziddiyatlar bo‘lishi ehtimoli haqida gapirishning hojati yo‘q, chunki bunday qonun hujjatlarida batafsil huquqiy tartibga soluvchi qoidalar mavjud emas.

Aytish kerakki, qo‘riqlash shartnomasi o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo‘lganligi sababli, u O‘R FK 38-bobining qoidalari bilan tartibga solinadi. Sh.Norboyev ta’kidlashicha, “Mazkur shartnoma mohiyatan va mazmunan haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari turkumiga kiradi” [16].

M.I.Braginskiy esa shunday fikr bildiradi: “amaldagi Fuqarolik kodeksining 39-bobini huquqiy ahamiyati shundaki, u FKda nazarda tutilmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ya’ni haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasining mustaqil turlariga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni “FKda nomlanmagan” deb atash mumkin” [17]. Bizning fikrimizcha, qo‘riqlash shartnomasini umuman nomlanmagan shartnoma sifatida tasniflash maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Ushbu shartnomani O‘R FKda nomlanmagan, biroq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nomlangan deb belgilash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, qo‘riqlash shartnomasi haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasining turlaridan biri bo‘lib, bunday tasniflash uchun asos, fikrimizcha, shartnoma bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatning xususiyatidir. Biroq, adabiyotlarda boshqacha tasniflar ham keng tarqalgan. Jumladan, A.E.Sherstobitov haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarni xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy faoliyat sohalariga ko‘ra quyidagicha tasniflaydi: aloqa va axborot xizmatlari, tibbiy xizmat va ijtimoiy xususiyatdagi xizmatlar, veterinariya xizmatlari, auditorlik xizmatlari, yuridik xizmatlar, sayyohlik-ekskursion xizmatlar, ta’lim xizmatlari, aholini bandligiga ko‘maklashish xizmatlari, umumiy ovqatlanish xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, kommunal xizmatlar, gigiyenik xizmatlari, marosim xizmatlari, sport-sog‘lomlashtirish va sanatoriya-kurort xizmatlari, madaniy-ko‘ngilochar xizmatlar [18]. Bizningcha, ushbu tasnif doirasida haq evaziga xizmat ko‘rsatish

ISSN 3030-3230

shartnomasining turlaridan biri sifatida qo‘riqlash xizmatini, ya’ni, uchinchi shaxslarning noqonuniy tajovuzlardan himoyalash maqsadida obyektning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan xizmatlarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim edi.

Shuningdek, adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaviy majburiyatlar ijrochi faoliyatining tabiati bo‘yicha, faktik xususiyatdagi xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlar, huquqiy xususiyatdagi xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlar va aralash xizmatlarni ko‘rsatish bo‘uyicha majburiyatlarga tasniflanadi [19]. Aytish mumkinki, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalarini ham shunday turlarga ajratsa bo‘ladi. Bunday holda, qo‘riqlash shartnomasini faktik xususiyatdagi xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar qatoriga kiritish mumkin.

I.A.Drozdovning ta’kidlashicha, bugungi kunda sivilistlar xizmat ko‘rsatish kategoriyasini tavsiflash orqali, xizmat ko‘rsatish deganda inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har qanday faoliyatni anglatuvchi iqtisodiyot fanining konseptual tushunchasini qabul qildilar [20].

Bizningcha ushbu fikrga qo‘shilish mumkin va shunga e’tibor qaratmoqchimizki, ushbu yondashuv “xizmat ko‘rsatish sohasi” tushunchasining haddan tashqari kengayishiga va turli shartnomalarni xizmat ko‘rsatish shartnomalariga tegishliligini tan olishga olib keldi. O‘z davrida Ye.D.Sheshenin “xizmat ko‘rsatish sohasiga sotsialistik tashkilotlarning fuqarolarni barcha ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati kiradi” [21], deb hisoblagan. A.Yu.Kabalkin xizmat ko‘rsatish shartnomalarini beshta guruhga ajratgan: 1) tijorat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar; 2) maishiy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar; 3) transport xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar; 4) uy-joy xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar; 5) boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar [22].

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasidagi shartnomalar iste’molchi-fuqarolar ishtirokidagi shartnomalar va bunday shartnomalardan farqli o‘laroq, tadbirkorlik shartnomalariga ajratilmoqda. Masalan, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi maishiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar va tadbirkorlik faoliyati sohasida haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalariga bo‘linadi [23]. Bizningcha, qo‘riqlash shartnomasi iste’molchi fuqarolar ishtirokida ham, tadbirkorlik sohasida ham (ikkala taraf ham tadbirkorlik subyektlari bo‘lgan holda) tuzilishi mumkin.

Qo‘riqlash shartnomasini unga o‘xshash bo‘lgan shartnomalardan ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu ushbu shartnoma mustaqil shartnoma degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Biz yuqorida haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida qo‘riqlash shartnomasining huquqiy xususiyatini yoritib berdik. Ushbu shartnomaning bunday tasniflanishi uni haq evaziga tuzilishi kabi boshqa muhim belgilarini ham ochib beradi: shartnoma bo‘yicha amalga oshirilgan faoliyat natijasining moddiy ko‘rinishga ega emasligi va natijada ushbu faoliyatning foydali xususiyatlari uni taqdim etish jarayonida iste’mol qilinishi. Ushbu belgilar, eng avvalo, qo‘riqlash shartnomasini haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida pudrat shartnomasidan ajratib olish va pudrat shartnomasi asosida qo‘riqlash xizmatlarini taqdim yetish mumkin emas degan xulosaga kelish imkonini beradi.

O‘R FKda xizmat ko‘rsatish munosabatlari faqatgina “Haq evaziga xizmat ko‘rsatish” deb nomlangan 38-bob normalari bilan tartibga solinmaydi. Ayrim adabiyotlarda u yoki bu qo‘shimcha shartlar bilan predmeti xizmat ko‘rsatish bo‘lgan shartnomalar ham haq evaziga xizmat ko‘rsatishga kiritiladi: tashish, transport ekspeditsiyasi, bank omonati, bank hisobvarag‘i, hisob-kitoblar, omonat saqlash, topshiriq, vositachilik, mol-mulkni ishonchli boshqarish va boshqalar. Shundan kelib chiqib, qo‘riqlash shartnomasining mustaqil shartnoma ekanligini asoslash uchun uni o‘xshash shartnoma modellaridan ajratish lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday shartnomalarning aksariyati bilan qo‘riqlash shartnomasining o‘xshashligi shunchalik ozki, ularni batafsil taqqoslash unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

Bizning fikrimizcha, asosiy e’tiborni qo‘riqlash shartnomasini omonat saqlash shartnomasidan alohida ekanligiga qaratish lozim, chunki omonat saqlash shartnomasi qo‘riqlash shartnomasiga, ya’ni uning alohida turi hisoblangan mol-mulkni qo‘riqlash shartnomasiga judayam yaqin hisoblanadi. M.I.Braginskiyning ta’kidlashicha, mazkur shartnomalar nafaqat xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi bilan, balki ularning yakuniy maqsadi: mol-mulkni saqlash bilan ham o‘xshab ketadi. Bundan tashqari, “ikkala turdagi shartnomalarni buzish oqibatlari bir xil bo‘lishi mumkin: yo‘qotilgan yoki zarar yetkazilgan mol-mulkka yetkazilgan zarar qiymatini qoplash” [24]. Ta’kidlash joizki, Yu.V.Romanets ham shunday fikr bildirib, “omonat saqlash mol-mulkni butunligini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga qaratilgan qo‘riqlash shartnomasiga o‘xshaydi. Bunday kelishuvlarning yakuniy maqsadi bir xil, ammo unga erishish usullari boshqacha” [25] deb ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, bu qoidalar aniqlashtirishga muhtoj. Gap shundaki, aynan yo‘naltirilganlikning o‘zida omonat saqlash

shartnomasi va qo‘riqlash shartnomasi o‘rtasidagi sezilarli farqlar yashirindir. Bu farq shundan iboratki, omonat saqlash shartnomasi, birinchi navbatda, mol-mulkni “zarar ko‘rishdan va o‘g‘irlikdan saqlashga” [26] qaratilgan bo‘lsa, qo‘riqlash shartnomasi topshirilgan obyektni faqat noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan.

A.I.G‘aybullayev bu borada fikr bildirar ekan, asosli ravishda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Omonat saqlash va qo‘riqlash shartnomasining umumiy maqsadi haq evaziga ashyoni butligini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, mazkur shartnomalar maqsadlariga erishishlari uchun turli vositalardan foydalanadi. Omonat saqlash shartnomasida ashyo saqlovchining ixtiyorida bo‘lib, unga tegishli bo‘lgan joyda saqlanadi, agarda buning imkoni bo‘lmasa bu munosabat saqlash shartnomasi bo‘lib hisoblanmaydi (sekvestr munosabatlari istisno tarzda). Qo‘riqlashda esa mulk o‘z egasi tasarrufida bo‘lib, faqatgina uning butligini ta’minlash maqsadida qo‘riqlovga beriladi va bunda faqat ashyo saqlashga doir texnik funksiyalar amalga oshiriladi” [27].

Darhaqiqat, qo‘riqlash qo‘riqlovga olingan obyektni saqlash uchun maqbul sharoitni yaratmaydi va uning maqsadi uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan zarar va yo‘q bo‘lishdan saqlashni anglatmaydi. Bu omonat saqlash va qo‘riqlash shartnomalari o‘rtasidagi asosiy farq bo‘lib, o‘z navbatida boshqa farqlarni ham ochib beradi. Masalan, mol-mulk yo‘qotilgan yoki zarar yetkazilgan bo‘lsa, qo‘riqlash tashkiloti haqiqatan ham yetkazilgan zararni qoplash uchun javobgar bo‘ladi, biroq bu zarar uchun uchinchi shaxslar aybdor bo‘lishi lozim. Aslida qo‘riqlash tashkiloti uchinchi shaxslar tomonidan yetkazilgan zararni qoplaydi. Albatta, bu zarar qo‘riqlash tashkilotining shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida yuzaga keladi, ammo ba’zida qo‘llanilgan qo‘riqlash usul va vositalari yetkazilgan zararni oldini ololmasligi mumkin. Bunday holda, qo‘riqlash tashkilotining majburiyati faqat huquqbuzarni qo‘lga olish bilan cheklanadi. Shunday qilib, mol-mulkni qo‘riqlash to‘g‘risidagi bitimning maqsadi mol-mulkni (yoki boshqa turdagi qo‘riqlanadigan obyektlarni) saqlash emas, balki uni uchinchi shaxslarning noqonuniy tajovuzlaridan saqlashni ta’minlash yoki bunday huquqbuzarlarni qo‘lga olishdan iborat.

Tadqiq etilayotgan shartnomalar o‘rtasidagi boshqa farqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq.

Eng avvalo bunday farq shundaki, omonat saqlash shartnomasiga ko‘ra, ashyo omonat saqlovchining mulkiga o‘tkaziladi, qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatishda esa mulk buyurtmachining ixtiyorida qoladi, ya’ni mulk huquqi qo‘riqlovchiga o‘tmaydi. A.I.G‘aybullayev asosli ravishda ta’kidlaganidek, “omonat saqlash munosabatlari fuqarolik huquqida an’anaviy tusga ega bo‘lgan va qadim zamonlardan buyon shakllanib kelayotgan institutlardan biri bo‘lib, bunda mulkdorning ashyoga nisbatan egalik qilish huquqi ma’lum muddatga boshqa shaxsga o‘tadi va bu shaxs (saqlovchi) ashyoni saqlab turish barobarida ashyoga nisbatan egalik qilish huquqini qo‘lga kiritadi” [28].

Qo‘riqlash shartnomasining sivilistik tavsifida shartnoma obyektiga nisbatan qo‘riqlash uning “tashqi butligini” ta’minlashdan iborat ekanligini yakdillik bilan ta’kidlanishiga alohida e’tibor qaratish lozim: u “tashqi xususiyatga» ega va “tashqaridan qo‘riqlash” sifatida tavsiflanishi mumkin. Saqlash va qo‘riqlash o‘rtasidagi bu farq O.S.Ioffe tomonidan ham qayd etilgan bo‘lib, u quyidagilarni ta’kidlagan: “qo‘riqlash mol-mulkni tartibsiz kuchlar yoki vakolatsiz shaxslar tomonidan tahdid solinishi mumkin bo‘lgan jismoniy yo‘q qilish, shikastlash yoki yo‘qotish xavfidan qo‘riqlash uchun zarur bo‘lgan faqat texnik funksiyalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Aksincha, mol-mulkni saqlash uchun ishonib topshirilgan shaxs egalik huquqini, shuningdek buning uchun zarur bo‘lgan boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi” [29].

Tadqiq etilayotgan shartnomalar o‘rtasidagi ikkinchi farq shundaki, qo‘riqlanadigan ashyoni xizmatdan foydalanuvchining egaligida qoldirilishi qo‘riqlash shartnomasini tuzish tartibining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi: qo‘riqlovga olingan obyekt odatda ko‘zdan kechirilmaydi va unda mavjud bo‘lgan “tovar-moddiy boyliklar ro‘yxatga olinmaydi” [30], bu esa o‘z navbatida qo‘riqlash va saqlash shartnomalari o‘rtasidagi yana bir farqni ochib beradi.

Qo‘riqlash shartnomasi va saqlash shartnomasi o‘rtasidagi uchinchi farqni ularning obyektlarini taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha bir taraf (omonat saqlovchi) unga ikkinchi taraf (yuk topshiruvchi) bergan ashyoni saqlash va bu ashyoni to‘la holida qaytarish majburiyatini oladi [31] (O‘R FK 875-moddasi). Ushbu qoidadan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu shartnomaning obyekti, birinchi navbatda, ko‘char ashyolar, ya’ni fuqarolik huquqi nazariyasiga muvofiq, “bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida xususiyatini o‘zgarishsiz saqlaydigan va o‘z maqsadiga ko‘ra ishlatilishi mumkin bo‘lgan ashyodir” [32]. A.I.G‘aybullayev ham shunday fikr bildirib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Omonat saqlash shartnomasining predmeti, qoida tariqasida, ko‘char, iste’mol qilinmaydigan, omonat saqlovchining mulkiga o‘tmaydigan, xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolardir” [33].

ISSN 3030-3230

Biroq, qoidalarda istisnolar ham bo‘lishi mumkin. Omonat saqlash shartnomasi obyekti faqat ko‘char mulk bo‘lishi to‘g‘risidagi umumiy qoidadan istisno — bu O‘R FK 900-moddasi 3-qismining qoidalari bo‘lib, unga ko‘ra “sekvestr tartibida saqlashga ko‘char mulklar ham, shuningdek ko‘chmas mulklar ham topshirilishi mumkin” [34]. Bu masalada M.F.Kazansev yanada qati fikr bildirib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “birinchi navbatda, ko‘char ashyolarni saqlashni tartibga solishga qaratilgan Fuqarolik kodeksi, ko‘chmas ashyolarni saqlashga topshirishni ham istisno qilmaydi va nizo predmeti bo‘lgan narsalarni saqlashga bunday imkoniyatni beradi” [35].

Qo‘riqlash shartnomasining obyekti ko‘char hamda ko‘chmas ashyolar bo‘lishi mumkin. Biroq, amaliyotda ko‘chmas mulkni qo‘riqlash bo‘yicha shartnomalar tuzish keng tarqalgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida qo‘riqlash shartnomasini omonat saqlash shartnomasidan ajratishga sabablardan biri bo‘lganga o‘xshaydi.

Qo‘riqlash va omonat saqlash shartnomalari o‘rtasidagi to‘rtinchi farq sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, omonat saqlashning mohiyati topshirilgan ashyoni omonat saqlovchining saqlash binosiga yoki hududiga joylashtirishdan iborat, qo‘riqlash shartnomasida esa, qoida tariqasida, bu narsa ko‘zda tutilmaydi. Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ijrochi faqat “ko‘chmas mulkni (bino, inshoot va hududni) ma’lum bir muddat (oy, yil va hokazo) davomida begona shaxslarning kirishidan qo‘riqlaydi, shuningdek, ishchi-xodimlar tomonidan buyurtmachining mulkini talon-taroj qilinishini (olib chiqib ketilishini) oldini olish choralarini ko‘radi. Qo‘riqlovchi bu choralarni qo‘riqlovga olingan ashyolarni o‘z binosi yoki hududiga joylashtirish orqali emas, balki qo‘riqlanadigan obyekt hududiga nazorat-o‘tkazish joylarini tashkil qilish, video-kuzatuv kameralarini integratsiya qilish, qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi vositalarini o‘rnatish va uni markazlashgan pultga ulash orqali amalga oshiradi.

Biz e’tibor qaratmoqchi bo‘lgan qo‘riqlash shartnomasining omonat saqlash shartnomasidan yana bir farqi – bu qo‘riqlash shartnomasining faqat haq evaziga tuzilishi tabiatidir. Uning ushbu belgisi S.P.Grishayev tomonidan omonat saqlash shartnomasidan ajratib turuvchi xususiyat sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, u “ushbu shartnomaga binoan bir taraf (qo‘riqlovchi) boshqa tarafning mol-mulkini haq to‘lash evaziga lozim darajada qo‘riqlashni tashkil etish va ta’minlash majburiyatini oladi” [36]. Qo‘riqlash shartnomasidan farqli o‘laroq, omonat saqlash shartnomasi haq evaziga va tekinga ham tuzilishi mumkin.

Qo‘riqlash shartnomasini omonat saqlash shartnomasidan farqlashda, nafaqat ularning umumiy maqsadi (mulkning saqlanishini ta’minlash), balki, ba’zi hollarda omonat saqlash shartnomasi qo‘riqlash shartnomasining ayrim elementlarini o‘z ichiga olganligi sababli ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shartnomalarning elementlarini “aralashib ketish” holatlarini qimmatbaho buyumlarni alohida bank po‘lat sandig‘ida saqlash kabi maxsus omonat saqlash turida, ya’ni topshiruvchiga bank po‘lat sandiq taqdim yetgan holda bankda qimmatbaho narsalarni saqlashda ko‘rish mumkin. Bu O‘R FK 896-moddasi 5-qismiga muvofiq, bank mijozga taqdim etilgan po‘lat sandiqqa “bank boylik topshiruvchining boyliklarni olishini va qaytarib topshirishini hisobga olish” [37] ida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, bank nazoratidan tashqarida temir sandiqqa joylashtirilgan qimmatbaho buyumlarning saqlanishi uchun ham javobgar bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, qo‘riqlash shartnomasini omonat saqlash shartnomasidan ajratish mumkin va bu uning mustaqil shartnoma ekanligini tasdiqlaydi. Ammo, qo‘riqlash shartnomasining alohida elementlari mavjud bo‘lgan aralash shartnomalar mavjudligini ham istisno qilmaydi.

Ta’kidlash joizki, barcha qo‘riqlash bilan bog‘liq munosabatlar fuqarolik-huquqiy shartnomalar vositasida tartibga solinmaydi. Bunday munosabatlarning ayrimlari markazlashtirilgan ma’muriy huquq tamoyillariga asoslanadi. Bundan tashqari, qo‘riqlash xizmatlari mehnat shartnomasi asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda, taraflarning munosabatlari fuqarolik huquqi normalari bilan emas, balki mehnat qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi. Umuman olganda, qo‘riqlash shartnomasi mehnat shartnomasidan birinchi navbatda o‘zining subyektlari tarkibi bilan farq qiladi. Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ijrochi har doim qo‘riqlash tashkiloti (ya’ni, yuridik shaxs) bo‘ladi, mehnat shartnomasi bo‘yicha esa qo‘riqlovchi xodim faqat jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qo‘riqlash shartnomasining fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rnini tahlil qilar ekanmiz quyidagi xulosalarni bildirishni lozim topdik.

Qo‘riqlash shartnomasi – bu amalda haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi hisoblanadi. Ushbu shartnoma iste’molchilar bilan ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan ham tuzilishi mumkin. “Qo‘riqlash shartnomasi” mehnat shartnomasidan ham, boshqa haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan ham ajralib turadi. Qo‘riqlash shartnomasi mehnat shartnomasidan birinchi navbatda o‘zining subyektlari tarkibi bilan ajralib turadi.

Qo‘riqlash va omonat saqlash shartnomalarining farqi quyidagi asoslarda

namoyon bo‘ladi: a) shartnomalarning maqsadida (qo‘riqlash shartnomasining maqsadi mol-mulkni uchinchi shaxslarning noqonuniy tajovuzlaridan qo‘riqlashdir, omonat saqlash shartnomasining maqsadi ashyoni zarar ko‘rishdan va o‘g‘irlashdan saqlashdir); b) qo‘riqlanadigan mulkning huquqiy holatida (qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ashyo buyurtmachining egaligida bo‘ladi, omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha ashyo omonat saqlovchining egaligiga o‘tadi); v) mol-mulkni topshirish tartibida (qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha, odatda qo‘riqlovga olingan ashyolar ro‘yxati tuzilmaydi, omonat saqlash shartnomasida esa bu bevosita amalga oshiriladi); g) obyektida (qo‘riqlash shartnomasining obyekti ko‘char va ko‘chmas ashyolar bo‘lishi mumkin, omonat saqlash shartnomasining obyekti odatda faqat ko‘char ashyolar bo‘ladi, sekvestr bundan mustasno); d) haq evaziga va tekinga tuzilishi belgisida (qo‘riqlash shartnomasi har doim haq evaziga tuziladi, omonat saqlash shartnomasi esa haq evaziga ham va tekinga ham tuzilishi mumkin).

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘riqlash shartnomasining fuqarolik huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati, uni boshqa o‘xshash fuqarolik-huquqiy shartnomalardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘riqlash shartnomasi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, nomlangan shartnoma, nomlanmagan shartnoma, haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalar, omonat saqlash shartnomasi.

Annotation. This article analyzes and highlights the role and significance of the reservation agreement in the civil legal treaty system, its distinctive features that distinguish it from other similar civil-legal treaties.

Key words: contract of reservation, contract of service for a fee, contract named, contract not named, contracts concluded for a fee and for free, contract of storage of savings.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қаранг: Новицкий И.Б., Лунц Л.А. Общее учение об обязательстве. –М., 1950.; Гордон М.В. Система договоров в советском гражданском праве. //Ученые записки Харьковского юридического института. Выпуск 5. 1954.; Иоффе О.С. Обязательственное право. –М.: Госюриздат, 1975.; Красавчиков О.А. Советское гражданское право. Учебник. Т.1. -М.: Высшая школа, 1968.; Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. -М.: Статут, 1997.; Рахмонқулов Ҳ.Р. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). Дарслик. –Т.: ТДЮИ, 2005.; Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. / Масъул муҳаррир: Ҳ.Раҳмонқулов: 4-нашр. Қайта ишланган ва тўлдирилган. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006.; Синдаров К. Қишлоқ хўжалиги оҳасидаги шартномалар. Монография. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.; Рузиев Р.Д. Понятие и значение направленности как основного системного фактора / Батырдын мурасы – ел идеологиясынын бастауы: халықаралық ғылыми-теориялық конференциянын материалдары. –Шымкент: «Асқаралы», 2010.; Шартнома ҳуқуқи. Ўқув қўлланма /Ҳуқуқшунослик ихтисоси бўйича олий ўқув юртлари магистратура талабалари учун/ Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006.; Чориев М.Ш. Мулкни тасарруф этишга қаратилган шартномаларни тизимлаштиришнинг илмий-назарий муаммолари // “Ўзбекистонда фуқаролик қонунчилигининг ривожланиш генезиси ва истиқболлари” халқаро илмий- амалий конференция материаллари тўплами / Масъул муҳаррирлар ю.ф.д., проф. Н.Имомов,–Т.: ТДЙ. 2024.

2. Брагинский М. И., Витрянский В. В. Договорное право: Общие положения. М.: «Статут», 1997. С. 324.

3. Аскаров Н.И. Номланмаган шартномаларни фуқаролик ҳуқуқий тартибга солишнинг назарий ва амалий муаммолари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун диссертация. –Т., 2020. 29-бет.

4. Гримм Д. Д. Лекции по догме римского права. М.: «Зерцало», 2003. С. 334.

5. Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского права. М.: СПАРК, 1995. С. 315.

6. Покровский И. А. Основные проблемы гражданского права. М.: «Статут», 1998. С. 250.

7. Изоҳ: 1927 йил Ўзбекистон ССР ГК қабул қилингунга қадар мамлакатимиз ҳудудида РСФСР ГК амалда бўлган. Қаранг: Рахманкулов, Х. А.Возникновение и развитие гражданского законодательства Узбекской ССР //Правоведение. -1975. - № 6. - С. 66-72.

8. Norboyev SH.B. Autsorsing munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2022. 38-bet.

ISSN 3030-3230

9. Новицкий И.Б., Лунц Л.А. Общее учение об обязательстве. М.: Госюриздат, 1950. С. 100.
10. Иоффе О. С. Советское гражданское право. И Иоффе О. С. Избранные труды: В 4 т. Т. II. СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2004. С. 268.
11. Norboyev SH.B. Autsorsing munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2022. 39-bet.
12. https://lex.uz/docs/111189#155463
13. https://lex.uz/docs/111189#150079
14. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Vektor-Press», 2010. (Профессионал (малакали) шарҳлар). 27-бет.
15. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. -М.: «Статут», 1997. -С. 330
16. Shartnoma huquqi. Darslik / R.J.Ro‘ziyev, M.Sh.Choriyev, A.A.Muxammadiyev va boshqalar. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 401-bet.
17. Брагинский М. И., Витрянский В. В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. М.: «Статут», 2003. -С. 232.
18. Гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II. Полутом 2 / Отв. ред. Е.А.Суханов. -М.: БЕК, 2002. -С. 13-14.
19. Қаранг: Ситдикова Л.Б. Правовое регулирование отношений по возмездному оказанию услуг: Дисс. ... к. ю. н. Казань, 2002. -С. 82.
20. Қаранг: Дроздов И. А. Обслуживание вещей в системе гражданско-правовых отношений обслуживания // Правоведение. 2002. № 5. -С. 179.
21. Шешенин Е.Д. Классификация гражданско-правовых обязательств по оказанию услуг // Антология уральской цивилистики. 1925-1989: Сб. статей. -М.: «Статут», 2001. -С. 353.
22. Кабалкин А.Ю. Сфера обслуживания: гражданско-правовое регулирование. -М.: Наука, 1972. -С. 29-30.
23. Гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II. Полутом 2 / Отв. ред. Е.А.Суханов. -М.: БЕК, 2002. -С. 13.
24. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. М.: «Статут», 2003. -С. 727.
25. Гражданское право: Учебник. Т. II / Под ред. О. Н. Садикова. -М.: Юридическая фирма «Контракт»: ИНФРА-М, 2007. -С. 335.
26. Қаранг: Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. М.: «Статут», 2003. -С. 668.
27. G‘aybullayev A.I. Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi. Yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent shahri – 2024. 54-bet.
28. G‘aybullayev A.I. Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi. Yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent shahri – 2024. 20-bet.
29. Иоффе О.С. Отдельные виды обязательств // Иоффе О.С. Избранные труды: В 4 т. Т. III. Обязательственное право. -СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2004. С. 491.
30. Қаранг: Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. М.: «Статут», 2003. -С. 728.
31. https://lex.uz/docs/180552#195651
32. Fuqarolik huquqi. Darslik. I-qism / Mualliflar jamoasi. –T.: TDYuU nashriyoti, 2017. 99-bet.
33. G‘aybullayev A.I. Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi. Yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent shahri – 2024. 28-bet.
34. https://lex.uz/docs/180552#195651
35. Қаранг:Казанцев М. Ф. Хранение (глава 47) // Гражданский кодекс Российской Федерации. Часть вторая. Текст, комментарии, алфавитно-предметный указатель. / Под ред. О.М.Козырь, А.Л.Маковского, С.А.Хохлова. -М.: Международный центр финансово-экономического развития, 1996. -С. 482.
36. Гражданское право: Учебник / Под ред. С. П. Гришаева. -М.: Юристь, 2004. -С. 367.
37. https://lex.uz/docs/180552#195651

JISMONIY TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARIDA AKROBATIKA (GIMNASTIKA) MASHQLARINI O‘RGANISH ORQALI KURSANTLARNING HARAKAT KOORDINATSIYASI VA JISMONIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Atashayxov Abduvaxid Abdushukurovich,
O‘zbekiston Respubkiasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada gimnastika mashg‘ulotlarining jismoniy tayyorgarlik jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, gimnastika, akrobatika, harakat koordinatsiyasi, kursantlar, Jamoat xavfsizligi universiteti.

Jismoniy tayyorgarlik inson salomatligi va umumiy jismoniy holatini yaxshilashga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun harakat koordinatsiyasi va jismoniy qobiliyatning rivojlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Akrobatika va gimnastika mashqlari ushbu maqsadlarga erishishda samarali vosita hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur, chunki bu ularning xizmat vazifalarini samarali bajarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1].

Jismoniy tayyorgarlik va uning ahamiyati. Jismoniy tayyorgarlik insonning jismoniy qobiliyatlari, chidamliligi va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Bu jarayon nafaqat sport bilan shug‘ullanuvchilar, balki harbiylar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqa jismoniy faollik talab qilinadigan kasb egalari uchun ham muhimdir [2]. Ayniqsa, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun jismoniy tayyorgarlik ularning kelajakdagi professional faoliyatida muhim o‘rin tutadi [2].

Jismoniy tayyorgarlik insonning umumiy salomatligini yaxshilaydi va uning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlar mushaklarni mustahkamlash, nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini rivojlantirish bilan birga, inson organizmining turli yuklamalarga bardoshliligini ham oshiradi [3]. Kursantlar uchun bu juda muhim, chunki ular og‘ir jismoniy mashg‘ulotlarga va ekstremal sharoitlarda ishlashga tayyor bo‘lishlari kerak [3].

Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik insonning psixologik barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy faollik stressni kamaytirishga, depressiyaga qarshi kurashishga va umumiy ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi [4]. Sport bilan muntazam shug‘ullanish insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, iroda kuchini rivojlantiradi va o‘zini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi [3].

Jismoniy tayyorgarlikning yana bir muhim jihati – insonning harakat koordinatsiyasini yaxshilashidir. Harakatlar muvozanatini saqlash, tezkor qaror qabul qilish va tezlikni oshirish har qanday jismoniy faoliyatda muhim rol o‘ynaydi [2]. Kursantlar uchun bu, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda va ekstremal sharoitlarda samarali harakat qilish qobiliyatini oshirish uchun muhimdir [4]

Bundan tashqari, jismoniy tayyorgarlik turli jarohatlar xavfini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Kuchli va elastik mushaklar, mustahkam suyak tizimi va rivojlangan reflekslar jarohatlarning oldini olishga yordam beradi [3]. Shu sababli, har qanday kasb egasi, ayniqsa, jismoniy tayyorgarlik talab qilinadigan sohada ishlaydigan shaxslar muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishlari lozim [2]

Jismoniy tayyorgarlik insonning ijtimoiy hayotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy mashg‘ulotlar orqali inson jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi, o‘zaro hamkorlik va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi [3]. Bu esa kursantlar uchun xizmat faoliyati davomida jamoaviy ishlash samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi [2].

Akrobatika va gimnastika mashg‘ulotlarining jismoniy tayyorgarlikdagi o‘rni. Akrobatika va gimnastika jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu mashg‘ulotlar mushak kuchini oshirish,

ISSN 3030-3230

harakat koordinatsiyasini yaxshilash, tananing moslashuvchanligini rivojlantirish va umumiy jismoniy chidamlilikni mustahkamlashga xizmat qiladi [2]. Ayniqsa, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun bu turdagi mashqlar favqulodda holatlarda tezkor harakat qilish va o‘zini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Akrobatika va gimnastika mashg‘ulotlarining asosiy afzalliklaridan biri harakat aniqligini oshirishdir. Ushbu sport turlarida aniq va muvozanatli harakatlarni bajarish talab qilinadi, bu esa mushaklar va asab tizimi o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi [2]. Natijada, kursantlar o‘z harakatlarini yaxshiroq nazorat qila oladilar va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar [3].

Bundan tashqari, gimnastika mashg‘ulotlari mushaklarning mustahkamligini oshirib, inson tanasining umumiy funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi [2]. Ushbu jarayon tananing yuqori va pastki qismlarini bir maromda rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, akrobatika mashqlari orqali bel, qo‘l va oyoq mushaklari mustahkamlanib, tana og‘irligini nazorat qilish qobiliyati ortadi. Shu boisdan, kursantlar jismoniy yuklamalarga tayyor bo‘lib, xizmat faoliyatida har qanday vaziyatga moslasha oladilar.

Gimnastika va akrobatika nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki refleks va reaksiya tezligini oshirishga ham yordam beradi. Masalan, tayanib sakrash, burilish va muvozanat mashqlari orqali kursantlar to‘satdan yuzaga keladigan holatlarga moslasha olish qobiliyatini shakllantiradilar [3]. Shuningdek, bu mashg‘ulotlar tezkor reaksiyalarni talab qilgani sababli, favqulodda holatlarda kursantlarning o‘zini tutish qobiliyatini yanada yaxshilaydi.

Moslashuvchanlik va harakat diapazonining kengayishi ham akrobatika va gimnastika mashg‘ulotlarining muhim jihatlaridan biridir [3]. Ushbu mashg‘ulotlar tana harakatlarini erkin bajarishga yordam beradi, bu esa kursantlar uchun muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarning muntazam bajarilishi bo‘g‘imlarning elastikligini oshirib, jarohatlar xavfini kamaytiradi. Bu esa xavfsizlik sohasida xizmat qilayotgan xodimlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular jismoniy yuklamalar va noodatiy harakatlarga tayyor bo‘lishlari kerak.

Akrobatika va gimnastika kursantlarning muvozanatini yaxshilaydi. Xususan, gimnastik mashg‘ulotlar harakatlarning aniq va nazoratli bo‘lishiga yordam beradi [2]. Bunday mashg‘ulotlar orqali kursantlar o‘z tana vaznini muvozanatda ushlashni va turli sharoitlarga tez moslashishni o‘rganadilar. Bu esa ularning jismoniy faoliyat davomida barqarorligini oshiradi [3].

Shuningdek, akrobatika va gimnastika kursantlarning ruhiy tayyorgarligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday mashqlar insonni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, stress holatlariga chidamliligini mustahkamlash va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. Ayniqsa, xavfsizlik sohasida xizmat qiluvchi shaxslar uchun bu juda muhim, chunki ular og‘ir sharoitlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila bilishlari talab etiladi [3].

Harakat koordinatsiyasining rivojlanishi. Harakat koordinatsiyasi insonning muvozanatni saqlash, aniq va muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarish, shuningdek, tezkor reaksiya ko‘rsatish qobiliyatidir. Bu qobiliyat, ayniqsa, xavfsizlik sohasida xizmat qiluvchi shaxslar, jumladan, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular ekstremal sharoitlarda harakat qilishga tayyor bo‘lishlari kerak [6].

Harakat koordinatsiyasining rivojlanishi orqali kursantlarning chaqqonligi, harakat aniqligi va tezligi oshadi. Bu esa ularning xizmat faoliyatida, masalan, jismoniy to‘siqlardan o‘tish, yengil atletika, o‘zini himoya qilish yoki favqulodda vaziyatlarga javob berish jarayonida muhim rol o‘ynaydi [5].

Harakat koordinatsiyasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri gimnastika va akrobatika mashqlaridir. Ushbu mashg‘ulotlar tana muvozanatini saqlash, mushaklar va asab tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga yordam beradi [5]

Statik muvozanat – tana harakatsiz holatda muvozanatni saqlash qobiliyatidir. Masalan, bir oyog‘ida turish yoki baland platformalarda muvozanatni ushlab turish kabi mashqlar bu jihatdan samarali hisoblanadi [6].

Dinamik muvozanat – harakat paytida tana muvozanatini saqlash qobiliyatidir. Masalan, yugurish, to‘siqlardan sakrash yoki o‘q otish kabi mashg‘ulotlar dinamik muvozanatni rivojlantirishga yordam beradi [5].

Harakat koordinatsiyasi bevosita reaksiya tezligi bilan bog‘liq. Tezkor vaziyatlarda muvozanatni saqlash va harakat qilish qobiliyati xavfsizlik xizmatlari xodimlari uchun muhim sanaladi. Kursantlarning reflekslarini rivojlantirish

uchun to‘satdan harakat qilishni talab qiladigan mashqlar (masalan, to‘p bilan mashqlar, o‘q otish simulatsiyalari) qo‘llaniladi [5].

Harakatlarning aniq va izchil bajarilishi mushaklar va asab tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Kursantlar uchun takroriy mashqlar orqali harakatlarni avtomatlashtirish ularning jismoniy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Sport o‘yinlari (futbol, basketbol, qo‘l jangi mashqlari) harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun juda samarali hisoblanadi. Ushbu mashg‘ulotlar jamoaviy ishlash, tezkor qaror qabul qilish va harakatlarni moslashtirish qobiliyatini oshiradi. Shu sababli kursantlar uchun sport o‘yinlari dasturga kiritilishi lozim [5].

Harakat koordinatsiyasining yuqori darajada rivojlanganligi kursantlarning ekstremal holatlarda tez va samarali harakat qilish qobiliyatini oshiradi. Favqulodda vaziyatlarda kursantlar muvozanatini yo‘qotmasdan harakat qilishlari va to‘g‘ri qaror qabul qilishlari talab etiladi. Masalan, qurol bilan ishlash, hujumni qaytarish yoki qochish kabi harakatlarda muvozanat va harakatlar aniqligi juda muhim sanaladi[5].

Bundan tashqari, harakat koordinatsiyasi rivojlangan insonlarda jarohatlanish xavfi ancha past bo‘ladi. Mushaklar va asab tizimi uyg‘un ishlaganda, inson harakatlarini aniq boshqara oladi va yiqilish, burilish yoki cho‘zilish kabi holatlardan qochishi mumkin [6].

Gimnastikaning psixologik ta’siri. Gimnastika nafaqat jismoniy rivojlanish, balki insonning psixologik barqarorligi va ruhiy salomatligini mustahkamlashga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun bu juda muhimdir, chunki ularning xizmat faoliyati doimiy stress va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni talab qiladi. Gimnastika mashg‘ulotlari orqali psixologik bosimga qarshi kurashish, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish mumkin [5].

1. Gimnastikaning stress va ruhiy bosimni kamaytirishga ta’siri

Jismoniy faollik, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlari inson organizmida endorfinlar – baxt gormonlari ishlab chiqarilishini oshiradi. Bu esa stress va ruhiy bosimni kamaytirishga yordam beradi [3]. Kursantlar uchun bu juda muhim, chunki ularning kasbiy tayyorgarligi davomida og‘ir jismoniy yuklamalar va psixologik bosim mavjud bo‘ladi.

Bundan tashqari, gimnastika nafas olish va yurak urish ritmini normallashtirib, insonning tinchlanishiga yordam beradi. Masalan, muvozanat mashqlari yoki yoga elementlari psixologik holatni yaxshilash va ongni tinchlantirishda muhim rol o‘ynaydi [5]

2. O‘ziga bo‘lgan ishonch va irodani mustahkamlash

Gimnastika bilan muntazam shug‘ullanish insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Har qanday yangi harakat yoki murakkab mashqni muvaffaqiyatli bajarish kursantlarning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularning ruhiy bardoshliligini oshiradi [3].

Bundan tashqari, gimnastika insonning irodaviy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashqlarni to‘g‘ri bajarish uchun sabr, qat’iyat va intizom talab etiladi. Bu esa kursantlarga xizmat davomida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi [5].

3. Stressga chidamlilik va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik

Gimnastika jarayonida kursantlar muvozanatni saqlash, aniqlik bilan harakat qilish va og‘ir jismoniy mashg‘ulotlarni bajarishga o‘rganadilar. Bu esa ularga real hayotda duch keladigan favqulodda vaziyatlarda o‘zlarini xotirjam tutish va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [3].

Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada bo‘lishi insonning ruhiy bardoshliligini oshiradi, bu esa xavfli vaziyatlarda tezkor harakat qilish imkoniyatini beradi. Masalan, ekstremal sharoitlarda xizmat qiluvchi kursantlar uchun stressga bardoshlilikning yuqori bo‘lishi juda muhimdir[5].

4. Emotsional holatni yaxshilash va depressiyaga qarshi kurash

Gimnastika insonning umumiy emotsional holatini yaxshilaydi. Muntazam mashg‘ulotlar miyadagi stress va xavotirni kamaytirishga yordam beradigan neyrotransmitterlar ishlab chiqarilishini oshiradi [3]. Shuningdek, jismoniy faollik insonni depressiya va tashvish holatlaridan saqlashga yordam beradi.

Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun bunday mashg‘ulotlar nafaqat jismoniy, balki psixologik sog‘lomlikni ham ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xizmat davomida duch kelinadigan qiyinchilik va xavf-xatarlarni yengishda gimnastika psixologik barqarorlikni oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi [5]

5. Jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirish

Gimnastika mashg‘ulotlari ko‘pincha

ISSN 3030-3230

jamoaviy shaklda o‘tkaziladi. Bu esa kursantlarning ijtimoiy moslashuvi, jamoada ishlash ko‘nikmalari va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Birgalikda bajariladigan mashqlar ishonchni mustahkamlashga, muloqot ko‘nikmalarini oshirishga va o‘zaro hamjihatlikni shakllantirishga yordam beradi [3].

Gimnastika va akrobatika mashqlari Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari uchun jismoniy tayyorgarlikning ajralmas qismidir. Ushbu mashg‘ulotlar nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarlikni ham yaxshilaydi. Harakat koordinatsiyasini rivojlantirish orqali kursantlar favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shu boisdan, gimnastika mashg‘ulotlariga katta e’tibor qaratish muhimdir.

Shuningdek, ushbu mashg‘ulotlarning tizimli ravishda olib borilishi kursantlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Milliy gvardiya qo‘riqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha muhim vazifalarni bajaradi, shu jumladan, davlat tadbirlarida qatnashish, patrullik qilish va maxsus topshiriqlarni bajarishda kursantlarning jismoniy tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi [8].

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение гимнастических тренировок в процессе физической подготовки.

Ключевые слова: физическая подготовка, гимнастика, акробатика, координация движений, курсанты, Университет общественной безопасности.

Annotation. This article analyzes the role and significance of gymnastics training in the physical preparatory process.

Key words: physical fitness, gymnastics, acrobatics, Movement Coordination, cadets, University of Public Safety.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun avvalo uning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinmog‘i zarur. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iy davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T., 2017 B.312.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учебник. - М., 1991.
3. Salomov R.S., Sharipov A.K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – T. 2015.
4. Masilkov A.A. Теория и методика спорта. – М., 2008
5. Smolevskiy V.M. Gimnastika va metodika o‘qitish. - M., 1987.
6. Goncharova O.B. Yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi. - T., 2005.
7. Kerimov F.A. Sport sotsializatsiyasi. - T., 2004.
8. O‘zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonun. - 2018 y.

TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHDA MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Usmonov Muhammadi Bahriddinovich,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

Yuldasheva Gavhar,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik jamiyatini qurishda manfaatlar guruhi va siyosiy partiyalarning o'rni, ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan, shuningdek, siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ko'ppartiyaviylik, siyosiy partiya, manfaatlar guruhi, hokimiyat, siyosiy faollik, saylovlar, protosiyosiy guruhlar, siyosiy elita, davlat siyosati.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng dahshatli xavf-xatarlardan biri iqlim o'zgarishi va suv taqchilligi muammosi hisoblanadi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishining oldini olish, suv resurslarini muhofaza qilish, undan oqilona va tejab foydalanish bugungi kunda milliy xavfsizlik, barqaror rivojlanishni ta'minlash, kishilik jamiyatini saqlab qolishning asosiy talablaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek "... keyingi 30 yilda planetamizda havo harorati 1,5 gradusga ko'tarildi. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu holat saqlanib qolsa, yaqin 20 yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Agar o'z vaqtida ta'sirchan choralarni ko'rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi" [1].

Darhaqiqat, bugungi kunda atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi hamda suv taqchilligi butun kishilik jamiyatini xavf-xatarga solayotgan eng o'tkir global muammoga aylandi. So'ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining 3/1 qismi, ya'ni 2,3 milliard kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Planetamizning 3/1 qismida yashayotgan aholiga toza ichimlik suvi yetishmaydi. XXI asrning uchinchi o'n yilligi o'rtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlyard. kishidan oshadi. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard kubometr ifloslangan suvni chiqarib tashlamoqda.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln. kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030 yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi o'n yillikda iqlim o'zgarishi va qo'shni davlatlarda suv iste'molining oshishi O'zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurg'oqchilik va cho'llanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston -2030" strategiyasida "Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish" masalasi mamlakat taraqqiyotining 5 ta ustuvor yo'nalishi orasida alohida mustaqil, 3-ustuvor yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatildi. Ushbu ustuvor yo'nalishda suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlarning 4 ta mustaqil hamda ularga erishish bo'yicha 18 ta maqsadli ko'rsatkichlar [2] belgilab berildi. "O'zbekiston-2030" strategiyasiga ko'ra, qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish [3] vazifalari belgilab berildi.

ISSN 3030-3230

Bundan tashqari, mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining bir nechta farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasi qabul qilingan. Ushbu Konsepsiyada asosiy urg'u suv xo'jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo'jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni avtomatlashtirish, suv resurslaridan foydalanish va ulardan foydalanishni hisobga olishda «Smart Water» ("Aqlli suv") texnologiyalarini joriy etish; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashga [4] qaratilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari uchun Orol ekologik inqirozi – XXI asr fojiasiga aylandi. 90-yillarning boshiga kelib dengiz sathi 39 m gacha pasaydi, suv hajmi 40 kub km.gacha kamaydi, minerallashish darajasi 21 grammgacha oshdi. Uning sohillari 60-80 kmga chekindi. Orol dengizining qurigan tubining 2/3 qismi sho'r yer bo'lgani uchun dengizdan turli tomonlarga har yili 75 mln. tonnagacha qum, chang va tuz tarqalmoqda. Natijada bu tuz va mayda qumlar Ustyurt platosidan o'tib Kaspiy dengiziga ham borib tushmoqda. Mutaxassislarning fikricha ulardan chang tuzli bulutlar hosil bo'lmoqda va ular yanada uzoqroq masofalarga tarqalmoqda. Buning natijasida xotin-qizlar va bolalar sog'lig'iga qo'shimcha xavf solindi va Qoraqalpog'iston hududida bronxit kasalligi 10, jigar kasalligi 20, chaqaloqlarning kasalmand bo'lib tug'ilishi 6 baravarga ko'paydi.

Ushbu muammolar jiddiy signal bo'lib, agar o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rilmasa, oqibatda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazishi mumkin. Agar insoniyatning barcha tarixiy tamadduni davomida butun tabiat va uning resurslari cheksiz va bitmas tuganmasdek ko'ringan bo'lsa, sanoat taraqqiyoti davri, ya'ni oxirgi ikki asr bunday tasavvurning butunlay xato ekanligini isbotlab berdi. BMT 2030 yilga borib, global isish tufayli jahon iqtisodiyotiga yiliga 2 trillion AQSH dollari miqdorida zarar yetishi mumkinligini ma'lum qildi. Ma'lumki, iqlim o'zgarishi, suv taqchilligi va uning atrof-muhitga ta'siri XXI asrning eng asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xavfsizlik nuqtai-nazaridan suv resurslari allaqachon nafaqat ekologik va iqtisodiy faktor, balki milliy va mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim elementi bo'lib qoldi. Suv ajralmas strategik resurs hisoblanib, uning taqsimlanishi masalalari, sifati va unga egalik qilishning qulayligi to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy barqarorlikka, iqtisodiy taraqqiyotga va hatto geosiyosiy vaziyatga ta'sir qiladi. Global iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya va aholining o'sishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi.

Bugungi kunda suv xavfsizligi barqarorlik faktori hisoblanadi. Insoniyat tarixi davomida suvga egalik kishilik jamiyati taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan. Bu sohada hozirgi tahdidlar bizdan yangi yondoshuv va strategiyalarni talab etadi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida 2025 yil 7 fevralda tasdiqlangan «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yili davlat dasturi"da mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog'ini kengaytirish [5] kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida davlat dasturida yomg'ir va oqova suvlardan foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirish, suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish, 1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o'tkazish, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlarni o'rnatish, daryolar, ko'llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish [6] tadbirlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Xavfsizlik nuqtai-nazaridan bir necha asosiy chaqiruvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, suv yetishmasligi tavakkalchiligi va ijtimoiy tanglik. Suv tanqisligi allaqachon ko'pchilik mamlakatlarda o'tkir muammoga aylanib ulgirgan. Suv resurslarining ma'lum qismi transchegaraviy sanalgan Markaziy Osiyoda bu masala ayniqsa dolzarbdir. Suv zaxiralarining cheklanganligi ichki to'qnashuvlarga, majburiy migratsiyaga, ijtimoiy barqarorsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, suv resurslari va oziq-ovqat xavfsizligi. Suv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosi hisoblanadi, ayniqsa

qurg‘oqchilik mintaqalarida. Suv ta’minotidagi har qanday uzilishlar oziq-ovqat ishlab chiqarishiga tahdid soladi, bu o‘z navbatida iqtisodiy tanazzul va narx-navoning oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, irrigatsiya va suvdan samarali foydalanish sohasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish oziq-ovqat tanqisligini bartaraf etish uchun ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

To‘rtinchidan, ekologik tahdidlar va suv havzalarini ifloslantirish. Daryo, ko‘llar va yer osti suv manbalarini ifloslantirish suvning sifati yomonlashuviga olib keladi va bu aholi salomatligi hamda ekotizim uchun qo‘shimcha tahdidlarni vujudga keltiradi. Suv resurslarini sanoat chiqindilari bilan ifloslanishdan, samarasiz foydalanishdan va iqlim o‘zgarishidan himoya qilish zarur.

Beshinchidan, transchegaraviy suv majorolari. Dunyoning ko‘p mamlakatlari suv resurslarini davlatlar o‘rtasida taqsimlash muammosi bilan to‘qnash kelmoqda. Markaziy Osiyoning asosiy daryolari Amudaryo va Sirdaryo bir necha davlatlari hududi orqali oqib o‘tadi va ularni samarali hamda adolatli taqsimlash xalqaro hamkorlik va suv diplomatiyasini talab etadi.

Suv resurslari sohasida mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratish lozim. Tizimlashtirish quyidagi bloklar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishida mintaqa mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ishonchli va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; majorolarni bartaraf etish va barcha taraflar manfaatini hisobga olgan holda, ayniqsa ko‘p tomonlama havzalarda ta’minlash uchun suv diplomatiyasini mustahkamlash; agar suv resurslarini boshqarishda uch va undan ortiq mamlakat harakat qiladigan bo‘lsa, ikki tomonlama kelishuvlar tuzishdan mutlaqo tiyilish.

2. Suv resurslarini boshqarishga kompleks i integratsiyalashgan yondoshuv yo‘nalishida suv resurslarini tarmoqlararo va transchegaraviy muvofiqlashtirishni hisobga olgan holda integratsiyalashgan boshqarish; barcha manfaatdor tomonlarni – hukumat, olimlar, fermerlar, energetiklar va boshqalarni jalb qilish; umumiy suv olishni kamaytirish, sug‘orishda samarali texnologiyalarni joriy etish va ekotizimlarni tiklash.

3. Infrastrukturani modernizatsiyalash yo‘nalishida suv havzalarini barpo etish va takomillashtirish; suvni taqsimlash tarmoqlarini rivojlantirish va yangilash; yetarli darajada investitsiyalarni jalb qilgan holda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ilmiy tadqiqot ishlanmalarini amalga oshirish.

4. Suv monitoringi va ilmiy potensialni mustahkamlash yo‘nalishida gidrometeorologiya stansiyalarining, ayniqsa baland tog‘li tumanlarda tarmoqlarini kengaytirish; mamlakatlar o‘rtasida ma’lumotlarni (gidrologik va meteorologik) yig‘ish va almashish tizimini yaxshilash; gidrometeorologiya xizmati kasbiy kuchini oshirish; birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va olimlar o‘rtasidagi muloqotlardagi uzilishlarni bartaraf etish.

5. Iqlim o‘zgarishiga moslashish yo‘nalishida muzliklar va qorlarning erishi suv tanqisligini kuchayishiga sabab bo‘lishini tan olish; boshqarish tizimidagi islohotlar, infrastrukturani modernizatsiya qilish va monitoringni yaxshilashni hisobga olgan holda o‘z vaqtida maqbul choralarni qabul qilish; qishloq xo‘jaligi, energetika va aholini uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan barqaror suv ta’minoti bilan ta’minlash.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi bilan bog‘liq muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etishda BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasida Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan takliflar, ya’ni BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimini ta’sis etish; Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish; Markaziy Osiyo iqlim muloqotini joriy etish; BMT Bosh assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolutsiyasini qabul qilish; iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish [7] alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqchimiz. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yashil iqtisodiyot” dasturi ushbu muammoni ijobiy hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ushbu chora-tadbirlarning barchasi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular mintaqaviy darajada umumiy manfaatlar, ilmiy ma’lumotlar va iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda barcha kuchlarni muvofiqlashtirishni talab etadi. Biz shunday davrda yashayapmizki, bunda suv xavfsizligi masalasi shunchaki muhim emas, balki o‘ta ahamiyatli hamdir. Mintaqadagi kelajak avlodlarning barqaror tabiiy muhitda xavf-xatardan holi xavfsiz yashashi bugun biz suv munosabatlari sohasida qanday qarorlar qabul qilishimizga bog‘liqdir.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье исследованы вопросы обеспечения региональной безопасности в трансграничном водопользовании, установления доверительного и взаимовыгодного сотрудничества между странами региона, укрепления водной дипломатии для предотвращения разногласий по данным проблемам.

Ключевые слово: водные ресурсы, водопользование, трансграничные воды, сотрудничество, региональная, безопасность, экологические угрозы, реки, водная дипломатия.

Annotation. The article examines issues of ensuring regional security in transboundary water use, establishing trusting and mutually beneficial cooperation between the countries of the region, strengthening water diplomacy to prevent disagreements on these issues.

Key words: water resources, water use, transboundary waters, cooperation, regional, security, environmental threats, rivers, water diplomacy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Халқ сўзи, 2023 йил 21 сентябрь;
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон;
3. Ўша жойда;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2020 йил 10 июлдаги ПФ–6024-сон Фармони //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.07.2020 й., 06/20/6024/1063-сон;
5. Халқ сўзи, 2025 йил 7 февраль;
6. Ўша жойда.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош ассамблеясининг 48-сессиясидаги нутқи.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Долгова Ирина Евдокимовна,
кандидат экономических наук, доцент,
доцент кафедры «Экономическая статистика» ТГЭУ

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам статистического изучения и анализа продовольственной безопасности населения Республики Узбекистан за годы Независимости. В ней проанализирована государственная политика нового Узбекистана, направленная на достижение продовольственной безопасности республики.

Ключевые слова: Продовольственная безопасность, нормы рационального потребления, продукты питания, фактическое потребление.

Продовольственная безопасность является одной из самых острых проблем современного мира. Согласно докладу Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (ФАО) (англ. Food and Agriculture Organization, FAO) за 2024 год, в условиях острого продовольственного кризиса находятся более 135 миллионов человек в 20 странах, а последствия конфликтов, изменения климата и экономических потрясений усиливают эту тенденцию. Так, например, в Судане за последний год количество людей, страдающих от серьезной нехватки продовольствия, увеличилось на 8,6 миллиона человек. Климатические катаклизмы стали причиной голода в 18 странах, затронув более 77 миллионов человек, что значительно превышает показатели предыдущих лет [3].

Кроме того, экономические факторы, такие как зависимость от импорта продовольствия, высокая инфляция и валютные кризисы, сделали уязвимыми к голоду еще 75 миллионов человек в 21 стране [4].

В настоящее время в мире существуют следующие вызовы продовольственной безопасности государств:

1. *Климатические изменения:* Засухи, наводнения и экстремальные погодные явления отрицательно влияют на урожайность и продовольственные цепочки.

2. ***Потери и отходы продуктов питания:*** По данным ООН, треть всех произведённых продуктов сельского хозяйства теряется или выбрасывается.

3. ***Зависимость от импорта:*** Ряд мировых государств сильно зависят от поставок продовольствия из-за рубежа, что делает их уязвимыми перед изменением цен на мировых рынках.

В условиях ухудшения климата, сложной геополитической обстановки в мире и санкционной политики отдельных государств в отношении других государств, а также растущего дисбаланса на глобальном энергетическом рынке, развитие аграрной отрасли и обеспечение продовольственной безопасности приобретает актуальный характер для многих государств, в том числе и для Республики Узбекистан.

Продовольственная безопасность государства — это состояние экономики и агропромышленного комплекса, при котором население страны обеспечено достаточным количеством качественных и доступных продуктов питания. Она является неотъемлемой частью экономической безопасности, так как напрямую влияет на уровень жизни граждан, экономическую стабильность и политическую независимость государства.

Продовольственная безопасность нашего государства включает в себя следующие ключевых моментов:

Во-первых, одним из основных факторов является физическая доступность продовольствия, т.е. наличие достаточного количества продовольственных товаров в стране. Данный фактор зависит от производственных мощностей агропромышленного комплекса, объема посевных площадей, систем хранения и транспортировки продовольствия, эффективности распределительных сетей.

ISSN 3030-3230

Во-вторых, это экономическая доступность продуктов питания. Продовольствие должно быть доступным по цене для всех слоев населения, что требует контроля за инфляцией и ценами на базовые продукты питания, поддержания уровня доходов граждан и разработки социальных программ поддержки малоимущих слоев населения.

В-третьих, большое значение имеет безопасность и качество потребляемых населением продуктов питания. Продовольствие должно соответствовать установленным нормам безопасности, содержать все необходимые питательными вещества для роста и развития здорового поколения.

В-четвертых, должен иметь место продовольственный суверенитет и независимость от импорта сельскохозяйственной продукции. Высокая зависимость страны от импорта продовольствия делает её уязвимой перед внешними факторами, такими как: политические санкции и торговые ограничения; глобальные кризисы и перебои в международных цепочках поставок; колебание цен на мировом рынке продовольствия.

В-пятых, должна иметь место экологическая устойчивость сельского хозяйства, подразумевающая в первую очередь рациональное, бережное использование природных ресурсов. Бесконтрольное использование удобрений, пестицидов и истощение земель могут привести к снижению урожайности и ухудшению экологической ситуации в стране.

Продовольственная безопасность в Узбекистане остается важным приоритетом государственной политики, особенно в контексте растущего населения, изменения климата и геополитических вызовов. Государственная продовольственная стратегия нашей страны, в первую очередь направлена на то, чтобы обеспечить продовольственную безопасность государства за счет собственного производства сельскохозяйственной продукции.

В октябре 2019 г. Указом Президента была утверждена «Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», которая охватила 9 стратегических приоритетов, первым из которых стало обеспечение продовольственной безопасности населения [1].

Следует отметить, что за годы независимости аграрная политика Узбекистана претерпела серьезные изменения. Были упразднены сельскохозяйственные предприятия госсекторов, созданы фермерские хозяйства, внедрившие в свою деятельность передовые технологии, оптимизированы посевные площади и увеличено производство продовольственных культур. Это позволило диверсифицировать аграрную отрасль, развить все ее сферы.

На сегодняшний день сельское хозяйство является одной из ключевых отраслей экономики, играет важную роль в хозяйственном комплексе и вносит весомый вклад в обеспечение продовольственной безопасности нашей страны. По видам экономической деятельности удельный вес занятых в сельском хозяйстве составляет около 3,5 млн. человек или 24,2% занятых в экономике.

За период с 2010–2023 гг. объем производства сельскохозяйственной продукции увеличился более чем в 13 раз и по итогам 2023 г. достиг 426300,0 млрд. сум (рис. 1). При этом, 61,7% продукции было произведено фермерами и приусадебными хозяйствами, 31,4% фермерскими хозяйствами и 6,9% сельхозпредприятиями [7].

Государственная продовольственная стратегия нашей страны, главным образом, направлена на то, чтобы обеспечить ее безопасность за счет собственного производства, минимизируя зависимость от импорта продовольствия. В области растениеводства в 2023 г. было выращено 8,4 млн. тонн зерновых культур (в 2010 году данный показатель был равен 7,5 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом рост составил 12%), 11, 6 млн. тонн овощей (в 2010 году данный показатель был равен 6,26 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом рост составил 85,3%), 3,6 млн. тонн картофеля (в 2010 году данный показатель был равен 1,69 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом имел место рост более чем в 2 раза), 3,1 млн. тонн фруктов и ягод (в 2010 году данный показатель был равен 1,68 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом рост составил 84,5%).




Рис. 1. *Динамика изменения объема продукции с/х за период с 2010 по 2023 годы (млрд. сум)*

Источник: Составлено автором на основе данных www.stat.uz

В области животноводства в 2023 г. было произведено 2,83 млн. тонн мяса (в 2010 году данный показатель был равен 1,46 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом рост составил 93,8%), 11,9 млн. тонн молока (в 2010 году данный показатель был равен 6,17 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом рост составил 92,8%), 8,4 млрд. яиц (в 2010 году данный показатель был равен 3,06 млн. тонн, по сравнению с 2010 годом имеет место рост более чем в 2,7 раза) (рис. 2) [7].

Автором была рассчитана сравнительная таблица фактического потребления основных продуктов питания в расчете на душу населения республики и фактического производства данных продуктов также в расчете на душу населения и вычислен коэффициент государственного самообеспечения по основным продуктам питания населения (см. таблицу №1).

Источник: Составлено автором на основе данных www.stat.uz.

Как показывает анализ таблицы по картофелю, мясу и мясопродуктам, молоку и молочным продуктам, яйцам коэффициент государственного самообеспечения составляет в среднем более 95% в 2021 году и стремится к 100% самообеспечению в 2023 году.




Рис. 2. *Динамика изменения объема продукции растениеводства и животноводства за период с 2010 по 2023 годы*

ISSN 3030-3230

Таблица № 1

Динамика государственного самообеспечения населения продуктами питания.

Продукты	Фактическое потребление кг в год на 1-го человека			Фактическое производство кг в год на 1-го человека			Коэффициент государственного самообеспечения, %		
	2021	2022	2023	2021	2022	2023	2021	2022	2023
Хлеб и хлебопрод.	151,4	155,2	163,3	99,8	103,5	104,7	65,9	66,7	64,1
Картошка	54,0	58,6	59,0	94,1	96,6	98,0	94,0	84,0	86,9
Овощи и бахчи	223,8	293,3	295,4	376,3	381,0	387,0	126,3	126,0	108,7
Ягоды и фрукты	139,9	151,5	154,2	130,3	133,5	133	123,1	119,1	131,4
Мясо и мясопродукты	44,5	45,0	47,0	48	76,5	77,5	94,6	93,9	100,0
Молоко и молочные продукты	219,6	282,8	283,9	322,9	326,2	329	98,9	98,7	99,8
яйца (штук)	229	230	238	223	228	233	101,0	101,2	100,6
Сахар и мед	23,7	26,2	26,9	16,9	18,2	16,3	71,3	69,5	60,6
Растительное масло	18,0	18,8	19,7	3,2	2,7	1,9	17,8	14,4	9,6

Источник: Разработано автором на основе информации Агентства по статистике РУ, рациональных норм потребления продуктов питания и продовольственных балансов стран СНГ.

По таким продуктам как овощи и бахчевые культуры, а также ягоды и фрукты коэффициент самообеспечения государством населения данными продуктами за период с 2021 по 2023 годы находится в диапазоне от 120% до 130%.

Только по таким продуктам как хлеб и хлебопродукты, а также сахар и мед имеет место государственное самообеспечение населения данными продуктами в размере от 65,9% в 2021 году до 64,1% в 2023 году по хлебу и хлебопродуктам, и в размере от 71,3% в 2021 году до 60,6% в 2023 году сахару и меду от необходимого рационального потребления данных продуктов населением.

Хуже всего обстоит дело с растительным маслом. В данном случае диапазон покрытия потребности населения в данном продукте снизился с 17,8% в 2021 году до 9,6% в 2023 году. Возможно данный факт можно объяснить уменьшением посевных площадей хлопчатника в республике.

Таким образом, в настоящее время собственное сельскохозяйственное производство полностью обеспечивает потребности населения республики по таким социально-значимым продуктам, как мясные и молочные продукты, овощи, фрукты и бахчевые культуры. Недостаточная обеспеченность внутреннего рынка сельскохозяйственной продукцией наблюдается только по сахару, растительному маслу и зерну.

В данном контексте Узбекистан стремится покрыть недостаточный объем этих продуктов за счет поставок из зарубежных стран. Так, импорт продовольствия в 2023 г. составил 3,49 млрд долларов США (около 11% от общего объема импорта), из них треть пришлась на зерновые – 4,04 млн. тонн на 1,12 млрд. долларов США (из Республики Казахстан), растительное масло – 435 тыс. тонн на 355 млн. долларов США (из Российской Федерации – 66,1%, Республики Казахстан – 25,3%, Украины – 2,55 %), сахар – 129 тыс. тонн на 558 млн. долларов США (из Бразилии и Российской Федерации) [7].

При разработке и проведении сельскохозяйственной политики Республика Узбекистан активно взаимодействует с международной Продовольственной и сельскохозяйственной организацией ООН (ФАО), Всемирной продовольственной программой (ВПП), Статистическим комитетом СНГ, а также с зарубежными компаниями по вопросам повышения эффективности сельскохозяйственного производства.

Так, достигнута договоренность с французской компанией «Rungis Semmaris» о создании в регионах страны 8 крупных агрологистических центров общей площадью свыше 80 га.

Крупнейшая государственная инвестиционная корпораций Китая CITIC GROUP планирует инвестировать 50 млн. долларов в создание крупного агрологистического парка в Сырдарьинской области на территории площадью 32 га со складами емкостью 50 тыс. тонн, товарооборотом 300 тыс. тонн

сельхозпродукции, включая сортировку, переработку, хранение и упаковку.

К настоящему моменту количество агрологистических центров в нашей республике достигло 78 единиц, а число холодильных складов увеличилось до **2** тыс., с мощностью хранения до 1,25 млн. тонн в год. К 2030 г. планируется увеличить число агрологистических центров до 100, а объемы хранения до 2,5 млн. тонн [6].

Однако, не смотря на достигнутые успехи продолжают оставаться актуальными вопросы повышение эффективности сельскохозяйственного производства, с целью снижения потерь продукции и оптимизации использования ресурсов.

Для этого, на наш взгляд, ключевыми направлениями являются:

1. Использование систем капельного орошения и умного сельского хозяйства для экономии воды и повышения урожайности;
2. Применение дронов, сенсоров и спутникового мониторинга для управления посевами, прогнозирования урожайности и контроля за состоянием почвы;
3. Ремонт и строительство новых каналов и водохранилищ для обеспечения стабильного водоснабжения;
4. Проведение рекультивации земель и привлечение новых территорий в сельскохозяйственный оборот;
5. Разработка новых сортов сельскохозяйственных культур, устойчивых к засухе и болезням;
6. Создание и расширение сети агрологистических центров, где обеспечивается хранение, переработка и транспортировка продукции;
7. Проведение обучающих программ и тренингов для фермеров, в том числе с участием зарубежных экспертов, что будет способствовать внедрению современных агротехнологий и улучшению практик управления хозяйствами.

Эти шаги позволят нашему государству укрепить свои позиции как крупного экспортера сельскохозяйственной продукции и решить внутренние задачи продовольственной безопасности.

Annotatsiya. Ushbu maqola Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi aholisining oziq-ovqat xavfsizligini statistik o'rganish va tahlil qilish masalalariga bag'ishlangan. Unda yangi O'zbekistonning respublikaning oziq-ovqat xavfsizligiga erishishga qaratilgan davlat siyosati tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oqilona iste'mol normalari, oziq-ovqat, haqiqiy iste'mol.

Annotation. This article is devoted to the issues of statistical study and analysis of food security of the population of the Republic of Uzbekistan during the years of Independence. It analyzes the state policy of the new Uzbekistan aimed at achieving food security of the republic.

Key words: Food security, rational consumption standards, food, actual consumption.

Использованная литература:

1. Указ Президента РУ № 5853 «О утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», 23 октября 2019 г. Lex.uz.
2. «Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари», Тошкент ш., 2020 йил 17 декабрь. https://lex.uz/docs/5182749
3. Доклад ФАО о продовольственной безопасности и питании в мире за 2024 год, tps://www.fao.org/fsnforum/ru/resources/fao-flagships/state-food-security-and-nutrition-world-2024).
4. Оценки Всемирной продовольственной программы (ВПП) — современные технологии анализа уязвимости, включая мобильное картирование (mVAM), и другие инициативы: World Food Programme (ВПП).
5. Балансы важнейших видов продовольствия государств – участников СНГ в 2021, в 2022, в 2023 годах, siat.stat.uz.
6. https://kapital.uz/agrologisticheskiy-park/
7. https://www.stat.uz

ISSN 3030-3230

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI QOZILAR VA FIQH OLIMLARI HAQIDA

Choriyev Sh. Sh.,
O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti
“Arxivshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi
tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida faoliyat kursatgan mashhur qozilar, sud – huquq tizimi, qonun himoyachilari, qozilar rasmiylashtirgan hujjatlar turlari, qozilarning vazifalari haqida ma’lumot berilgan. Qozilar qonuniylik, qonun oldida barchaning tengligi, adolat, qonunlarga so‘zsiz amal qilish kabi tamoyillarga amal qilganliklari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “Temur tuzuklari”, qozi, tarixiy-huquqiy manba, qozixona, nasabnoma, qozikalon, vasiqa, rivoyat, fatvo, qozilik daftarlari, berilgan jazo, hukm, ijozatnoma.

“Temur tuzuklari” – muhim tarixiy-huquqiy manba bo‘lib, davlat boshqaruv va barcha ijtimoiy masalalar haqida yo‘riqnoma ko‘rsatilgan asrdir. Mamlakat hayotidagi asosiy ijtimoiy, mulkiy masalalarni hujjatlashtirish qozilar vazifasiga kirar edi. Qozi - ko‘pligi quzot- shariat qonuni bo‘yicha hukm chiqaruvchi amaldor[1:349] hisoblangan. Bizgacha ma’lum bo‘lgan temuriylar davridagi turli mazmundagi hujjatlar: **mulk to‘g‘risidagi hujjatlar, vaqfnomalar, ijara hujjatlari, nikoh rasmiylashtirilgan hujjatlar, bitim va vasiqalarning, to‘lov hujjatlarining asosiy qismi, fatvo yozish, qozilik hukmi** qozilar tomonidan rasmiylashtirilib, shaxsiy muhri bilan tasdiqlangan. Ularning deyarli barchasi fiqh ilmi bilimdonlari bo‘lganlar. Fiqh- diniy qonun, dinning yo‘l–yo‘riqlari qoidalari to‘g‘risidagi ilm, qonunshunoslik[1:296]. Qozilar vaqf hujjatlarini ham yuritganlar. Vaqf madrasa, masjid, mozor, qo‘riqxona kabi musulmon muassasalari foydasiga belgilangan turli ko‘rinishdagi mol- mulk bo‘lib, uning rasmiy huquqiy hujjati vaqfnoma deb yuritilgan. Vaqfnomalar qozixonalarda vaqf qiluvchi – voqif, qozi, a’lam, muftiy, va xolis guvohlar ishtirokida tuzilib, muhrlangan. Vaqfnomalar, ma’lum bir muddat o‘tgach, sharoit taqozosiga ko‘ra (vaqfnomaning yo‘qolishi, yaroqsiz holga kelishi, va boshqa sabablar bilan) yangilanib turgan)[2:37-47]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivida bunday vaqfnomalarni turli davrlarga oid bir qanchasini uchratish mumkin. Har bir vaqfnomada mahalliy qozining muhri va ba’zi hollarda hukmdor muhri tasdiqlangan bo‘ladi.

O‘rta asrlarda qozilar nasabnomalarni ham rasmiylashtirgan. Bizgacha yetib kelgan nasabnomalarning bir qismi o‘z davrida yuridik kuchga ega bo‘lib, hukmdor va qozixona amaldorlari muhri bilan tasdiqlangan. Amir Temur kabi mashhur hukmdorlar tomonidan tasdiqlangan nasabnomalarning asli bugungi kungacha yetib kelmagan. Nasabnomalar turli maqsadlarda avlodlarga qoldirish, turli da’volarda foydalanish kabilarda tayyorlangan va qozixonada tasdiqlangan. Sohibining imkoniyatiga qarab ba’zan nasabnomaga hukmdorlarning muhrlari ham bostirib olingan. Bunday nasabnomalarni rasmiylashtirish ham qozidan o‘z navbatida Qur’on Karim va Hadis hamda islom olamidagi ulug‘ ulamolar fatvolarini bilishni talab qilar edi. Temuriylar davrida ulamolar hukmi “fatvo” deb nomlansa, temuriylardan keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda fatvo ko‘proq “rivoyat” nomi bilan muomalaga kirgan. Manshur (hukm)- saroy devonxonasidan beriladigan bu hukm (hukmi jihati sayodat) yoki **manshur (manshuri jihati imzoi nasab va rioyat ahvoli sadot).** Markaziy Osiyo musulmon diplomatikasida hujjatlarning qonunchilik akti turiga kiradi. Unda shaxsning batafsil nasl-nasabi keltirilmagan. Faqatgina hujjat sohibining mo‘tabar oilaga mansubligi hokimiyat tomonidan e’tirof etilib, uning imtiyozlari (hurmat qilish, soliqlardan ozod bo‘lish) kuchiga ega edi. Bunday hujjatlarni rasmiylashtirish ham qozilar vakolatidagi masala bo‘lgan[3:73-78].

Amir Temur davrida sud-huquq tizimiga oid vazifalar ixtisoslashgan bo‘lib, ularning ichida qozilik mansabi eng nufuzli va mas’uliyatli vazifalardan biri bo‘lgan. Qozilar davlatning sud, huquq-tartibot ishlarini muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynaganlar. Ular ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish, davlat va huquq,

davlat va fuqaro, fuqaro bilan jamiyat, fuqarolar o‘rtasida munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Ular nainki huquq-tartibot, balki davlatning huquqiy madaniyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaganlar. Qozilar jamiyatda adolatni ta’minlashda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan.

“Temur tuzuklari”da yozilishicha, “Ravshan dinga rivoj berishda qo‘llagan birinchi tuzugim shu bo‘ldiki, sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq- sadr etib tayinladim. Tamom vaqflarni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavalli tanlashni, har bir shahar va viloyatda **qozi,** mufti, muhtasib tayinlashni uning o‘ziga havola etdim. U sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg‘ol belgilab, har birining vazifasini tayin qilsin, dedim[4:93]. “Temur tuzuklari” qayd etilgan mansablardan sadr – boshliq, rais, musulmon peshvolaridan bo‘lgan. Mufti – fatvo beruvchi, diniy masalalarda qaror chiqaruvchi diniy mansabdor, Mutavalli – vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy mansabdor edi. Muhtasib – (arab. nazorat qiluvchi) – o‘rta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlari va shariat qonunlarining bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi mansabdor bo‘lgan.

Amir Temur davrida davlat boshqaruvdagi bunday muhim mansabdorlarga mulklar berib, mamlakat oldida xizmatlari rag‘batlantirilgan. Suyurg‘ol – (eski o‘zbekcha) – in’om, sovg‘a, marhamat degan ma’noni anglatib, o‘rta asrlarda qo‘shinboshliqlari,ko‘zgako‘ringansaroyshoirlari, yirik mansabdorlar, yirik musulmon ruhoniylari va shu kabilarga davlat oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari evaziga xon va podshohlar tomonidan qilinadigan turli-tuman in’om, yer suv, kiyim-kechak, molu- mulk va boshqalar ko‘rinishida taqdim etilgan. Shayxulislom – musulmon jamoasining boshlig‘i bo‘lib, hatto fuqarolarning diniy ishlarida bo‘lgan murosasizliklarida arz qilib borish mumkin bo‘lgan mansabdor edi.

“Temur tuzuklari” yozilishicha, “.... lashkarlar uchun **maxsus qozi** va raiyat uchun **alohida qozi** tayinladim, har mamlakatga **shayxulislom** yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin”[5:107]. Demak, Amir Temur davlatida sudlar **shariat, fuqarolik, harbiy sudlarga** bo‘lingan. Dunyoviy masalalar bilan shug‘ullanuvchi qozilar “**ahdos qozisi”** deb nomlangan. Shariat ishlari bilan shug‘ullanuvchi qozilar “**shariat qozisi”,** sipohiylar o‘rtasidagi kelishmovchilik va tortishuvlarni hal etuvchi **“qozi-i askar”** deb atalgan.Qozilarning faoliyati haqidagi barcha ma’lumotlar devonga, shaxsan Sohibqironga uzluksiz yetkazib turilgan.

O‘rta asrlarda kimlar va qanday shaxslar qozi bo‘la olgan?

“Temur tuziklar”da Amir Temur o‘zidan oldingi davlat boshqarish, saltanat tuzish, mamlakatning muhim mansab va lavozimlariga mas’ul kishilarni belgilash borasidagi ajdodlar tajribasiga tayanganligini eslatib o‘tgan. Barcha davrlar uchun davlatni boshqarish, e’tiqod va mamlakat daxlsizligini saqlash, salohiyatli rahbarlarni tayyorlash haqida asosiy qo‘llanma bo‘lgan saljuqiylar (1037-1194) shohi Alparslonning (1063-1072 y) saroyida vazirlik mansabigacha ko‘tarilgan Nizomulmulkning (Siyar ul- mulk) “Siyosatnoma” asriga tayanilgan. U mamlakat qozilarni tayinlash borasida shunday maslahat bergan: “mamlakat qozilarining ahvolini to‘la- to‘kis bilish zarur va ular qaysilari olim-u zohid, kambag‘al, ammo kamtama bo‘lsa, tarbiya qilib, shular bilan ish yuritish kerak. Agar shunday bo‘lmasa, ularni ishdan olib, o‘rinlariga boshqa loyiq kishilarni qo‘yadilar. Ularning har biriga zarur darajada maosh beradilar, toki xiyonat qilishlariga hojat qolmasin. Chunki bu ish juda ham nozikdir, ular musulmonlarning yaxshi-yu, yomonliklari ustidan hukm chiqaradilar. Bu amalni johil va nopok kishilarga ishonib bo‘lmaydi, faqat pok, parso olimlarga berish kerak. Agar biror-bir hokim jahl va zulm bilan hukm chiqarsa, podshohga ma’lum qilgan holda uni vazifasidan olib, jazolash kerak”[6:56]. Saroyda to‘plangan olimlar o‘tmishdagi o‘tgan hukmdorlarni, siyosiy tajribasini, tavsiyalarini e’tiborsiz qoldirmagan va davlat maslahatchisi, hukmdorning yaqin kishisi-hojibi bo‘lib, bunday ibratli so‘zlarni eslatib turishgan.

Amir Temur (1370-1405) davrida qaror topgan huquqiy muvozanat va o‘ziga xos huquqiy madaniyat o‘z zamonasida juda katta ma’naviyat, ilm va salohiyatga ega bo‘lgan qozilar yetishib chiqqanini ko‘rsatadi. Chig‘atoy amirlari va shahzodalarning qonunga xilof ishlarini ko‘ruvchi amaldor “**yarg‘uchi”** deb atalgan. U oliy **tribunal sudida** faoliyat yuritgan. **Qozilar qonuniylik, qonun oldida barchaning tengligi, adolat, qonunlarga so‘zsiz amal qilish kabi tamoyillarga** amal qilgan. Agar tomonlardan biri qozining chiqargan qarori yoki hukmidan norozi bo‘lsa, uning ustida turgan qozilarga,

ISSN 3030-3230

qozikalonga, hatto davlat boshlig‘iga shikoyat qilishga haqli bo‘lgan. Butun mamlakat bo‘yicha qozilar faoliyatini nazorat qilish “**qozikalon”ga** yuklatilgan.

Amir Temur davrida tashkil etilgan davlat – nohiyalarga, o‘n mingliklar – tumanlarga, mingliklar – hazora, yuzliklar – sada va o‘nliklar – dahalarga bo‘lingan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mahalliy boshqarishning o‘nliklar tizimi mavjud bo‘lib, unga Amir Temur qo‘shini uchun belgilangan tartibda askar yetkazib berish vazifasi qo‘yilgan. Amir Temur davrida mahalliy boshqarish ishlari yaxshi tashkillashtirilgan bo‘lib, har bir viloyat shahar, tumanlarning o‘z hokimi, moliya devoni, qozisi, muftiysi, mutavallisi va muxtasibi bo‘lgan. Har bir shahar va qishloqda kutvol, ya’ni qal’a boshqaruvchisi tayin etilgan. Ular bir tomondan mahalliy ma’murlarga, ikkinchi tomondan Oliy devonga bo‘ysungan. Mingta ot, mingta tuya mingan ming chopar – xabargirlar orqali poytaxtga ma’lumot berib turilgan. Ular davlat sarhadlarida yuz berayotgan voqea hodisalar haqida muttasil xabar berib turganlar. Xususan, **qozilik daftarlari, berilgan jazolar, aholi tomonidan qilingan arzlar kunma-kun xabargirlar tomonidan Samarqandga yetkazib turilgan.** Bu usul davlat boshqaruv ishi va qonunchiligi, o‘rnatilgan tartibidagi kamchiliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Yolg‘on xabar yozganlarning barmoqlari, tuhmat xabar yozganlarning boshi kesilgan.

Tarixiy manbalarda Amir Temur va temuriylar davrida tayinlangan qozilardan ba’zilari tilga olingan. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning **Aziz** ismli bilimdon va halol qozisi bo‘lgan. Askar qoziligi **Sayyid Ziyovuddinga** berilgan. **Abdurazzoq Samarqandiyning “Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi” asarida Shohrux Mirzo davrida qozi Imoduddin, qozi Qutbuddin Abdulloh, qozi Salohuddin, qozi Ahmad Soidiy va boshqa qozilar** eslatib o‘tilgan. Jumladan, Ahmad Soidiyni dovyuraklarning peshqadami deb atagan va eng katta tadbirlar va uchrashuvlarda u doimo ishtirok etganligi, shuningdek, Xorazmda amir Idikuning o‘g‘li Muborakshoh hokim bo‘lgani, Bekijak devon amiri va sadr qozi mansabida bo‘lganligi haqida ham ma’lumot yozib qoldirilgan. Shohrux Mirzo huzuriga Xitoydan elchilar kelganda **Hoji Yusuf qozi** bir nechta til biluvchi musulmonlar bilan birga tarjimonlik qilgani va ularga qoidalarni tushuntirgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Abdurazzoq Samarqandiyning o‘zi va XV asr tarixnavisi Mirxondning ko‘rsatishlaricha, **Jaloluddin Is’hoq Samarqandiy** Shohrux saroyida “mulozimlik”da bo‘lib, ko‘p yillar davomida uning o‘rdusi (lashkari)da imomlik va qozilik mansabini o‘tagan.

“Temur tuzuklari”da “Islom qozisi shariat ishlarining borishi, va ajrim qozisi dunyoviy ishlar haqida menga bildirib tursinlar”[5:151] deb ko‘rsatma beradi.

“Yana amr qildimki, saltanat ishlari, mamlakatni idora etish, undagi o‘zgarishlar, almashtirishlar, sipohiylar va amirlarning tayinlanishi, turli kengash tadbirlarni xos majlisda menga arz qilsinlar. Bu majlislarda maxfiy va sirli ishlarni pinhon tutishga qodir bo‘lgan maxsus kotib (munshiyi mahram) hozir bo‘lib, rostlik qalami bilan maxfiy-yashirin kengashlarni va gaplarni daftarga yozib borsin. Va yana majlis kotiblarini (majlisnavison) tayinlashni buyurdimki, devon majlisida navbatma-navbat hozir bo‘lib, majlisda ko‘rilgan va hal qilingan muhim masalalar va ayrim ishlar tafsilotini daftarlarga yozib olib, saqlashlari lozim. Menga arz qilingan gaplar, chiqargan hukmlarim, majlislarda ko‘rilgan mamlakat ahamiyatiga molik ishlardan tortib, juz’iy ishlargacha barchasini qalamga olib, boshimdan kechirgan voqealarim daftariga kirgizsinlar. Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin”[7:93]. Ma’lumotdan anglashiladiki, mamlakat hayotidagi har bir majlis va kengash, kishilarni mansabga tayinlash yoki ozod etilish, hujjatlashtirib borilgan. Bular maxsus daftarlarda yozib, rasmiylashtirilganligiga ishora beriladi. Har bir hukmdor dargohida o‘ziga xos arxiv-devonxona hujjatlar majmuasi to‘plangan.

Xondamirning yozishicha, davlat ishlarini tekshirish uchun Amir Temur farzandlariga ajratgan mulklarida ham taftish o‘tkazdirib turgan. Amir Temur **Xoja Oq Buho** va **Jalol al-Islom**ni davlat ishlarini tekshirish uchun Tabrizga jo‘natgan. Ular Mironshoh Mirzoning noiblari va xizmatchilarini ushlab, mahbus etadilar hamda hibsxonalarni tekshirib, umumiy ishlar xazinasiga taalluqli bir necha yillik mol-mulkning yarmini va shahzoda o‘z talabiga binoan har kimga bag‘ishlab yuborgan narsalarni qaytaradilar[8:195]. Davlat vazirlari Mironshoh Mirzoning qarorlarini taftishini o‘tkazgan. Bu ham o‘z navbatida devon hujjatxonasidagi daftarlar qaydlari asosida nazorat qilingan. Mulkiy munosabatlar o‘zgarishlari

qozilar ishtirokisiz bo‘lmagan.

Amir Temur davridagi mashhur qozilardan biri Qozi **Qutbiddin Abdulloh al-Imomiy** himmatlilik va yuqori mansab jihatidan Xurosonning barcha akobir va ayonlaridan ko‘ra mumtoz va mustasno edi. Uzoq yillar bul mamlakat istiqlol kamolatini oshirish uchun sharafli qonuniy mansablarni tartibga solishga kirishdi va dadbirlar qo‘lladi. Shul viloyatning vaqf mol- mulki, savdo-sotig‘ini ixtiyori ham bir qancha vaqt uning oliymaqom xodimlariga taalluqli edi. U hayotining oxirgi lahzalarigacha dabdabadi amalda badavlat kun kechirdi. U hamisha xotira sahifasi zamiri ro‘yxatiga halollik va diyonat naqshini bitardi. Uning nasabi sharifi Abu Bakr Siddiq Raziallohga bog‘lanadi, shuning uchun ixtiyorsiz ravishda nasabini mulohaza qilib, o‘z nomiga Abdulloh deb bitgan[8:307].

Temuriylar davridagi fiqh olimlaridan biri Xoja Fayzulloh Abullays edi. Samarqand ulug‘laridan hamda Abullay fiqih avlodlaridan bo‘lgan. Fiqhda “Ikkinchi Abu Hanifa”, arab tili va adabiyotida esa “Ibn Hojibning o‘xshashi” deb atashardi. Amir Sayyid Yusufning shogirdi edi. Sayid Sharifdan ham ta’lim olgan. Sayyid shaxsan uning madrasalarda dars berishi uchun ijozatnomalar yozib bergan. Alisher Navoyi ikki yil uning huzurida ilm olgan. Navoyiga nisbatan iltifoti kuchliligidan uni”farzand” deb atagan. Samarqand ulamolarining rahnamosi bo‘lganligiga qaramasdan, she’r va muammo yozishga moyil edi. Xoja Fayzulloh Abullays Samarqandda vafot etgan va o‘z honoqohiga dafn etilgan [9:169].

Temuriylar davridagi mashhur qozilardan biri **Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy** edi. Bu qozi haqida G‘iyosiddin Hondamir “Habib us- siyar” asarida qimmatli ma’lumotlar bergan. Qozi G‘iyosiddin Turbatiyning o‘g‘li bo‘lib. oliy fazilatlari va yuqori bilimi bilan boshqa qozilardan ajralib turar edi. U yoshlik chog‘larida va viloyatidan Xuroson poytaxti Hirotga kelib, diniy bilimlarni o‘rganishga kirishgan. Qisqa muddatda bu sohadagi bilimlarni puxta egallab olganidan keyin, **fatvo yozish, qozilik hukmi, mulk hujjati va to‘lov hujjatlarini chiqarish huquqini** qo‘lga kiritgan. Yozuvchilik va shoirlik san’atini ham yaxshi o‘zlashtirib olgan. G‘olib hoqon (Bayqaro) podsholigi zamonining oxirlarida qozilik mansabiga erishgan. Chuqur bilimli, o‘tkir zehnli,yuksak qobiliyati hamda insof va diyonat qoidalariga qattiq rioya qilishi bilan saltanat poytaxti Hirotdagi barcha qozilar orasida eng yuksak martaba, eng katta vakolat hamda eng yuqori obro‘- e’tiborga ega bo‘lgan. O‘zining ushbu qobiliyatlari va fazilatlari bilan Xuroson podshohi Suton Husayn Bayqaroning e’tibori va hurmatini qozongan Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy Abdulfath Muhammad Shayboniyxon Hirotni o‘z tasarrufiga olganidan keyin ham ana shu mansabda qolgan. Shayboniyxonning o‘limidan keyin esa o‘zining tugilib o‘sgan joyiga qaytib, dehqonchilik bilan shag‘illangan. Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy 1515-yil kasallikka chalinib olamdan o‘tadi va Turbat qishlog‘ida o‘z ota bobolari maqbarasida dafn etiladi. Qozi Ihtiyoriddin Hasan Turbatiyning chiroyli so‘z namunalarini yozuvchi qalami mahsullari jumlasidan bo‘lgan “Iqtibosot” (Iqtiboslar) va “Muxtor ul- ixtiyor” asarlari o‘sha zamon ilm ahli aorasida mashhur bo‘lgan[9:171].

1409 yil voqealar bayonida temuriylar davlatidagi Isfahon qozisi “Qozi Nizomiddin Ahmad Soidiy”[10:176], Samarqand qozisi Salohiddin[10:183] eslatib o‘tiladi. Umuman Markaziy Osiyoda qozilar odobi haqida bitilgan alohida kitoblar ichida Imom al-Movardiyning “Odobul qoziy” kitobi mashhurdir. Bu kitobni o‘qigan odam Islomda qadimdan qozilik ishlari qanchalik mukammal tarzda, eng nozik tomonlarni ham hisobga olib qo‘yilganing shohidi bo‘ladi. Temuriylar davrida “Qozilar risolasi” (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi) nomli kitoblar mazkur vazifa egalarining kasbiy etikasini tarbiyalagan bo‘lsa ajabmas.

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida qozilar sud huquq tizimining asosiy xodimlari edi. Markaziy Osiyoda qozilar o‘z navbatida yuksak insoniy fazilatlar bilan birga, Islom falsafasini yaxshi o‘zlashtirgan va Qur’oni Karim, ilmini, diniy va dunyoviy masalalarni yaxshi tahlil qila oladigan, arab va fors tili, xattotlik san’atini puxta egallagan, zamonasining zukko va bilimdon kishisi bo‘lishi lozim edi. Amir Temur davlatida qozilar uchun adolatlilik, insonparvarlik, qonun ustuvorligi, qonun oldida tenglilik, poklik va halollik kabi fazilatlar talab qilingan. Bugungi kunda ham biz huquq tartibot xodimlarini ajdodlar merosi asosida tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining kushandasi bo‘lgan Korrupsiyaga qarshi kurashda o‘z natijasini berishi mumkin. Chunki ajdodlar merosida insoniy yuksak fazilatlar bilan tarbiyalangan shaxslar, nopok illatlardan xoli bo‘lishi jamiyatda adolat mezonlarini barqaror bo‘lishiga olib keladi.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье представлены сведения о знаменитых судьях, работавших в эпоху Амира Темура и Тимуридов, судебно-правовой системе, защитники закона, виды документов составляюших судьями, обязанностях судей. Проанализировано, что судьи придерживались принципов законности, равенства всех перед законом, справедливости, безусловного следования законам.

Ключевые слова: «Уложения Темура», казы, историко-правовой источник, казихана, генеалогия, казикалон, завещание, ривоят, фетва, казы-тетради, приговор, приговор, разрешение.

Abstract. The article presents information about famous judges who worked in the era of Amir Temur and the Timurids, the judicial and legal system, defenders of the law, types of documents compiled by judges, and the duties of judges. It is analyzed that judges adhered to the principles of legality, equality of all before the law, justice, and unconditional adherence to laws.

Key words: «Temur's Code», kazy, historical and legal source, kazikhana, genealogy, kazikalona, will, rivoyat, fatwa, kazy-notebooks, sentence, verdict, permission.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent. Fan. -1993. B. 349. (– um var 374).
2. Jo'rayeva G'. Vaqf nima?// Sharqshunoslik.1990.№2.- B. 37-47.
3. Sultonov O'. A. Markaziy Osiyo musulmon diplomatikasida nasabga oid tarixiy hujjatlar //"O'rta asrlar davri tarixi birlamchi yozma manbalarda: muommolar va yondashuvlar" mavzusidagi ilmiy amaliy seminar materiallari. – Toshkent- Buxoro. 2019. -B. 73-78.
4. Temur, Amir. Temur tuzuklari. // Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi So'zboshi muallifi, mas'ul muharrir: Bo'rivoy Ahmedov – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 93. (um, var– 184 b.)
5. Chingisxon yasog'i va Temur Tuzuklari. / So'z boshi. N. Polvonov.– Toshkent: Info Capital Books, 2024.- B.107.. (um. -192 b)
6. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul- mulk). / Mas'ul muxarrir Sharif Xolmurod. Fors tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar muallifi Shodmon Vohid. Aftondil Erkinov. - Toshkent. Yangi asr avlodi. B. 56. (um. var. 303.)
7. Temur, Amir. Temur tuzuklari. // Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi So'zboshi muallifi, mas'ul muharrir: Bo'rivoy Ahmedov – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 93. (um, var– 184 b.)
8. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us- siyar fi axbori afrodi bashar. (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st.). – Toshkent. O'zbekiston. 2013. B. 195. (kitob um. var. 1302)
9. G'iyosiddin Hondamir. Makorim ul- ahloq. / fors tilidan Komiljon Rahimov tarjimasi.– Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashryot- matbaa ijodiy uyi. 2015. – B. 169.
10. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn./ Masul muharrir A. Qayumov, Muhammad Ali. O 'zbekiston Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti. j II. Q.1.1405-1429 yil voqeasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2008.- B. 176. (Um varaq. 632.)

AMIR TEMUR QO‘SHINIDA TIBBIY XIZMATNING TASHKIL ETILISHI HAQIDA

Turayeva Sayyora Rustambayevna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada Sohibqiron Amir Temurning qo‘shinidagi lashkar va sipohiylarga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat hamda mazkur davrda harbiy xizmatchilarni davolash usullari, shifoxonalar, u yerda faoliyat ko‘rsatgan tabiblar haqida ma’lumot beriladi. “Temur tuzuklari”dagi ma’lumotlar asosida Amir Temur davrida hakimlar va tabiblar aholi salomatligini saqlashda muhim o‘rin tutganligi, ular davlat tomonidan maosh tayinlanib, qo‘shinga muntazam xizmat ko‘rsatganligi, janglarda jarohatlangan askarlarni davolash ishlarida tajribaga ekanligi, mamlakat sarhadlaridagi tajribali tabiblar rag‘batlantirib borilganligi, ilm-fan rivojlangan shaharlari Samarqand, Hirot, Eron, Damashq, Misr, Suriya, Rum orasidagi tibbiyot xodimlari o‘zaro tajriba almashganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, qo‘shin, tibbiyot, “Temur tuzuklari”, tabiblar, shifoxona, jarrohlik, Samarqand, Hirot, dorixona, bemor, nogiron.

Sharqda tibbiyot insonlar hayotida alohida o‘rinni egallagan. O‘tmishdan Markaziy Osiyo aholisi o‘z davrigacha bo‘lgan tibbiy bilimlarni qadriyatlarni to‘plab borgan. Ular bu borada Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridagi ko‘rsatmalarga amal qilishga uringan. Amir Temur davridagi tibbiyot va tibbiy bilimlar haqida “Temur tuzuklari”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” [1], Ibn Arabshoxning “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)”, G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning 1499 yil yozilgan “Xulasat al- axbor fi bayon al-ahvol al-axyor” (Yaxshi kishilarning hayotlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot), 1501 yil yozilgan“Makorim ul- ahloq” (Oliyjanob xulqlar), 1524 yil yozilgan “Habib us- siyar fi axbori afrodi bashar” (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st), Hofiz-i Abro‘ning “Jug‘rofiya” kabi bir qancha asralar bizga ma’lumot beradi.

Amir Temur o‘z zamonasidagi ijtimoiy guruhlarni o‘n ikki toifaga bo‘lgan. “Sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislardurki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga to‘pladim. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan sayyoralar (kavokib)ning qutlug‘ va qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog‘u bo‘stonlarning loyiha tarhini chizdirdim”[2:108]. Shular ichida hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni sakkizinchi toifaga kiritgan. Ularni **saltanat korxonasiga rivoj beruvchilar**, deb atagan. Tabiblar haqida shunday deydi: “**Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim**” Bundan ko‘rinadiki, Temur qo‘shinlarida yarador va bemor jangchilarni davolovchi tabiblar bo‘lgan. Amir Temur tabiblarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan va ularga hurmat bilan qaragan.

Amir Temur aholi o‘rtasida har xil kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishiga qarshi tadbirlarni ham amalga oshirgan. Buning uchun shaharlarni va boshqa aholi yashaydigan joylarni ozoda saqlash, xalqni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash choralarini amalga oshirgan. Suvni toza saqlash uchun usti yopiq suv quvurlari qurdirgan. Shaharlar o‘rtasidagi yo‘llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqandda va Toshkent yaqinidagi Shohruhiya shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida shunday inshootlarni arxeologlar ko‘p uchratganlar.

“Temur tuzuklarida” sipohga ulufa-harbiylarga beriladigan haq, maosh berish tuzukida aytiladiki, “ahli majlis bo‘lmish sayyidlar, olimlar, fozillar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar va roviylarga o‘z hollariga qarab, suyurg‘ol, vazifa va maosh belgilansin”[3:127].

Amir Temur davrida harbiy xizmatchilar bo‘lgan sipohiylarga maxsus tabiblar, hakimlar belgilangan bo‘lib, ular uchun saltanatdan ma’lum bir ish haqqi ajratilgan hamda ular doimiy ish bilan ta’minlangan. Masaladan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur qo‘shinlarida harbiy xizmatchilarning muntazam tibbiy ko‘rigi tashkil etilgan va ularning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilingan.

Hatto, “Temur tuzuklarida” mamlakat tartibotida fuqarolar sog‘lig‘iga yetkazilgan shikastlanishlarga ham alohida e’tibor qaratilgan. “Agar kimda- kim tish sindirsa, ko‘zini ko‘r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim

ISSN 3030-3230

chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so‘ng mening arzimga yetkazsin”[3:132]. Anglashiladiki, fuqarolarga mamlakatda sodir bo‘lgan jinoyatlar orqali ham tan jarohatlari yetkazilsa masalaning mohiyatiga qarab bu ishlarni ko‘ruvchi qozilar ham alohida bo‘lgan.

“Temur tuzuklari”da ko‘rsatilishicha, mamlakatda “nogironlarga nafaqa tayin qilingan”[3:168]. Jang-u jadallarda Amir Temur qo‘shinida harbiy xizmat davrida sog‘lig‘ini yo‘qotishi va harbiy xizmatga yaroqsiz bo‘lgan taqdirda ham unga davlat g‘aznasidan nafaqa belgilanishi, mazkur davrda harbiylarning ijtimoiy muhofazasi uchun qayg‘urilganligi bildiradi.

Yana aytiladiki, “Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinliklarga langarxona (yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan yer, miskin va yetim yesirga taom beriladigan joy, g‘aribxona) solsinlar **kasallar uchun shifoxonalar qursinlar** va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar”[3:172] . Ma’lum bo‘lishicha, mamlakat sarhadining har bir joyida shahar- qishlog‘ida shifoxona bo‘lishini tashkil qilgan hukmdor mamlakat aholisini tibbiy xizmati haqida ham qayg‘urgan. Bu o‘rinda har bir aholi qatlami sog‘ligi davlat siyosatining muhim masalalaridan ekanligiga ishora etiladi. Bunday shifoxonalar faoliyati uchun ko‘plab tabiblar tayyorlangan.

XIV asrning 60-70 yillariga kelib, Movarounnahr hududida yirik va kuchli temuriylar davlati vujudga keldi. Bu davlatga Sohibqiron Amir Temur asos soldi. U o‘z davlatini iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan yuksak darajaga ko‘tarish uchun mamlakatda yirik qurilish ishlarini olib bordi. Amir Temur yurt obodonchiligi va aholi sog‘ligiga alohida e’tibor bergan. Amir Temur davrida Hirotda “Dar ash - shifo” faoliyat ko‘rsatgan. Bu shifoxonaning Amir Temurning o‘g‘li Umarshayhning xotini Maxdi ulyo Milkat og‘a qurdirgan edi. Bu shifoxona o‘z davrining mohir ustalari tomonidan qurilgan bo‘lib, janubiy tomonida jome masjid joylashgan. Masjidning shimoliy tomonida hovuz bo‘lib, tabiblar ba’zi bemorlarni davolashda ushbu hovuz suvidan foydalangan[4:245].

Amir Temur qo‘shinida lashkar oziq ovqatida shifobaxsh mahsulotlar bo‘lishini ham nazorat qilingan. Bu haqida Xondamirning o‘zining “Habib us- siyar” asarida: “ ... necha ming bo‘g‘oz tuyalar humoyun o‘rdada mavjud edi. Ular tuya suti kerak bo‘lgan paytda sipohlarga quvvat va lashkarlarning quvvatini oshirish uchun kerak bo‘lardi”- deb, yoziladi[5:278]. O‘tmishdan tuya suti ko‘p kasalliklarga shifo bo‘lib, uni askarlarda kasallikka qarshilikni kuchaytiruvchi – immunitetni oshiruvchi vosita sifatida foydalanilgan. Jarrohlik amaliyotlarida tabiblar tibbiy asboblarni tez-tez olovda qizdirish, suvda qaynatish ishlarini, jarohat joyini tuzli suvda yuvish olib borgan.

Sohibqiron davrida har bir shaharda shifoxona bo‘lgan, ularda bilimli va tajribali tabiblar ishlaganlar. Jumladan, Samarqandda “Dor ush-shifo” nomli yirik kasalxona bo‘lib, unga o‘z zamonasining taniqli tabibi **Mir Sayyid Sharif Sherozi** (1330–1414 y.y.) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli jurjonlik bo‘lib, Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga kelib, shu kasalxonaga boshchilik qilgan. Shu davrlar yirik tabiblardan **Suriyalik tabiblar Mavlono Jamoliddin va mavlono Sulaymon [5:221], Mavlono Izzaddin Ma’sud Sherozi, Mavlono Farrux[6:177], Hisomiddin Ibrohim Kirmoniy, Mavlono Fayzulloh Tabriziy, Mansur ibn Muhammadlar** yashab ijod etganlar. Tarixiy ma’lumotlarda ta’kidlanishicha, Mavlono Fayzulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo‘lgan. U Sohibqironning barcha safarlarida birga bo‘lar edi.

“Mavlono Hisomiddin Kirmoniy nozik tabiatli va insoniy fazilatlar sohibi edi. Tib va kasalni muolaja qilish ilmida musosifat, ya’ni mo‘jizakor edi u ham nard va shatranj bobida komil mahorat sohibi edi. U hazrat Sohibqironning dargohida mulozim edi, oliy martabadagi yig‘inlarda qatnashar edi” deb ma’lumot beradi[5:312].

Tarixchi G‘iyosiddin Hondamir “Xulosat ul axbor” asrida Amir Temur davridagi mashhur ayrim tabiblar haqida ma’lumot beradi. Mavlono Nizomiddin Abdulhay temuriylar shifoxonalarida faoliyat ko‘rsatgan mashhur tabib edi. U haqida: “...boshida hidoyat belgilariga ega bo‘lgan Amirning shifoxonasida kasallarni davolashga mashg‘ul bo‘lgan. Valiylikning panohi bo‘lmish Xoja Nasoriddin Ubaydulloh kasallikka chalinganligi sababli o‘z odamlaridan birini Hirotga yuborib, Hazrati sultonning yaqin kishisi bo‘lmish ul hazratning tajribali bir tabibini uning oldiga jo‘natishlarini so‘raganda, tabobat xazinasi bo‘lmish ul janob oliyjanob amirning buyrug‘iga ko‘ra Samarqandga bordi. Zimmasiga yuklatilgan vazifani a’lo darajada bajarib, yorug‘ yuz bilan Hirotga qaytib kelgach, yanada ko‘proq e’tiborga tushib, yanada kattaroq inoyatlarga erishdi. Kun sayin mavqe va darajasi yanada oshib, lahza sayin baxt va tole yulduzi yanada yorug‘roq charaqlay boshladi. Nihoyat maqtalgan sifatlarga ega bo‘lgan Sohibqiron Sultonning iltifotli nazariga tushdi. Saroyda ham kattalar va kichiklarning sirdoshiga aylandi. Hozirgi vaqtda mansab va martaba bosqichlarining eng yuqori darajasiga erishgan

vaqti bo‘lib, aksariyat vaqtini a’lo hazratning xizmatida o‘tkazadi”[7:183] .Amir Temur davrida ilm-fanning mashhur markazlari sanalgan Samarqand va Hirot tabiblari tajriba almashinib turgan. Bu esa tibbiy bilimlarning Amir Temur saltanati bo‘ylab tarqalishiga ham turtki bo‘lgan.

Amir Temur davrida tibbiyot fani shu qadar yuksak darajaga ko‘tarilgan ediki, hatto o‘lgan odamning jasadini mumiyolash usulini ham bilganlar. 1941 yilning 21 iyunida hukumat komissiyasi tomonidan Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasida dafn etilgan Sohibqiron Amir Temur, Mironshox, Shoxruh, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Sulton va Bibixonim maqbarasidagi bibixonimning daxmalari ochilib ko‘rilganda, ularning jasadi mumiyolangani aniqlangan[8:40].

Tarixiy manbalarda Amir Temur davridagi ba’zi kasalliklarni davolashda tabiblar malakasi doimo oshirilishi borasidagi tavsiyalar ham yo‘q emas. Mavlono **Fayzulloh Tabriziy** Amir Temurning shaxsiy tabibi Amir Temur vafotidan oldin ham uni kasalligiga shifo topishga uringan. Uning boshchiligidagi tabiblar jamoasi turli dorilar ham tayyorlashgan.

Xususan, Amir Temurning 1405-yil 18-fevralda kuchli shamollashdan vafot etish voqeasini tahlil qiladigan bo‘lsa, ko‘p manbalar tabiblarning dori sifatida Amir Temurga tayyorlagan isitmani tushiruvchi vositasi yaxshi ta’sir ko‘rsatmaganini ta’kidlaydilar.

Ibn Arabshohning yozishicha, sovuq natijasida “Temur ibrida” (1436 yil yozilgan), (sovuqdan jismni zaiflashtiradigan kasallik) kasaliga chalinib, uni davolash uchun tabiblar tavsiyasi asosida tarkibida isitadigan moddalar, xushbo‘ylar va rezavorlar bo‘lgan xamir arag‘ini iste’mol qilgan”[9:77]. Tarixchi Xondamirning fikricha, Temurning o‘limini tabiblar dori sifatida tayyorlagan araq tezlashtirib yuborgan. Manbada yozilishicha, ushbu araq Amir Temurning ichaklari va jigarlariga ta’sir ko‘rsatgan, uning a’zoyi badanini qaqshatib turgan va qo‘l oyoqlarini bo‘shashtirgan.Tabiblar uning qorniga va peshonasiga muz qo‘yib muolaja qilgan. Bu 3 kun davom etgan.

Bu haqida Xondamirning o‘zining “Habib us- siyar” asarida (1524-yil yozilgan) shunday yozadi: “... sohibqiron shu asnoda araqqa rag‘bat ko‘rsatdi, unga javhar keltirishlarini buyurdi: ko‘rinishidan suvdek bo‘lsa ham, sifati jihatdan olovdek, suyultirilgan billur edi. Oliynasab Sohibqiron ikki kecha kunduz araq ichdi, ammo aslo ovqat yemadi. Shuning uchun mijoz o‘zgarishi yuz beradi, Bu o‘zgarishlarni tabiblar unga bir- ikki qadah berdilar, harorat biroz taskin topganday bo‘ldi, ammo sal o‘tmay yana issig‘i ko‘tarilib kasallik og‘irlashgan”[5:281]. Manbada ta’kidlanadiki, Tabiblardan **Mavlono Fayzulloh Tabriziy** mulozamatda bo‘lib, ilohiy mo‘jizakor oltin qo‘li bilan davolasa ham hech qaysi dori naf bermadi. Hayot mohiyati taqdir qo‘lida ekan. Amir Temurning kasali kuchayishiga va uning o‘limiga ko‘p miqdorda iste’mol qilgan araq sabab bo‘lgan va u haqida yana o‘sha davr tarixchisi Hofiz Abro‘ ham tasdiqlaydi. Bunday hodisalar faqat tibbiy ilmlar ustida yana izlanishlar talab etgan. Natijada, tibbiyot bo‘yicha saroy tabiblari tomonidan maxsus asarlar ko‘plab yozilgan. O‘tmish tajribalar to‘plangan. Amir Temur davri o‘rta asr ilm-fanining eng rivojlangan davrlaridan edi. Bu an’ana Amir Temurning taxt vorislari bo‘lgan temuriylar tomonidan davom ettirildi. Tabobat asarlari ham xattotlar tomonidan ko‘paytirilib, saroy kutubxonalarida to‘plandi.

Temuriylar davrining yana bitta mashhur tabibi Mavlono Darvesh Ali edi. Bu haqida Tarixchi G‘iyosiddin Hondamir quyidagi ma’lumotni beradi “...kasalliklarning davosini topish va kasallikka chalingan g‘ariblarni davolashga katta g‘ayratlar ko‘rsatgan bo‘lib, haqiqatdan ham tabobat ilmida yuksak cho‘qqilarga erishgan. Har doim oliy hazratning shifoxonasida kasallarni davolashga mashg‘uldir. O‘sha maskanga tegishli bo‘lgan vaqf mulklaridan katta foyda oladi ”[7:191]. Navoyi “Majolis un nafois” asarida Mavlono Darvesh Ali tabib to‘g‘risida shunday yozadi: “Otasi sham quyuvchi edi. biroq o‘zi tabobatga mashg‘ul bo‘ldi. Bu ishda mahoratga ega bo‘lgan tabiblar uni judayam maqtashadi. Tab’i ham yaxshi bo‘lib, muammoga e’tibori kattadir”. Ma’lum bo‘ladiki, Mavlono Darvesh Ali tabiblikdan tashqari muammo she’r san’at turida ham ijod qila olgan.

Ana shunday asarlardan biri, temuriylar davrining mashhur tabiblaridan biri hisoblanmish Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad Yusuf ibn Faqih Ilyosning “Tashrix-i Mansuri” deb nomlangan, Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad Bahodirga bag‘ishlangan, “Risola dar tashrix-i badan-i inson” (“Inson anatomiyasiga oid risola”) asari shular jumlasidan. Uning muqaddimasida odam tanasining turli a’zolari, jumladan suyak, asab, muskullar va qon tomirlar tasvirlangan. Temuriylar davri tabobat ilmiga oid adabiyotlar o‘rganilar ekan, bularda asosan inson ruhiyati, anatomiyasi va qon tomirlariga oid kasalliklar yozilganligini aytish mumkin. Ilm-fanga taraqqiyotiga homiylik temuriylardan Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Akbarshoh davrida ham davom etdi.

Xullas, Amir Temur davrida qo‘shin doimo sog‘lom bo‘lishi uchun tibbiy ko‘rik joriy etilgan. Har bir shahar va qishloqda shifoxona va dorixona bo‘lishiga harakat qilingan. Shu maqsadda hukmdor sulola vakillari va zodagonlar mamlakatning

ISSN 3030-3230

turli joylarida shifoxonalar qurilishiga, ularda tabiblar davlat tomonidan belgilangan maosh asosida muntazam faoliyat olib borishiga e'tibor qaratilgan. O'rta asr tabiblari asarlaridan ma'lum bo'ladiki, ularning ko'pchiligi nafaqat tabobat ilmi bilan balki, nazmiy ijod bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Dorilar doripazlar tomonidan tayyorlangan. Amir Temur qo'shtinida jangovor harakatlarda jarohat olgan bemor jangchilar muntazam davolangan. Tabiblar tibbiy bilimlarini rivojlantirish uchun aholi orasidagi kasalliklarni ham o'rganib borishga majbur bo'lgan. Amir Temur saltanatining sarhadlari kengligi bois, tabiblar ilm-fan rivojlangan Samarqand, Hirot, Eron, Damashq, Misr, Suriya, Rum shaharlari orasida tajriba almashishlari joriy etilgan. Hatto, jangovor harakatlarda og'ir jarohatlar olgan askarlar bilan jarrohlik amaliyotlari ham o'tkazilgan. Mamlakat bo'ylab tarqalishi mumkin bo'lgan epidemiologik kasalliklarni oldini olish uchun atrof muhitni, suv havzalarini tozalik ishlari olib borilgan. Ushbu tarixiy ma'lumotlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ya'ni harbiy xizmatchilarni doimiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, ularda ma'lum bir kasalliklarni oldini olish uchun profilaktik ishlar olib borilishi, tibbiyot xodimlarining ilg'or davlatlarga borib malaka va tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish lozim. Bir so'z bilan aytganda, harbiy xizmatchilar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etilishi, davriy izchillikda tibbiy ko'rikdan o'tish ayrim kasalliklarning oldini olishga, kasallikni erta aniqlashga va davolash tadbirlarini ko'rilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Аннотатция. В статье приведены сведения о медитсинской службе, оказываемой государством воинам и сипаям в армии Сахибгирона Амира Темура, а также о методах лечения военнослужащих, о болнитсах и табибах. Анализируется, по сведениям «Уложения Темура» что во время провления Амира Темура, табибы играли важную рол в поддержании здоровя населения, получали зарплату от государства и обеспечивали регулярную службу в армии, имели опыт лечения раненых воинов в боях. В государстве поощрялис опытные табибы, и они обменивалис опытом из городов с развитой наукой как Самарканд, Герат, Иран, Дамаск, Египет,Сирия, Рум.

Ключевые слова: Амир Темур, армия, медитсина, «Темур тузуклари», врачи, болнитса, хирургия, Самарканд, Герат, аптека, болной, инвалид.

Abstract. The article provides information about the medical service provided by the state to soldiers and sepoys in the army of Sahibgiron Amir Temur, as well as about the methods of treating military personnel, about hospitals and tabibs. It is analyzed, according to the information from the "Temur Tuzuklari", that during the reign of Amir Timur, the tabibs played an important role in maintaining the health of the population, received a salary from the state and ensured regular service in the army, had experience in treating wounded soldiers in battles. The state encouraged experienced tabibs, and they exchanged experiences with cities with developed science such as Samarkand, Herat, Iran, Damascus, Egypt, Syria, and Rum.

Key words: Amir Temur, army, medicine, "Temur Tuzuklari", doctors, hospital, surgery, Samarkand, Herat, pharmacy, patient, disabled person.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.// so'z boshi, tabdil izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari: A. Ahmad, H. Bobobekov. - Toshkent: Sharq, 1997.-381 b.
2. Temur, Amir. Temur tuzuklari. // Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi So'zboshi muallifi, mas'ul muharrir: Bo'rivoy Ahmedov – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.
3. Chingisxon yasog'i va Temur Tuzuklari. / So'z boshi. N. Polvonov.– Toshkent: Info Capital Books, 2024. -192 b.
4. Istoriya Uzbekistana. Epoxa Amir Temura i Temuridov. – Toshkent, Fan,- 2017. – 535c.
5. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us- siyar fi axbori afrodi bashar. (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st.). – Toshkent. O'zbekiston. 2013. – 1302b.
6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. - Toshkent: O'zbekiston, 1969. (1405-1429 y. voqealari.) -177b.
7. G'iyosiddin Hondamir. Makorim ul- ahloq. / fors tilidan Komiljon Rahimov tarjimasi.– Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashryot- matbaa ijodiy uyi. 2015. -206b.
8. Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. – Toshkent. 1996. –76b.
9. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. II- qism. "Fan"- Toshkent. 2018. – 256b.

LEXICAL ENHANCEMENT OF ENGLISH INTERCULTURAL COMMUNICATION VIA BLENDED LEARNING AND ADAPTIVE TECHNOLOGIES

Murakayeva Shakhnoza,
Department of Learning languages
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD)

Abstract. The purpose of this scientific work is to factually examine how the rate of elevation of the Blended Learning and Digital Adaptive Tools during teaching ESP is affected by the development of digital tools in English classes for non-philological audience. The scientific outcome employs correlation and board data analyses to explore the relationship between the variety of methods of modern century. The results indicate that as the digitalization show mark rises, the indication rate of both Blended Learning and Digital Adaptive Tools also increases. This study highlights the arguments for and against of blended learning environments that integrate face-to-face teaching with online resources, nevertheless the role of adaptive technologies in tailoring learning experiences takes as a great as a minor role. The findings suppose that these updated methods can dramatically boost vocabulary, offering valuable insights for military lawyers (that is cadets in this field) and institutions looking to implement effective language teaching practices.

Key words: English Intercultural Communication, Lexical Terms, Blended Learning, Digital Adaptive Tools, Resource Access, Collaborative Learning, Self-Paced Learning.

1. Introduction

As the demand for English language proficiency increases globally, lexical competency—understanding and using vocabulary effectively—is crucial for lexicology. Traditional teaching methods often fall short in addressing the varied usages of learners, which can hinder vocabulary acquisition. This article evaluates how blended learning, combined with adaptive teaching tools, can highly increase vocabulary in ESP English classes.


2. Literature Review

Blended learning and digital adaptive tools have achieved the scenic spot as tools for enhancing ESP teaching. Adaptive learning, originating from artificial intelligence in the 1970s, has proven effective in various domains, including military English classes for future lawyers. Blended learning, which merges online and face-to-face instruction, offers a fluent and flexible teaching environment that caters to diverse cadet needs. These tools also support self-paced learning, interactive vocabulary tasks, and collaborative opportunities, all contributing to more effective language teaching. Blended learning, also referred to as hybrid learning, technology-mediated, web-enhanced or mixed-mode teaching, is an educational approach that integrates online learning board data and modern online opportunities with traditional in-person classroom tools.

3. Data and Methodology

The study analyzes board data from 46 countries between 2019 and 2025, focusing on the Digital Adaptive Learning Tests conducted biennially in Asian countries. This data helps assess the development of e-government initiatives and the spread of adaptive learning tools like smartboards and tablets in military classes. The study also highlights how vocabulary and modern tools correlation benefits from systematic exposure, contextual practice, and personalized learning, which traditional classroom settings may not adequately provide. These tests must be divided into three parts as seeding part, pre-testing and pilot testing.

Pic.1. MODELS OF DAL (Digital Adaptive Learning) TESTS:




ISSN 3030-3230

- Expert model – The model with the information which is to be taught
- Recipient model – The model which tracks and learns about the recipient
- Instructional model – The model which actually conveys the information
- Instructional environment – The user interface for interacting with the system

4. Results and Discussion

The research fulfilled with cadets from the University of Public Safety in Uzbekistan revealed promising results. Cadets who engaged with digital tools like videos, animations, and online debates demonstrated significant improvements in vocabulary retention and comprehension. The study also explored the effectiveness of interactive methods in developing speaking competence, with experimental groups showing a 5.41% improvement compared to control groups.

Pic.2. Criteria for Assessing Oral Speech by Levels and Scores in English Language Classes[1]



It was found that the use of modern methods in the process of teaching English allows for the achievement of the following results: educational goals, content, methods, technologies, forms of organization, innovations, and positive changes in the management of the education system; radical changes in the oral speech of cadets in organizing specific professional events, in particular, the tasks of teaching foreign languages, its content, methods, technologies, forms of organization, and the reorganization of the educational process, all of which contribute to positive innovations; the provision of the educational process with modern curricula containing new content, educational plans, teaching-methodological developments, textbooks, instructional guidelines, educational aids, electronic and digital versions of all methodological developments; the implementation of national and universal principles in the system of teaching English; assessment of oral speech competence in English in the cadet's specialty during the learning process and knowledge control, whose interrelationship is based on a unified goal, namely, the achievement of quality education and the effectiveness of such education; democratization of educational content.

To ensure the accuracy of the study, only methodological aspects inherent to informational support and assessment technology were considered, with sampling statistical methods applied. The principle of majoring representativity (Weierstrass' convergence criterion) was employed. According to certain mathematical-statistical methods, a re-analysis of the research results was conducted, and the effectiveness of the study was evaluated by comparing the results of the cadets who participated in the experimental work.

In the above framework, the instructor plays a leading role in the process, creating conditions for effective work and guiding cadets from basic to professional language activities.

The interactive methods of teaching involve:

- Engaging every cadet in an active and dynamic knowledge acquisition process.
- Implementing differentiated and individual approaches to cadets.
- Developing effective communication skills such as listening, dialogue building, questioning, and teamwork (skills automated through repeated practice of professional vocabulary).

Cadets were tested using the author's model of three-level speech training:

Author's model of three-level speech training and defining oral speech competency levels (oral-speech competence)[1]:

1 Murakaeva Shakhnoza Khayrullayevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123

Level 1: The ability to compose a logical statement, monologue-description, monologue-commentary, and monologue-narration.

Exercises: Monologues in the form of exercises for decoding and interpreting speech. Implemented Principles: person-oriented and differentiated learning.

Level 2: The ability to provide illustrative arguments, express thoughts within a limited time, engage in phatic speech (exchanging ideas and information at the professional oral level).

Exercises: Print Case Study, Multimedia Case Study, Digital Case Study, Digital Storytelling, animations, videos, presentations, e-books, illustrations. Implemented Principles include: principles of visuality, accessibility, and problem-oriented learning.

Level 3: The ability to discuss various topics at a high professional level, engage in professional dialogue with authoritative argumentation in vocabulary.

Exercises: Post-debates, Debate Topics, Legal Argumentation Art, Dialogue between Judge and Lawyer, Legal speech etiquette, all forms of speech expressions. Implemented Principles: the principle of activity and the principle of matching theory with practice.

In the course of testing using the Legal Discussion method, conducted in three stages, the following observations were made: After reading an English text, only 10% of the material was retained, with only 24 cadets out of 244 retaining the information. From listening, 25% was remembered, and only 61 cadets out of 244 understood and could respond to the material. From viewing lessons using digital cases and animation, 60% was retained, with 146 cadets out of 244 assimilating, understanding, and remembering the lesson. Emotional delivery by the instructor led to a 70% retention rate, highlighting the importance of emotional presentation. From discussions and team work, 90% of the lesson was retained, equating to 171 cadets out of 244.

The essence of the "Legal Discussion" method in English is the practice of speech through professional vocabulary in debates involving foreign and domestic politicians and lawyers, such as "The Art of Legal Argumentation: A Dialogue Between Judge and Lawyer":

Judge: Why should I accept your argument?

Lawyer: Your Honor, the **evidence** clearly shows that my client is **innocent**.

Judge: But what about the **eyewitness testimony**? Doesn't that **contradict** your **argument**?

Lawyer: Your Honor, eyewitness testimony is notoriously unreliable, and in this case, there are multiple inconsistencies in the witness statements that cast doubt on their **credibility**.

Judge: I see, but what about the legal precedent cited by the **prosecution**? How does that factor into your argument?

Lawyer: Your Honor, the legal **precedent** cited by the prosecution is flawed and fails to take into account the unique circumstances of this case, and it contradicts established legal principles.

Judge: But can you provide any examples to **support** your **argument**?

The experiment also included two stages: initial testing and final testing.

The goal of the experimental phase of our study was to assess the effectiveness of the proposed pedagogical system aimed at improving oral speech competence, focused on revealing professional qualities in the practice of using professional English in the future profession of cadets. We developed and tested the author's method of digital visualized cases in the form of video lessons, teaching aids, and textbooks for cadets studying in the "61030500 - Legal Support for Security" program. We formulated the conclusions of the study and practical recommendations for utilizing its results. The validity of the obtained results was verified using mathematical statistics methods, and the main outcomes and conclusions of the experimental part were scientifically analyzed and integrated into broader practice.

For the experimental work in the dissertation research, we selected objects from higher military educational institutions in Uzbekistan, including: The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan (65 cadets), the Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan (58), the Higher Military Aviation School of the Republic of Uzbekistan (36), and the Chirchik Higher Military Tank Command Engineering School (46). A total of 244 cadets participated, with 123 cadets in the experimental group and 121 cadets in the control group.

"The experiments with cadets of University of Public Safety of the Republic of the Uzbekistan conducted in three stages yielded the following observations: only 10% of the cadets could recall what they had read, meaning that out of 244 cadets, only 24 remembered what they had read. When it came to listening, 25% (61 out of 244

ISSN 3030-3230

cadets) understood and were able to respond to what they heard. In classes with digital videos and animations, 35% (85 out of 244 cadets) who listened and viewed without subtitles, and 60% (146 out of 244 cadets) who viewed with subtitles, understood and retained the material. Furthermore, 70% (171 out of 244 cadets) remembered what they had heard and seen while listening to the instructor's emotional speech. In discussions with other cadets, utilizing Online debates (1/1) Buzz sessions debates (3/3) ordinary without online Buzz session debates, they retained 90% of what they had heard and seen. The effectiveness of these activities was assessed through specific criteria, with 171 out of 244 cadets demonstrating retention.

tailored learning experiences.

4. Fostering Collaborative Learning: Encourage group activities and discussions that promote the contextual use of vocabulary, enhancing peer learning. Thus, a systematic approach to developing speaking competence in English for future military lawyers was implemented using interactive methods. Various types of assignments, innovative activities, authorial materials, and exercises, as well as digital and video lessons with and without subtitles, were utilized to enhance understanding through listening and viewing.

TABLE 1

INDICATORS OF CONTROL AND EXPERIMENTAL GROUPS BEFORE AND AFTER THE EXPERIMENTAL STUDY[2]

	Groups	Number of Cadets	Answers at Three Levels (in Numbers and Percentages)		
			Excellent (5)	Good (4)	Satisfactory (3)
Before the Experiment	• ExperimentaGroup	123	29 23.6	56 45.5	38 30.9
	• Control Group	121	25 20.7	56 46.3	40 33
After the Experiment	• ExperimentaGroup	123	51 41.5	60 48.8	12 9.7
	•Control Group	121	28 32.2	59 48.8	34 19

The three-stage model for teaching speaking was tested using the author's methodology. The indicators of control and experimental groups in the experimental study on the topic "Developing Oral Language Competence in Teaching English to cadets by using Digital Adapted Methods" were analyzed. A total of 244 cadets participated in the study before and after the experiments, with 123 in the experiment**.**

To effectively implement these strategies, educators should consider the following:

1. Assessment and Goal Setting: Conduct initial assessments to identify learners' vocabulary levels and establish clear learning objectives.

2. Resource Selection: Curate a blend of traditional and digital resources that align with curriculum goals, ensuring a comprehensive approach to vocabulary instruction.

3. Integration of Adaptive Technologies: Utilize adaptive learning platforms that offer personalized vocabulary practice, fostering

To assess the statistical significance of differences in knowledge acquisition among cadets in the experimental and control groups, the distribution of cadets and Pearson's two-sample test were used. Therefore, the numerical data related to the experimental and control groups should be considered as two statistical samples drawn from general populations with distribution functions Fe and Fc. Let X and U denote the random variables corresponding to these two general populations, meaning they have the distribution functions Fe and Fc. Here, R(A) represents the probability of event A.

Based on the data from Tables 8a and 8b, we will construct relative frequency polygons before and after the experiment.

2 Murakaeva Shakhnoza Khayrullayevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123

Relative Frequency Polygons[3]

Before the Experiment




Fig. 3a. Blue-control groups

Red-experimental groups

After the Experiment




Fig. 3b. Blue-control groups

Red-experimental groups

3 Murakaeva Shakhnoza Khayrullaevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123

Based on the table, we will calculate the average assimilation coefficient, the average sample variance, the accuracy indicators for determining the mean values, the cadet statistics, the degrees of freedom for the cadet criterion, and the confidence intervals for the mathematical expectation before and after the experiment.

Table 8.
Absorption Indicators[4]

$\bar{x}$	$\bar{y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
1.93	1.88	No Effect Before the Experiment								
2.31	1.95	0,4139	0,5851	3	4	3.96	232.6	17.23	0,11	0,13

Thus, at the end of the experiment, the average absorption rate was 12%, indicating its effectiveness. From the above results, we can calculate the quality indicators of the experiment. It should be noted that the criterion for assessing knowledge retention is Kokz, and the criterion for evaluating knowledge level is also Kokz.

$$K_{okz} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{2{,}31-0{,}11}{1{,}95+0{,}13} = \frac{2{,}2}{2{,}08} = 1{,}1 > 1;$$

$$K_{ocz} = (\bar{X}-\Delta_x) - (\bar{Y}-\Delta_y) = (2{,}31-0{,}11) - (1{,}95-0{,}13) = 2{,}2 - 1{,}82 = 0{,}48 > 0;$$

This indicates that the criterion for assessing knowledge retention is greater than zero, while the criterion for evaluating knowledge level is also greater than zero. Thus, the quality indicator in the experimental groups is higher than that of the control groups. According to the research results, scores among cadets studying English in the experimental groups increased by 6.41%, demonstrating an improvement in speaking competence. In the control groups, all indicators remained almost unchanged, and no development dynamics were observed. This, in turn, proves that the use of interactive methods protected by copyright, without the need for an author, yields effective and positive results in the educational process.

5. Conclusion

Blended learning combined with digital adaptive tools offer a robust framework for improving vocabulary in English ESP classes for the military lawyers of Uzbekistan. By providing personalized and engaging vocabulary instruction, these methods help our cadets navigate the complexities of the English classes for non-philological audience. Future research should investigate the long-term impact of these approaches and their scalability across different educational settings"[5][6].

4 Murakaeva Shakhnoza Khayrullayevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123

5 Murakaeva Shakhnoza Khayrullayevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123

ISSN 3030-3230

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishning maqsadi ingliz tili darslarida filologik bo‘lmagan auditoriya uchun raqamli vositalarni ishlab chiqishda Espni o‘qitish paytida aralashtirilgan ta’lim va raqamli moslashuvchan vositalarning ko‘tarilish tezligiga qanday ta’sir qilishini aniq o‘rganishdir. Ilmiy natijalar zamonaviy asrning turli xil usullari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish uchun korrelyatsiya va taxta ma’lumotlarini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish shousi belgisi oshgani sayin, aralash ta’lim va raqamli adaptiv vositalarning ko‘rsatkich darajasi ham oshadi. Bu ish uchun va onlayn resurslar bilan yuzma-yuz ta’lim integratsiya aralashgan ta’lim muhitlar qarshi dalillarni ta’kidlaydi, ta’lim tajribalarini bichish shunga qaramay adaptiv texnologiyalar roli kichik roli kabi katta oladi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yangilangan usullar so‘z boyligini keskin oshirib, harbiy yuristlar (ya’ni ushbu sohadagi kursantlar) va tillarni o‘qitishning samarali amaliyotini amalga oshirishga intilayotgan muassasalar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: ingliz madaniyatlararo aloqa, leksik atamalar, aralash ta’lim, raqamli adaptiv vositalar, resurslarga kirish, hamkorlikda o‘rganish, o‘z-o‘zini o‘rganish.

Аннотация. Цель данной научной работы состоит в том, чтобы на практике изучить, как развитие цифровых инструментов на занятиях по английскому языку для нефилологической аудитории влияет на повышение эффективности смешанного обучения и цифровых адаптивных инструментов при преподавании ESP. В научном исследовании используется корреляционный анализ и данные, полученные с помощью доски объявлений, для изучения взаимосвязи между разнообразием методов, применяемых в современном мире. Результаты показывают, что по мере повышения уровня цифровизации, увеличивается количество как смешанного обучения, так и цифровых адаптивных инструментов. В этом исследовании приводятся аргументы «за» и «против» смешанных учебных сред, которые объединяют очное обучение с онлайн-ресурсами, тем не менее, роль адаптивных технологий в адаптации опыта обучения может быть как значительной, так и незначительной. Полученные результаты позволяют предположить, что эти обновленные методы могут значительно расширить словарный запас, предлагая ценную информацию военным юристам (то есть курсантам в этой области) и учебным заведениям, стремящимся внедрить эффективные методы преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Английская межкультурная коммуникация, Лексические термины, Смешанное обучение, Цифровые адаптивные инструменты, Доступ к ресурсам, Совместное обучение, Самостоятельное обучение.

Literature used:

1. Murakaeva Shakhnoza Khayrullayevna Development of oral speech competence by using interactive methods of teaching English to future military lawyers, dissertation, Tashkent-2024, P-123
2. UNESCO. (2023). Atlas of the World’s Languages in Danger.
3. ELIA. (2022). Language Industry Survey.
4. Scopus. (2024). Trends in NLP Research.
5. TAUS. (2023). Translation Quality Benchmarking Report
6. Khoshimkhujaeva, M., Rakhimova, S., Abdullaeva, N., Miralieva, S., & Babakhodjaeva, S. (2020). Motivation process of learning in english through the games. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 375-380.
7. Miralieva, S. (2021, April). GENDER PECULIARITIES OF SPEECH STRATEGIES AND TACTICS IN A LITERARY TEXT. In >=H5D5=F<<.
8. Khayrullayevna, M. S. (2025). UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 73(2), 349-353.
9. Khayrullaevna, S. M., Sadikovna, M. F., Setiaevna, R. I., & Akmalovna, F. R. (2020). Efficacy of using distance learning in teaching process. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(2), 797-801.
10. Murakayeva, S. K. (2023). The Author’s Interactive Methods for the Military Lawyers:» Digital Case Study» Video Lessons,» Digital Storytelling and Startup Lessons»,» The New Creative Matrix Workshop» and Procedural Lessons With» Legal Discussions». Journal of Higher Education Theory and Practice, 23(4), 114-125.

GRAFIK TOPSHIRIQLARNI ELEKTRON PLATFORMA ASOSIDA TIZIMLASHTIRISH VA O‘QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISH

Saidaliyev Saidkarim Saidnabiyevich,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Muhandislik grafikasi kafedrasi professori, p.f.n.

Xasanova Marxabo Nosirovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. **Ushbu maqolada grafik topshiriqlarning yagona elektron platforma asosida tizimlashtirilishi va ularning o‘quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan. Elektron platformaning tuzilishi, funksional imkoniyatlari, foydalanuvchilar uchun yaratilgan qulay interfeys, grafik topshiriqlarning variantlari bilan taqdimoti va ularni nazariy bilimlar bilan bog‘lab o‘qitish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, platformaning talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, grafik tafakkur va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.**
Kalit so‘zlar: grafik topshiriqlar, elektron platforma, tizimlashtirish, o‘quv jarayoni, raqamli ta’lim, mustaqil ta’lim, muhandislik grafikasi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi sababli ta’lim jarayonida avtomatlashtirilgan o‘qitish usullari tobora kengayib bormoqda[1: - 4–6 b.].

Avtomatlashtirilgan o‘qitish usullarining afzalliklari haqida gapirganimizda, ularning individuallashtirilgan yondashuvi, ya’ni har bir o‘quvchiga moslashishi bizni tadqiqotchi sifatida, qiziqtiradi. Bu nafaqat o‘quvchilarning materialni chuqurroq anglashiga, balki o‘z bilimlarini mustaqil baholash va kamchiliklarini bartaraf etishga ham imkon beradi. Xuddi repetitor bilan ishlagandek, tizim mashqlarni va ularga namuna sifatida yechimlarni taklif qiladi[2: - 56–66 b.].

O‘qituvchilar uchun esa bunday tizimlar chinakamiga vaqt tejovchi vosita sifatida xizmat qiladi deb o‘ylaymiz. Chunki dars ishlanmalarini tayyorlash, testlar tuzish, baholash kabi ko‘p vaqt talab qiladigan jarayonlar avtomatlashtiriladi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yangi loyihalar ustida ishlash uchun ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi. O‘qituvchi endi shunchaki ma’lumot yetkazuvchisi emas, balki o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi murabbiyga aylanadi.

Eng muhimi, avtomatlashtirilgan platformalar ta’lim resurslariga cheksiz kirish imkonini yaratadi. Zamonaviy multimediali materiallar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash va chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi[3: - 25–28 b.].

Muhandislik grafikasini o‘qitish jarayonida grafik topshiriqlarni bajarish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon o‘qitish metodikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi[4]. Zamonaviy muhandislik ta’lim tizimida elektron platformalarning joriy qilinishi ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Talabalar grafik topshiriqlarni bajarish davomida nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtiradilar, balki bu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadigan amaliy tajriba to‘plashlariga yordam beradi.

А.Ю. Горячкина, О.М. Корягина, И.А. Горюнова, Т.Р. Хуснетдиновlarning “Онлайн-курс «инженерная графика» на национальной платформе открытого образования” nomli tadqiqotlarida Moskva Davlat Texnika Universiteti (Milliy Tadqiqot Universiteti) “Muhandislik grafikasi” kafedrasida so‘nggi yillarda aralash ta’lim muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Talabalarning geometrik-grafik tayyorgarligida multimedia vositalarini qo‘llash tajribasini umumlashtirib, grafik fanlar bo‘yicha ochiq onlayn kurslarni o‘rganib chiqib, 2019-yil sentabrda MGTU Bauman milliy ochiq ta’lim platformasida o‘zining “Muhandislik grafikasi” onlayn kursini taqdim etilgani ta’kidlangan[5: - 99–102 b.].

Tadqiqot tahliliga ko‘ra, kursning 16 haftalik dasturi uning mukammal ishlab chiqilganligidan

ISSN 3030-3230

dalolat beradi. Elektron platformaning eng muhim jihati - talabalar uchun qulay vaqt va joyda o‘qish imkoniyati, o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimi hamda o‘qituvchi bilan teskari aloqa o‘rnatish mexanizmlarining mavjudligidir.

Ilmiy xulosalarga ko‘ra, maqolada keltirilgan tajriba muhandislik grafikasi fanini masofaviy o‘qitishning samarali mexanizmlarini ko‘rsatib beradi va bu sohada keyingi izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ammo zamonaviy dunyoda yoshlar asosan smartfon va planshetlardan foydalanishini inobatga olganda, MGTU tomonidan Milliy ochiq ta’lim platformasida (MOOC) taqdim etilgan “Muhandislik grafikasi” onlayn-kursining mobil qurilmalarga moslashtirilmaganligi jiddiy kamchilikdir. Chunki, mobil versiyaning yo‘qligi talabalarni faqat kompyuterda o‘qishga majbur qiladi, bu esa, ehtimol, o‘qish vaqti va joyini tanlashda cheklovlar qo‘yadi. Masalan, talabalar transportda, kutish zallarida yoki boshqa joylarda mobil internetdan foydalanib, kurs materiallarini o‘rgana olmaydilar. Ayniqsa, kompyuterga doimiy kirish imkoni bo‘lmagan talabalar uchun bu, albatta, jiddiy noqulaylik tug‘diradi.

Muhandislik grafikasi fanini zamonaviy talablarga mos ravishda o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xususan, grafik topshiriqlarni yagona elektron platformada jamlash orqali o‘quv jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yaratilgan “Muhandislik grafikasi” elektron platformasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u grafik fanlarning barcha yo‘nalishlarini (chizma geometriya, proyeksion chizmachilik, geometrik chizmachilik, mashinasozlik chizmachiligi, texnik chizmachilik va boshqalar) qamrab olgan. Platformaning asosiy afzalligi – barcha grafik topshiriqlar, ularning variantlari, yechim namunalarini, nazariy materiallar, video darslar va adabiyotlar bilan birgalikda yagona tizimda taqdim etilishi hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilar uchun mustaqil ishlash, kerakli materiallarga tezkor murojaat qilish, chizmalarni tahlil qilish va takroriy o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Platformaning amaliy tatbiqiy mexanizmlari quyidagicha shakllangan: foydalanuvchi avval platformaga https://architecture-uz.netlify.app/ havola orqali kiradi. Platformaning bosh sahifasi ochiladi (1-rasm). Platforma talabalar uchun har qanday qurilmadan (kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi va intuitiv tushunarli interfeysga ega bo‘lishi kerak[6: - 20–21 b.].

Foydalanuvchi platformaga kirgach, “Fanlar ro‘yxati” bo‘limi orqali muhandislik grafikasi fanining turli yo‘nalishlari bilan tanishadi. Ushbu bo‘limda “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”, “Perspektiva”, “Geometrik chizmachilik”, “Mashinasozlik chizmachiligi”, “Arxitektura va qurilish chizmachiligi”, “Texnik chizmachilik”, “Proyeksion chizmachilik”, “Topografik chizmachilik” va “Kompyuter grafikasi” kabi asosiy fanlar tizimli tarzda tasniflangan (4-rasm). Har bir fan turiga mos grafik tasvirlar bilan jihozlangan interfeys orqali foydalanuvchi kerakli fan yo‘nalishini tezda aniqlab oladi (2-rasm).

Bundan tashqari, “Platforma haqida” bo‘limida loyiha mualliflari, adabiyotlar ro‘yxati va platformaning vazifalari to‘g‘risida batafsil ma’lumot berilgan.

Foydalanuvchi “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanini tanlaganida, platforma avtomatik tarzda ushbu yo‘nalishga tegishli barcha ta’lim resurslarini interaktiv interfeys orqali taqdim etadi (4-rasm). Grafik topshiriqlar bo‘limida foydalanuvchi mavjud variantlar bilan tanishadi va o‘ziga mos topshiriqni tanlab, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklab olishi mumkin.

Topshiriq tanlangach, foydalanuvchi “Grafik topshiriq yechimi namunasi” bo‘limiga o‘tadi va berilgan topshiriqning namunaviy chizmaviy yechimi bilan tanishadi. Bu esa talabaga topshiriqni mustaqil bajarishda yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, “Ma’ruza matni”, “Prezentatsiya” va “Video material” bo‘limlari orqali foydalanuvchi nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lab, chuqurroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

Fan doirasidagi barcha topshiriqlar ketma-ketligi, ularga biriktirilgan tushuntiruvlar va multimediaviy materiallar yagona sahifada jamlangan. Bu esa o‘quvchini chalg‘itmasdan, maqsadli va bosqichma-bosqich o‘rganishga undaydi. “Adabiyotlar” bo‘limi esa foydalanuvchining mavzu bo‘yicha chuqurroq tahlil yuritishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy manbalarni o‘z ichiga olgan.



1-rasm. *Muhandislik grafikasi faniga oid topshiriqlarni markazlashtirilgan tarzda taqdim etuvchi elektron platformaning interfeysi (bosh sahifa)*




2-rasm. *Muhandislik grafikasi fanlari ro‘yxati*



3-rasm. *Grafik topshiriqlar elektron platformasining “Platforma haqida” bo‘limi*


ISSN 3030-3230



4-rasm. *Chizma geometriya fanining grafik topshiriqlar sahifasi*


Mazkur mexanizm foydalanuvchining faolligini oshiradi, tanqidiy va grafik tafakkurini shakllantiradi hamda mustaqil ishlashga yo‘naltiradi. Platformaning oddiy, ammo puxta ishlangan funksional menyusi orqali foydalanuvchi o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtira oladi va kerakli ma’lumotlarga istalgan vaqtda, istalgan joydan kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Elektron platformaning o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan kirish sahifasi (5-rasm). Ushbu bo‘lim orqali o‘qituvchi o‘z elektron pochta manzili va paroli orqali tizimga kiradi. Shaxsiy kabinetga kirgach, u grafik topshiriqlarni yuklash, o‘zgartirish, yangi resurslar (prezentatsiya, ma’ruza matni, video, adabiyot) qo‘shish va mavjud kontentni tahrirlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu modul platformaning moslashuvchanligini, pedagogik jarayonda o‘qituvchining faol ishtirokini ta’minlaydi.



5-rasm. *O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan kirish sahifasi*


O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan fanlar bo‘yicha grafik topshiriqlarni qo‘shish va boshqarish sahifasi (6-rasm). Ushbu bo‘lim orqali o‘qituvchi kerakli fan nomini tanlab, unga grafik topshiriqlar biriktirishi mumkin. Interfeysda har bir fan uchun “Grafik topshiriqlar” rukni mavjud bo‘lib, unga topshiriq qo‘shish, tahrirlash yoki o‘chirish funksiyalari mavjud. Pastki qismda yangi topshiriq nomini kiritish va mavjudlar ro‘yxatidan tanlash imkoniyati yaratilgan. Bu imkoniyatlar platformaning moslashuvchanligini, pedagogik erkinlikni va topshiriqlar bazasini doimiy yangilab borish imkoniyatini ta’minlaydi.



tizimlashtirish va boshqarish oynasi

7-rasm. Didaktik materiallar bilan ishlash va grafik topshiriqlarni biriktirish sahifasi

O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan interfeys orqali fan va grafik topshiriq tanlab, ularga mos didaktik materiallarni (grafik topshiriq variantlari, yechim namunalari, ma’ruza matni, prezentatsiya, video dars va fan bo‘yicha adabiyotlar) biriktirish sahifasi. Tanlangan topshiriqqa tegishli fayllar PDF, PPT formatida yuklanadi. Ushbu imkoniyat o‘qituvchiga grafik topshiriqlarni to‘liq o‘quv-metodik paket bilan ta’minlash, har bir topshiriqni fan doirasida mustaqil modul sifatida shakllantirish imkonini beradi. Platformaning bu sahifasi raqamli ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun moslashuvchan va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yechim hisoblanadi.



6-rasm. *Fanlar bo‘yicha grafik topshiriqlarni*

Muhandislik grafikasi fanini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘qitish bugungi kun ta’lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida taqdim etilgan yagona elektron platformaning tatbiqiy imkoniyatlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda grafik topshiriqlarni markazlashtirilgan va interaktiv shaklda taqdim etish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Platformaning moslashuvchanligi, uning foydalanuvchi uchun qulayligi, didaktik materiallar va amaliy topshiriqlarning uyg‘un integratsiyasi – bularning barchasi talabalarda mustaqil fikrlash, grafik tafakkur va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilar uchun esa platforma — bu nafaqat o‘qitish vositasi, balki o‘quv jarayonini tizimli boshqarish, topshiriq bazasini boyitish va metodik yangiliklarni joriy etish imkoniyatidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektron platformaning keng tatbiqi fanlarni masofaviy va aralash shaklda o‘qitishda yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bois, ushbu tajriba natijalari asosida yana-da takomillashtirilgan, mobil moslashuvchanlikka ega va foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish tizimlari bilan boyitilgan yangi avlod raqamli platformalarni ishlab

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье рассматривается процесс систематизации графических заданий на единой электронной платформе и механизмы их внедрения в учебный процесс. Раскрыта структура и функциональные возможности платформы, особенности пользовательского интерфейса, представление заданий с вариантами и их связь с теоретическим обучением. Отмечено значение платформы в развитии навыков самостоятельной работы студентов, формировании графического мышления и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: графические задания, электронная платформа, систематизация, учебный процесс, цифровое обучение, самостоятельное обучение, инженерная графика.

Annotasion. This article analyzes the systematization of graphical assignments within a unified electronic platform and the mechanisms for their integration into the educational process. It describes the platform's structure, functional capabilities, user-friendly interface, the presentation of task variants, and the opportunities for linking assignments with theoretical education. The significance of the platform in developing students' independent learning skills, enhancing graphical thinking, and forming professional competencies is also emphasized.

Key words: graphical assignments, electronic platform, systematization, educational process, digital learning, independent learning, engineering graphics.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аль-Дарабсе А. М. Ф., Маркова Е. В. Автоматизированный метод обучения студентов инженерных специальностей // Технологическое развитие современной науки: тенденции, проблемы и перспективы. – Минск, 2018. – С. 4–6.
2. Малиатаки В. В., Киричек К. А., Вендина А. А. Дистанционные образовательные технологии как современное средство реализации активных и интерактивных методов обучения при организации самостоятельной работы студентов // Открытое образование. – Москва, 2020. – Т. 24. – № 3. – С. 56–66.
3. Isayeva G., Po'latova O. Zamonaviy ta'lim jarayonida ma'ruza samaradorligini oshirish usullari // Журнал академических исследований нового Узбекистана. – Toshkent, 2025. – Т. 2. – № 1 ,2-qism. – С. 25–28.
4. Boymuratov F.X. Muhandislik va kompyuter grafikasini o'zlashtirishda mustaqil va grafik topshiriqlarning ahamiyati // Uzbek Scholar Journal. – Toshkent, 2022. – Т. 10. – В. 320–325.
5. Горячкина А. Ю., Корягина О. М., Горюнова И. А., Хуснетдинов Т. Р. Онлайн-курс «Инженерная графика» на национальной платформе открытого образования // Информатизация инженерного образования. – Москва, 2020. – № 139. – С. 99–102.
6. Гасюк К. В., Гареева Г. А. Создание интерфейса для сайта // Инновационные технологии, экономика и менеджмент в промышленности. – Казань, 2021. – С. 20–21.

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINI MOLIYAVIY TA’MINLASH

Sultonov Abdulla Azamatovich,
O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
kafedra boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilikka qarshi kurash va profilaktika qilish faoliyatini moliyaviy ta’minlashni mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga o‘tkazish, shuningdek turli manbalar hisobidan jamg‘ariladigan “Adolat xarajatlari” nomli milliy tizimni joriy qilish hamda undagi mablag‘lardan protsessual xarajatlarni to‘lash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid boshqa xarajatlarni moliyaviy ta’minlash mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha konseptual takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat-protsessi, protsessual xarajatlarni to‘lash, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati, davlat budjeti, mahalliy hokimiyat, jabrlanuvchiga kompensatsiya to‘lash, jinoyatning qiymati.

Yangi O‘zbekistonda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan omillarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bunda ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-huquqiy asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni oldini olish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Qolaversa, “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida”da mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish borasida belgilangan maqsadlar[2], shuningdek “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishida nazarda tutilgan vazifalar mohiyatan inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlashni sud-huquq sohasidagi islohotlarining bosh mezoniga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir [3].

Mazkur islohotlar, bir tarafdan jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini tashkiliy-moliyaviy ta’minlash tizimini rivojlantirishni taqozo etsa, ikkinchi tarafdan, jinoyat-protsessual munosabatlarda fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Buning uchun bizningcha, jinoyatchilikka qarshi kurashish, shu jumladan jinoyat ishini yuritish xarajatlari institutini takomillashtirish lozim bo‘ladi. Boisi, moddiy xarajatlar jinoyat protsessining muhim va ajralmas qismi hisoblanib, ushbu institutning ahamiyati quyidagilarda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi:

– jinoyat jarayoni ishtirokchilarining mulkiy manfaatlarini kafolatlaydi;

– jinoyat-protsessual munosabatlarning barcha institutlari bilan aloqador hisoblanadi;

– jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalarini moddiy ta’minlashga xizmat qiladi;

– jinoyatchilikka qarshi kurashga oid davlat siyosatining muhim iqtisodiy omillardan sanaladi.

Protsessual xarajatlar institutining mohiyatini oydinlashtirish bo‘yicha yuqorida qayd etilgan dastlabkisining mazmunini matnning o‘zidanoq anglasa bo‘ladi. Biroq, keyingi uchta jihat qo‘shimcha muhokamalar hamda izohlarni talab etishi mumkin.

Ma’lumki, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida jinoyatlarni tez va to‘la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi, aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari sifatida, jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarda belgilangan tartibida amalga oshirish, qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatlarning oldini olish, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog‘i lozimligi esa

ISSN 3030-3230

maqsad tariqasida ko‘rsatilgan.

Demak, jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadigan barcha institutlar, ya’ni jinoyat protsessi ishtirokchilari, dalillar, protsessual majburlov, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, jinoyatlarning oldini olish hamda jinoyat ishini yuritish bosqichlariga oid barcha institutlar aynan ushbu vazifa va maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida o‘zaro aloqadorlikda xizmat qiladi. Shuningdek, ular asosida tartibga solinadigan hech bir jinoyat-protsessual munosabat yo‘qki amalda namoyon bo‘lishi uchun protsessual chiqimlar institutining sarf-xarajatlariga zarurat tug‘ilmaydi. Shundan kelib chiqib, protsessual xarajatlar institutiga, tom ma’noda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari vazifalarini amalga oshirishning moddiy sharti sifatida ta’rif berish o‘rinlidir.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunda, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari tariqasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi belgilangan. O‘z navbatida ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ham ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan.

Tabiiyki, xususiy mulk shakllari tobora ommalashib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha munosabatlar qatorida jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining ham moliyaviy ta’minlanishi dolzarb ahamiyat kasb eta boshlaydi. Protsessual xarajatlarga davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatidagi hal qiluvchi omillardan biri sifatida baho berilishi ham ushbu mezon bilan izohlanadi.

Bu boradagi mulohazalarimizni rivojlangan davlatlardagi jinoyat va adolat xarajatlariga doir iqtisodiy tahlillarga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning ortib borayotganligi ham tasdiqlaydi. Statistikaga ko‘ra, dunyo miqyosida jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni ta’minlash uchun BMT hisobidan bir yilda o‘rtacha 307 milliard dollarga yaqin mablag‘ sarflansa [4], birgina AQShda ushbu maqsadlar uchun yiliga 200 milliarddan ortiq mablag‘ sarflanadi [5]. Shuningdek, AQShdagi RAND (Xolis tahlil va samarali yechimlar) loyihasi mamlakatda eng ko‘p uchraydigan 7 ta turdagi jinoyat bo‘yicha amerikalik soliq to‘lovchilarning mablag‘lari hisobidan sarflanadigan jinoiy javobgarlikning qiymatini, ya’ni xarajatlar miqdorini hisoblagan. Unga ko‘ra, har bir qayd etilgan qotillik uchun 22,000-44,000 dollar, nomusga tegish va boshqa jinsiy erkinlikka qarshi jinoyat uchun 600-1300 dollar, bosqinchilik uchun 800-2100 dollar, og‘ir oqibatlarga olib kelgan tan jarohati yetkazish jinoyati uchun 200-600 dollar, uy-joyga g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o‘g‘irlik uchun 300-600 dollar, avtomashinani olib qochish hamda avtomashinadan sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlari uchun 200-400 dollar sarflanishi taxmin qilinadi [6].

Bundan tashqari, AQShda jinoyatdan jabrlanganlar milliy markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib. 1984 yildagi “Jabrlanuvchilar to‘g‘risida”gi Qonun (VOCA)ga muvofiq tashkil etilgan mazkur fondning hisobida bir necha un milliard dollardan mablag‘ mavjud bo‘lib, ulardan asosan jinoyatdan jabrlanganlarga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to‘lash hamda buzilgan huquqlarini tiklash (restitutsiya) uchun sarflanadi [7]. Bu, protsessual xarajatlarni to‘lash amaliyoti bilan bog‘liq AQShda mavjud bo‘lgan tajribalarni yanada chuqurroq o‘rganish va ularning ayrimlarini milliy qonunchiligimizga tatbiq etish mumkinligidan dalolat beradi..

Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati xarajatlari masalasida amerikalik tadqiqotchilar Stiv Aos, Polly Phipps, Robert Barnoski, Roksanna Lieb muallifligidagi “The comparative costs and benefits of programs to reduce crime (Jinoyatlarning oldini olish dasturlari bilan bog‘liq xarajatlar va natijalarning qiyosiy tahlili) [8], Mark A. Cohen tomonidan “The Costs of Crime and Justice (Paperback) (Jinoyat va adolat xarajatlari) [9], Matthew Heeks, Sasha Reed, Mariam Tafsiri and Stuart Prince tomonidan yozilgan “The economic and social costs of crime (Jinoyatning iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlari)” nomli asarlar [10], shuningdek Brandon Welsh tomonidan tayyorlangan “Costs and Benefits of Preventing Crime (Jinoyatlarning oldini olish xarajatlari va natijalari) [11] bo‘yicha tahliliy hisobotlarda ko‘plab ilmiy qarashlarni uchratish mumkin. Ularda asosan, jinoyatchilikning iqtisodiy xarajatlari, unga qarshi kurashish va oldini olishni moliyaviy jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan, protsessual xarajatlar uchun sarflangan mablag‘lar, jinoyatchilik oqibatida jabrlanuvchilarning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar, yo‘qotilgan daromadlar va mol-mulki, ruhiy va jismoniy

azoblanishlari, jamiyatdagi hayot darajasi va davlatga nisbatan ishonch hissining pasayishi bilan bog‘liq moliyaviy tahlillar qilingan. Shuningdek davlat budjetidan jinoyatlarga qarshi kurashish va ularning oldini olish, shuningdek jazoni ijro etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi organlarni moddiy ta’minlash uchun ajratilayotgan mablag‘lar sarhisob qilinadi. Shu asosda, davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish borasidagi taklif va fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

XX asrga kelib, dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarida ham jinoyatlarning oldini olish faoliyatiga iqtisodiy tahlillardan kelib chiqib yondashish tendensiyasi kengaya boshladi. Bunga, kanadalik tadqiqotchilar Cameron McIntosh va Jobina Li tomonidan tayyorlangan “An Introduction to Economic Analysis in Crime Prevention: The Why, How and So What (Jinoyatlarning oldini olishning iqtisodiy tahlilini joriy qilish: Nima uchun, qanday va qanday qilib) nomli hisoboti [12], nemis mutaxassisi Stephan L. Thomsenning “Report for the 20th German Congress on Crime Prevention: On the Economic Analysis of Costs and Benefits of Prevention (Jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha 20-Germaniya kongress hisoboti: jinoyatlarni oldini olishning iqtisodiy tahlili va xarajatlari)”[13], avstraliyalik tadqiqotchi Sarre, Rickning “How I Would Spend $100 Million to Reduce Crime (Qanday qilib 100 million dollar evaziga jinoyatchilikni kamaytirishga erishaman) nomli tadqiqotlarni [14] misol sifatida keltirsa bo‘ladi .

Bundan xulosa qilish mumkinki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha samarali davlat siyosatini olib borishda iqtisodiy omillarga tayanish rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo‘llanilmoqda. Bizning fikrimiz bo‘yicha ham, jamiyatda ko‘rsatilayotgan barcha xizmatlar, mavjud moddiy va nomoddiy resurslarning ahamiyati moddiy asoslarga ko‘ra baholanishi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng adolatli va to‘g‘ri yondashuvdir.

Ta’kidlash joizki, ayni vaqtda mamlakatimizda ilmiy yondashuvlarga tayangan holda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirishning yangi mexanizmlar joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlari, kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda kamida ikkitadan “namunali xavfsiz ko‘cha” va beshtadan “namunali xavfsiz yo‘lak” tashkil etish bo‘yicha choralar, shuningdek jinoyatchilikning hududlar kesimida kunlik tahlil qilinishi shular jumlasidandir. Albatta, mazkur tadbirlar orqali mamlakatimizda qisqa davrda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi hamda salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, Safety Perceptions Index (Xavfsizlik nuqtai nazari indeksi)ning 2021–2023 yillar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 121 ta mamlakat orasida eng xavfsiz davlat sifatida e’tirof etilib, birinchi o‘rinni egallaganini ham bunga misol sifatida keltirish mumkin [15].

Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun sarflanadigan budjet mablag‘larini sarhisob qilish, ko‘rilgan chora-tadbirlarning natijadorligini baholash bozor iqtisodiyoti sharoitidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Boisi, davlatimiz rahbarining alohida farmoni bilan tasdiqlangan “Davlat budjetining ijrosi ustidan moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish bo‘yicha” chora-tadbirlar Dasturining ijrosi ham aynan shuni taqozo etadi [16]. Ushbu hujjat o‘z mohiyatiga ko‘ra, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlariga erishishda Davlat budjeti mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash uchun davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirishni, ushbu masalada audit tizimini takomillashtirish hamda bu jarayonda jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirishni nazarda tutadi.

Fikrimizcha yuqorida qayd etilgan dasturning ijrosi, mamlakatimiz kriminologlari hamda iqtisodchilari oldiga jinoyatchilikka qarshi kurashish xarajatlarining iqtisodiy va ijtimoiy natijadorligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish vazifasini ham belgilab beradi. Negaki, budjet mablag‘lari asosan soliq to‘lovchilar (fuqarolar) hisobidan jamlanishi bois, ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi bo‘yicha tahlillar olib borilishi davr talabi hisoblanadi. Shu o‘rinda, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonuni” asosida, birgina O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda Oliy sudi faoliyatini moliyaviy ta’minlash uchun 4,5 trillion so‘mdan mablag‘ ajratilganligini ko‘rish mumkin[17]. Eng e’tiborlisi, ayni vaqtda olib borilayotgan budjet siyosati doirasida mahalliy davlat hokimiyati organlariga budjeti mablag‘larini taqsimlash va nazorat qilish bo‘yicha moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Natijada mahalliy hokimiyat organlarining ma’muriy hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o‘z vaqtida hal etish,

ISSN 3030-3230

huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini amalga oshirish orqali tegishli tuman va shaharlar, mahallalarda jinoyatchilikdan holi bo‘lgan xavfsiz makonni yaratish borasidagi imkoniyatlari yanada ortmoqda.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy tajribalar hamda sud-huquq sohasidagi davlat siyosati talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishga yo‘naltirilgan yangi milliy tajribaga asos bo‘ladigan “Adolat xarajatlari” tizimini joriy qilish taklif etiladi.

Bunda, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlarning kuch va imkoniyatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda ular faoliyatini moddiy-texnik ta’minlash majburiyatini mahalliy hokimiyat organlari hisobi va nazoratiga o‘tkazish taklif etiladi. Buning uchun:

– har bir moliyaviy yil uchun hududdagi kriminogen vaziyat va demografik holatdan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun sarflanadigan mablag‘lar miqdori belgilanadi;

– ma’muriy hududdagi sudlar tomonidan qo‘llanilgan jinoiy va ma’muriy jazo tariqasidagi jarimalar va boshqa mulkiy undirishlardan tushgan mablag‘larning bir qismi tizim hisob raqamiga kelib tushadi;

– tizim hisobidan sarflanishi mumkin bo‘lgan xarajat turlari va hajmi rejalashtiriladi;

– sarflanadigan mablag‘larning hisobi “Jinoyat haqiqati va adolati” nomli axborot tizimida shaffof tarzda yuritib boriladi. Har bir fuqaro ushbu axborot tizimi orqali budjet mablag‘larining sarflanishi hamda jinoyatchilikning ahvoli haqida tanishib borishi mumkin bo‘ladi.

“Adolat xarajatlari” tizimi mablag‘lari hisobidan tuman, shahar hududidagi quyidagi masalalar moliyalashtiriladi:

hududda sodir etilgan jinoyatdan jabrlangan fuqaroga to‘lanadigan kompensatsiyalar;

jinoyat ishlarini yuritishda sarflanadigan protsessual xarajatlarni to‘lash;

fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirishlar[18] ;

jinoyat protsessi ishtirokchilarini himoya qilish bilan bog‘liq amalga oshirilgan chora-tadbirlar [19];

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradigan davlat organlarining moddiy-texnik ta’minoti, rag‘batlantirish va boshqa ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar.

Natijada ma’muriy hududdagi jinoyatchilikning darajasi qanchalik kamaysa, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ xodimlarining maoshi va ustamalari shunga monand tarzda ortib boradi. Bu jinoyatchilik darajasi bilan uning oldini olish vazifasini bajaruvchi organ xodimlarining rag‘batlantirish hajmi o‘zaro bog‘liqlikda taqsimlanadigan tizimni yuzaga kelishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ushbu tizimning joriy qilinishidan kutiladigan natijalar (tizimning afzalliklari)sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

protsessual xarajatlarni to‘lash va qoplashning aniq manbai shakllanadi;

O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasida belgilangan mahalliy hokimiyat organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini to‘liq amalga oshirishdagi mas’uliyati va javobgarligi oshishiga erishiladi;

jinoyatdan jabrlanganlarga kompensatsiya to‘lash orqali ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofaza qilinadi;

jinoyatchilikka qarshi kurashadigan organlar, eng avvalo, ichki ishlar organlarining xodimlari uchun mehnat samaradorligi asosida haq to‘lanadi va ularni va ijtimoiy muhofaza qilish manbalari shakllanadi;

mahalliy hokimiyat organlari hokimiyat vakolatini amalga oshiruvchi hududiy tuzilma sifatida, davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasining joylardagi ijrosini ta’minlaydi;

fuqarolar o‘zlari to‘layotgan soliq va boshqa yig‘imlarning bir qismi jinoyatchilikning oldini olish uchun sarflanishini anglagan holda, ularda shaxsiy xavfsizlik hissi ortadi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etishiga erishiladi;

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun sarflanadigan mablag‘ miqdori va bu borada amalga oshirilgan ishlar natijadorligi baholash imkoniyati vujudga keladi;

o‘tgan moliyaviy yildan ortib qolgan mablag‘larni keyingi yil uchun zaxira sifatida jamg‘arilib, muayyan bank orqali moliya operatsiyalarini amalga oshirilib qo‘shimcha daromad ko‘rishga sharoit yaratiladi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi

organlar hamda muassasalarning o‘zaro hamkorligi yaxshilanadi.

Eng muhimi, jinoyatchilikka qarshi kurashdagi yangi milliy tajribaga asos solinib, mamlakatimizda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, xususiy mulk daxlsizligi ta’minlanishiga erishilib, xorijiy investorlarning oqimi ortadi hamda jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng munosib sharoit yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida ilgari surilgan taklif va tavsiyalar konseptual xususiyatga ega hisoblanadi. Shu boisdan ushbu taklifni amalda joriy etish bo‘yicha bajarilishi rejalashtirilgan grant loyihalari hamda qo‘shimcha tadqiqotlarda ular yanada takomillashtirilishi va maqbullashtirilishi mumkin.

Аннотация. В статье предлагаются концептуальные предложения по передаче финансовой обеспечении деятельности борьбы с преступностью и ее профилактики местным органам власти, а также внедрению национальной системы под названием «Расходы на справедливость», формируемой из других источников финансирования, и порядок оплаты процессуальных и других расходов.

Ключевые слова: уголовно-процессуальное законодательство, оплата процессуальные издержки, политика по борьбе с преступностью, государственный бюджет, местные органы власти, компенсация потерпевшему, стоимость преступления.

Annotation. The article proposes concepts for the transfer of financial support of the activity of combatting and prevention of crimes by local authorities, as well as the introduction of a national system of “Expenses for justice”, and the procedure for paying procedural expenses and other means of expenditure.

Key words: criminal procedural legislation, payment of procedural costs, crime control policy, state budget, local authorities, compensation to victim, cost of crime.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сон қарори. (https://lex.uz/uz/docs/7330260);

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. (https://lex.uz/docs/5841063);

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. (https://lex.uz/ru/docs/6600413);

4. Budget for the biennium 2018-2019 for the United Nations. Crime Prevention and Criminal Justice Fund. The Commission on Crime Prevention and Criminal Justice, Exercising the administrative and financial functions entrusted to it by the General Assembly in its resolution 61/252 of 22 December 2006, (https://www.unodc.org/documents/commissions/ CCPCJ/ Crime_Resolutions/2010-2019/2017/Resolution_26_5_Rec_CCPCJ.pdf//https:// undocs.org/E/ CN.7/2017/12-E/CN.15/2017/14)

5. Fighting crime with statistics. Taking advantage of “natural experiments,” researchers analyze data to look at what works//By Tom Siegfried 11.30.2018 https:(https://www.knowablemagazine.org/article/society/2018/fighting-crime-statistics)

6. The Price of Justice. New National and State-Level Estimates of the Judicial and Legal Costs of Crime to Taxpayers. Published in: American Journal of Criminal Justice, 2016. Posted on RAND.org on August 25, 2016. by Priscillia Hunt, James M. Anderson, Jessica Saunders (https://www.rand.org/pubs/external_publications/EP66592.html).

7. https://victimsofcrime.org/about/

ISSN 3030-3230

11. Brandon Welsh. Costs and Benefits of Preventing Crime. Routledge, 2018. 308-p. (https://books.google.co.uz/books?id= =false)

12. Cameron McIntosh ва Jobina Li. An Introduction to Economic Analysis in Crime Prevention: The Why, How and So What. Research Report: 2012-5 © Her Majesty the Queen in Right of Canada, 2012. 41 Pages. (https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrcs/pblctns/cnmc-nlss/index-en.aspx?wbdisable=true)

13. Stephan L. Thomsen. International Perspectives of Crime Prevention 8. International Perspectives of Crime Prevention 8Contributions from the 9th Annual International Forum 2015 within the German Congress on Crime Prevention. Forum Verlag Godesberg GmbH 2016. 116 Pages. (https://www.praeventionstag.de/nano.cms/publications/buch/19)

14. Sarre, Rick. «How I Would Spend $100 Million to Reduce Crime» [2017] CICrimJust 6; (2017) 28(3) Current Issues in Criminal Justice 339 (http://www.austlii.edu.au/au/journals/CICrimJust/2017/6.html#fn1).

15. Халқаро индекслар бўйича Ўзбекистон энг хавфсиз мамлакат деб эътироф этилди. https://senat.uz/oz/post/post-2453

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 10 июлдаги “Бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан молиявий назоратни кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-100-сон Фармони (https://www.lex.uz/docs/7015258);

17. Ўзбекистон Республикасиннг 2024 йил 24 декабрдаги “2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги ЎРҚ-1011-сон Қонуни (https://lex.uz/ru/docs/7277618);

18. Фуқаролар ва жамоат ташкилотларини ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишдаги фаол иштироки учун рағбатлантириш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори 08.01.2018 йилдаги 15-сон, Кучга кириш санаси 12.01.2018. Манба: ҚҲММБ, 12.01.2018 й., 09/18/15/0548-сон.

19. Жабрланувчиларни, гувоҳларни ва жиноят процессининг бошқа иштирокчиларини ҳимоя қилиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 14.01.2019 йилдаги ЎРҚ-515-сон, Кучга кириш санаси 16.07.2019. Манба: ҚҲММБ, 15.01.2019 й., 03/19/515/2472-сон.

HARBIY HAYDOVCHILARNI EKSTREMAL VAZIYATLARGA TAYYORLASHNING TEXNIK VOSITALARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar
bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Doston Hasan o‘g‘li ,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitatsion trenajor”ning mo‘ljallanishi, tuzilishi va texnik imkoniyatlari haqida bo‘lib, rivojlangan davlatlar (AQSH, Rossiya va Germaniya) harbiy ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan trenajorlar va maxsus qurilmalar bilan bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: harbiy haydovchi, ekstremal vaziyat, trenajor, maxsus qurilma, texnik tavsifi.

Dunyoda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, davlatlararo (Rossiya-Ukraina, Isroil-Falastin, Suriya, Iroq, Afg‘oniston va boshqalar) yuz berayotgan mojarolar va qurolli to‘qnashuvlar, shuningdek, terrorizm hamda diniy ekstremizm harakatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, jangovar harakatlar taktikasi va ko‘rinishlari kun sayin o‘zgarib bormoqda. Bu o‘z navbatida barcha harbiy ta’lim muassasalarida zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, interfaol ta’lim tizimi va jangovar vaziyatlardagi ekstremal holatlarni yaratib beruvchi maxsus qurilmalar va trenajorlardan foydalanib harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shunday ekan, milliy armiyamiz tarkibida nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, professional, har tomonlama tayyor bo‘lgan harbiy kadrlarni ta’lim tizimini isloh etishni taqozo etadi. Bu borada maxsus bo‘linma harbiy xizmatchilarini o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kerakli yo‘nalishlarda, hozirgi zamon talablariga mos holda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-2030 yillarga mo‘ljallangan 2023-yil 11-martdagi PF-158 “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish vazifalariga muvofiq, oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida harbiy xizmatchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning moddiy-texnik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish [1] belgilab otilganligi mazkur masalalarning dolzarbligini belgilab beradi.

Qo‘shinlarning yuqori harakatchanligini ta’minlash vositasi bu harbiy texnikalardir. Hozirgi kunda zamonaviy harbiy texnikalarning texnik imkoniyatlari ortishi, ulardan keng ko‘lamli vazifalarni bajarishda, shaxsiy tarkib va o‘q-dorilarni tashishda, quruqlikdagi qo‘shinlarda, boshqa huquqni muhofaza qilish organlarida qo‘llaniladigan ayrim turdagi qurollar uchun asosiy vosita sifatida foydalanishga imkon beradi. Ushbu harbiy texnikalardan xizmat va jangovar vazifalarni amalga oshirishda uning barcha texnik hamda jangovar imkoniyatlaridan xabardor bo‘lgan, undan samarali foydalana oladigan va ularga texnik xizmat ko‘rsatadigan harbiy haydovchilarni va ularning bo‘lajak komandirlarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida xizmat olib borayotgan barcha harbiy haydovchilar tinchlik davrida va jangovar vazifalarni bajarish chog‘ida bevosita ekstremal vaziyatlarga duch kelishadi. Ekstremal vaziyatlarda harbiy haydovchilarning aqliy sifatlari va jismoniy tezkor harakatlari to‘g‘ri qaror qabul qilishga va

ISSN 3030-3230

nostandart vaziyatlardan chiqib ketishga xizmat qiladi. Buning uchun esa harbiy haydovchida yetarli darajada malaka shakllangan bo‘lishi kerak. Buning uchun esa oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida ekstremal vaziyatlarni yuzaga keltirish imkoniyatiga ega bo‘lgan trenajorlarda hamda bevosita texnikalarda doimiy mashq qilish talab etadi.

Rossiya-Ukraina urushining real vaziyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, harbiy haydovchilardan jangovar texnikalarga portlovchi moddalarning qisman talafoti va kamekadze dronlarining hujumlaridan so‘ng ham jangovar texnikalarning asosiy qism va agregatlariga yetarli talafot yetkazilmagan holatida vaziyatdan chiqib ketish va jangovar vazifani davom ettirishlari talab etilmoqda. Shu kabi vaziyatlarda jangovar texnikalar yaroqli holatda qolgani bilan portlash zarbi harbiy haydovchiga kuchli ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi.

Shuningdek, tinchlik davrida maxsus bo‘linma haydovchilari avtomobilda jinoyatchilarni quvish vaqtida turli xil ekstremal vaziyatlar (avtomobilning yonga sirpanib ketishi, to‘qnashishi, avariya va shu kabi vaziyatlar)ga tushishlari mumkin. Harbiy haydovchilar shu vaziyatlarda o‘ziga biriktirilgan yoki boshqa transport vositasida vazifani muvaffaqiyatli tugatishi talab etiladi. Buning uchun esa o‘quv mashg‘ulotlari real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda o‘tkazilishi kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida ekstremal vaziyatlarda haydovchilarni tayyorlashda **quyidagi muammolarni** ko‘rmoqdamiz:

- ekstremal vaziyatlarda harbiy haydovchilarni kasbiy malakasini oshirishda “**avtomobillarni boshqarish-ekstremal vaziyat-avtomobillarni boshqarish**” metodikasi yetarli darajada shakllantirilmaganligi;

- o‘quv mashg‘ulotlarida harbiy haydovchilarni o‘qitishda ekstremal vaziyatlarni yaratib beruvchi maxsus qurilma va trenajorlarning yetarli emasligi;

- mavjud trenajor va maxsus qurilmalar ham o‘rganuvchilarni ekstremal vaziyatga tushirish imkoniyatining pastligi;

- harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatga tushirgan holda bevosita avtomobilni ekstremal boshqarish imkoniyati mavjud emasligi;

- harbiy texnikalarni amaliy boshqarish mashg‘ulotlarida bajarilayotgan mashqlarning ta’siri, harbiy haydovchilar ekstremal vaziyatlarni yengib o‘tishda yetarli darajada emasligi;

- oliy harbiy va harbiy ta’lim muassasalarida tankodrom va avtodromlar ekstremal vaziyatlarni yaratib beruvchi jihozlar bilan ta’minlanmaganligi.

Haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi maxsus qurilmalar va trenajorlar - bu haydovchilarni transport vositasini boshqarish jarayonida muhit yoki shaxslar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarni qisman yoki to‘liq yaratib beruvchi va mashg‘ulot rahbariga mashg‘ulot jarayonida tinglovchi (kursant)larning harakatlarini obyektiv nazorat qilish imkonini yaratuvchi o‘quv qurilmasi hisoblanadi. Haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi maxsus qurilmalar va trenajorlarga qo‘yiladigan talab yuqori darajadagi xavfsizlikni ta’minlagan holda turli xil nostandart vaziyatlarda avtomobildan mohirona foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan.

Hozirda xorijiy harbiy ta’lim muassasalarida ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi trenajorlardan foydalanish sur’ati kun sayin oshib bormoqda. Ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida biz siz bilan xorijiy olimlarimiz tomonidan yaratilgan haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi trenajorlarni tahlil qilamiz.

Ekstremal vaziyatlarda avtomobilni boshqarish trenajori – AQSH

AQShning Nyu-Jersi shtatidagi Sharqiy Stunt haydovchilik maktabida haydovchilarga avtomobilni yuqori tezlikda *skeypli, oldi va orqasi bilan 90^0 va 180^0 ga burilishlar* va boshqa shu kabi ekstremal vaziyatlarni avtomobilda o‘rgatishdan oldin trenajor (1-rasm)da haydovchilarga ekstremal vaziyatlarda avtomobilni rul chambaragi, tormoz va yoqilg‘i berish tepkilaridan to‘g‘ri foydalangan holda avtomobilni ravon boshqarish metodikasini o‘rgatilib kelinmoqda [2].



1-rasm. Ekstremal vaziyatlarda avtomobilni boshqarish trenajyori.

Aksariyat haydovchilar avtomobilni yuqori tezlikda boshqarish jarayonida ekstremal vaziyat

yuzaga kelganda avtomobil rul chambaragidan tartibsiz foydalanishi yoki rul chambaragini butunlay qo‘yib yuborishi, tormoz va yoqilg‘i berish tepkilaridan noto‘g‘ri foydalanishi, ularni chalkashtirib yuborishi natijasida turli falokatlarga duch kelishlari mumkin. Ushbu trenajor avtomobil sporti bilan shug‘ullanuvchi haydovchilar, kaskadyorlar va tezkor va maxsus bo‘linma haydovchilarini ekstremal vaziyatlarga tayyorlash bo‘yicha boshlang‘ich ta’limni berishda muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga ushbu trenajor juda oddiy, haydovchiga kutilmagan sun’iy ekstremal vaziyat yaratib bo‘lmaydi va mexanik ta’sirga ega emas.

Ma’lumki avtomobillar yo‘l yuzalari sirpanchiq bo‘lgan holatlar (qishda – qorli, muzli, kuzda – xazonrezgi va birinchi yomg‘ir vaqtida va boshqa sun’iy jarayonlar ta’siri)da, avtomobilning orqa o‘qi yonga sirpanib ketish ehtimoli katta. Ushbu holat haydovchilar uchun juda murakkab hisoblanib, kichik ta’sir ostida ham avtomobil o‘z o‘qi atrofida aylanib ketish mumkin. Bundan tashqari, jangovar vazifalarni bajarish vaqtida avtomobildan yuqori tezlikda foydalanganda keskin manyovrlarni amalga oshirganda yuqoridagi ekstremal vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu holatlarda avtomobilni boshqarish harbiy haydovchilardan yuqori kasbiy ko‘nikma va malakani talab etadi. Buning uchun esa harbiy haydovchilarning kasbiy tayyorgarliklarini oshirish uchun maxsus jihozlangan avtodromlar, maxsus immitatsion qurilmalar va ulardan foydalanish metodikasi talab etiladi.

Avtomobilni orqa o‘qini sirpantiruvchi qurilma – dinamik plita.

Germaniyaning Bundesfer maxsus bo‘linma haydovchilari [3] (2-rasm)ni va Rossiyaning Federal qo‘riqlash xizmati (FSU) maxsus bo‘linma haydovchilari [4] (3-rasm)ni ekstremal vaziyatlarda tayyorlashda avtotransport vositasini orqa o‘qini sirpantiruvchi qurilma – dinamik plitadan foydalanishadi. Ushbu “dinamik plita” maxsus platforma ustiga o‘rnatilgan bo‘lib, operator boshqaruvi ostida mashina harakat yo‘nalishdan chapga yoki o‘ngga harakatlanib, avtotransport vositasini sirpantirib yuboradi. Bu orqali haydovchilarda yuqori tezlikda burilishlarga kirishda, sirpanchiq yo‘llarda, jinoyatchini ta’qib etayotganda va boshqa turli ekstremal vaziyatlarda haydovchilarni kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu qurilmaning kamchiligi avtomobilning trenajorda cheklangan qo‘zg‘aluvchanligi va real yo‘l sharoitida avtomobilni harakatlana olmasligi hamda sirpanib surilish imkoniyatining mavjud emasligi. Natijada avtomobilning real yo‘l sharoitlarida va turli tezlik rejimlarida harakati bilan kuzatiluvchi yonlama va bo‘ylama turg‘unlik yo‘qolishi ta’minlanmaydi.

Bundan tashqari ushbu qurilmaning bugungi kundagi tan narxining balandligi, undan foydalanishda doimiy xarajat hamda xizmat ko‘rsatishdagi yuqori xarajatlar o‘ziga xos bo‘lgan muammolarni paydo qiladi.

Chet el tajribalarini o‘rganish va harbiy ta’lim tizimida harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlash bo‘yicha muammolarni tahlil etgan holda, harbiy haydovchilarni o‘tishida **avtomobillarni boshqarish-ekstremal vaziyat-avtomobillarni boshqarish** metodikasini rivojlantirish maqsadida “**Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitasion trenajyori**” yaratildi (4-rasm) [5].

Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitasion trenajyor – harbiy haydovchilarga xizmat vazifalarini bajarish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlar (mashinaning yonga sirpanib ketishi, avariya, jangovar texnikalarda kamekadze dronlaridan qisman talafot yetgandagi holat) ni yaratish orqali, undan chiqib ketishga tayyorlashga mo‘ljallangan.

Trenajorning texnik tavsifi:

Og‘irligi – 400 kg.

Yuk ko‘tarish qobiliyati – 120 kg

Aylanish burchagi:



2-rasm. Dinamik plita (Germaniya)



3-rasm. Dinamik plita (Rossiya)

ISSN 3030-3230

Vertikal rama – 360^0
Gorizontal rama - 360^0

Aylanishlar soni:
Vertikal rama – 40 ayl/daq.
Gorizontal rama – 40 ayl/daq.
Foydalanuvchilar soni (bir vaqtda) – 1 kishi
Xavfsizlik kamarining yuk – 150 kg
ko‘tarish qobiliyati
Foydalanishga tayyorlash vaqti – 1 daqiqa.



4-rasm. Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitasion trenajyor

Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitatsion trenajor afzalliklari

yuqori darajadagi xavfsizlik bilan ta’minlanganligi;

trenajorni tayyorlash xarajatlarining pastligi (o‘rtacha 5-10 million so‘m);

doimiy foydalanishda xarajat talab etilmaydi;

xizmat ko‘rsatish muddati uzoqligi;

bir vaqtning o‘zida bir-nechta ekstremal vaziyatlarni yaratish imkoniyati mavjudligi;

foydalanishga tayyorlash vaqtining juda qisqa ekanligi;

“avtomobillarni boshqarish-ekstremal vaziyat-avtomobillarni boshqarish” imkoniyatining mavjudligi;

tashish imkoniaytining mavjudligi.

Ushbu trenajor mustahkam konstruksiyadan iborat bo‘lib, yuqori sifatli xavfsizlik kamari bilan to‘liq jihozlangan. Trenajordan foydalanganda o‘rganuvchining oyoq, ko‘krak qafasi va yelka qismlaridan to‘liq xavfsizlik kamari bilan (avtomobilning yonga sirpanib ketgandagi, to‘qnashuvdagi, dumalab ketgandagi va boshqa shu kabi ekstremal vaziyatlar yaratilganda jarohat olmasligi maqsadida) mahkamlanadi. Trenajorning moddiy qismlarini xarid qilishda yuqori tanlovning mavjudligi, uning tan narxini yanada arzonlashtiradi. Uni tayyorlashda asosan mahalliy xom-ashyo materiallari (10x10, 8x8, 6x6 va 2x4 o‘lchamdagi metall profil)dan foydalanilgan. Haydovchi kabinasini jihozlashda Gaz 3110 markali avtomobil o‘rindig‘i va rul chambaragidan foydalanilgan.

Bugungi kunda ushbu trenajorning anonimi bo‘lgan dinamik trenajorlar alohida shtat birligini talab etadi. Ushbu trenajordan foydalanishning tartibi sodda bo‘lganligi sababli mashg‘ulot rahbarining o‘zi bevosita trenajordan foydalanib, tinglovchilarni baholashi mumkin. Bundan tashqari, avtomobillarni boshqarish vaqtida o‘rganuvchi bevosita avtomobilda mashqni bajarib, trenajorda ekstremal vaziyatga tushirilib, ekstremal vaziyatdagi emotsiya (qo‘rquv, hayajon va boshqalar)lar tark etmasdan, avtomobilda keyingi mashqni bajartirish va bu orqali o‘rganuvchining ekstremal vaziyatdan keyin qanchalik jangovar vazifani bajara olish qobiliyati mavjudligini aniqlash va mashqlarni qayta-qayta bajarish orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf mumkin.

Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlashda maxsus qurilmalar va trenajorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

mashg‘ulotlarda maksimal ko‘rinish va foydalanish imkoniyatini ta’minlash;

mashg‘ulot vaqtidan unumli foydalanishga, shuningdek, o‘quv jarayonida o‘rganuvchilarning qiziqishini uyg‘otish va faolligini oshirishga imkon berish;

o‘qituvchiga mashg‘ulot davomida tinglovchilarning mustaqil bo‘lishini va ilgari olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llashni talab qiladigan turli xil ekstremal vaziyatlar yaratishga imkon berish;

o‘rganuvchilarning harakatlari va ular o‘rganayotgan materialning o‘zlashtirilishi ustidan obyektiv nazoratni amalga oshirish, o‘rganuvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar va yetarli darajada o‘zlashtirilmagan savollarni aniqlash;

trenajorlarning dizayni sodda, ishlashda ishonchli va bardoshli bo‘lishi;

tayyorlash va texnik xizmat ko‘rsatish uchun minimal vaqtni talab qilish;

mashg‘ulot vaqtida o‘rganuvchilarning to‘liq xavfsizligini ta’minlash;

o‘rganuvchilarning xatolarini qayd eta olish va ularning malakasini baholay olish.

Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlashda maxsus qurilmalar va trenajorlardan foydalanishning chet el tajribalari hamda harbiy ta’limda ilmdagi muammolarni o‘rgana

turib, milliy armiyamizning muhim bir bo‘lagi hisoblangan harbiy haydovchilar va ularning bo‘lajak komandirlarini zamonaviy professional qilib yetishtirish maqsadida quyidagi takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta’lim va harbiy ta’lim muassasalarida texnik tayyorgarlik fanlari o‘quv dasturlarida real ekstermal vaziyatlarga yaqin bo‘lgan mashqlarni kiritishni;

- oliy ta’lim va harbiy ta’lim muassasalarida mazkur “harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitasion trenajor”dan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni;

- harbiy haydovchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan texnik vositalardan foydalanish jarayonlarini oshirish;

- harbiy pedagoglarni ilmiy-texnik tadqiqot ishlari samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi zirhli texnikalarni ta’mirlash zavodining texnik imkoniyatlaridan foydalanishning byurokratiyadan yiroq bo‘lgan kuch ishlatar tuzilmalari o‘rtasida qo‘shma qaror ishlab chiqish.

Аннотация. В статье рассматриваются назначение, структура и технические возможности «Имитационного тренажера для подготовки военных водителей к экстремальным ситуациям», а также дается сравнительный анализ тренажеров и специальных устройств, используемых в военных учебных заведениях развитых стран (США, России, Германии).

Ключевые слова: военный водитель, экстремальная ситуация, тренажер, специальное устройство, техническое описание.

Annotation. The article examines the purpose, structure and technical capabilities of the «Simulation simulator for training military drivers for extreme situations», and also provides a comparative analysis of simulators and special devices used in military educational institutions of developed countries (USA, Russia, Germany).

Key words: military driver, extreme situation, simulator, special device, technical description.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.03.2023 yildagi PF-158-son. Elektron resurs: https://lex.uz/ru/docs/-6600413. Murojaat qilingan sana: 2024-yil 29-aprel.
2. High-Threat Driving Techniques Used By Military Personnel. Elektron resurs: https://www.youtube.com/watch?v=L3cQFsX6gl4. Murojaat qilingan sana: 2024 yil 2 noyabr.
3. Wie wird man Personenschutzer bei der Bundeswehr?/NDR Doku. Elektron resurs: https://www.youtube.com/watch?v=xjgeqlTkYv0. Murojaat qilingan sana: 2024 yil 5 noyabr.
4. Бакулин Н.П., Рустамов Р.А. Тактико-специальная подготовка водителей МВД//Концепт. – 2015. – № 06 (июнь). –ART 15185. – URL: http://e-koncept.ru/2015/15185.htm. – ISSN 2304-120X.
5. D.H.Sharipov, A.A.Akramova, B.R.Rajabov va A.A.Shermatov. Harbiy haydovchilarni ekstremal vaziyatlarga tayyorlovchi immitasion trenajyor. O‘z.Res. Adliya vazirligi huzuridagi “Intelektual mulk markazi” Mualliflik huquqi obyektlarini deponentlash to‘g‘risidagi №008170 guvohnoma. Toshkent. – 2024 y.

ISSN 3030-3230

IJTIMOIY TARMOQLARDA DEEPFAKE IDENTIFIKATSIYASINING RAQAMLI KRIMINALISTIKASI

Xoliqov Shuhrat Abduhamidovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. **Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda deepfake identifikatsiyasining raqamli kriminalistikasi ilmiy tadqiq qilinadi. Deepfake texnologiyasining jadal rivojlanishi noto‘g‘ri ma’lumotlar va firibgarlik xavfi. Ushbu tadqiqot chuqur soxta narsalarni aniqlash uchun foydalaniladigan raqamli kriminalistika usullarining zamonaviy tizimli so‘rovini taqdim etadi. Yangi texnologiyalarni asoslovchi keng tarqalgan ma’lumotlar to‘plami tahlil qilinadi. Deepfakelarga imkon beruvchi tez rivojlanayotgan texnologik landshaftga qarshi turish uchun uzluksiz innovatsiyalar zarur, degan xulosaga keladi.**

Kalit so‘zlar: Deepfake, Deepfake texnologiyasi, Sun’iy intellekt, Raqamli kirminalistika, Ijtimoiy media.

Axborot misli ko‘rilmagan tezlikda almashinadigan va iste’mol qilinadigan raqamli asrda ushbu ma’lumotlarning haqiqiyligi va yaxlitligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda ma’lumotlarning haqiqiyligi uchun eng muhim muammolardan biri bu deepfake texnologiyasining yuksalishi bo‘ldi. Deepfakelar, “chuqur yolg‘on” va “soxta” so‘zlaridan ishlab chiqilgan atama, sun’iy intellekt (SI) usullaridan foydalangan holda mavjud tasvir yoki videodagi shaxs boshqa birovning o‘xshashi bilan almashtiriladigan sintetik vositalarga ishora qiladi. Ushbu texnologiya, ayniqsa, ijtimoiy media platformalarida tez rivojlanishi va keng qo‘llanilishini ko‘rdi, bu matn, audio va videoni o‘z ichiga olgan multimodal deepfake kontentining ko‘payishiga olib keldi [1].

Deepfakelar, sun’iy intellekt texnikasi yordamida yaratilgan sintetik media, so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, raqamli kontentning haqiqiyligi va yaxlitligi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Deepfakelarning asosiy jihati ularning multimodal tabiatidir, ya’ni ular bir nechta ommaviy axborot vositalarini, jumladan video, audio, matn va tasvirlarni qamrab olishi mumkin. Deepfakelarni samarali aniqlash va unga qarshi kurashish uchun ushbu usullarning barchasini ko‘rib chiqish va keng qamrovli aniqlash usullarini ishlab chiqish juda muhimdir.

Video kabi yagona modallikka e’tibor qaratish, tajovuzkorlar audio yoki matn kabi boshqa usullarni boshqarish orqali foydalanishi mumkin bo‘lgan zaifliklarni qoldirishi mumkin. Misol uchun, ishonchli video deepfake sintetik tarzda yaratilgan ovozli ovoz bilan birga bo‘lishi mumkin, bu manipulyatsiyani aniqlashni yanada qiyinlashtiradi. Xuddi shunday, deepfake matni dezinformatsiyani manipulyatsiya qilingan tasvirlar bilan birga tarqatish, uning ijtimoiy media platformalariga ta’sirini kuchaytirish uchun ishlatilishi mumkin [5, 6].

Ushbu so‘rov video, audio, matn va tasvirlarni o‘z ichiga olgan bir nechta usullarda soxtalikni aniqlash usullarining to‘liq ko‘rinishini taqdim etishga qaratilgan. Ushbu usullarni qamrab olgan holda, biz multimodal deepfake aniqlashdagi tadqiqot kamchiliklari va muammolarini hal qilishga intilamiz va yanada mustahkam va samarali aniqlash tizimlarini ishlab chiqishga hissa qo‘shamiz.

Deepfake texnologiyasi o‘z imkoniyatlarida ta’sirchan bo‘lsa-da, muhim axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqardi. Media-kontentni haqiqatdan deyarli farqlanmaydigan darajada manipulyatsiya qilish qobiliyati maxfiylikni buzishdan noto‘g‘ri ma’lumot kampaniyalarigacha keng qamrovli oqibatlarga olib keladi. Bu chuqur fakelarning tarqalishiga qarshi kurashish uchun samarali aniqlash va tahlil qilish usullariga shoshilinch ehtiyoj tug‘dirdi [7].

Ushbu tadqiqot ijtimoiy media platformalarida multimodal deepfake materiallarini aniqlash va tekshirish uchun qo‘llaniladigan mavjud raqamli kriminalistika usullarini o‘rganadi. U deepfakes orqasidagi texnologiya, ularni yaratishda qo‘llaniladigan texnikalar va ularni aniqlash natijasida yuzaga keladigan keyingi qiyinchiliklar haqida batafsil ma’lumot berishga intiladi [4].

Deepfake texnologiyasining tez evolyutsiyasi tasvir, video, audio va matnni o‘z ichiga olgan bir

nechta modalliklarni qamrab olgan sintetik media vositalariga olib keldi. Ilgari aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ko‘proq vizual va audio chuqur soxta narsalarga qaratilgan bo‘lsa-da, sintetik matnni yaratish paydo bo‘lgan tahdidga aylandi [14]. Ilg‘or neyron tarmoqlar endi aniqlash qiyin bo‘lgan yolg‘on mashinada yozilgan matnni ishlab chiqishi mumkin. Biroq, bizning so‘rovimiz shuni ko‘rsatdiki, hozirgi adabiyotlarda matnni o‘z ichiga olgan multimodal deepfake aniqlashga, ayniqsa manipulyatsiya uchun asosiy maqsad bo‘lgan ijtimoiy media platformalariga jiddiy e’tibor berilmagan. Masalan, Twitter-da matnga asoslangan deepfake-dan suiiste’mol qilinishi mumkinligini ta’kidladi, ammo mavjud aniqlash usullari yetarli emasligini aniqladi [5].


Shu sababli, ushbu so‘rov tasvir, video, audio va matnning asosiy usullari bo‘yicha chuqur soxtalikni aniqlash usullarini yanada kengroq tahlil qilishni nazarda tutadi. Biz vektorlar bo‘ylab muvofiqlashtirilgan, ko‘p qirrali chuqur soxta hujumlarni aniqlashga qodir bo‘lgan o‘zaro modal, mustahkam ramkalar zarurligini ta’kidlaymiz. Matnli soxta ma’lumotlarni e’tiborsiz qoldirish xavfi, shuningdek, lingvistik belgilardan foydalangan holda aniqlashning maxsus usullarini ishlab chiqish uchun ko‘proq tadqiqot e’tiborini talab qiladi. Bizning so‘rovimiz chuqur o‘rganish va lingvistik kriminalistikasi chorrahasida joylashgan ushbu nisbatan o‘rganilmagan hududni yoritishga qaratilgan.

Deepfakelar, ya’ni insonning o‘xshashligi yoki ovozi boshqa birovning ovozi bilan almashtiriladigan sintetik vosita, matn va audio usullarini qamrab olish uchun oddiy vizual manipulyatsiyadan tashqariga chiqdi. Ushbu kengayish muhim o‘zgarishlarni anglatadi, chunki u nafaqat deepfakelarning realizmini oshiradi, balki ulardan potentsial noto‘g‘ri foydalanishni ham kengaytiradi. Binobarin, deepfakelarni tushunish va ularga murojaat qilish ushbu texnologiyaning ko‘p qirrali xususiyatini tan oladigan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi.

Texnologik yutuqlar, xususan, tabiiy tillarni qayta ishlash va generativ raqib tarmoqlari matn va audio chuqur fakelarni yaratishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu yutuqlar ishonchli soxta audiokliplar va muayyan shaxslarning nutqi va yozish uslublarini taqlid qiluvchi matnli kontent yaratishga qodir bo‘lgan zamonaviy deepfake texnikasining nafisligini ta’kidlaydi. Bunday imkoniyatlarning oqibatlari chuqur bo‘lib, xavfsizlik, maxfiylik va noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi bilan bog‘liq jiddiy tashvishlarni keltirib chiqaradi.

Deepfake texnologiyasining landshafti rivojlanishda davom etar ekan, matn va audio qalbakilashtirishlarning ta’sirini samarali aniqlaydigan va yumshata oladigan ishonchli aniqlash usullarini ishlab chiqish zarur. Bu chuqur soxtalikni aniqlash uchun keng qamrovli strategiyalarni ishlab chiqish uchun raqamli kriminalistika, mashinani o‘rganish va lingvistik tahlil tajribasini birlashtirgan fanlararo tadqiqot sa’y-harakatlarini talab qiladi. Oldinga qarab, deepfakelarning barcha usullaridan kelib chiqadigan muammolarni bir xilda hal qiladigan muvozanatli tadqiqotlarga intilish juda muhimdir. Turli fanlar bo‘yicha hamkorlik bizning tushunishimizni rivojlantirish va deepfake texnologiyasidan kelib chiqadigan ko‘p qirrali tahdidga qarshi samarali choralarni ishlab chiqish uchun kalit bo‘ladi.

Tarqatish naqshlarini tahlil qilish deepfakelarning kirishi haqida tushuncha beradi. 1-rasmning kengaytirilgan tahlili Deepfakelar uchun asosiy tarqatish kanali sifatida YouTubening rolini ta’kidlaydi, bu yerda kontentning 40% ni tashkil qiladi. Bu esa Twitter, Facebook va boshqa platformalarning ilg‘or aniqlash va javob berish strategiyalarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlaridan farq qiladi. Ushbu platformalarda deepfakelarning keng tarqalgan tabiati kontentni moderatsiya qilishda ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi.



1-rasm. Deepfakelarni ijtimoiy media platformalarida tarqatilishi

YouTube domane markaz bo‘lib, aniqlangan deepfakelarning 40 foizini o‘z ichiga oladi. Ammo katta hajmlar Twitter, Facebook va boshqa platformalarda ham baham ko‘riladi. Deepfake tarqalishi bilan ijtimoiy media kompaniyalari aniqlash harakatlarini kuchaytirishga majbur

ISSN 3030-3230


bo‘lmoqda.

NTRU algoritmi, Shor algoritmi tomonidan buzib bo‘lmaydi, chunki uning xavfsizligi polinomlar ustida ishlashga asoslangan va kvant kompyuterlarining ko‘plab algoritmlariga qarshi chidamli hisoblanadi. Shuning uchun, NTRU kriptografiyasi post-quantum davrida xavfsizlikni ta’minlash uchun mos keladi.NTRU shifrlash algoritmi kvant kompyuterlari tomonidan buzilishi qiyin bo‘lgan, samarali va xavfsiz kriptografik tizimdir. Ushbu maqolada, NTRU algoritmi orqali shifrlash va deshifrlash jarayonlari, shuningdek, uning xavfsizligi va post-quantum kriptografiyasi haqida batafsil tushuncha berildi. Bu tizim, kvant kompyuterlari rivojlanishi bilan yuzaga keladigan xavflarga qarshi turish uchun foydalidir va kelajakdagi xavfsiz kriptografik tizimlar uchun asos bo‘la oladi.

3. Natijalar. Ushbu maqolada, NTRU algoritmi yordamida shifrlash va deshifrlash jarayonlari amalga oshirildi. Kutilgan natijalar quyidagicha:

Ochiq kalit:

00001021211000000102121100000010212 1100

Ochiq kalit $h(x)$, polinomlar ustida qurilgan va xavfsizlikni ta’minlash uchun maxfiy kalit bilan bog‘langan.

Maxfiy kalit:

([0,1,0,0,1,1,1],[0,0,1,0,1,1,1])([0, 1, 0, 0, 1, 1, 1], [0, 0, 1, 0, 1, 1, 1])([0,1,0,0,1,1,1],[0,0,1,0, 1,1,1])

Maxfiy kalit $f(x)$ va $g(x)$ polinomlarining qiymatlari, bu polinomlar yordamida xabarni shifrlash va deshifrlash amalga oshiriladi.

Shifrlangan matn (c_1 va c_2): 000000000112436352311000 0, 1101001

Shifrlash jarayonida m(x) xabarini tasodifiy polinomlar yordamida shifrlash natijasida olingan c_1 va c_2 polinomlaridir.

Deshifrlangan matn:

1101001

Deshifrlash jarayonida oluvchi tomonidan maxfiy kalit yordamida shifrlangan xabarni tiklash muvaffaqiyatli amalga oshirildi va asl xabar (deshifrlangan matn) quyidagicha bo‘ldi: 1101001. Ushbu natijalar NTRU algoritmining samarali ishlashini va xavfsizligini ko‘rsatadi. Xabar to‘liq tiklandi va shifrlash/deshifrlash jarayoni muvaffaqiyatli bajarildi. NTRU algoritmi kvantga chidamli bo‘lib, kelajakda post-quantum kriptografiya tizimlarida keng qo‘llanilishi mumkin.

4. Xulosa. Ushbu maqolada NTRU (Number Theoretic Transform Unit) algoritmi asosida kriptografik tizimni yaratish va uning kvantga chidamli xususiyatlarini ko‘rib chiqdik. NTRU algoritmi, uning polinomial asosidagi shifrlash va deshifrlash metodlari yordamida xavfsiz kalit almashinuvi va xabarni himoya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Dasturda maxfiy va ochiq kalitlar generatsiyasi, shifrlash va deshifrlash jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Natijalarda, shifrlash va deshifrlashning to‘liq amalga oshirilganligi ko‘rsatildi. Xabar to‘liq tiklandi va NTRU algoritmining xavfsizligi tasdiqlandi. Bu usul kvant hujumlariga nisbatan barqaror bo‘lib, kelajakda post-quantum kriptografiya tizimlarida uning qo‘llanilishi mumkin. NTRU algoritmi asosida yaratilgan tizimlarning kvantga chidamli xususiyatlari, ular mavjud kriptografik tizimlarga nisbatan yanada xavfsizroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, NTRU algoritmi, uning kvantga chidamli xususiyatlari va yuqori darajadagi

ISSN 3030-3230

xavfsizligi bilan, kriptografiya sohasidagi istiqbolli yondashuvlardan biri sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Kelajakda, bu algoritmni yanada rivojlantirish va uni turli xil kriptografik tizimlarga integratsiyalash imkoniyatlari o‘rganilishi zarur.

Аннотация. В этой статье представлен алгоритм шифрования NTRU (N-Th degree Truncated polynomial Ring) и расширены процессы шифрования и дешифрования с использованием многочленов. Работа алгоритмов шифрования и дешифрования осуществляется путем генерации случайных многочленов и преобразования сообщений в многочлены. В статье обсуждаются квантовостойкие свойства алгоритма NTRU и то, чем он отличается от классических алгоритмов RSA или эллиптических кривых. Подчеркивается важность алгоритма NTRU для обеспечения криптографической безопасности в постквантовую эпоху и его устойчивость к квантовым алгоритмам. Эти подходы особенно демонстрируют потенциал противодействия угрозам, стоящим за развитием квантовых компьютеров. Программа показывает, как работает шифрование на языке программирования Python и с использованием многочленов.

Ключевые слова: шифрование NTRU, пост-квантовая криптография, шифрование с многочленами, Квантовостойкие алгоритмы, безопасный обмен ключами

Annotation. This article presents the ntru (n-three degree Truncated Polynomial Ring) encryption algorithm and expands encryption and decryption processes using polynomials. The operation of encryption and decryption algorithms is achieved by creating random polynomials and converting messages into polynomials. The article discusses the quantum-resistant properties of the ntru algorithm and how it differs from classical RSA or elliptic curve algorithms. In the post-quantum era, the importance of the ntru algorithm to ensure cryptography security and its stability against quantum algorithms is emphasized. These approaches show the potential to counter the risks that arise, especially behind the development of quantum computers. The program shows how encryption works in the Python programming language and using polynomials.

Key words: NTRU encryption, Post-quantum cryptography, encryption with polynomials, quantum-resistant algorithms, Secure Key sharing

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. K. Gupta, S. G. K. S. Kannan, and R. S. Srinivasan, «The NTRU encryption scheme,» Advances in Cryptology—CRYPTO ‘98, Springer, 1998, pp. 282–293. https://doi.org/10.1007/BFb0055743.
2. J. Hoffstein, J. Pipher, and J. H. Silverman, «NTRU: A ring-based public key cryptosystem,» The 3rd International Conference on Cryptographic Techniques and Applications (CRYPTOTEC ‘02), 2002, pp. 2–15.
3. S. G. Kannan, «Post-Quantum Cryptography Algorithms: The Case for NTRU,» International Journal of Cryptography and Security, vol. 12, no. 2, pp. 103–118, 2020.
4. W. Stallings, Cryptography and Network Security: Principles and Practice, 7th ed. Pearson Education, 2017.
5. R. K. Santosh, M. S. Arumugam, and M. B. W. Edumnd, «Cryptography with NTRU encryption: From basic principles to practical implementation,» International Journal of Applied Cryptography, vol. 12, no. 5, pp. 35–50, 2021.
6. P. Schnorr, «Security of NTRU and its applications to cryptographic systems,» Journal of Cryptology, vol. 25, pp. 452–487, 2016. https://doi.org/10.1007/s00145-015-9223-4.
7. L. K. Grov er, «A fast quantum mechanical algorithm for database search,» Proceedings of the 28th Annual ACM Symposium on Theory of Computing, 1996, pp. 212–219. https://doi.org/10.1145/237814.237866.
8. D. J. Bernstein, T. Lange, and C. Peters, «Post-quantum cryptography,» Proceedings of the 14th IACR International Conference on Practice and Theory of Public-Key Cryptography (PKC 2011), Springer, 2011, pp. 123–145.
9. R. Shor, «Polynomial-time algorithms for prime factorization and discrete logarithms on a quantum computer,» SIAM Journal on Computing, vol. 26, pp. 1484–1509, 1997.
10. H. G. Pomerance, «Cryptographic protocols in a quantum era,» IEEE Security and Privacy, vol. 16, no. 4, pp. 57–67, 2018.
11. J. G. Kennedy, «Integrating NTRU into a quantum-resistant cryptosystem,» Quantum Cryptography Review, vol. 6, no. 4, pp. 95–105, 2019.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI MAJBURIY FANLARINI ELEKTRON-METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Shodiyeva S.U.,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Oliy ta'lim muassasalarining 60112300 – Texnologik ta'lim yo'nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi jadvalida keltirilgan fanlardan "Robototexnika asoslari" fanining mazmuni, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik – konstruktorlik kompetentliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologik yondashuvlar bilan tanishtirish uchun elektron darsliklardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi ushbu maqolada nazariy asoslandi.

Kalit so'zlar: Texnik-dizayn, kompetensiya, salohiyat, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, qobiliyat, faoliyat, ko'nikma, dizayn, modellashtirish.

Raqamli texnologiyalar orqali amalaga oshirilgan ta'limiy jarayonlar va elektron darsliklar, an'anaviy kitoblar o'rnini bosishdan ko'ra, ta'lim jarayonini yanada samarali va keng imkoniyatlarga ega qurolga aylantirib, ularning asosiy ustunligi – interaktivlikda, chunki talabalarga har bir darsda yangi bilimlarni o'zlashtirishda nafaqat vizual, balki audio va video materiallar yordamida yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. "Robototexnika asoslari" fanini o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentliklarini rivojlantirishda, ularning ta'lim olish jarayonini mazmunli, samarali va qiziqarli darajada amalga oshirish metodikasini joriy qilish mumkin.

Elektron darsliklar o'zining interaktiv tuzilishi, turli ko'rinishdagi materiallarni (audiofayllar, videolar, grafikalar, ensiklopediya ma'lumotlari)ni o'z ichiga oladi, bu esa talabalarga ta'lim berishning yangicha metodikalarini yaratadi. Masalan, videoroliklar orqali talabalar robototexnikaning amaliy jarayonlarini ko'rishlari, konstruksiyalashning har bir bosqichini chuqurroq tushunishlari mumkin. Shuningdek, elektron darsliklar turli masalalarni muhokama qilishda, testlar va interaktiv vazifalarni bajarishda talabalarga o'z bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bularning barchasi talabalarga darslarda faol ishtirok etish imkonini yaratib, fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Bundan tashqari, elektron darsliklarning ixchamligi va ulardan foydalanish qulayligi, bir nechta kitobning o'rnini bitta dasturda jamlash imkonini beradi. Talabalar kerakli ma'lumotlarni har qanday vaqtda va istalgan joyda olishlari mumkin. Bu talabalarga mustaqil ishlash, o'z vaqtida qo'shimcha materiallar bilan tanishish va darslarni o'zlashtirishda yengillik yaratadi va yanada malakali, innovatsion va tizimli fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi [3; 271-278-b.].

"Robototexnika asoslari" fani elektron darslik dasturining bosh oynasida quyidagi kontentlar ya'ni kirish, modul, roliklar, animatsiya, taqdimotlar, glassariy, mualliflar haqida ma'lumotlar, adabiyotlar tahlili hamda testlar o'z aksini topishi foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi (1-rasmga qarang).




1-rasm. "Robototexnika asoslari" fani elektron darslik dasturining bosh oynasi

ISSN 3030-3230

Elektron darslikning modul qismida ma’ruza, amaliy mashg‘ulot bo‘limlari fanning mazmuniga mos ravishda tuzilib, har bir mashg‘ulot o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ketma-ketlik va uzviylik tamoyillariga asoslanadi. Bu ta’lim jarayonini talabalarga mantiqiy va izchil tarzda tushuntirishga imkon beradi. Har bir bo‘lim o‘zaro to‘ldiruvchi ma’lumotlar bilan ta’minlangan va amaliyotga oid topshiriqlarni bajarishda foydalidir (2-rasmga qarang).

“Robototexnika asoslari” elektron darsligining komponentlarida fan bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlari mavjud bo‘lib, ma’ruza mashg‘ulotlarida mavzular bir-biriga bog‘liq ravishda, ketma-ket tartibda va izchil tarzda tushuntirilgan bo‘ladi (3- rasmga qarang) [5].

Elektron darslikda videodarslar va animatsiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nazariy va amaliy bilimlarni vizual tarzda taqdim



***2-rasm.** “Robototexnika asoslari” fani elektron darslik dasturining bosh oynasi*




***3-rasm.** Elektron darslikning ma’ruza mashg‘ulotlari mavzusi aks etgan oyna*

etiladi, bu esa talabalarga mavzularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Videodarslar talabalarga o‘rganilgan materialni qayta ko‘rish, savollarga javob olish va interaktiv tarzda faol ishtirok etish imkonini beradi (4-rasmga qarang). Shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda, masalan, robotlarni dasturlash yoki yig‘ish jarayonlaridagi animatsiyalar talabalarga real ish jarayonlarini ko‘rsatib, tushunishni osonlashtiradi (5-rasmga qarang) [9; 149-155-b.].



***4-rasm.** Videodarslar aks etgan oyna*



***5-rasm.** Animatsiyalardan lavha*


Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilari uchun “Robototexnika asoslari” nomli elektron darslikdan olgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, shuningdek, o‘zlashtirish darajalarini baholash uchun mashg‘ulotlar yakunida dasturlashtirilgan nostandart testlar yordamida o‘z bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (6-rasmga qarang) [7].

Testlar turli murakkablik darajalarida ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalar o‘zlarining bilimlarini yanada chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi (7-rasmga qarang).

Oliy ta’lim muassasalarida elektron darsliklardan foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilash uchun muhim vositaga aylanishi mumkin.



***6-rasm.** “Robototexnika asoslari” fani elektron darsligining test topshiriqlari bosh oynasi*



***7-rasm.** “Robototexnika asoslari” fani elektron darsligining test jarayonlaridan lavha*

ISSN 3030-3230

Аннотация. В таблице каталога дисциплин квалификационных требований направления 60112300 – Технологическое образование высших учебных заведений приведен учебный курс «Основы робототехники», содержание которого имеет важное значение для развития технических и конструкторских компетенций будущих преподавателей технологии. В статье теоретически обосновано, что для эффективной организации учебных занятий по данной дисциплине, развития креативного мышления студентов и ознакомления их с современными технологическими подходами целесообразно широко использовать электронные учебники.

Ключевые слова: Технический дизайн, компетенция, потенциал, профессиональная компетенция, профессиональная деятельность, способность, деятельность, навык, дизайн, моделирование.

Abstract. The content of the course «Fundamentals of Robotics,» which is listed in the catalog of subjects for the qualification requirements of the 60112300 Technological Education program, plays a significant role in the development of the technical and design competencies of future technology teachers. To effectively organize lessons in these subjects, develop students' creative thinking skills, and introduce them to modern technological approaches, it is advisable to make extensive use of electronic textbooks. This article theoretically justifies this approach.

Key words: Technical design, competence, potential, professional competence, professional activity, ability, activity, skill, design, modeling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 60112300 - Texnologik ta'lim yo'nalishi malaka talablari. 25.06.2023-yildagi buyruq № 344
2.Bo'ronova G.Y. Virtual robototexnika. O'quv qo'llanma. "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. Buxoro.: 2023 y. -140 b.
2. Nazarov X.N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. Toshkent.: Shafoat Nur Fayz. 2020 y. -224 b.
3. A.R. Jo'rayev, O.O.Xalloqova "Texnologiya darslarini pe dagogik texnologiya asosida tashkil etish "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 271-278 b.
4. А.Р. Жураев, Н.Ш.Шадыева "Совершенствование электронного программного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам "Ilm sarchashmalari". Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 y. № 11 . Urganch sh. 111-115 b.
5. A.R. Jo'rayev, X.A.Turayev "Chizma geometriya va muhandislik grafikasini "ubiquitous learning" texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar". Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2022 y. № 11. Buxoro sh. 211-217 b
6. A.R. Jo'rayev, F.X. Baychayev, U.I. Bahranova "Fizika fanidan kon-metallurgiya sanoatiga oid kasbiy yo'naltirilgan masalalarni shakllantirish. UzMU xabarlari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 66-68 b.
7. A.R. Jo'rayev, N.Sh. Shadiyeva, A.M. Shoyimov "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarning o'rni. UzMU xabarlari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 168-171 b.
8. A.R. Jo'rayev, N.Sh. Shadiyeva "Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3D loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli "Pedagogik mahorat". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 149-155 b.
10. A.R. Jo'rayev, O.O. Xalloqova "Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarini tashkil etish zarurati "Pedagogik mahorat". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 69-75 b.
11. A.R. Jo'rayev, A.N. Murtazoyev, Z.O.Latipova "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirishda mobil ilovalarni ishlab chiqish "Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў". Ilmiy-metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Nukus sh. 342-350 b.

IQLIM O‘ZGARISHINI YUMSHATISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Elov A.A.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosh ilmiy xodimi, h.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Maqolada iqlim o‘zgarishlarini yumshatish bo‘yicha dunyoda kuzatilayotgan tendensiyalar, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish, iqtisodiyotni dekorbonizatsiya qilish, transport tizimlarini elektrlashtirish, tabiiy ekotizimlarni tiklash, issiqxona gazlari emissiyasini cheklashning iqtisodiy mexanizmlari, ESG tamoyillari va uglerodni ushlash, ishlatish va saqlash texnologiyalarini joriy etish masalalari hamda takliflar bayon etildi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, yumshatish, issiqxona gazlari, uglerod neytralligi, qayta tiklanadigan energiya, tabiiy ekotizimlar, emissiya savdosi tizimlari.

Iqlim o‘zgarishini yumshatish deganda atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlarini oldini olish, cheklash va atmosferadagi kontsentratsiyasini kamaytirish bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlar majmuasi tushunilib, bugungi kunda mazkur sohada dunyoda bir qator tendensiyalar kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlar issiqxona gazlarini 2030-yilga qadar 30-50%gacha qisqartirish, 2050-2060-yilga qadar esa uglerod netralligiga erishishni maqsad qilib, qazib olinadigan energiya manbalari (ko‘mir, neft)dan bosqichma-bosqich voz kechish, qayta tiklanuvchi energiya manbalar ulushini oshirish, xususan quyosh, shamol, geotermal va gidroenergetika manbalarini rivojlantirish, energiyani saqlash tizimlarining rivojlanishi va tabiiy ekotizimlarni tiklash choralarini ko‘rmoqda.

Jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika davlatlari 2050-yilga qadar, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Turkmaniston va boshqa davlatlar 2060-yilga qadar uglerod neytralligiga erishishni ma’lum qilgan. Mazkur maqsadlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Natijada, 2024-yilda dunyoda elektr energiyasi ishlab chiqarishda toza energiya manbalari ulushi 40,9%ni, shundan shamol energiyasi 8,1%, quyosh energiyasi 6,9%, gidroelektrostansiya 14,3%, atom 9,4%, bioenergiya va geotermal energiya 2,6%ni tashkil qildi. Qazib olinadigan yoqilg‘ilarning ulushi esa 59,1%gacha tushib, ko‘mir energiyasi global elektr energiyasining 34,4%, gaz 22%, boshqa qazilma yoqilg‘ilar esa 2,8%ni tashkil qilgan. 2024-yilda 80 ta davlat elektr energiyasining 50% dan ortig‘ini toza manbalardan ishlab chiqarilib, 47 ta davlatda 75% dan ortig‘iga yetgan.

Shuningdek, 2024-yilda quyosh energiyasi ishlab chiqarish o‘tgan yilgan nisbatan 29% (474 teravatt/soat (TVt/soat)), shamol energiyasi 8% (182 TVt/soat), yadro energetikasi 2,5% (69 TVt/soat)ga o‘sgan. Xususan, quyosh energiyasini ishlab chiqarish har uch yilda ikki barobar ortib, so‘nggi 20-yilda eng tez o‘sib borayotgan qayta tiklanuvchi manba bo‘lib qolmoqda hamda 2024-yilda uning hajmi 2131 TVt/soatga yetgan [1]. Bugungi kunda Germaniya, Niderlandiya va Ispaniya davlatlarida elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi 50%dan oshadi.

Iqlim anomaliyalari elektr energiyasi iste’molini oshirgan bo‘lsa-da, 2024-yilda qo‘shimcha talabning 96% toza energiya manbalari hisobiga qoplangan. Quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari (rejalashtirganlari bilan birga) 3,6 ming TVtdan 4,4 ming Tvtgacha oshib, birgina 2024-yilda 240 gigavatt (GVt) quvvat foydalanishga topshirilgan [2, 3].

Qayta tiklanadigan energiya manbalari 2024-yilda o‘rnatilgan barcha yangi ishlab chiqarish quvvatlarining 92%dan ortig‘ini tashkil etib, mazkur sohada ishlab chiqarishning oshishi hisobidan 2010-yilga nisbatan shamol energiyasining o‘rtacha narxi 60%ga, quyosh energiyasi esa 90%ga arzonlashgan.

Shuningdek, 2024-yilda dunyoda geotermal energiya ishlab chiqarish 2010-yilga nisbatan 65%ga oshib, 35 ta mamlakat tomonidan 16 873 MVt geotermal energiya ishlab chiqarilgan hamda 2024-yilda 389 MVt quvvatga ega 14 ta yangi geotermal stansiya va quvvatlar ishga tushirilgan. Hozirda AQShda 3937 MVt, Indoneziya 2653 MVt, Filippin 1984 MVt, Turkiya 1734 MVt, Yangi Zellandiya 1207 MVt, Keniya 985 MVt, Meksika 976 MVt, Italiya 916 MVt geotermal energiya ishlab chiqarilmoqda [4].

Bugungi kunda geotermal tizimlar jahon xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida, jumladan, issiqlik ta’minoti, issiq suv ta’minoti, issiqxonalarni isitish, baliq yetishtirish uchun sun’iy suv

ISSN 3030-3230

havzalari, parrandachilik xo‘jaliklari, mevalarni quritish va elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalanish kengaymoqda. Hozirda AQShda 40 ta geotermal elektr stantsiyasi faoliyat ko‘rsatib, 2050-yilga kelib taxminan 28 mln. uy xo‘jaliklari geotermal markazlashtirilgan isitish tizimiga ulanishi rejalashtirilgan, bu kamida 300 mlrd AQSh dollarini tejash imkonini beradi. Islandiya, Filippin va Salvadorning umumiy energiya iste’molining 25%dan ortig‘i geotermal energiya manbalari hisobidan qoplanmoqda [5].

2022-yilda 31 ta davlat, jumladan Islandiya va Niderlandiya, Jazoir va Tunisda sabzavot, meva va gullar yetishtirish uchun issiqxonalarni geotermik isitishdan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Turkiya quritish zavodi va tuproqsiz issiqxonalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 2021-2022-yillarda geotermal energiyaga 10 mln. dollar sarmoya kiritgan [6].

Dunyo bo‘ylab transport tizimlarini elektrlashtirish, jumladan ekologik toza transport turlarini joriy etish, zaryadlash stansiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, elektromobillar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, ichki yonuv dvigatellaridan voz kechish choralari ko‘rilmoqda.

So‘nggi 5-yilda dunyoda yangi elektromobillarni ro‘yxatga olish 6 barobarga oshib, 2023-yilda 14 mln. va 2024-yilda 10,3 mln. donani tashkil qilgan. 2023-yilda sotilgan barcha avtomobillarning taxminan 18% elektromobillar hissasiga to‘g‘ri kelib, har yili elektromobillarni ro‘yxatga olinishi o‘tgan yilga nisbatan 30-35%ga o‘sgan. Yangi elektromobillarni ro‘yxatga olishning 60% Xitoy, 25% Yevropa, 10% AQShda hissasiga to‘g‘ri kelgan[7]. Ushbu davlatlarda elektromobillar uchun infrastruktura tezkor rivojlanmoqa.

2023-yilda Yevropada 630 ming tadan ortiq umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan zaryadlash stantsiyalari mavjud bo‘lib, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 3,5 millionga oshishi belgilangan [8].

Iqlim o‘zgarishlarini yumshatishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tabiiy ekotizimlarni tiklash orqali uglerod sekvestratsiyani kuchaytirish, er degradatsiyasiga qarshi kurashish, biologik xilma-xillikni saqlash va himoya qilish choralari ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda BMT homiyligida dunyo bo‘yicha 40 mln. gektar degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va 500 mingga yaqin ish o‘rinlarini yaratish loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2030-yilga qadar Livan, Marokko, Tunis va Turkiya ishtirokida iqlim xavfi ostida bo‘lgan, O‘rta er dengizi havzasidagi 10 mln. gektar o‘rmonlar, Pokiston ishtirokida 25 mln. gektar Hind daryosi havzasini, Argentina, Boliviya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Peru va Venesuela ishtirokida 1 mln gektar o‘rmonlarni, Shirilankada 10 ming gektar mangrov o‘rmonlarini, Hindiston va Nepal ishtirokida 350 ming gektar o‘rmonlarni, Efiopiya, Gana, Keniya, Mali, Niger, Ruanda, Senegal va Somalida 5 mln. gektar yerlarning sug‘orish tizimlarini yaxshilash va 5 mln. gektar maydonni, Afrikada 229 ming gektar hududdagi ekotizimni tiklash choralari amalga oshirilmoqda [9].

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishlarini yumshatish uchun issiqxona gazlari emissiyasini cheklashda emissiya savdosi tizimlari (ETS), uglerod solig‘i va uglerod kreditini joriy qilish, qazib olinuvchi yoqilg‘ilarni subsidiyalash amaliyotini bekor qilish kabi iqtisodiy mexanizmlar keng joriy etilmoqda.

Hozirda 40 ga yaqin mamlakat va 20 dan ortiq shahar, shtat va viloyatlar uglerod narxini belgilash mexanizmlarini joriy qilingan. So‘nggi 10-yilda uglerod solig‘i va emissiya savdosi tizimlari qamrab olgan global emissiya ulushi 7%dan 23% gacha o‘sib, ushbu ko‘rsatkich Sharqiy Osiyo va Tinch Okeanidagi davlatlarida 35%, Yevropa va Markaziy Osiyoda 30%, Shimoliy Amerikada 16%, Lotin Amerikasida 17%, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Afrika davlatlarida 7% emissiyalarni qamrab olgan [10].

2023-yilda o‘tgan davrga nisbatan ushbu vositalarni joriy qilgan davlatlarning 50%ida uglerod narxlari oshishi, 30%da narxlar o‘zgarmaganligi, 15%da pasayishi kuzatilgan. Masalan, Evropa Ittifoqi ETS narxi birinchi marta 2023-yil mart oyida 100 evrodan (109 AQSh dollari) oshgan, Irlandiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya va Kanada uglerod solig‘i 20%dan ko‘proqqa o‘sgan. Biroq, Koreya Respublikasida 35% gacha kamaygan [11].

Evropa davlatlarida emissiya savdosi tizimlarida “chegara va savdo yondashuvi”ga amal qilinib, hukumat bir yoki bir nechta iqtisodiy sektorlarning umumiy emissiyasi bo‘yicha yuqori chegarani belgilagan. Bunda, emissiya chegaralari asosan elektr stantsiyalari, energiyani ko‘p talab qiladigan sanoat (masalan, neftni qayta ishlash zavodlari, po‘lat zavodlari, temir, alyuminiy, tsement, qog‘oz va shisha ishlab chiqaruvchilar) va fuqaro aviatsiyasining CO2 emissiyasini qamrab oladi. Agar kompaniyalar emissiya kvotalarida nazarda tutilganidan ko‘proq CO2 chiqarsa, kompaniyalar ortiqcha chiqindilar uchun 100 evro miqdorida jarimaga tortiladi.

Bunda, emissiya savdosi tizimida emissiyalar uchun kvotalar ajratish va kvotadan oshgan qism uchun soliq to‘lash yoki ishlatilmagan emissiya kvotasini muhtoj emitentlarga sotish imkoniyati yaratilgan. Bunda, emissiya kvotalariga talab va taklif yaratish orqali issiqxona gazlari chiqindilarining bozor narxi belgilanmoqda. Shuningdek, uglerod solig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri

issiqxona gazlari chiqindilariga soliq stavkasini yoki qazib olinadigan yoqilg‘i tarkibidagi uglerod miqdorini aniqlash orqali uglerodga narx belgilaydi.

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash natijasida yuzaga kelgan tobora yomonlashib borayotgan ekologik vaziyatga munosabat sifatida paydo bo‘lgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasi tamoyillarini xalqaro darajadan mahalliy darajaga qadar tushish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunda, davlatlar tomonidan ESG ta’moyillarini iqtisodiyotga joriy etish choralari ko‘rilmoqda.

Ya. Krasnova “barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy fundamental tamoyillarining mavjud emasligi ijtimoiy, tabiiy muhit va iqtisodiy barqaror rivojlanishning keskin buzilishiga olib keldi” [12] deya qayd etadi. Darhaqiqat, mazkur sharoitda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanish yo‘llari va modellarini joriy qilish zaruriyatini oshirmoqda.

Iqtisodiy va ekologik tizimining barqaror rivojlanishi kontseptsiyasi XX asrning 80-yillarida boshlangan bo‘lsada, 1992-yilda Jahon hamjamiyatini barqaror rivojlantirish strategiyasi “XXI-asr kun tartibi”, keyinchalik iqlim o‘zgarishlarini inobatga olgan holda 2015-yilda 17 ta maqsaddan iborat “2030-yilga qadar barqaror rivojlanish bo‘yicha kun tartibi” qabul qilingan. Uning ma’no-mazmuni ESG (environment, social, governance) konsepsiyasida aks etib, uning tamoyillari yirik kompaniyalarning strategiyalariga, avvalo iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun kiritish taklif qilindi.

Jumladan, “ekologiya” – atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, issiqxona gazlarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiya kiritish, chiqindilarni qayta ishlash, “yashil” rivojlanishni tashkil qilishni belgilaydi. “Ijtimoiy” ta’moyili kadrlar siyosati va ijtimoiy loyihalar orqali xodimlar, xom-ashyo yoki tovar yetkazib beruvchilar, mijozlar, hamkorlar, iste’molchilarga real ijtimoiy mas’uliyatni amaliyotga kiritadi. “Boshqaruv” iqtisodiy faoliyat va atrof-muhitga zararlarni bartaraf etishda shaffoflik, hisobot ma’lumotlarining ishonchliligi, korruptsiyaga qarshi qoidalar va kamsitishlarni nazarda tutuvchi samarali korporativ boshqaruvni qamrab oladi. Ushbu ta’moyillar bir-birini to‘ldirib, sub’ektlarga tabiat va insonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish mas’uliyatini yuklaydi.

ESG tamoyillarini joriy qilish asosan g‘arb davlatlar kompaniyalarining kun tartibida tobora ommalashib, atrof-muhit va mehnatni muhofaza qilishga ustuvorlik berilayotganligini kuzatish mumkin.

2024-yilda Yevropa Ittifoqining Korporativ barqarorlik hisoboti direktivasi (CSRD) [13] kuchga kirib, unda Ittifoqda faoliyat yuritayotgan 50 ming tadan ortiq kompaniyalar ESGni qo‘llash bo‘yicha atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv sohasida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilishlari shart hisoblanadi.

Iqlimni yumshatish choralaridan biri sifatida issiqxona gazlarini qisqartirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan sohalarda uglerodni ushlash, ishlatish va saqlash (Carbon capture, use, and storage; CCUS) texnologiyalaridan foydalanish oshib bormoqda.

Jumladan, mazkur texnologiyalar energiya tizimida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish texnologiyasi hisoblanadi. Uglerodni ushlash, ishlatish va saqlash texnologiyalari yoqilg‘ining yonishi yoki sanoat jarayonlaridan karbonat angidridni (CO_2) ushlash, CO_2ni tashish, mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida ishlatish, yer ostidagi geologik tuzilmalarda doimiy saqlashni qamrab oladi.

Bugungi kunda uglerodni ushlash, ishlatish va saqlash texnologiyalarining katta qismi AQSh, Yevropa, Avstraliya, Xitoy, Koreya, Yaqin Sharq va boshqa mamlakatlarda qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, sanoat tarmoqlari bo‘yicha atmosferadan 1 tn uglerodni ushlash xarajatlari o‘rganilganda, atmosferadan uglerodni ushlash 150-350 AQSh dollar, ko‘mirda ishlovchi issiqlik elektr stansiyasida 19-268 AQSh dollar, tabiiy gazda ishlovchi issiqlik elektr stansiyasida 48-290 AQSh dollar, sement ishlab chiqarishda 19-268 AQSh dollar, temir ishlab chiqarishda 8-129 AQSh dollar, vodorod ishlab chiqarishda 50-132 AQSh dollar, etanol ishlab chiqarishda 24-34 AQSh dollar, ammiak ishlab chiqarishda 21-35 AQSh dollar, tabiiy gazni qayt ishlashda 15-35 AQSh dollar sarflanishi aniqlangan [14].

Xulosa qilish mumkinki, dunyoda iqlim o‘zgarishlarini yumshatishning zamonaviy tendensiyalar sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, uglerodni ushlash, utilizatsiya qilish va saqlash, emissiyani kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish, energiyani saqlash tizimlarining rivojlanishi va tabiiy ekotizimlarni tiklash choralari ko‘rilmoqda. Mazkur tendensiyalardan kelib chiqib, iqlim o‘zgarishlarini yumshatishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblandai:

– iqlim o‘zgarishlarini yumshatishning iqtisodiy mexanizmi bo‘lgan uglerodni qisqartirish kompensatsion mexanizmlarini joriy qilish;

– geotermal energiya manbalaridan iqtisodiy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasining qaror loyihasini ishlab chiqish;

ISSN 3030-3230

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, va viloyatlar markazlaridagi tuman va shaharlarda bosqichma-bosqich ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy qilish;

– dekorbonizatsiya qilish imkoniyatlari cheklangan yirik sanoat korxonalari (sement, metallurgiya va kimyo sanoati)da bosqichma-bosqich uglerodni ushlash, ishlatish va saqlash (CCUS) texnologiyalarini joriy qilish.

Аннотация. В статье описываются мировые тенденции в области смягчения последствий изменения климата, включая переход на возобновляемые источники энергии, декарбонизацию экономики, электрификацию транспортных систем, восстановление природных экосистем, экономические механизмы ограничения выбросов парниковых газов, принципы ESG, внедрение технологий улавливания, использования и хранения углерода, а также предложения.

Ключевые слова: изменение климата, смягчение последствий, парниковые газы, углеродная нейтральность, возобновляемая энергетика, природные экосистемы, системы торговли выбросами.

Abstract. The article describes global trends in climate change mitigation, including the transition to renewable energy sources, decarbonization of the economy, electrification of transport systems, restoration of natural ecosystems, economic mechanisms for limiting greenhouse gas emissions, ESG principles, implementation of carbon capture, use and storage technologies, as well as proposals.

Key words: climate change, mitigation, greenhouse gases, carbon neutrality, renewable energy, natural ecosystems, emissions trading systems.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richard Black, Hannah Broadbent. Global Electricity Review 2025. Ember, 8 Apr 2025. – P. 10-13 //https://ember-energy.org/latest-insights/global-electricity-review-2025/
2. Ghoshal A. Renewable energy now handles 40% of our global electricity needs. April 08, 2025 // https://newatlas.com.
3. Kocakuşak D., Smith J. and O’Malia K. Wind and solar year in review 2024. February 2025 // https://globalenergymonitor.org/
4. Cariaga C. Think Geo Energy’s Top 10 Geothermal Countries 2024 – Power. 20 Jan 2025. // https://www.thinkgeoenergy.com/
5. Шейхроухи Х. Перспективы геотермальной энергетики в Центральной Азии. 08.05.2024. //https://www.uzdaily.uz/
6. Кодиров Ж. Возобновляемые источники энергии – важный фактор в переходе на «зеленую» экономику. //https://uza.uz/
7. IEA (2024), Global EV Outlook 2024, IEA, Paris // https://www.iea.org/reports/global-ev-outlook-2024, Licence: CC BY 4.0.
8. Бабаева Р. Норвегия вышла в лидеры по продажам электромобилей // https://trends.rbc.ru/
9. ООН. В ООН наградили семь проектов по восстановлению экосистем. 13 февраля 2024 // https://news.un.org/ru/
10. Соколова А.А. На пути к углеродной нейтральности: глобальные намерения и локальные инициативы // International scientific and practical conference “environmental protection and scientific foundations of the “green” economy”, April 4-5, 2025. – С. 543.
11. World Bank. 2023. State and Trends of Carbon Pricing 2023. Washington, DC: World Bank. doi: 10.1596/978-1-4648-2006-9. License: Creative Commons Attribution CC BY 3.0 IGO. – P. 7-31.
12. Краснова Я.В. Концепция ESG-принципов как инструмент макроэкономического регулирования // Скиф. 2023. №2 (78). https://cyberleninka.ru/.
13. Directive (EU) 2022/2464 of the European Parliament and of the Council of 14 December 2022 amending Regulation (EU) No 537/2014, Directive 2004/109/EC, Directive 2006/43/EC and Directive 2013/34/EU, as regards corporate sustainability reporting (Text with EEA relevance) // https://eur-lex.europa.eu/
14. Moch J.M., Xue W., and Holdren J.P. Carbon Capture, Utilization, and Storage: Technologies and Costs in the U.S. Context. Environment and natural resources program | january 2022 // https://www.belfercenter.org/

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 12,25. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 20.06.2025 y. Buyurtma № 535.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025 y.